


H0 30536
3

Narzulla JO'RAYEV



11

O'ZBEKISTON
TARIXI

Narzulla JO'RAYEV

O'ZBEKISTON TARIXI

Milliy istiqlol davri

**Umumta'lim maktablarining 11-sinf
o'quvchilari uchun darslik**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tomonidan tavsiya etilgan*

**«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT—2004**

Mas'ul muharrir: huquqshunoslik fanlari doktori,
professor A.A.AZIZXO'JAYEV

Taqrizchilar:

N.ABDUAZIZOVA, tarix fanlari doktori, professor;
E.NURIDDINOV, tarix fanlari doktori, professor;
N.NORQULOV, tarix fanlari nomzodi, dotsent;
SH.RAHMATULLAYEV, tarix fanlari nomzodi, dotsent;
M.RAHIMOV, tarix fanlari nomzodi, dotsent;
D.G'ULOMOVA, ilmiy xodim;
G.G'ANIYEVA, ilmiy xodim.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshidagi O'zbekistonning yangi tarixi Markazi hamda O'zbekiston Jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasida tayyorlangan.

Darslikning metodik jihatlari Toshkent shahridagi tarix faniga ixtisoslashgan 216-maxsus o'rta maktabning oliy toifali o'qituvchisi Mavjuda Vohidova va Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi 8-o'rta maktabning oliy toifali o'qituvchisi Usmon Jo'rayevning amaliy ko'rigidan o'tkazilgan.

Shartli belgilar:



— eslab qoling!

10 30556
3




— savollarga javob bering!



— topshiriqlar ustida mulohaza yuriting
va ularni yozma ravishda bajaring!

Jo'rayev N.

O'zbekiston tarixi: Milliy istiqlol davri: Umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun darslik/Mas'ul muharrir: A.A.Azizxo'jayev. —T.: «Sharq», 2004. —272 b.



10

BBK 63.3(SU)64ya721

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004

Muhtaram o'quvchi!

Bugun Siz O'zbekiston tarixining eng yangi davrini — milliy istiqlol davrini o'rganishga kirishmoqdasiz.

Mustaqillikning ikkinchi o'n yillik davrida yashamoqdamiz. Tarixan qisqa, mazmunan asrlarga tatigulik mustaqillik davri mamlakatimiz va xalqimiz taqdirida o'chmas iz qoldirdi. Turmush tarzimiz o'zgardi. Tafakkurimiz, shuurimiz tobora kengaydi. Endi boshqacha yashash zarurati, hayotga boshqacha qarash ehtiyoji tug'ilganini chuqurroq anglay boshladik va eng muhimi, uni turmush tarzimizga aylantira boshladik.

Albatta, bunday tarixiy jarayonlarni va mamlakatning ichki va tashqi hayotida ro'y bergan tub sifat o'zgarishlarni ilmiy tahlil qilish, tarixiy xulosalar chiqarish lozim bo'ladi.

Tabiiyki, bunday hayotiy zaruriyat barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Birinchi navbatda, xalqning istiqlolga erishish yo'lidagi fidoyi mehnatini, milliy mustaqillikka erishish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribalarni, istiqlolni mustahkamlashning siyosiy, ijtimoiy kabi bir qator muhim omillarni har tomonlama mushohada qilmoqdan iboratdir.



Milliy istiqlol davri tarixini o'rganish jarayonida quyidagi muammo va yutuqlarni anglab borasiz:

- O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi.
- Yangi jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi;
- O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi;
- Insonparvar, adolatli fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi;
- Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va erkin bozor munosabatlarining qaror toptirilishi;
- Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash omillarining hayotga tatbiq etilishi.
- Ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi.
- Ta'lim taraqqiyoti, madaniy yuksalish, mamlakatimiz sportining rivojlantirilishi.
- Mamlakat milliy xavfsizligi va mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi.
- O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi va boshqalar.

Darhaqiqat, mustaqillik davrida o'tgan kunlarimizni alohida o'rganishni, tadqiq etishni, ilmiy va nazariy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda. Buning o'ziga xos asoslari bor.

Birinchidan, istiqlol yillarida O'zbekiston mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. U o'zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, boy aqliy va jismoniy salohiyati, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatini tortdi va ular bilan tengma-teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko'rsata oldi.

Ikkinchidan, eng og'ir, mashaqqatli va ziddiyatli paytlarda, o'tish davrining o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lgan bir vaqtda mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikning saqlab turilishi mamlakat hukumati siyosatining naqadar hayotiy va xalqchil ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuzdan ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatda turli aqidalar va g'oyalar ta'sirida bo'lgan aholining talab-ehתיyojlarini o'z vaqtida qondirish, ularning qarashlarini bir nuqtada jamlash alohida uddaburonlikni va qat'iyatlilikni talab etadi. O'zbekiston hukumati xuddi ana shunday qat'iyatni ko'rsata bildi.

Uchinchidan, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, dunyoviy davlat qurishning asosi bo'lgan qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash tamoyillari vujudga keldi. Tub islohotlarning o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mashhur besh tamoyili istiqlolning dastlabki yillaridayoq jahon hamjamiyatida yuqori baholandi va to'la tan olindi.



O'zbekistonning mustaqillik davri tarixini yoritishda quyidagi manbalar asos qilib olindi:

- ♦ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- ♦ Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlar;
- ♦ Prezident Islom Karimovning asarlari, nutq va maqolalari.

Vatanimiz tarixining asrga tatigulik voqealarga boy davrini o'rganish orqali milliy istiqlol davrining ulug'vor talablari-yu vazifalari bajarilishi jarayonlarining guvohi bo'lasiz. O'zbekistonning milliy istiqlol davri tarixini o'rganish va ongimizga singdirish har birimizda xalqimizning milliy g'oyalariga sodiqlik, axloqiy, ma'naviy va vatanparvarlik fazilatlarini tarkib toptiradi.

MUSTAQIL O'ZBEKISTON DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

1—2-§§. DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI

O'zbek xalqining mus- taqillik uchun intilishi

(XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan bir qis-
mida misli ko'rilmagan hodisalar sodir bo'ldi.
«Sotsializm» deb atalgan totalitar tuzum, «kommu-
nistik mafkura» deb atalmish zo'rvonlik va tazyiqqa asoslangan mafkura tanaz-
zulga uchradi. Bunday «kommunistik mafkura»ni butun jahonga, Yer yuziga
yoyishni da'vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham jarga quladi.
Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalar tom ma'nodagi mustaqil davlat
maqomini oldilar.

Turkiston tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida turli shakldagi bo'li-
nishlarga, uning xalqi o'zgalar tomonidan tahqirlanishga, kamsitilishlarga duchor
bo'lgani hammamizga ma'lum.



Xalqimizning ahamoniylar, grek-makedoniyaliklar zulmiga, arablar
istilosiga, mo'g'ul-tatar bosqinchiligiga qarshi va nihoyat chorizm mus-
tamlakachiligiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakatlari tarix sahi-
falarida abadiy qolgan.

**Ayni chog'da, yaqin o'tmishda, sovet hokimiyati yillarida o'zbek xalqi
Markazga tobeligiga qarshi, aniqrog'i, O'zbekiston milliy mustaqillikka erishish
uchun tarixiy vaziyatga qarab goh oshkora, goh pinhona tarzda kurash olib borgan.**

Biz bunday kurashlarni yangidan-yangi manbalar orqali tobora chuqurroq
anglab bormoqdamiz. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz azal-azaldan o'z fikri-zikri
bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun tinimsiz intilgan.

Xalqimiz intilgan mus- taqillik o'zi nima?

Tenglik bo'lmagan joyda kim kimgadir tobe bo'ladi.
Mutelik bor joyda hukmronlik, o'zgalar hisobiga
yashash kabi illatlar paydo bo'ladi. Biz so'nggi bir
yarim asr mobaynida boshimizdan o'tkazgan mustamlakachilik davrida shunday
bo'lgan edi. «Tenglik» so'zining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro munosa-
batlaridan tortib, mamlakatlararo munosabatlargacha hamma narsani me'yor-
mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki ortiqcha tobeliklarga chek qo'yadi. Tenglik
bor joyda hech kim hech kimdan kam bo'lmaydi.

Mustaqil yashashga, mustaqil fikrlashga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'z
hayotini o'zi izga solishga qodir odam ziddiyatlarni osonlik bilan yengadi, dunyo-
ning shiddatli muammolar bo'hroni qarshisida dovdirab qolmaydi. Ana shu oddiy
hayotiy haqiqatni davlat mustaqilligiga ham qiyoslash mumkin.



Demak:

- ♦ Mustaqillik — tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam.
- ♦ Mustaqillik — mustamlakachilikning har qanday shaklini, u taqozo etadigan to'siqlar va zo'ra vonliklarni inkor etadi.
- ♦ Mustaqillik — o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlariga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir.
- ♦ Mustaqillik — jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir.
- ♦ Mustaqillik — erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir.
- ♦ Mustaqillik — tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror top-tirish mezonidir.
- ♦ Mustaqillik — harakatlarning, intilishlar va qobiliyatlarning kuchayishini taqozo etadigan ma'naviy qudratdir.

**Totalitar tuzum.
Illatlar va saboqlar**

Dastlab Chor Rossiyasi, undan so'ng qizil saltanat mustamlakachiligi yillarida O'rta Osiyoda ulug' davlatchilik va milliy mustamlakachilikka asoslangan totalitar tuzum xalqimizni qator illatlarga duchor qildi.



Mustamlakachilik va totalitar tuzum davrida:

- ♦ bu o'lkadagi xalqlar milliy o'zligini yo'qotdi, ijodiy yaratuvchanlikdan begonalashdi;
- ♦ ular mustaqil fikrlashdek ulkan iqtidoridan mahrum bo'ldi;
- ♦ ular ongida tobelik, qaramlik, boqimandalik, befarqlik illatlari shakllandi va fe'l-atvorga aylandi;
- ♦ ular faqat bitta narsani — o'zlarini va bola-chaqalarini ochlikdan asrab qolish uchun mehnat qiladigan jonzotga aylana bordi.

Sho'rolar zamonida vatandoshlarimiz o'z mehnatlaridan bahramand bo'lish imkoniyatlari umuman yo'q edi. Shunchaki zamona zo'ri tufayli ishlar va mantiqsiz yashar edilar. Binobarin, aql bilan ish tutish, voqelikni idrok qilish, bunyod etish, yaratish tuyg'ulari butunlay so'ndirilgan edi. Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, odamlar turmush darajasi pasayib borardi. Ana shuning o'zi totalitar tuzum illatlarini ko'rsatadi.

Sobiq Ittifoqda 1985-yil apreldan boshlab M.S.Gorbachev boshchiligida amalga oshirilgan qayta qurish siyosati Sho'ro mustamlakachiligi saltanatini saqlab qolishga qaratilgan so'nggi samarasiz va makkarona urinish edi. U saltanat tarkibiga kirgan Ittifoqdosh respublikalarning milliy mustaqillikka erishuvlariga yo'l qo'ymaslikni maqsad qilib qo'ygan edi.

1991-yil 19—21-avgustda Moskvada G.Yanayev boshchiligida sodir etilgan davlat to'ntarishiga urinish esa, ulug'davlatchilik, shovinistik va zo'ra vonlik o'tkazish siyosatini chuqurlashtirishga va mamlakatda diktatorlik tuzumini o'rnatishga intilish bu jarayonning yakuni bo'ldi.

Istiqlol yillarida «mustaqillik», «hurriyat» degan soʻzlar butun jozibasi bilan birga beqiyos qudratini, buyuk oʻzgartiruvchilik moʻjizasini koʻrsatdi. Mustaqillik dunyoqarashlarimizni tubdan oʻzgartirib, fikrimiz, tafakkurimizni boyitmoqda.



Mustaqillik sharofati bilan oʻzbek xalqi:

- ♦ dunyoga kengroq va tiyrakroq nazar bilan qarashni;
- ♦ bu koʻhna olamda shoʻro tuzumidan boshqa adolatli tuzumlar ham borligini;
- ♦ boshqacha yashash ham mumkin ekanligini;
- ♦ «kommunistik mafkura»dan boʻlak ezgu gʻoyalar ham borligini;
- ♦ inson qadru qimmatini himoya qiladigan mezonlar ham mavjudligini angladi.

Zotan, istiqlolning buyuk mohiyati, beqiyos qadriyati ham ana shundadir. Mustamlakachilikning kishilik tarixida anduh va kulfatlar yogʻdirgan beqiyos fojiasi — uning insonni mustaqil fikrlashdek ulkan iqtidoridan mahrum etganida. Mustaqillik ana shu insoniy fojining achchiq mazmunini ochib berdi.

Ozodlikka intilishning kuchayishi

(XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning oʻrnida bir necha mustaqil davlat tarkib topdi. Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga boʻlinib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi.

Koʻpgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayonga aylandi. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi. **«Xalqlarning ozodlik, mustaqillik, baxt-saodatga azaliy intilishi, oʻz taqdirini oʻzi belgilashga azmu qarori hayotdagi chuqur oʻzgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir»**, — degan edi Islom Karimov.

80-yillar oxirida respublika ijtimoiy hayotida jonlanish boshlandi. Odamlar xilma xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora aytib olish imkoniyatiga ega boʻla boshladilar. Oʻzbek xalqining dildagi gʻoya — mustaqillik gʻoyasi edi, xalq mana shu gʻoyani koʻtardi. Mustaqillik uchun harakatda yangi toʻlqin boshlandi. Ammo yurtimizda hukmron boʻlgan Markazdan yuborilgan «kadrlar toʻdasi», ularning qosh-qovogʻiga qarab ish yuritadigan ayrim mahalliy oʻjiz rahbarlar bu gʻoyaga, uni amalga oshirishga toʻsqinlik qildilar. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan yana qatagʻonlik uyushtirildi, toʻqib chiqarilgan «paxta ishi» bahonasi bilan oʻn minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildilar va ularning aksariyati qamaldilar. Tarix taqozosi bilan **Islom Abdugʻaniyevich Karimovdek** fidoyi insonning 1989-yil iyunda Oʻzbekistonning birinchi rahbari lavozimiga saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berilishiga olib keldi, adolat tiklandi.



Islom Karimov xalqning xohish-irodasini bajarib, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish ishiga boshchilik qildi. 1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining o'n birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi.

Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida o'zbek tili to'la amal qilishi qonunlashtirildi. Bu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami bo'ldi.



Islom Karimovning sayi-harkatlari natijasida markazdan yuborilgan «kadrlar to'dasi»ga zarba berildi, ular O'zbekistondan birin-ketin chiqib ketishga majbur bo'ldilar. O'zbekistonda rahbar kadrlarni markazdan yuborish, markazning roziligini olish «tajribasi»ga chek qo'yildi. Respublika rahbar kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish ishini o'z tasarrufiga oldi.

Bu ham O'zbekistonning Mustaqillik sari borayotganini ko'rsatuvchi dalillardan biridir.

Shu davrlarda SSSRdek «buyuk imperiya» davlatida shunday vaziyat vujudga keldiki, «Zo'ravonlikka asoslangan, ma'muriy buyruqbozlikka xos bo'lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdosh respublikalar suvereniteti ta'minlanadimi?» — degan masala dolzarb bo'lib qoldi. Biroq, o'sha davrdagi davlat rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishishga intilishning tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va Hukumati ham inqiroziy holatdan chiqishning yo'lini topa olmay qoldi. Xullas, 80-yillar oxiri va 90-yillarning boshlariga kelganda markaz va ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro'yi pasayib ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayoti boshqarilmay qoldi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy ahvoldan xalqning kun sayin turmush darajasi yomonlasha borib, noroziligi orta boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi izdan chiqdi. Bu hol tabiiy ravishda xalqning ko'zini ochdi, endi u eskicha buyruqbozlik usulini qabul qila olmay qoldi.

90-yillarga kelib respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning o'zi ko'rsata boshladi. Bunday holat sobiq SSSRda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham o'z ifodasini topdi.

1990-yil 6-avgustda mamlakat Prezidenti M.Gorbachevning «Yangi Ittifoq Shartnomasining asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq Dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida» farmoni e'lon qilindi. Bu vazifani bajarish uchun SSSR va RSFSR rahbarlari tomonidan komissiya tuzuldi. Komissiyaga 1990-yil sentabridan kechikmasdan Hukumat Dasturini ishlab chiqish topshirildi.

1990-yil 4-sentabrda SSSR Oliy Kengashining IV sessiyasida SSSR Ministrlar

Sovetining Raisi N.Rijkov «Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida» ma'ruza qildi. Unda deputatlarning avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsa-da, sessiya Hukumat Dasturini qabul qilmadi. Buning muhim sababi deputatlarda Hukumatga nisbatan ishonch yo'qola borgan edi. Ayni chog'da, Hukumat Dasturi sobiq Ittifoqni saqlab qolishni, shuningdek iqtisodiyotni sotsialistik yo'ldan rivojlantirishni ko'zda tutar edi.

Ayni paytda, 1990-yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Sovetining II sessiyasi S.Shatalinning «500 kun» Dasturini qabul qildi. Dastur fuqarolarning mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin iste'mol bozori va unda erkin narxni joriy etishni, korxonalarga mustaqil iqtisodiy faoliyat huquqini berishni, ittifoqdosh respublikalarning mutlaq suvereniteti, aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni ko'zda tutar edi.

Shunga qaramasdan, SSSR Oliy Soveti 1990-yil 21-sentabrdagi IV sessiyasida har ikkala Dasturni ham qabul qilmadi. 1990-yil 24-sentabrda sessiya «Xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari»ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va S.Shatalin Dasturidan iborat Yagona Dastur ishlab chiqishni topshirdi. 1990-yil 18-oktabrda sessiya: «Bozor iqtisodiyotiga o'tish jahon amaliyotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yo'nalishiga ziyon yetkazmaydi», — deb xulosa berdi.



Demak, 80-yillar oxiriga kelib, hayotning o'zi mamlakat xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishni kun tartibiga qo'ya boshladi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi. Biroq, bu davrda iqtisodiyot orqaga qarab keta boshladi va xalqning turmush tarzi, sharoiti yomonlasha bordi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazulga yuz tuta boshladi.

Bu holatni SSSR ijtimoiy-siyosiy hayotida vujudga kelgan quyidagi kuchlar manfaatlarining to'qnashuvi yanada chuqurlashtirmoqda edi.

Birinchi kuchlar — N.Rijkov va V.Pavlov Dasturi tarafdorlari. Ular sobiq SSSRni saqlab qolish, xalq xo'jaligini markazdan boshqarish, huquqni ko'proq markazda to'plash niyatida edilar. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishda sotsialistik yo'ldan voz kechmaslikni talab qilar edilar.

Ikkinchi kuchlar — S.Shatalin guruhi a'zolari tarafdorlari. Ular SSSRni tarqatib yuborish, ittifoqdosh respublikalar o'rnida suveren, mustaqil Davlatlar tuzish, cheksiz xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiyashtirish, kolxoz va sovxozlarni tugatib, fermer xo'jaliklari tuzishni ko'zda tutdilar. Bu mohiyatan iqtisodiy rivojlanishning sotsialistik yo'lidan voz kechishni bildirar edi.

Uchinchi kuchlar — bu M.Gorbachev Dasturini quvvatlovchilar. Ular murosa yo'lini qidirib, yuqorida tilga olingan har ikki dastur yo'nalishlarini uyg'unlashtirish va SSSRni saqlab qolish, markazlashgan ma'muriy buyruqbozlik hokimiyatini yo'qotmaslik g'oyasini ilgari surar edilar. Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash ham shu maqsadlarga yo'naltirilgan edi. Jumladan, Yangi Ittifoq Shartnomasida mamlakat nomini ham «Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi» deb emas, «Mustaqil

Sovet Respublikalari», «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi» deb atash to'g'risidagi takliflar ham o'rta tashlana boshladi.



Shunday qilib, sobiq SSSRning ijtimoiy taraqqiyotida uchta kuch — totalitarizmga qaytish, burjuacha transformatsiya va sotsialistik yo'nalishdagi demokratik kuchlar to'qnashib qolgan edi. Tabiiyki, bular mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tanazzulning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonning Yangi Ittifoq Shartnomasiga munosabati

Ziddiyatlar avj olgan bir sharoitda O'zbekiston rahbariyati bu yo'nalishlarning nomaqbul ekanligini aniq-ravshan ko'rdi va respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'lini mustaqil tarzda o'zi belgilay boshladi. Avvalo, «O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasi»ni tayyorlashga kirishildi. Konsepsiya respublika Reja Davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qo'mitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Unga ko'ra, «O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy prinsiplari» ishlab chiqildi va u 1990-yil 17-oktabrda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi.

1990-yil 29-oktabrda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi III sessiyasida bu masala yuzasidan Hukumatning hisoboti eshitildi. Oliy Kengash sessiyasi vujudga kelgan ahvoldan chiqishning yo'li — respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jadallashtirishdan iborat, deb hisoblandi.

Shuning uchun ham sessiya respublika Hukumati Dasturini ma'qulladi va O'zbekiston Ministrlar Sovetiga O'zbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlashni topshirdi. Shuningdek, 1991-yilning 1-iyunigacha O'zbekiston Oliy Kengashiga iqtisodiy tizim masalalari va yer, yer osti hamda boshqa tabiiy boyliklarni, ishlab chiqarish korxonalarini O'zbekiston SSR mulkiga o'tkazish bo'yicha Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarishlar to'g'risida Qonun loyihasini kiritish vazifasi qo'yildi.



Respublika Hukumati Dasturiga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tishning asosiy yo'nalishlari qilib belgilandi:

- ♦ Mustaqil davlat bo'lmish O'zbekiston boshqa respublikalar bilan muvofiqlashtirilgan mustaqil ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni, xalq xo'jaligini o'zi boshqarish va o'zini o'zi pul bilan ta'minlash sohasida suveren huquqlarini amalga oshiradi, xo'jalik turmushi va madaniy turmushdagi milliy o'ziga xoslik saqlanib qolishini ta'minlaydi;
- ♦ boshqa respublikalar bilan o'z iqtisodiy aloqalarini ekvivalentlik va o'zaro manfaatdorlik asosida mustaqil hal etadi, bu aloqalarni mamlakatning yaxlit xalq xo'jalik kompleksi doirasida o'zaro shartnomalar va bitimlar bilan tartibga soladi.

Umuman, O'zbekiston rahbariyati SSSR Hukumatiga O'zbekistonning shoshilinch bozor iqtisodiyotiga o'tish to'g'risidagi ko'rsatmasiga e'tiroz bildirib, bu respublika sharoiti uchun birdaniga to'g'ri kelmasligini va bozor iqtisodiyotiga avvalo aholini, birinchi navbatda, uning kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy kafolatlab, asta-sekin o'tish borasida O'zbekiston o'zi mustaqil harakat qilishini ma'lum qildi.

1990-yil 29-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati «Ittifoqning Yangi Shartnomasi va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish Dasturining asosiy qoidalari va yo'l-yo'riqlariga nisbatan respublikaning tutgan o'rni to'g'risida»gi masalani ko'rib chiqib, bu borada shoshilmaslik joizligini yana bir bor ta'kidladi. Oliy Kengash Rayosati Ittifoqning Yangi Shartnomasini tuzish hamda boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi bo'yicha tayyorlangan takliflarning birinchi turkumini chuqur o'rganib chiqish va muhokama qilish uchun O'zbekiston Oliy Kengashi, Kompartiya Markaziy Qo'mitasi, O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi va boshqa tashkilotlarga yubordi.



Yangi Ittifoq Shartnomasi loyihasi darhol respublika tomonidan quvvatlanmadi, bunda birinchi navbatda, O'zbekistonning milliy manfaatlari himoya qilinishi nazarda tutildi. «U O'zbekistonning siyosiy suverenitetiga zarar yetkazmaydimi?» — degan nuqtai nazardan kelib chiqqan holda uni imzolash ko'zda tutildi.

O'zbekistonning iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitet uchun amaliy harakatlari

O'zbekiston hukumati iqtisodiy mustaqillikni amalga oshirishni nazarda tutadigan muayyan konsepsiya ishlab chiqdi. Konsepsiyaga binoan SSSR markaziy idoralardan farqli o'laroq, 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshida O'zbekiston dadillik bilan iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitetni qo'lga kiritish uchun amaliy harakat qila boshladi. Ayni chog'da O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi va siyosiy suverenitetini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish uchun ham aniq choralar ko'rildi. Bu borada xalqning xohish-irodasi hisobga olindi.

Masalan, 1989-yil 20-oktabrda o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida «O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish» to'g'risidagi masala maxsus muhokama etildi. Sessiyada shu masala yuzasidan respublika Oliy Kengashi Raisi doklad qildi. Ma'ruzada O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonun davlat mexanizmining hamma bo'g'inlari Oliy Kengashga bo'ysunishini nazarda tutishi alohida ta'kidlandi.



Respublika Oliy Kengashiga eng oliy nazorat qiluvchi idora sifatida O'zbekiston SSRning yuqori mansabdor shaxslarini, shu jumladan, Oliy Kengash Raisini saylash, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisini, hukumat a'zolari va boshqa rahbar lavozimdagi kishilarni tasdiqlash yoki tayinlash va zarur bo'lganda ularni muddatidan oldin lavozimidan chaqirib olish huquqi berildi. Hukumatning bir yilda kamida bir marta



Oliy Kengash oldida hisob berishi majburiy qilib qo'yildi. Shuningdek, Oliy Kengash byudjetni nazorat qilish, ministrlk va idoralar ishini tekshirish, deputatlar so'rovini muhokama qilish masalalarini ham ko'rib chiqadigan bo'ldi.

Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartirishlar respublika davlat hokimiyatining oliy idorasiga mustaqil davlat oliy idorasiga xos zarur vakolatlarni berdi. Ayni chog'da, bu vakolatlar uning adolat buzilgan hamma joyda zudlik bilan adolatni tiklashi, jamiyat turmushida yuz berishi mumkin bo'lgan noxush hodisalarning oldini olish imkoniyatini ham berdi.

Qonun yana shunisi bilan ahamiyatli ediki, Respublika Oliy Kengashini O'zbekistonning Ittifoqda erkin, har tomonlama rivojlanishi uchun kafolat beradigan vakolatlar bilan ham ta'minladi. Ilgari bu vakolatlarning ko'pchiligi faqat Ittifoq idoralarining huquqi hisoblanar edi. Masalan, 102-moddada mulkchilik munosabatlarini, xalq xo'jaligini va sotsial-madaniy qurilishni, byudjet-moliya sistemasini, mehnatga haq to'lashni, narx belgilashni, soliq, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni, shuningdek, bir qancha boshqa ijtimoiy munosabatlarni qonun yo'li bilan respublikada tartibga solish ko'zda tutilgan edi. Shuning uchun ham Konstitutsiyaga kiritilgan bu qo'shimchalar deputatlar tomonidan yakdillik bilan kutib olindi.



Respublika rahbariyatining O'zbekistonning siyosiy suverenitetini ta'minlashga qaratilgan qat'iy pozitsiyasi I.Karimov tomonidan 80-yillar oxiridan boshlab bir necha marta ko'ndalang qilib qo'yildi. Jumladan:

- ♦ O'zbekiston rahbari KPSS MKning 1989-yil 20-sentabrdagi Plenumida dadil tarzda: «Biz ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz»,— deb ta'kidladi.
- ♦ O'zbekiston KP MKning 1990-yil 23-martdagi Plenumida I.Karimov: «Siyosiy sistemani yangilash masalalarini O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi muammolaridan ajralgan holda qarash mumkin emas. Bizda mustaqillik uchun shart-sharoit bor»,— degan fikrni bildirdi.

Darhaqiqat, 80-yillarning oxirlaridan boshlab respublikada iqtisodiy va siyosiy suverenitet uchun qadam-baqadam chora-tadbirlar ko'rildi. Masalan, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi 1989-yil 25-noyabrda bo'lgan «O'zbekiston SSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990-yilgi Davlat plani to'g'risida»gi masalani muhokama qilgan ekan, respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlarni belgiladi.

O'zbekistonning siyosiy tizimidagi o'zgarishlar

1990-yil 23-martda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumida O'zbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi.

Plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqozo qilayotganligini ko'rsatib, real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan,

uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari kengashlariga berilishi, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Prezident muassasasining joriy etilishi — respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi.

O'zbekiston Kompartiyasi MK Plenumi Prezidentlik lavozimini tashkil etishni respublika Oliy Kengashi sessiyasiga taklif qildi.



1990-yil 24-martda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Kengashining XII chaqiriq birinchi sessiyasi O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti etib sayladi.

O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan dadil qadamlardan dastlabkisi edi. Chunki, uzoq yillar mobaynida yig'ilib qolgan milliy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojlanish muammolari bu vaqtga kelib nihoyatda keskin tus olgan edi. O'zbekiston oldidagi mana shu dolzarb muammolarni hal etishda Prezident lavozimi keng imkoniyat ochadi.

Shu tariqa Prezident eng qiyin va qonli to'qnashuvlarni boshdan kechirgan xalq oldida butun mas'uliyatni ochiq-oydin o'z zimmasiga oldi.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi

1990-yil 18-iyunda o'z ishini boshlagan O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasi O'zbekistonning mustaqillikka erishishidagi navbatdagi muhim qadamni qo'ydi. Mazkur sessiyada Oliy Kengash deputatlari faollik ko'rsatdilar. 200 dan ortiq deputat sessiya boshlanishidayoq «Mustaqillik Deklaratsiyasi» muhokamasi masalasini kun tartibiga kiritish va kechiktirmasdan shu sessiyada uni qabul qilishni qat'iy talab qildilar.

Natijada «Mustaqillik Deklaratsiyasi» haqidagi masala sessiyaning kun tartibiga kiritildi. Sessiyaning uchinchi kunida «Mustaqillik Deklaratsiyasi» deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.



Shunday qilib:
1990-yil 20-iyunda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasida «O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi (*1-ilova*).

Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

O'zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat

ramzlari tayyorlash va qabul qilish ishlari ham dadil boshlab yuborildi. 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi.

Respublika Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Prezidenti Farmonlari, hukumat qarorlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular respublikaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil rivojlanish yo'liga bevosita qaratila boshladi.

O'zbekiston rahbariyati va xalqining mustaqillik sari dadil qadam qo'yayotganligini 1991-yil 17-martda o'tkazilgan SSSR umumxalq referendumini tashkil etish va uning yakunlarida ham yaqqol ko'rish mumkin. Shu maqsadda 1991-yil 20-fevraldagi O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati yig'ilishida SSSR Oliy Soveti tomonidan referendum uchun belgilangan asosiy byulleten bilan birga «O'zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo'lib qolishiga rozimisiz?» degan savol qo'yilgan qo'shimcha byulleten kiritishga qaror qilindi.



1991-yil 17-martda o'tkazilgan umumxalq referendumida qo'shimcha byulleten bo'yicha 9,2 milliondan ortiq kishi yoki referendumda qatnashganlarning 94 foizi yoqlab O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo'lishini qo'llab ovoz berdi.

Shunday qilib, bu referendumda O'zbekiston xalqining mutlaq ko'pchiligida O'zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko'rish xohishi borligining o'ziyoq respublika rahbariyatining bu boradagi dadil kuch-g'ayratini qo'llab-quvvatlash ifodasi edi.

1991-yil 22-iyulda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati «O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysinuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish» to'g'risida yana bir tarixiy ahamiyatga molik qaror qabul qildi.

O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatdan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaati ifoda etilganligi bilan ajralib turardi. Bularning barchasi O'zbekiston SSR Prezidenti I.Karimov, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va Hukumati tomonidan O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, milliy suvereniteti sari dadil qadamlar tashlanganligining dalilidir.



1. Mustaqillikka intilish g'oyasi xalqimiz hayotida tarixan qanday rol o'ynagan?
2. Mustaqillik nima? Davlat mustaqilligi-chi?
3. O'zbekiston xalqlari hayotida mustamlakachilik qanday illatlar qoldirdi?
4. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning ahamiyati haqida so'zlang.
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning obyektiv zaruriyat ekanligini tushuntiring.
6. «Yangi Ittifoq Shartnomasi»ni tuzishdagi harakatlar qanday natija berdi?
7. Iqtisodiy mustaqillik uchun amaliy harakatlar natijalari haqida so'zlab bering.

8. Iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlovchi huquqiy asoslarni yaratishda qanday choralar ko'rildi?
9. «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi, mohiyati va ahamiyati haqida so'zlang.
10. O'zbekistonda o'tkazilgan birinchi umumxalq referendumida qo'shimcha byulleten bo'yicha qanday masala ovozga qo'yildi? Referendum yakunining tarixiy ahamiyati nimadan iborat?



1. 1-ilovada keltirilgan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» matnini tahlil qiling va u haqdagi fikr-mulohazalaringizni daftaringizga yozing.
2. «Mustaqillik sari ilk qadamlar» deb nomlangan quyidagi jadvalni to'ldiring:

№	Mustaqillik sari ilk qadamlar	
1.	Siyosiy sohada	1. 2. ...
2.	Iqtisodiy sohada	1. 2. ...

3-§. DAVLAT SUVERENITETINING E'LON QILINISHI

Davlat to'ntarishiga urinish. O'zbekiston Hukumatining unga munosabati

80-yillar oxiri va 90-yillar boshida mamlakatda vujudga kelgan inqirozdan qutulish, hokimiyatni markazda saqlab qolish tarafdorlari o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalari, SSSR xalq deputatlari syezdi va Oliy Sovet sessiyasi minbarlaridan keng foydalandilar. Hatto, g'ayrikonstitutsiyaviy yo'llar orqali davlat to'ntarishi qilish bilan bo'lsa-da, barcha huquqni Markazda to'plash, avvalgi ma'muriyat buyruqbozlik usulini saqlab qolishga harakat qilaverdilar.



1991-yil 19—21-avgustda Moskvada davlat to'ntarishini amalga oshirishga urinib ko'rildi. «Favqulotda Holat Davlat Komiteti» tuzilib, SSSR Prezidenti M.Gorbachev zo'rvonlik bilan o'z vazifasidan chetlashtirildi. Fitnachilar Prezident vakolatlari vitse-prezident G.Yanayevga o'tkazilganligini e'lon qildilar.

Fitnachilarning maqsadi Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga, o'z taqdirlarini o'zlari hal qilishlariga yo'l qo'ymaslik edi.

Butun mamlakat uchun fojiali bo'lgan o'sha kunlarda O'zbekiston rahbariyati, partiya, sovet tashkilotlari, korxon va xo'jaliklarning rahbarlari xalq saylagan deputatlar, barcha sofdil kishilar, xalqni sabr-toqat va osoyishtalikka da'vat qildilar. Ular barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, respublika hududida favqulodda

holat joriy etilishiga yo'l qo'ymaslik, Konstitutsiyaga qarshi davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi ig'vogarona harakatlarga uchmaslik uchun o'zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar.

Faollar bilan uchrashuvlarda, respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiyasiga va konstitutsion tuzum qoidalariga rioya qilinajagi aytili. Xalqqa Markazdan har qanday ko'rsatmalar, turli va'dalar berilishi, dag'dag'alar qilinishiga qaramay, respublika o'z siyosiy yo'lidan qaytmasligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Hindiston safaridan qaytgan hamonoq — 19-avgust kuni kechqurun Toshkent shahrining faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtai nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati Markazdan beriladigan qonunga xilof bo'lgan har qanday ko'rsatmalarni bajarishni man etdi. 20-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati, O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinib, O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Bayonotda respublikada vaziyat barqaror ekanligi va favqulotda holat joriy etishga xojat yo'qligi ta'kidlandi. Unda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston «Mustaqillik Deklaratsiyasi» qoidalarini amalga oshirish yo'lida boraveradi, deb ko'rsatildi.

Shu kuni O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi. Murojaatda O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligi yana bir bor alohida uqtirildi.



Prezident I.A.Karimovning respublika aholisiga murojaatida quyidagilar qat'iy ta'kidlandi: «O'zbekiston Respublikasi, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon birovning gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q. Bu yo'l bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir».

Shuningdek, Murojaatda turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi ixtiloflarni hal etish uchun kuch ishlatish, eng avvalo, harbiy kuch ishlatishni ochiq-oydin qoralandi. Prezident xalqni og'ir sinovlardan o'tayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo'lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jiplashishga chaqirdi.



1991-yil 21-avgust kuni O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan «Favqulodda Holat Davlat Komiteti»ning O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

Islom Karimov «Favqulodda Holat Davlat Komiteti» faoliyatiga o'z munosabatini bildirmagan, qo'rqqoq va prinsipsiz mavqeda turgan KPSS Markaziy

Komiteti Siyosiy Byurosi va Kotibiyati yuz minglab kommunistlarning sha'ni va qadr-qimmatini zarba ostiga qo'rganini qoraladi. Buning ustiga respublika kommunistlarini chalg'itishga va davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlashga majbur qilishga urinish bo'lganini oshkora aytdi. I.Karimov bundan buyon KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosining tarkibida qola olmasligi to'g'risida Bayonot berdi. Mazkur Bayonotni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Byurosi va Markaziy Nazorat komissiyasi Rayosati ma'qulladi.



O'zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi Farmoniga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi Qo'mitasi qonuniy ravishda O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi, prokuraturasi, adliya organlari, ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi.

O'zbekiston — mustaqil davlat

Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosa-batlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqa, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni taklif qildi.


Respublika Oliy Kengashi Rayosati 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihagini tayyorlash hamda 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.



O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Partiya nazorat komissiyasining 1991-yil 28-avgustda bo'lgan qo'shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MK bilan aloqasini to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlardagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

Ana shunday vaziyatda O'zbekiston Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Prezident I.A.Karimov ma'ruzasi tinglandi. U o'z nutqida 1991-yil o'rtalarida Markaziy Hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 19—21-avgust kunlari Moskvada «Favqulodda Holat Davlat Komiteti» a'zolarining odamlar boshiga azob-uqubatlar solishganini, butun-butun xalqlarning ozodligini, respublikalar mustaqilligini yana kishanlamoqchi bo'lganliklarini xalqqa ro'yi-rost bildirdi. Alg'ov-dalg'ovli kunlarda ham O'zbekistonning o'z yo'li va maqsadi borligi, bu xalq manfaatiga mos yo'l ekanligi, qanday qilib bo'lmasin, undan qaytmastigi aytil-



di. Prezident Oliy Kengashga O'zbekistonning mustaqilligi to'g'risidagi Qonunni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif etdi.



1991-yil 31-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi sessiyasi bir ovozdan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi (*2-ilova*). O'zbekiston SSRning nomi «O'zbekiston Respublikasi» deb o'zgartirildi. So'ngra «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti» qabul qilindi (*3-ilova*).

Oliy Kengash mazkur Bayonot orqali xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, respublika xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat — O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasi qaror qabul qilib, unda: «1-sentabr — O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin»,— deb belgilab qo'yildi (*4-ilova*).

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun o'z mohiyatiga ko'ra respublika uchun vaqtincha Konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadan iborat bu Qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

Bunday Qonunning qabul qilinishi Mustaqillik uchun kurashning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida eng muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ushbu Qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabrda bo'lib o'tgan yettinchi sessiyasida Konstitutsiyaviy Qonun maqomi berildi. Jumladan, unda shunday deyiladi:

1. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi amaldagi Konstitutsiya moddalari «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning qoidalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin.

**O'zbekiston mustaqil-
ligining umumxalq va
jahon jamoatchiligi
tomonidan qo'llab
quvvatlanishi**

Respublika hukumati mamlakat aholisining milliy mustaqillikni nechog'lik qo'llab-quvvatlashini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Ana shu munosabat bilan 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengashning sakkizinchi sessiyasida O'zbekiston

Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. Qarorda quyidagilar belgilangan edi:

1. 1991-yil 29-dekabr yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazilsin.

2. Referendumda ovoz berish byulleteniga masala quyidagi tarzda kiritilsin: «Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'qullaysizmi?».



1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan umumxalq referendumiga 10 millionga yaqin kishi yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94 foizi qatnashdi. O'zbekiston Respublikasini mustaqil davlat deb e'lon qilinishini yoqlab 9,7 million kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98 foizi ovoz berdi.

Referendum butun respublika hududida qonun asosida tashkiliy jihatdan uyushqoqlik, fuqarolarning yuksak siyosiy faolligi bilan o'tdi. Buni referendumda AQSH, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlardan kelgan betaraf kuzatuvchilar ham tasdiqladilar.

O'zbekistonning mustaqil respublika deb e'lon qilinishi faqat mamlakat xalqi emas, balki jahon jamoatchiligi tomonidan ham qoniqish bilan kutib olindi.

Dunyoning taraqqiy topgan va yetakchi davlatlari milliy davlat mustaqillikka erishgan O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatish, o'z elchixonalarini ochish, u bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarini olib borishga intildilar. O'zbekiston milliy davlat mustaqilligini 4 oy mobaynida 60 dan ortiq davlat tan oldi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bilan 170 dan ortiq mamlakat diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

O'zbekiston o'z suverenitetini qo'lga kiritgandan so'ng bu haqda respublika ichkarisida ham, uning tashqarisida ham ayrim kishilar turlicha qarashlarni ilgari surdilar. Jumladan: «O'zbekiston osongina, kurashsiz mustaqil bo'lib oldi»,— degan fikrlar paydo bo'ldi. To'g'ri, 1991-yilning o'rtalariga kelib sobiq SSSRning yemirilishi, Ittifoq hukumati esa boshqaruv jilovini qo'ldan chiqarib yuborganligi tufayli mustaqillikka erishish uchun qulay tarixiy shart-sharoit paydo bo'lgan edi. Shu bilan birga, tarixiy tajribalardan ma'lumki, o'ta murakkab rahbarlik siyosatining muhim jihatlaridan biri — hal qiluvchi qadamni to'g'ri belgilash, faqat qulay vaziyat vujudga kelgandagina qat'iy harakat boshlashdan iborat edi.

O'zbekistonning yangi rahbariyati ana shunday vaziyat vujudga kelganda donolik bilan harakat qildi, eng qulay paytdan dadillik bilan foydalanib, respublikaning davlat mustaqilligini e'lon qildi.

Konstitutsiya va davlat ramzlari — mustaqillik asosi

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, milliy valyutani joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish g'oyasi Oliy Kengashning 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasida ilgari suril-

gan. Sessiyada Prezident I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunolar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan Konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada, 1992-yil bahorida Konstitutsiya loyihasining 149 ta moddadan iborat yangi varianti ishlab chiqildi va u 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi nihoyatda keng ko'lamli bo'lib, yuksak ijodiy ko'tarinkilik va ishchanlik kayfiyatida o'tdi. U jamiyatimizda chinakam demokratiya qaror topishining yorqin namoyishi bo'ldi. O'z ruhi va mazmuni jihatidan muhokama davlat va jamiyat hayotining o'ta muhim masalalari bo'yicha butun xalqning umumiy suhbatiga aylanib ketdi. Loyiha qizg'in hamda manfaatli muhokamasi xalqimizning o'zi mustaqil O'zbekiston Asosiy Qonunining bevosita ijodkori bo'lganligini ko'rsatdi.

Qariyb ukki oy davom etgan umumxalq muhokamasidan so'ng bildirilgan taklif va mulohazalar umumlashtirildi va loyiha ushbu taklif va mulohazalar asosida qayta tuzatilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O'zbekiston xalqining irodasini bevosita aniqlash, shuningdek, muhokama davomida to'plangan boy materiallarni har tomonlama chuqur o'rganish va umumlashtirish, uni davlatning mujassam Asosiy Qonuni sifatida ifodalash imkonini berdi. Asosiy Qomusimiz mustaqilligimizning mevasi, mahsuli sifatida dunyoga keldi.



1992-yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining to'qqizinchi sessiyasida 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilingan kun — 8-dekabr mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o'zining xalqaro talablar va me'yorlar doirasida qiyofasini ko'rsatmog'i, buning uchun esa o'zining butun imkoniyatlarini, o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi davlat ramzlarga ega bo'lmog'i lozim edi. Odatda, ramzlar shunchaki ranglar yig'indisidan iborat bo'lgan shakllar emas, ular ayni ana shu davlatning va shu mamlakat fuqarolarining o'zligidan kelib chiqqan, qolaversa, davlat siyosatining mazmun mohiyatini o'zida mujassam etmog'i kerak.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida, Davlat gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qarorlar qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlash, Oliy Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog'i, Davlat madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, sessiyaga taqdim etish topshirildi.



1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sakkizinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

1992-yil 2-iyulda Oliy Kengashning o'ninchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

1992-yil 10-dekabrda Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi Farmoniga muvofiq 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so'm muomalaga kiritildi.

Shunday qilib, qisqa fursat ichida O'zbekiston mustaqilligini belgilovchi asoslar yaratildi.

Mustaqillik — o'zbek xalqining olamshumul yutug'i

Mustaqillik bu in'om emas, balki butun xalqning, millionlarning uzoq yillik intilishi tufayli qo'lga kiritilgan buyuk g'alaba. Zotan, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga ega bo'lganligi buyuk tarixiy ahamiyat-

ga ega voqea hisoblanadi.

Mustaqillik qo'lga kiritilishining yutug'i nimalardan iborat? Mustaqillik tufayli biz nimaga ega bo'ldik?



- ♦ Mustaqillik tufayli o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi, egasi, xo'jayini bo'lib qoldi.
- ♦ O'zbekiston mustaqilligi respublikada adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurish uchun yo'l ochib berdi, o'z milliy davlatchiligini barpo qilishga imkoniyat yaratdi.
- ♦ Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston xalqaro miqyosda o'zini tanitish, ayni choqda xalqaro huquq me'yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jahon xaritasida O'zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.
- ♦ Mustaqillik tufayli iqtisodiyotda tub o'zgarishlar qilish uchun imkoniyat yaratildi, ya'ni jahon amaliyoti isbotlagan bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun sharoit vujudga keldi. Mulkka munosabat tubdan o'zgarib, jamiyatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun imkoniyatlar ochildi.
- ♦ Mustaqillik xalqning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurt tarixi, qadimiy madaniyat tiklana boshladi. Xalqning azaliy urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini unga qaytarib berildi. Dinga munosabat mutlaqo ijobiy tomonga o'zgardi.

Bular xalqimizning asrlar davomida intilgan va uni qo'lga kiritgan buyuk olamshumul yutuqlaridir.

Shunday qilib, mustaqillik o'zbek xalqi tarixida tamoman yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi. Xalq yengil nafas olish imkoniyatiga ega bo'ldi. U endi kelajakka ishonch bilan qaray boshladi. O'z yurtining to'la xo'jayini ekanligini, o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyatini qo'lga kiritganligini his qila boshladi.



1. «Favqulodda holat davlat komiteti»ning maqsadi nima edi?
2. «Favqulodda holat» yuz berganda O'zbekiston rahbariyati qanday yo'l tutdi?
3. O'zbekiston milliy davlat mustaqilligi qachon va qay tarzda e'lon qilindi?
4. 2-ilovada keltirilgan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunni tahlil qiling va fikr-mulohazalaringizni ayting.
5. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti»da qanday masalalar ilgari surilgan?
6. O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqilligiga nisbatan jahon hamjamiyatining munosabati qanday bo'ldi?
7. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari va milliy valyuta nima uchun kerak? Ular qachon qabul qilindi?
8. Mustaqillik o'zbek xalqining olamshumul yutug'i ekanligini asoslab bering.



2-4-ilovalarda keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligini qo'lga kiritishga oid hujjatlarni tahlil qiling va xulosalaringizni daftaringizga yozing.

4-§. ISLOM KARIMOV — MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING BIRINCHI PREZIDENTI

**1991-yil 29-dekabrda-
gi Prezident saylovi.
Uning natijalari**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladi. O'zbekistonda davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli mazkur tizim o'zagini

tashkil etdi.

1991-yil oxirida O'zbekiston hayotida tom ma'noda ulkan tarixiy voqea sodir bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi sakkizinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga ikki nomzod — O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasidan **Islom Abdug'aniyevich Karimov** hamda «Erk» Demokratik partiyasidan **Saloy Madaminov** (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

Respublikaning barcha hududlarida saylov uyushqoqlik bilan, qonunlarga qat'iy amal qilinishi holda saylovchilarning yuksak faolligida o'tdi. Saylov puxta tashkil etilgani, saylovlarning o'tkazilishi va uning natijalarini hisoblab chiqish qonun asosida adolatli tashkil etilgani MDH mamlakatlari, shuningdek AQSH, Turkiya Malayziya va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlardan kelgan betaraf kuzatuvchilar tomonidan e'tirof etildi.

Saylovlar yakuniga ko'ra, 8,5 milliondan ortiq kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1,2 million saylovchi (12,3 foiz) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.



Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi.

1992-yil 4-yanvarda O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov quyidagicha qasamyod qildi: «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman, respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman».

Prezident saylovi natijalari o'zbek xalqining mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yutuqlari I.A.Karimovning shaxsi, dono siyosati, tashabbuskorligi va fidoyiligining yaqqol dalili edi (*5-ilova*).

1995-yil 26-martdagi umumxalq referendumi. Uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning natijasini, davlatimizning xalqaro maydonda obro' e'tiborini, jahon taraqqiyotiga qo'shayotgan munosib hissasini mamlakat fuqarolari ham, xorijdagi siyosatdonlar va davlat arboblari ham tan oldilar.

Tarixan g'oyat qisqa muddatda qo'lga kiritilgan yutuqlar mazmun-mohiyati va butun ko'lami bilan bir necha o'n yilliklarga teng. Zotan, qisqa fursatda jamiyatni tubdan o'zgartirish, huquqiy demokratik davlatni vujudga keltirish turmushimizga demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Ana shu keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26-martda Prezident I.Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazishga qaror qildi.



1995-yil 26-martda o'tkazilgan umumxalq referendumida O'zbekiston xalqi mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishni yoqlab ovoz berdi.

O'tish davridagi murakkab, ziddiyatli, keng miqyosli islohotlar avj olgan bir paytda davlat boshqaruvidagi izchillikning saqlab turilishi, boshlangan og'ir va xayrli ishlarni bir me'yorda olib borish va oxiriga yetkazish jamiyat hayotida ham, fuqarolar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Oliy Majlisning mamlakatda Prezident vakolatini 2000-yilgacha cho'zish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazish to'g'risida qabul qilgan qarori va shu qaror asosida 1995-yil 26-martda o'tkazilgan umumxalq referendumida katta siyosiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

2000-yil 9-yanvardagi Prezident saylovi yakunlari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tdi. Bu kun mustaqil O'zbekistonimiz tarixida asrlar tutashgan paytda sodir bo'lgan, davlatimizning XXI asrdagi hayotiga va taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan muhim siyosiy voqea sifatida muhrlanib qoladi. Bo'lib o'tgan saylovning ahamiyati uning muqobillik va demokratik tamoyillar asosida o'tganligidadir. Saylovchilarga tanlash imkoniyati berildi va ular o'z xohish-irodasiga binoan, o'zi tanlagan nomzod uchun ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalaridan kelib tushgan bayonnomalar asosida shuni aniqladiki, 9-yanvarda bo'lib o'tgan saylovda ro'yxatga olingan 12,7 million saylovchidan 12,1 millioni ishtirok etdi. Bu esa ro'yxatga olingan saylovchilar umumiy miqdorining 95,1 foizini tashkil etadi. Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan **Islom Karimov** uchun saylovchilarning 91,9 foizi ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolovga 4,2 foiz saylovchi ovoz berdi.



2000-yil 9-yanvarda o'tkazilgan Prezidentlikka saylov yakuniga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq Islom Abudug'aniyevich Karimov yana 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi.

2002-yil 27-yanvarda- gi umumxalq referen- dumi. Uning natijalari

Rivojlangan mamlakatlarda (deylik, Amerika Qo'shma Shtatlari, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlarda) Prezident almashinuvi yoki saylovlari va boshqa siyosiy hodisalar oddiy fuqarolar yoki umuman jamiyat hayotida keskin burilishlarga sabab bo'lmaydi. Chunki, ular uchun aniq qonunlar asosida o'zlarini o'zlari boshqarish hayot tarziga aylanib qolgan. Demak, amaldagi qonunlar bo'yicha faoliyatlarini davom ettiraveradilar. Prezident esa, jamiyat taraqqiyotining umumiy yo'nalishlarini, davlat siyosatining asosiy tamoyillarini yangi tarixiy sharoitlarda, yangicha ehtiyojlar nuqtai nazaridan boyitib boradi, xolos.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda esa vaziyat ancha murakkab. Har qanday davlat siyosatida, endigina shakllanayotgan boshqaruv tizimi va qonunchilikda izchillikning saqlab turilishi tabiiy va samarali hodisa sifatida baholanadi.



2002-yil 27-yanvar kuni «Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirilishiga rozimisiz?»,— mavzuida umumxalq referendumi o'tkazildi. Referendum yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirildi. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti vakolati muddatini 2007-yilgacha cho'zishga qaror qilindi.

Milliy davlat mustaqilligining qo'liga kiritilishi va uning yanada mustahkamlanishi, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish sari boshlangan yo'l, fuqarolarning huquq va erkinliklarining himoya qilina-yotganligi, bozor iqtisodiyoti islohotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligi, mamlakatda mulkchilikning turli shakllarining vujudga keltirilganligi, kuchli ijtimoiy siyosatning amalga oshirilganligi, fan, ta'lim va madaniyat sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar, milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish sari tutilgan yo'l, milliy xavfsizlikning ta'minlanganligi, muttasil tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik va millatlararo hamjihatlikning saqlanib turishi kabi yutuqlarning barchasida islohotlar boshida turgan Prezident Islom Karimovning xizmatlari yuksak ekanligini O'zbekiston xalqi bo'lib o'tgan referendum va saylovlarda namoyon qildi.



1. O'zbekiston Prezidenti qanday Konstitutsiyaviy maqomlarga ega?
2. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun qaysi sessiyada va qachon qabul qilindi?
3. 1991-yil 29-dekabrda Prezident saylovi va uning natijalari haqida so'zlab bering.
4. Prezident qasamyodida nimalar deyilgan?
5. 1997-yil 26-martda qaysi masala bo'yicha umumxalq referendumi bo'ldi? Uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini qanday izohlaysiz?
6. 2000-yil 9-yanvarda o'tkazilgan Prezident saylovi qanday natijalar berdi?
7. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi haqida nimalarni bilasiz?
8. I.Karimov Prezidentligi davrida O'zbekiston Respublikasi erishgan yutuq va muvaffaqiyatlarini aytib bering.



1. 5-ilovadagi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti haqida keltirilgan ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Prezident I.Karimovning o'n bir jildlik asarlaridan birini tanlang, unda qo'yilgan g'oyalarni tahlil qiling va fikr-mulohazalaringizni daftaringizga yozing.

5-§. O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS TARAQQIYOT YO'LI

O'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlash zarurati

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki, sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda mamlakatda barpo qilina-jak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulchilik, mulkka egalik va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etardi.

Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo'lgan tayyor andozalari hech qachon bo'lmaydi. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma'ri-

fiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistondagi qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Biroq, vaqtni boy bermay, tezkorlik bilan ish tutish kerak edi. Shuning uchun ham «mustaqil O'zbekiston tug'ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o'zi yurishga majbur edi».

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Hatto, sobiq markazdagi ayrim karomatgo'ylar O'zbekistonga nisbatan «O'zlaringni mustaqil boshqarishga, mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram millatsizlar», deb kamsitishsa, mamlakat ichkarisidagi ayrim toifalar o'rtasida «Endi O'zbekiston qanday yo'ldan boradi? Qanday jamiyat quradi? Markazsiz yashay oladimi? Respublikada barqarorlik ta'minlanadimi?»— qabiladagi savollar vujudga kelgan edi. Unga har kim o'zicha javob qidirar edi.



Ziddiyatli va murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andozasini ishlab chiqish g'oyat dolzarb va ahamiyatli edi. O'z navbatida bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor me'yorlari shuni taqozo etardi.

Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali qismini o'zlashtirish bilan birga O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'analari ham tayanish lozim edi. Shuning uchun tub yangilanishlar yo'nalishlarini belgilar ekan, Prezident I.Karimov O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kundan oq, «jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir» — degan edi.

Albatta, mamlakat uchun hayot-mamot bosqichi bo'lgan bir paytda uning yangi jamiyatga o'tishi bilan bog'liq vazifalarni bajarish davlat rahbaridan yangi sharoitga mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy asosini vujudga keltirishni taqozo qilardi. Aholining barcha toifalarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g'oyalar tizimini yaratishni talab etardi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li ana shu tarzda tanlandi.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari

Prezident I.A.Karimov O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, o'tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan tajribadan saboq chiqardi. U O'zbekistonning chinakam mustaqilligini ta'minlash yo'llarini ishlab chiqishda avvalo respublikani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga oldi. Bu xususiyatlar va shart-sharoitlar nimalardan iborat?

Birinchidan, o'zbek xalqi azaldan jamoa bo'lib, uyushib yashashga odatlangan,

to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda bir-biriga ko'maklashgan. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatish, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik, o'zgalarga yordam tuyg'usi o'zbek xalqiga tarixan xosdir.

Ikkinchidan, O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari yildan-yilga o'sib boruvchi mintqa hisoblanadi. Mamlakat aholisining 60 foizidan ko'prog'i qishloq joylarida istiqomat qiladi va ularning asosiy qismi dehqonchilik sohasida ishlaydi.

Uchinchidan, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda uning qulay geografik-siyosiy imkoniyati hisobga olindi. Demakki, mintaqalararo aloqalar, dunyoviy integratsiyani yo'lga qo'yishga kirishildi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya masalasini hisobga olish lozimligini ham ko'rsatib berildi.

Sho'rolar davrida kishilar ongida ijtimoiy tenglik tushunchasi, ya'ni yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan fikr shakllanib, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan, mulkka egalik tuyg'usidan uzoqlashgan edi.

Beshinchidan, mustaqil O'zbekiston siyosatini belgilashda islom diniga munosabatni tubdan o'zgartirish lozim edi.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini himoya qilish va ta'minlash imkonini beradigan boy moddiy-ma'naviy hamda ishlab chiqarish potensialiga va kadrlar qudratiga ega mamlakat ekanligidir. Endi hamma gap ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanishda edi.

Ushbu xulosalar I.Karimov tomonidan muntazam to'ldirilib, qadam-baqadam yangi qoida va yo'l-yo'riqlar bilan boyitib borildi.



O'zbekiston mustaqilligining bir yilligi arafasida xalqimizga tuhfa etilgan Prezidentning «O'zbekistonning o'z istiqolol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida O'zbekiston istiqololining ham nazariy, ham amaliy muam-molari ilmiy jihatdan o'rganilib, jamiyat siyosiy rivojining, iqtisodiy taraqqiyotining, ma'naviy poklanishining asosiy yo'l-yo'riqlari yangicha mushohada va yondashuv bilan ko'rsatib berildi.

Taraqqiyotning «o'zbek modeli»

O'zbekiston o'z taraqqiyotining eng maqbul yo'lini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga e'tibor berdi va uning fikricha, O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha «izm»lardan va u qanday nomlanishidan qat'iy nazar, adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim edi.

Shuning uchun ham, respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. «Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish — bosh vazifadir», deb uqtirdi Prezident. Bu boradagi fikrini davom ettirib I.Karimov «O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat. Bu — mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu — insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining man-

baidir», degan qoidani ilgari surdi. Bu mustaqillikning bir yilligi arafasidayoq qat'iy qilib o'rtaga tashlangan davlat siyosati edi.



Mamlakat prezidenti I.Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida yangilangan jamiyatda yashovchi kishining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo'llarni ko'rsatib berdi.

Bu yo'llar **siyosiy sohada — bu:**

- ♦ xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq ishtirok etishi lozimligini;
- ♦ hokimiyat bo'linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;
- ♦ jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni;
- ♦ barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta'minlashni;
- ♦ bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;
- ♦ demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni shakllantirishni;
- ♦ O'zbekistonda tug'ilib, uning zaminida yashayotgan, mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e'tiqodidan qat'iy nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo'lishga erishishni bildiradi.

Iqtisodiy sohada — bu:

- ♦ milliy boylikning ko'payishini ta'minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;
- ♦ ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni;
- ♦ mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;
- ♦ iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmasdan korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni bildiradi.

Ijtimoiy va ma'naviy sohada — bu:

- ♦ insonparvarlik g'oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishini;
- ♦ ma'naviyatni qayta tiklashni;
- ♦ o'zbek tilini rivojlantirishni;
- ♦ hurfiylik, vijdon va din erkinligini qaror topdirishni;
- ♦ ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari — keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlashni;
- ♦ odamlarning iste'dod qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilishni bildiradi.

Prezident I.Karimovning O'zbekistonni huquqiy demokratik davlat sifatida qaror toptirishning yuqoridagidek dasturiy qoidalari, mamlakatning bozor munosabatlariga o'tishi, ichki va tashqi siyosatni shakllantirish tamoyillari, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlari jahon tajribasini yanada rivojlantirdi va ularni yangi qoidalar bilan boyitdi.

Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyili

Prezident yangilanayotgan jamiyat mazmun-mohiyatini ko'rsatish bilan birga dolzarb vazifa qilib, eng avvalo bozor iqtisodiga o'tish masalasini qo'yadi.

Chunki, faqat iqtisodiy baquvvat davlatgina kuchli bo'ladi va u har qanday islohotlarga qodir bo'lishini chuqur tushunar edi.

Shuning uchun ham I.Karimov «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» risolasida (1993) «O'zbekiston o'zi uchun tanlab olgan yo'li ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.

Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma'naviy axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin», deb qat'iy ko'rsatib bergan edi.

I.Karimov mazkur asarida mamlakatning dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy tamoyilni o'rtaga tashladi:



Birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish lozim.

Ikkinchidan, o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi shart.

Uchinchidan, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish.

Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlar talablarini hisobga olgan holda, yaqin o'tmishimizdagi «inqilobiy sakrash»larsiz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Ana shu muhim beshta tamoyil O'zbekistonning mustaqil rivojlanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olindi, yangi jamiyatga o'tish davrining negizini tashkil etdi. O'tgan davr mobaynida bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minladi.

Shu bilan birga, I.Karimovning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish haqidagi tamoyili vaqt o'tgani sayin o'zining hayotiy qiymatini, siyosiy kuchini ko'rsatdi. Binobarin, bular yetakchi tamoyillar sifatida tan olindi. Chunki, ular iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantig'ini, rivojlanish yo'lini va xarakterini belgilab berdi.

Darhaqiqat, O'zbekistonning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi bir tomondan, avvaldan meros bo'lib qolgan barcha ijobiy tajribalarni chuqur o'zlashtirish imkonini berdi, ikkinchi tomondan esa isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratib berdi. Bu bosqichlarning har biri uchun konkret maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishga sharoit yaratdi. Aniqrog'i, bu tamoyil «yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik» haqidagi xalqning dono fikriga asoslanganini ko'rsatadi.



1. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlash zarurati nimalardan iborat?
2. O'zbekistonni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari nimalardan iborat?
3. Taraqqiyotning «O'zbek modeli» deganda nimani tushunasiz?
4. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyili nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga jahon jamoatchiligining munosabatlari qanday bo'lmoqda?
6. O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li haqidagi o'zingizning fikringiz?



O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning besh tamoyili mohiyatini ochib bering va ularni quyidagi jadvalga yozing:

№	Iqtisodiy islohotlarning tamoyillari	Tamoyillarning mohiyati
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		

SIYOSIY ISLOHOTLAR. MILLIY DAVLATCHILIK POYDEVORINING BARPO ETILISHI

6-§. QONUN CHIQUARUVCHI HOKIMIYATNING SHAKLLANISHI

Huquqiy davlat sari

O'zbekiston Respublikasining bosh maqsadi —
huquqiy demokratik davlat barpo etishdan iboratdir.



Huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- ♦ Jamiyat faoliyatining yuridik asosini belgilovchi barcha qonunlar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'zini oqlagan jahon standartlari darajasida bo'lmog'i va demokratik tamoyillarga javob bermog'i kerak.
- ♦ Davlatda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi ta'minlangan bo'lishi lozim. Ya'ni qonun oldida barcha teng bo'lishi, qonun jamiyatning barcha a'zosiga barobar daxldor bo'lmog'i darkor.
- ♦ Huquqiy demokratik jamiyatda Konstitutsiya va qonun amaliy kuchga ega bo'ladi. Konstitutsiya va qonunlar amalda ishlamagan va harakatda bo'lmagan jamiyatda demokratiya ham, albatta, bo'lmaydi.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat yaratishning nazariy-ilmiiy asoslari va amaliy muammolari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va Prezident Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» va boshqa ko'plab asarlari, nutq va ma'ruzalarida ilgari surilgan.

Prezident I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida: «Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak», deb ko'rsatgan edi. Ayni chog'da siyosiy sohada bu: «... Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini davlat idoralarinig tuzilishini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati hamda mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirishi mumkin», deb ta'kidlagan edi.

Huquqiy davlat fuqarolarining huquqiy ongi va madaniyati yuksak bo'lmog'i lozim.

Oliy Majlisi shakllantirishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatlarning bo'linish tamoyili keltirilgan.



O'zbekistonda davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatiga bo'linishi qonunlashtirilgan.

Uch hokimiyatdan har biri mustaqil faoliyat yuritadi. Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi» deyilgan. Bu vazifani bajaruvchi vakillik organlarini parlament deb ham yuritiladi. Parlament fransuzcha «*Parlement/Parle*» so'zidan olingan bo'lib, «*gapirmoq*» ma'nosini anglatadi.

Ayni paytda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlarning 185 tasidan 160 tasida Parlament instituti mavjud. Bu mamlakatlardagi parlamentlar o'z shakl-tamoyillari, tuzilishlari, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o'z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o'rni, mavqei, unga saylangan vakillarning soni va hatto, nomlanishlari bilan ham bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Masalan, AQSHda 535 deputatdan iborat Kongress, Rossiyada 626 deputatdan iborat Federal Majlis, Turkiyada 550 deputatdan tashkil topgan Buyuk Millat Majlisi, Shvetsiyada 349 deputatdan iborat RIKS, Misrda 454 deputatdan iborat Xalq Majlisi, Isroilda 120 a'zodan iborat Knesset faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda esa 120 deputat va 100 senat a'zosidan iborat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyat ko'rsatadi.



1994-yil 22-sentabrda bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq o'n oltinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi.

«O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunida Konstitutsiyaning 76-moddasi mazmuni yanada rivojlantirildi. Oliy Majlis o'z vakolatiga berilgan har qanday masalani muhokamaga qabul qilish huquqiga ega ekanligi ta'kidlandi. Konstitutsiyaning 77-moddasida O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalilik asosida besh yil muddatga saylanishi ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasining 25 yoshga yetgan har bir fuqarosi Oliy Majlisga saylanish huquqiga ega.

Bu qonunlar demokratik tamoyillarga asoslangan qonunlardir. Mazkur hujjatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyat sohasida tub islohotlarni amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo'yildi.

Birinchidan, shu vaqtga qadar O'zbekistonda sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan ayrim qonun va me'yoriy hujjatlar hamon amalda edi, ulardan butunlay voz

kechish lozim edi. Chunki ularning mazmun va mohiyati yangilanayotgan davlat va jamiyat oldida turgan tub maqsadlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilar edi.

Ikkinchidan, O'zbekiston o'z oldiga adolatli huquqiy demokratik davlat qurish, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotga asoslangan yo'lidan borish va insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifasini maqsad qilib qo'ygan edi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, milliy ozodlik harakatlari orqali mustaqillikka erishgan va taraqqiyot yo'liga kirgan boshqa qator davlatlar qonunchilik tajribasidan foydalanishni talab etardi.

Uchinchidan, mustaqil taraqqiyot yo'lida vujudga kelayotgan milliy-davlatchilik tizimi har qanday mafkuraviy ta'sirdan xoli, xalqning o'ziga xos tarixiy, axloqiy-ma'naviy va ruhiy qadriyatlariga mos bo'lmog'i lozim edi.

Oliy Majlis saylovlari

1994-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, shuningdek, mahalliy kengashlarga deputatlar saylovlarini Qonun talablari asosida o'tkazish uchun mamlakat bo'yicha 250 okrug va 7192 uchastka saylov komissiyasi tuzildi. Ular tarkibiga mehnat jamoalarida obro'-e'tibor va hurmat qozongan, partiyasiz bo'lgan munosib kishilar kiritildi. Saylovlarga nomzodlar qo'yishda ko'ppartiyaviylik va muqobillik Qonunda belgilangan tartibda ta'minlandi. Oliy Majlis deputatligiga 139 saylov okrugida uch-tadan, 106 saylov okrugida ikkitadan nomzod ovozga qo'yildi. Saylovda ro'yxatga olingan 11,2 million saylovchining 93,6 foizi, ya'ni 10,5 milliondan ortiq kishi o'z konstitutsion huquqidan foydalandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqirig'i deputatligiga Xalq demokratik partiyasidan 247, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 146, hokimiyatning vakillik organlaridan 250 nomzod ko'rsatildi.



1994-yil 25-dekabrda hamma joyda saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi. 1995-yil 8-yanvarda hamda 25-yanvarda qayta saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovchilar xalqning munosib farzandlari uchun yakdillik bilan ovoz berdilar. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi.

Bu Oliy Majlisni — yangi Parlamentni demokratik yo'l bilan shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi ilk tajribasi bo'ldi.

1995-yil 23—24-fevral kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqirig'ining birinchi sessiyasi O'zbekiston tarixida istiqbolli sahilalar ochdi. Sessiyada I.A.Karimov «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» to'g'risida keng qamrovli ma'ruza qildi.

«Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston Parlamenti — Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi»,— dedi Prezident. Sessiyada parlamentchilikning demokratik asoslarini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Sessiyada rahbariyat kengaytirilib Rais va to'rt kishidan iborat Rais o'rinbosarlari saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili — Qoraqalpog'iston Jo'qarg'i Kengesi Raisi

ham yakkilik bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi o'rinbosari etib saylandi. Qonunlarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda Mandat Komissiyasi va 12 ta qo'mita tashkil etildi.

Ko'ppartiyaviylik tamoyili asosida shakllanganligi va shu tamoyil asosida faoliyat ko'rsatganligi bilan Oliy Majlis o'ziga xos xususiyatga ega bo'ldi.



Sessiya O'zbekiston Parlamenti hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasini, 14 deputat ishtirokidagi «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi.

Parlamentda faoliyat ko'rsatayotgan blok va fraksiyalar erkin fikrlash asosida siyosiy jihatdan o'zaro murosaga kelib ishlashlari lozimligi davr talabi ekanligi ta'kidlandi. Sessiya qarori bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti joriy etildi.

«O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun, «O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida»gi Qonun, Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.



Parlamentning reglamentiga muvofiq Parlament ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis Raisi rahbarligida Oliy Majlis Rayosati tuzilib, uning tarkibiga Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari, mandat komissiyasi raisi, Parlamentdagi deputatlar bloki va fraksiyalarning rahbarlari kiritildi.

Oliy Majlis faoliyatini zamon talablari asosida tashkil qilishga yo'naltirilgan mana shu tadbirlarning barchasi Parlament ishini yanada rejali, tashkiliy jihatdan puxta uyushtirish imkonini berdi. Shuningdek, sessiyalarning kun tartibini Oliy Majlis Rayosati majlislarida oldindan muhokama qilish, sessiyalarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha deputatlar ishchi guruhlarini tashkil etish, qo'mitalar va komissiyalar faoliyatini yanada aniqroq uyg'unlashtirish ham qonunlarni ishlab chiqish ishining sifatini oshirishga xizmat qildi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqirig'iga deputatlar saylovi 1999-yil 5-dekabrda ko'ppartiyaviylik va demokratik tamoyillar asosida o'tkazildi. 1999-yil dekabr va 2000-yil yanvar oyida bo'lib o'tgan asosiy va qayta saylovlar natijasida 250 deputatdan iborat O'zbekiston Parlamentining yangi tarkibi shakllandi.

Jahon miqyosida qaror topgan xalqaro andozalarga ko'ra, Parlamentda o'rin olish uchun kurash olib borgan siyosiy partiyalar va boshqa manfaatdor tashkilotlar saylovlardan so'ng mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organida o'z g'oyalari hamda maqsadlarini ifoda etuvchi va yoqlovchi deputatlik fraksiyalarini tuzdilar.

2000-yil 11-yanvar kuni bir qator siyosiy partiyalardan saylangan deputatlar o'z yig'ilishlarini o'tkazdilar. 11 kishidan iborat «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 kishidan iborat «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasi, 10 kishi-

dan iborat «Milliy tiklanish» partiyasi fraksiyasi, 34 kishidan iborat «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi fraksiyasi o'z rahbarlarini sayladilar.

2000-yil 11-fevral kuni Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi o'z ishini boshladi. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisi O'zbekistonda qonun ustuvor bo'lgan huquqiy demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqur-lashtirishga qaratilgan yaratuvchilik faoliyatini olib bormoqda.

Qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish tamoyillari

Qonunlarni ishlab chiqish jarayonida Oliy Majlis qo'mitalarining butun tarkibi ishtirok etadi. Qonun loyihalarini tayyorlash bo'yicha maxsus ishchi guruh-lari tuzilib, ularga olimlar va mutaxassislarni kengroq

jalb etish kabi xalqaro tajribasidan ham foydalanilmoqda.



Sessiya muhokamasiga kiritiladigan barcha qonun loyihalarini Oliy Majlis Raisi va uning o'rinbosarlari huzurida tegishli qo'mitalar, Kotibiyat, bo'limlar rahbarlari, ishchi guruhlarining a'zolari va ekspert-lar ishtirokida oldindan sinchkovlik bilan puxta va atroflicha muhokama etish qonunchilik ishidagi maqbul jihat ekanligini ko'rsatdi.

Ishning bu tarzda yo'lga qo'yilishi qabul qilinayotgan hujjatlarning sifatiga ijo-biy ta'sir eta boshladi.

I.A.Karimov Oliy Majlisning birinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida (1996-yil 29-avgust) «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari» mavzuida nutq so'zlab bunday degan edi: «**Demokratlashtirish va turmushimizning barcha sohalorida tub islohotlar o'tkazish jarayoni uzoq va uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini aniq bilib olishimiz kerak... Bugungi kunda gap, eng avvalo, siyosiy islohotlarni chuqurlashtirishning vazifalari va Dasturi to'g'risida borishi kerak**». Prezident shu bois: «**Oliy Majlisning navbatdagi vazifa — qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yor va standart-larga muvofiq holatga kiritishdan iborat**», deb uqdirdi.

O'zbekiston Parlamentining birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida (1995-yil 23-fevral) ta'sis etilgan Oliy Majlis huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha Vakil insti-tuti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan inson huquqlari va erkinligiga so'zsiz rioya etilishini, bu me'yorlar muqarrar sur'atda amalga oshiri-lishini ta'minlashdan iborat xalqaro amaliyotda o'zini oqlagan tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Vakillik huzurida tuzilgan maxsus komissiya, Inson huquqlari bo'yicha milliy Markaz inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini, yuksak vakolatlarga ega bo'lgan yaxlit tizimni vujudga keltiradi. Inson huquqlari bo'yicha Vakil instituti hozirga qadar xalqaro amaliyotni o'rganish asosida ishlab chiqilib, Oliy Majlis Kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bormoqda. Parlamentning yettinchi sessiyasida (1996-yil 26-dekabr) birinchi o'qishda kiritilgan va ma'qullangan «Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) to'g'risida»gi Qonun loyihasi — Oliy Majlisning faoliyat Dasturida mo'ljallangan g'oyat muhim hujjatlardan biridir. U mamlakatda insonning siyosiy, iqtisodiy,

ekologik, ijtimoiy va madaniy huquqlari puxta himoya qilinishini ta'minlaydigan institutning qonuniy asosini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qonunchilik faoliyatida yangi bosqich

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilangan yuridik huquqlar asosida o'ziga berilgan vakolatlardan foydalanib, Oliy Majlis mamlakatda qonunchilik faoliyatini yo'lga qo'yishga astoydil kirishdi va bir qator ijodkorlik ishlarni amalga oshirdi. Bu mamlakatda qonunchilik faoliyatning yangi bosqichi boshlanganligini ko'rsatar edi.

Oliy Majlis 1995—2003-yillarda 200 dan ortiq qonun va 300 dan ortiq qaror qabul qildi. Bular, shubhasiz, jamiyatimiz oldida turgan vazifalarni huquqiy jihatdan ta'minlashda muhim qadamlar bo'ldi. Umuman, qonunlarni ishlab chiqish bevosita iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini takomillashtirish va bozor munosabatlariga o'tishni jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, milliy davlatchilikni mustahkamlashga qaratilmoqda.

Keyingi yillarda sud organlari tizimini yanada takomillashtirish masalalari ham Parlamentning doimiy diqqat markazida turibdi. Oliy Majlis «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunni qabul qilib, Konstitutsiyaviy sud Oliy va Oliy xo'jalik sudi tarkiblarini saylab, mamlakatda mustahkam sud tizimini vujudga keltirish jarayonini asosan nihoyasiga yetkazdi.

Ko'ppartiyaviylik jamiyatimiz hayotida, parlamentchilikning demokratik asoslarini yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (VIII bob, 34-modda)da fuqarolarning siyosiy partiyalarga uyushish huquqi kafolatlangan. Oliy Majlis ana shu qomus asosida siyosiy partiyalarning huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunini tayyorladi va 1996-yil 26-dekabrda bo'lgan yettinchi sessiyada qabul qilindi. Qonun jamiyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan hamda kelajakda tuzilishi mumkin bo'lgan siyosiy partiyalarning o'rnini belgilab, ularning o'zaro munosabatlari, yangilanayotgan jamiyatda tutgan mavqeyi, vazifalari va huquqlarini kafolatlaydi.

Oliy Majlis iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berdi. Jumladan, Oliy Majlis tomonidan «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida» (1995-yil dekabr), «Konsessiyalar to'g'risida» (1995-yil avgust), «Erkin iqtisodiy» zonalar (1996-yil aprel), «Aksionerlik jamiyatlari hamda aksionerlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1986-yil aprel) qonunlarning, shuningdek, «Ayrim korxonalar va mol-mulkn davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ba'zi masalalari to'g'risida»gi qarorning qabul qilinishi iqtisodiy islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash yo'lidagi jiddiy tadbir bo'ldi.



Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlar:

- ♦ Mulkn xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish ko'lamini kengaytirdi.
- ♦ Bu jarayonga amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga qarashli o'rta va kichik korxonalarni ham kiritishni tezlashtirdi.
- ♦ Monopol ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlarini maydalashtirish uchun, raqobatli bozor muhitini yaratish uchun huquqiy shart-sharoitlarni vujudga keltirdi.

Bundan tashqari, Oliy Majlisda «MulK to'g'risida», «Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida» (1994-yil may), «Garov to'g'risida» (1998-yil may) va boshqa bir qator qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi. Bu qonunlar mamlakat taqdiri uchun ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalarni hal etishga, shu jumladan, o'rtta mulkdorlar qatlamini vujudga keltirishga qaratildi.

Pul-kredit tizimini, soliq siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutani mustahkamlash, pulning qadrsizlanishini kamaytirish, narxlarning barqarorligini ta'minlash maqsadida Oliy Majlis tomonidan «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida», «Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirib olish to'g'risida» (1995-yil dekabr) qonunlar qabul qilindi.

Parlament mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarning asosi qishloqdagi islohotlarga hal qiluvchi darajada bog'liq ekanligini hisobga olib, «Yer to'g'risida»gi Qonunga (1992-yil yanvar) o'zgartirishlar kiritdi, «O'simliklarning karantini to'g'risida» (1995-yil avgust) va «Naschilik to'g'risida» (1995-yil dekabr) yangi qonunlarni qabul qildi.

Oliy Majlis qo'mitalari Vazirlar Mahkamasi bilan hamkorlikda amaldagi qonun hujjatlarini ijtimoiy rivojlanish voqeligiga va iqtisodiy islohotlarning ehtiyojlariga muvofiq lashtirish borasida aniq maqsadga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirdi.

Davlat mukofotlari ta'sis etilishi

Oliy Majlis faoliyatidagi muhim yo'nalishlardan biri davlat mukofotlarini ta'sis etish bo'ldi. Ma'lumki, har bir mustaqil davlatning o'ziga xos davlat ramzlari bo'lganidek, uning o'ziga mos mukofotlari ham bo'lishi lozim. 1995-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq to'rtinchi sessiyasida «Davlat mukofotlari to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida Oliy darajadagi mukofot sifatida 1995-yil may oyida «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medali ta'sis etildi.



«O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medaliga birinchi bo'lib suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlash ishiga ho'shgan ulkan hissasi hamda bu borada matonat va jasorat ko'rsatganligi uchun O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov sazovor bo'ldi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston fuqarolaridan Bo'ron Ro'ziyev, A.N.Panin, Erkin Alimuhamedov, Muyassar Temirova, Komiljon Mamajonov, Oysha Qo'chqorova, Nikolay Kucherskiy, Ibrohim Fayzullayev, Sodiqjon Abdurasulov, Mirumar Asadov, Parda Ziyatov, Qobiljon Obidov, Abdulla Oripov, Jonsaid Turdiyev, Anvar Qurbonov, Do'stmurod Abdullayev, Abduvali Abdurahimov, Ataxon Alamatov, G'aybullax Raxmonov, Erkin Vohidov, Mavluda Ismatova, Martiya Raxmatova, Said Ahmad (Husanxo'jayev Said Ahmad), Ulug'bek Umarovlar ham «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medali bilan taqdirlandilar.

Ayni chog'da, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy hayotida ko'rsatgan jasurligi, qahramonligi, fidoiyligi va mehnatdagi faolligi uchun fuqarolar «Mustaqillik», «Amir Temur», «Buyuk xizmatlari uchun», «El-yurt hurmati»,

I—II darajali «Sog'lom avlod uchun», «Mehnat shuhrati», I—II darajali «Shon-sharaf» va «Do'stlik», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari bilan, «Jasorat» va «Shuhrat» medallari bilan mukofotlanadigan bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-apreldagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari ta'sis etildi (*6-ilova*).

Bundan tashqari, 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularning adabiyot, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi hamma jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlarini munosib taqdirlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi maxsus farmoni bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi.

Oliy Majlis faoliyatini yanada takomillashtirish zarurati

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyati, ish yuritish shakli va tartibi rivojlanib, takomillashib bormoqda. Jumladan, Prezident I.Karimov 2000-yil 25-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasida so'zga chiqdi. U sessiyada muhokama etilgan 2000—2002-yillarga mo'ljallangan Oliy Majlisning qonunchilik va nazorat faoliyatidagi ustuvor jihatlari xususida fikr bildirib, parlament ish faoliyatini yanada takomillashtirish zaruriyatini qayd etdi. Prezident xulosalariga ko'ra, belgilangan tadbirlarni amalga oshirishda, qonunchilik jarayonida deputatlar, siyosiy partiyalar va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faollik ko'rsatishlari kerak. Buning uchun xalq deputatlari o'z maqsad-vazifalarini aniq tasavvur etishlari, qabul qilinayotgan qonunlarda har doim saylovchilarning fikrlarini hisobga olishlari va himoya qilishlari lozim. Siyosiy partiyalar esa faoliyat dasturlarini yanada aniq va rejalashtirib olishlari va uni qonunchilik yo'li bilan izchil amalga oshirishga harakat qilishlari kerak. To'g'ri, aslida barcha siyosiy partiyalar amalda kelajagi buyuk O'zbekiston uchun, fuqarolarning to'q va farovon hayot kechirishlaridan iborat mushtarak maqsad uchun kurashadilar. Biroq, bu maqsadga erishish yo'llari albatta turlicha bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan I.Karimov sessiyada qonunchilik mexanizmini eng yaxshi xorijiy mamlakatlar parlamentlari tajribalarini hisobga olgan holda yanada muhim ahamiyat kasb etishiga e'tiborni qaratdi. Buning uchun huquqiy hujjatlarni tayyorlash va ko'rib chiqishning yanada takomillashgan tartibini joriy etishni taklif qildi. Davlat rahbari parlament ishini takomillashtirish zarurati to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi va kelajakda ikki palatali qonun chiqaruvchi organ tuzishni taklif etdi.

Mamlakat parlamentini ikki palatali tizimga aylantirish to'g'risidagi ushbu g'oyani hayotga tatbiq etish zaruriyatni ekanligini vaqt ko'rsatdi. Ushbu zaruriyatni hal etish masalasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq yettinchi sessiyasi (2001-yil 6-dekabr)da ko'rib chiqildi.

Ushbu sessiyada ikki palatali parlamentga o'tish bo'yicha jamoatchilik fikrini olish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida» qaror qabul qilindi.



2002-yil 27-yanvarda «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» mavzusida umum-xalq referendumini o'tkazildi. Kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Parlamenti ikki palatali qilib saylanishini yoqlab referendumda qatnashganlarning 93,6 foizi ovoz berdi.

Referendum natijalariga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida (2002-yil 4-aprel) «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi. Bu hujjat O'zbekistonning qonun chiqaruvchi oliy organi — ikki palatali parlamentning tuzilishi, tarkibi, faoliyat yuritish asoslarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini yetti yillik qilib belgilash, eng muhimi — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati poydevorini shakllantirish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tasdiqlab berdi.

Mazkur sessiyada referendum natijalariga asoslanib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi), XIX (O'zbekiston Respublikasining Prezidenti), XX (Vazirlar Mahkamasi), XXIII (Saylov tizimi) boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.



Tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII bob 76-moddasiga ko'ra:

- O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.
- O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining tarkibi, ularning vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII bob 77—80-moddalarida keltirilgan (*7-ilova*).

Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq o'ninchi sessiyasida (2002-yil 12-dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qildi. Bu qonunlar Oliy Majlis palatalarining maqomini, ularni shakllantirish tartibini, vakolatlarni, o'zaro hamda boshqa hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish tamoyillarini aniqlab berdi.

Xulosa qilib aytganda, referendum yakunlari va uning asosida qabul qilingan uchta Konstitutsiyaviy qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni yaratdi.

Milliy davlat boshqaruv tizimining barpo qilinishi

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har qanday jamiyatda davlat va boshqaruv, o'sha davlat konstitutsiyasida ko'zda tutilganidek, uning tub maqsadlariga mos bo'lishi kerak.



1990-yil 24-martda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra respublikada Prezident lavozimi ta'sis etildi.

Respublika Prezidenti lavozimini ta'xis etishdan ko'zda tutilgan maqsad:

1. Demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirish.
2. Siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash.
3. Respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy idoralarning o'zaro aloqasini takomillashtirishdan iborat edi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Konstitutsiyasi mamlakat Prezidenti haqidagi yangi — 12-bob bilan to'ldirildi.

1990-yil 15-noyabrda Prezident I.Karimov «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida» Farmon chiqardi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: «O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyat tuzilishini takomillashtirish hamda «O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish» to'g'risidagi O'zbekiston SSR Qonuniga binoan O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibi tasdiqlansin».

Prezidentning mazkur Farmoni asosida xalq xo'jaligi bir necha tarmoqlarga: 1) Dehqonchilik sanoati; 2) Xalq iste'moli mollari; 3) Qurilish-naqliyot; 4) Mashinasozlik; 5) Yoqilg'i-energetika; 6) Umumiyqisodiyot; 7) Moddiy-texnika; 8) Madaniyat ishlari komplekslariga ajratilib, uning rahbarlari belgilandi. Ular Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritildi. Prezident ayni bir paytda Vazirlar Mahkamasi Raisi bo'lib qoldi. Bu bilan Prezident va hukumat apparati birlashtirildi. Shunday qilib, Prezident ikkinchi bosqichda respublikada oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxsga aylandi. U ayni bir paytda davlat boshlig'i ham hisoblanadi. Endilikda u faqat farmonlar emas, balki qarorlar va farmoyishlar ham qabul etadigan bo'ldi.

Shu bilan birgalikda, Vitse-Prezident lavozimi ham ta'xis etilib, u Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiluvchi, uning ishini uyushtiruvchi shaxsga aylangan edi. Biroq, bu lavozim hayot sinovida o'zini oqlamadi. Shu boisdan, 1992-yil 4-yanvardagi Qonun bilan u tugatilib, O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri lavozimi ta'xis etildi. U Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiladi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasi birinchi qismiga quyidagi qoida kiritildi:

«O'zbekiston Respublikasining hukumati Bosh Vazirdan, Bosh Vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlaridan, mamlakat vazirlaridan, davlat qo'mitalarining raislaridan, yirik konsernlarning va birlashmalarining rahbarlaridan iborat bo'ladi».

O'zbekistonda Prezidentlik institutining yuzaga kelishi va takomillashuvida 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda fuqarolarning shu sohadaqi saylov huquqi, saylovni o'tkazish tartibi, Prezidentlikka nomzodlar ko'rsatish va ularni ro'yxatga olish, ovoz berish va saylov yakunlarini chiqarish tartibi kabi o'ta muhim huquqiy qoidalar o'z ifodasini topdi.



1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida shunday deyilgan:

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi.

Konstitutsiyada ko'zda tutilganidek, O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyati oliy idoralari tizimiga Prezident va Vazirlar Mahkamasi kiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi, fuqarolarni himoya qiluvchi oliy darajadagi ijroiya hokimiyati vujudga keltirildi.

Umumxalq referendum natijalari asosida 2003-yil 24-aprelda Oliy Majlis tomonidan tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari takomillashtirildi (*8-ilova*).

Tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan Konstitutsiyaning XX bobida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibi va vakolatlari bayon etilgan (*9-ilova*).

Boshqaruv tizimining Prezidentlik-respublika shakli

Prezident I.Karimov O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi o'tish bosqichida kuchli markazlashgan davlat hokimiyatini zarur va hayot taqozosi deb hisoblaydi. U bu g'oyani o'zining milliy davlatchilikni shakllantirishga doir barcha asarlari, risolalari, ma'ruza, nutq va maqolalarida nazariy-ilmii jihatdan asoslab berdi.



Boshqaruvning Prezidentlik-respublika shaklida eng muhimi — hokimiyat bo'linishini adolatli tarzda amalga oshirish imkoniyati bor. Ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyati bir-biriga daxlsiz holda ish olib boradi. Prezidentlik-respublika boshqaruvida ijro hokimiyati Prezident qo'lida bo'ladi.

Haqli savol tug'iladi: nima uchun Prezident Islom Karimov boshqaruvning ayni shu usulini tanladi? Masalaning ikki jihati bor.

Birinchidan, Sharqda azaldan davlat demokratiyaga qanchalik keng imkoniyat yaratib bergan bo'lmasin, kuchli hokimiyat mavjud bo'lgan. Eng ulug' adolatpesha davlat boshlig'i qat'iyatli, talabchan va ayni paytda mehr-muruvvatli bo'lishi bilan hammaga o'rnak bo'lgan va hamisha tinchlik, adolat va haqiqatga xizmat qilgan. Aks holda hokimiyat anarxiyaga aylanib ketishi hech gap emas.

Ikkinchidan, boshqaruvning Parlamentar-respublika usulida Prezident Parlament yig'ilishida uning a'zolari tomonidan saylanadi. Prezidentlik-respublika boshqaruvida esa u umumxalq saylovi yo'li bilan barcha fuqarolarning ovoz berishi asosida saylanadi. Bunda Prezident o'z vakolatini Parlamentning sanoqli a'zolari-dangina emas, xalq ommasidan oladi. Hozirgi zamon davlatchiligi tajribasiga

tayanib shuni alohida ta'kidlash mumkinki, boshqaruvning Prezidentlik-respublika shakli davlat boshqaruvining eng maqbul shaklidir.

Prezident Islom Karimov ishlab chiqqan mashhur besh tamoyilning biri — o'tish davrida davlat Bosh islohotchi bo'lib qolishi zarurligining mohiyati shunday paytda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ijro hokimiyati bilan davlatning jilovi bir kishining qo'lida bo'lgan taqdirda va uni parlament qonun bilan himoyalab turgan bir sharoitda mamlakatda sog'lom ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy vaziyat barqaror bo'ladi. Demak, tub islohotlarning samaradorligi, har bir fuqaro hayoti va istiqboli kafolatlangan hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, keyingi yillarda davlat boshqaruvining Parlamentar-respublika va Monarxiya shakli o'rnatilgan mamlakatlarda ham hukumat — oliy ijro idorasi asosiy o'rinni egallamoqda. Masalan, Germaniya, Italiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda ana shunday hodisa yuz bermoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston davlatchiligida qat'iy intizom bor. Uni nazorat qilib boruvchi Konstitutsiyaviy sud mavjud. Dastlab mamlakatda Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi tashkil etildi. Ma'lum muddat o'tgach bu qo'mita Konstitutsiyaviy sudga aylantirildi, Chunki, nazorat qo'mitasining mazmun-mohiyatida voqea-hodisalarni ko'zdan kechirib ularni nazarda saqlash ma'nosi yotadi. Sudda esa qat'iy talab va shafqatsiz hukm mavjud. Bunda talab ham, mas'uliyat ham oshadi.



1. O'zbekiston Respublikasida barpo etilishi maqsad qilib qo'yilgan huquqiy
2. demokratik davlatning asosiy belgilari nimalardan iborat?
3. Oliy Majlis nima? Uning vakolatlariga nimalar kiradi?
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqirig'iga o'tkazilgan saylov jarayoni va yakunlarini so'zlab bering.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqirig'iga saylov qachon
6. o'tkazilgan? Parlament tarkibidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari haqida nimalarni bilasiz?
7. Qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish tamoyillari nimalardan iborat?
8. O'zbekistonda qonunchilikning yangi bosqichida qanday vazifalar amalga oshirildi?
9. O'zbekiston Respublikasining «Davlat mukofotlari to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan? «O'zbekiston Qahramoni» va «Oltin Yulduz» medali bilan taqdirlangan kishilardan kimlarni bilasiz?
10. O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari haqida nimalarni bilasiz? O'zbekiston parlamentida ikki palatali tizimga o'tishning asosiy sabablari va mohiyatini tushuntirib bering.
11. Milliy davlat boshqaruv tizimining barpo qilinishi haqida so'zlab bering. O'zbekistonda tashkil etilgan Prezidentlik-respublika boshqaruvi tizimining mohiyati nimalardan iborat? Uning Parlamentar-respublika boshqaruvi shaklidan afzalliklarini aytib bering.



7—9-ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini tahlil qilish natijalari asosida Oliy Majlisi, Prtзидент va Vazirlar Mahkamasi vakolatini tavsiflab bering. Shu asosda quyidagi jadvalni to'ldiring.

t/r	Hokimiyat nomi	Vakolatlari
1.	Oliy majlis	
2.	Prezident	
3.	Vazirlar Mahkamasi	

7-§. MAHALLIY DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDAGI TUB O'ZGARISHLAR

Mahalliy hokimiyat tizimidagi islohotlar

O'zbekistonda qo'lg'a kiritilgan milliy davlat mustaqilligi hokimiyatning barcha tizimlarini mutlaqo qaytadan isloh qilishni taqozo etar edi. Shu bois, mustaqillik yillarida faqat oliy vakillik organlaridagina emas, balki quyi mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida ham tub islohotlar amalga oshirildi.



Mahalliy hokimiyat organlari tizimi tarkibiga: viloyat, shahar, shaharlar tarkibidagi tuman, tuman, qishloq, ovul, posyolka doirasidagi hokimiyat muassasalari kiradi.

Mamlakatda mahalliy hokimiyat organlari tizimi konstitutsiyaviy va boshqa huquqiy hujjatlar asosida tarkib topdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng boshqaruvning bu tizimida islohot o'tkazishni taqozo qilgan omillar nimalardan iborat edi?

Birinchidan, 90-yillarning boshlariga kelganda bu muassasalar o'zlarining demokratik xususiyatlarini yo'qotgan edi. Mahalliy Kengashlar o'ziga xos ravishda KPSS siyosatini hayotga tatbiq etish quroliga, aniqrog'i partiya tashkilotlari rahbarlik qiladigan bir muassasaga aylangan edi. Bunday adolatsizlikka barham berish lozim edi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni Mahalliy Kengashlar mustaqilligini kengaytirish, hududlar tizimida tub o'zgarishlar yasashni ham talab qila boshladi. Ma'lumki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida hududiy taraqqiyot ko'pincha markazlashtirilgan tarzda qayta taqsim qilinadigan davlat ajratmalari hisobiga amalga oshirilardi. Endilikda yangicha munosabatlarga o'tish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari o'z hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga bevosita mas'ul qilib belgilanishi kerak edi. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikada bir qator qonun va rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — Asosiy Qonuni (1992-yil 8-dekabr), «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun (1993-yil sentabr), «Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish idoralari to'g'risida»gi Qonun (1993-yil sentabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun (1994-yil may) kabilar muhim o'rin egallaydi. Bu qonun va rasmiy hujjatlarda mahalliy hokimiyat organlari-

ning jamiyatdagi o'rnini o'z o'rniga qo'yiladi. Ularning omma o'rtasidagi obro'e'tibori oshiriladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasida ta'kidlanishicha, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Mahalliy hokimiyat organlari qanday konstitutsiyaviy vakolat huquqlariga ega?



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagi vakolatli huquqlar berilgan:

- ♦ Qonuniyligni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash.
- ♦ Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish.
- ♦ Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish. Mahalliy komunal xo'jalikka rahbarlik qilish.
- ♦ Atrof-muhitni muhofaza qilish.
- ♦ Fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash.
- ♦ Normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi
- ♦ qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Ammo mahalliy hokimiyat organlariga berilgan bu vakolatlar chegara emas. Chunki, hayot bir yerda to'xtab turmaydi. U doimo rivojlanib, taraqqiy etib ilgariylab boradi. Shu bois, davr va zamon taqozosi talablariga ko'ra O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi ham o'z rasmiy hujjatlari bilan mahalliy hokimiyat organlariga yangi vazifalar yuklashi, yangi vakolatlar berishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti 1994-yil 24-noyabrda «Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Farmoni bilan tuman va shahar hokimiyatlariga uy-joy qurish va shaxsiy xo'jalik yuritish uchun sotish vakolatini berdi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida shunday deyilgan: «Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, xalq deputatlari quyi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar. Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasidagi qabul qilgan qarorlarni quyi organlar ijro etishi majburiydir. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolatlari muddati — 5 yil».

Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik tamoyili asosida amalga oshiradilar. Viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimiyati tomonidan

tayinlanadi va ishdan olinadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimlari tomonidan tayinlanadi va ishdan ozod qilinadi. Viloyat, tuman va shahar hokimlarining qarorlari, Xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ko'rinib turibdiki, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik idorasi bo'lib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga rahbarlik qiladilar. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari saylovini o'tkazish tartibi «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun bilan belgilanadi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga shaharlardagi tuman, shahar va viloyat Kengashlari kiradi.

Mahalliy kengashlarga saylovlar

1994-yil 25-dekabrda Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimiyatlari katta tayyorgarlik ko'rdilar.

Toshkent shahrida Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi 30 ta okrug, Xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi 60 ta okrug tuzildi. Qonunda belgilangan tartibda va tavsiya etilgan vaqtda kalendar rejasiga asosan Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi 30 ta saylov Komissiyasi va shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi 60 ta saylov komissiyasi tashkil etildi.

Saylov komissiyalari tarkibiga sanoat korxonalari, jamoat tashkilotlari, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash xodimlari va mahalla yig'inlari vakillaridan iborat 810 kishi jalb etildi.

Barcha viloyatlar qonunlarga to'la rioya qilingan holda saylovga puxta tayyorgarlik ko'rildi. Viloyat, tuman, shahar kengashlariga munosib nomzodlar ko'rsatildi. Ular orasida olimlar, huquqshunoslar, iqtisodchilar, vrachlar, o'qituvchilar, ishchi-xizmatchilar bor edi. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish demokratik prinsiplarga amal qilingan holda olib borildi. Bu jarayonda siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari ishtirokida, muqobillik asosida amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy hokimliklar, siyosiy partiyalar hamda o'z-o'zini boshqaruv organlari o'rtasida o'zaro hurmat va ijodiy fikrlashuvlar bo'lishiga katta e'tibor berildi. Siyosiy partiyalarning saylovlarda teng huquqli asoslarda ishtirok etishini ta'minlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berildi.



1994-yil 25-dekabrda va 1999-yil 5-dekabrda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda vakillik organlari bo'lmish Xalq deputatlari Kengashlariga mehnatkashlar ommasining munosib vakillari saylandilar.

Hokimliklarning tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlaridan bittasi milliy davlatchiligimiz an'alariga suyangan holda hokim-

lik institutining tashkil qilinishi bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralari qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq viloyat, tuman, shahar hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiya



hokimiyatini boshqaradigan bo'ldi. Joylarda hokimliklar joriy etildi. Mamlakatning 12 viloyati va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq deputatlari Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchiligidagi hokimliklar tashkil qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va Qoraqalpog'iston Respublikasining Qonunlari bilan tartibga solinadigan bo'ldi.

Hokimlik oldingi Kengash raisligidan yoki siyosiy partiya birinchi kotibligidan lavozim va huquqiy maqomi bilan ancha farq qiluvchi institutdir. Hokimlikda endi ko'proq mustaqillik, o'z hududida o'z hukmi va so'zining salmog'ini oshirish, xo'jalik va iqtisodiy boshqaruvda qat'iyat bilan ishlash imkoniyati kengaydi. Hokimlik usulining ixchamligi, buyruqbozlik va qog'ozbozlikning kamayishi, hayotga va ishlab chiqarishga yaqinligi bilan oldingi mustamlakachilikka va zo'ravonlikka asoslangan boshqaruv tizimi an'analari va usullaridan keskin farq qiladi.

Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim hokimliklar butun imkoniyatlari va iqtidorlarini ko'rsata olmadilar, mustaqillik sharoitida ham eskicha usul bilan ishladilar. Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi kamchiliklar islohotlarni izchil amalga oshirishga to'sqinlik qila boshladi. Joylarda odamlar rasmiyatchilik, poraxo'rlik, «sendan ugina, mendan bugina» qabilida ishlash, ta'magirlik, qonunbuzarlik holatlaridan aziyat chekish holatlari aniqlandi. Bunday salbiy hodisalarni Prezident Islom Karimov bir qator viloyatlar: Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlar kengashlari sessiyalarida, Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlarida ochiqdan-ochiq tanqid qildi. Qonun ustuvorligiga erishish borasida qat'iy mulohazalarini o'rta ta'lim tashladi.

Darhaqiqat, jamiyat hayotidagi tub burilish odamlar tafakkurida, jumladan rahbar kadrlar dunyoqarashida keskin o'zgarish yasashni taqozo qildi. Istiqloqlarning dastlabki yillari aytish mumkinki ana shunday fikriy o'zgarishlarni, jiddiy islohotlarga alohida tayyorgarlikni boshlash lozim edi. Yangi davrning yangi talablari asosida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etdi. Mustamlakachilikka asoslangan tizim barbod etilgan bo'lsa-da, uning illatlaridan darhol batamom qutilish oson emas edi. Jumladan, talon-tarojlik, odamlar haqiga xiyonat qilish, qonunsizlik ma'muriyatchilik va to'rachilik illatlari yangi tuzum ma'naviy qiyofasiga putur yetkazdi. Jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ldi. Shuning uchun ham mamlakatda mahalliy davlat hokimiyati idoralari tizimini takomillashtirishda uning ham shaklan, ham mazmunan o'zgartirishga jiddiy e'tibor berildi. Eng avvalo islohotlarni qonun bilan mustahkamlash davlat boshqaruvining yangi tizimining huquqiy negizlarini yaratish borasida qator ishlar amalga oshirildi.



Prezident siyosatining bosh yo'li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, hamma narsadan qonunni ustun qo'yish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, «fuqaro-jamiyat-davlat» tamoyilini joriy etish, ana shu yo'l bilan fuqarolar jamiyatini vujudga keltirishdan iboratdir.

Joylarda qonunni hurmat qilmaslik, uquvsizlik viloyatlar va o'nlab tuman hokimlari, mahalliy huquq organlari, savdo, tibbiyot, maishiy xizmat tarmoqlarining rahbarlari xizmat vazifalaridan ozod etildi. Bu tuzumni illatlardan tozalash, fuqarolar jamiyatini shakllantirish, insonga buyuk ne'mat sifatida qarash kabi xalqchil siyosatning amaldagi ko'rinishi edi.

O'z-o'zini boshqarish organlarining huquqiy asoslari

Mustaqil O'zbekiston sharoitida mahalla mahalliy hokimiyat organining eng quyi va eng asosiy pog'onasidir. Bu o'zbek xalqining uzoq yillik tarixiga borib taqaladi va o'ziga xos xususiyat va an'analar bilan tavsiflanadi. Umuman, Sharq mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda qadim-qadimdan ijtimoiy-siyosiy hayotda mahallalarning o'rni va roli salmoqli bo'lgan.

Mahallaning o'zi nima, u qanday ma'noni anglatadi? **«Mahalla»** — arabcha **«joy»**, **«o'rin»**, **«makon»** ma'nosini bildiradi. Darhaqiqat, mahalla azal-azaldan O'rta Osiyodagi shaharlar ichidagi hududiy birlik bo'lib, u bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan.

Konstitutsiyada va boshqa rasmiy hujjatlarda o'z-o'zini boshqarish organlarining huquqiy asoslari yuridik jihatdan qonuniy kuchga kiritilgan.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida shunday deyilgan: «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalar hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organi bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi».

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, butun mamlakat hududlari — shahar, tuman, qishloq, ovul va mahallalarda yangi turmush tarzini shakllantirishda, jamiyatda shaxsning rolini oshirishda, o'zini-o'zi idora qila olish fazilatlarini kuchaytirishda, o'z hayotini o'zi tashkil etish tamoyillarini kundalik faoliyatga aylantirishda mahalla imkoniyatlaridan foydalanish zarur edi. Respublikani tubdan isloh qilish jarayonlari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish mahalliy organlari faoliyatini o'zgartirishni, uni milliy an'analar va jahon tajribalari asosida tashkil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Respublika Oliy Majlisining 1995-yil 23—24-fevral kunlari bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida «Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan — tumanlardagi davlat va boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi», deb aytgan so'zlari g'oyat o'rindir. Bu yo'l bevosita mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllanishi va fuqarolar o'z-o'zini boshqarish tamoyilining bosh yo'nalishiga aylanib qoldi.

O'z-o'zini boshqarish organlarini tashkil qilishda 1993-yil sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasida qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun alohida

ahamiyatga ega. Tub islohotlar davrining eng muhim va dolzarb talablariga muvofiq tarzda yuzaga kelgan mazkur Qonun ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizda katta voqea bo'ldi.



«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida shunday deyilgan: «O'zini-o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini bajarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashadi, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik masalalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, mamlakat hukumatining qarorlarini bajarishda yordamlashadi».

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni ifodalovchi muhim belgilardan biri o'z faoliyatini hududiy tamoyil asosida tashkil etishdir.

Qonunda ma'lum bir hudud birlashgan jamoa o'zini-o'zi boshqarish idoralari ma'lum turar-joy mavzesi, qishloq, posyolka, ko'cha hududida tashkil etadi, deb qayd etiladi.

Qonun fuqarolar yig'inida yoki majlisida qaror qabul qilishga imkon beruvchi huquqiy me'yorlar va imtiyozlarni ko'rsatib berdi. Fuqarolar yig'ini unda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlarning kamida yarim, vakillar majlisi esa delegatlarning uchdan ikki qismi qatnashganda qonuniy kuchga kiradi. Yig'inni rais yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va u hokimga yuboriladi.

Bularning hammasi mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralari faoliyatining demokratik asoslari mahalliy sharoitga yaqinlashtirilganini, ortiqcha rasmiyatchiliklarga barham berilganini va aholining jamiyatni boshqarishda mumkin qadar ko'proq ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Fuqarolar yig'ini vakolatlari kengaytirildi. Ular qonunning 17-moddasiga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan kelishgan holda savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ish vaqtini aholiga qulay holda belgilashlari, ma'muriy komissiya tashkil etishlari mumkin. Bu mamlakatda fuqarolar faolligini oshirish, shu asosda o'z turmushini yo'lga qo'yish va jamiyat umumiy qiyofasini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992-yil 12-sentabrdagi hamda xayriya jamg'armaga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992-yil 8-oktabrdagi Farmoni mahallalarga homiylikni tashkil etishda katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Farmon mahalla qo'mitalarining o'z hududlarida istiqomat qiluvchi kambag'al oilalarga, nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida keng miqyosli ishlarga katta ko'mak berdi.

Hukumat mahallalarga dastlab byudjet hisobidan 25 million so'm mablag' ajratdi. Joylarda mahallalar rolini oshirish, ular faoliyatini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Qishloq va mahalla qo'mitalarining roli va obro'sini yanada mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi. Mamlakatda mahalla komitetlari raislari hamda kotiblariga oylik ish haqi belgilandi.

O'z-o'zini boshqarish va idora qilishning milliy modeli sifatida mustaqillik

yillarida o'zbek xalqining azaliy tarixiy udumlari, urf-odatlari va an'alariga tayangan holda haqiqatdan ham ommani har tomonlama rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashdek olijanob ishda demokratiya darsxonasi rolini bajarmoqda.



1. Mahalliy hokimiyat tizimida tub islohotlar o'tkazishni talab qilgan omillar nimalardan iborat?
2. Mahalliy hokimiyat organlari qanday konstitutsiyaviy vakolatlarga ega?
3. Mahalliy kengashlarga saylovlar qachon va qay tartibda o'tkazilgan?
4. Boshqaruvning hokimlik tizimi nimalardan iborat?
5. Siz yashayotgan tuman (shahar) hokimining faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
6. Mahallaning ijtimoiy hayotdagi o'rnini qanday baholaysiz?
7. O'z-o'zini boshqarish organlarining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
8. O'zini-o'zi boshqarish organlari oldida turgan vazifalar nimalardan iborat?



O'z mahallangizda faoliyat ko'rsatayotgan oqsoqollar kengashi ishi xususida fikr-mulohazalaringizni yozing.

8-§. KADRLAR SIYOSATIDA YANGICHA YO'L

Sho'ro tuzumi kadrlar siyosatining illatlari va saboqlari

O'zbekiston milliy davlat mustaqilligiga erishgach ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish siyosati ham Sho'rolar davri siyosati, amaliyoti, uslubi, tajribasi va an'alaridan mutlaqo voz kechmog'i va milliy mustaqil davlat talablariga mos va xos yangi kadrlar siyosatini ishlab chiqmog'i va amalga oshirmog'i kerak edi. Chunki, Sho'rolar davrida bu jarayonda olib borilgan shovinistik mustamlakachilik siyosati ulug' davlat saltanati manfaatlariga batamom bo'ysindirilgan edi. Shu boisdan, Sho'rolar davrida yuritilgan kadrlar siyosatida nazariyot bilan amaliyot o'rtasida keskin farq — nomutanosiblik yotardi. Bir tomondan rasmiy yig'ilishlarda mahalliy kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash va o'stirish xususida og'iz ko'pirtirilgan va uni hal qilish yo'llari kun tartibiga qo'yilar edi. Ikkinchi tomondan esa, amalda hayotda uning teskarisi bo'lardi. Kadrlar siyosati kaliti markazning qo'lida bo'lib, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish masalasini Moskva hal qilardi. Mahalliy millat vakillaridan qo'yilgan rahbarlar bamisoli qo'g'irchoq bo'lib, ular barcha huquqlardan mahrum edilar va mustaqil harakat qila olmas edilar. Bu qonuniy va tushunarli hol edi. Chunki, Sho'rolar tub yerli aholiga ishonmas va ularga past nazar bilan qarardilar.

O'zbekistonda Sho'rolar yuritgan siyosat mustamlakachilik siyosatining mohiyatini anglatadi. Kadr tanlashda xodimning odamlar bilan ishlash qobiliyati, kasb mahorati emas, ko'proq mustamlakachi tuzumga shaxsiy sadoqati birinchi o'ringa qo'yildi. Natijada rahbarlarning zamonaviy bilim saviyasi, siyosiy yetukligi, ma'naviy barkamolligi, odamlarni ishontirish va ergashtira olish fazilatlarini e'tibordan chetda qoldi. Oqibatda rahbarlikning barcha darajalarida kadrlarda Markaz buyrug'iga so'zsiz itoat qilish tuyg'usi tarbiyalandi. Xavfli kasallikka aylangan bun-

day holat, xususan, 80-yillar boshiga kelganda g'oyat kuchaydi. Bu davrda markazdan bo'lgan har bir qo'ng'iroq markazning «otalarcha g'amxo'rliklari», «amaliy yordami» sifatida qabul qilinadigan, ayni chog'da markazdan bo'lgan asossiz ko'rsatmalar esa so'zsiz bajariladigan holat vujudga keldi.



Sho'ro tuzumi davrida mahalliy kadrlarga nopisandlik, ishonmaslik, ularga past nazar bilan qarash odatiy tartibga aylandi va muttasil O'zbekistonga markazdan «yetuk kadr»lar yuborib turildi. Ularning mahalliy xalq tilini, tarixini, urf-odatini va madaniyatini bilmasliklariga umuman e'tibor qilinmadi.

Masalan, 1987-yilda O'zbekistonga Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa mintaqalaridan 400 dan ortiq kishi partiya, Sho'ro komsomol tashkilotlarida va ma'muriy organlarda ishlash uchun yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi va o'zbek xalqi mustaqillik bergan ulug' ne'matlaridan foydalanib o'lkamizda sho'rolar yuritgan mustamlakachilikka asoslangan kadrlar siyosatining chirkin illatlaridan tarixiy va qonuniy saboqlar chiqarishi kerak edi.

Bu eng avvalo, yuqorida ta'kidlanganidek, ilgari davlat boshqaruv idoralari tag-tomiri bilan tugatish va mutlaqo yangi milliy davlat hokimiyati idoralari barpo etish hamda ularni zamonaviy kadrlar bilan ta'minlashdan iborat edi.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlarda Vatan va millat manfaatlarini ishi uchun fidoyi va jonkuyar kadrlar yetishmas edi. Xalq xo'jaligida faoliyat ko'rsatib kelayotgan kadrlarning dunyoqarashi sho'ro mafkurasi ruhida shakllangan bo'lib, ular ongida tobelik, qaramlik, laganbardorlik, xushomadgo'ylik, tayyorga ayyorlik va shu kabi noxush illatlar mavjud edi. Davlat o'zining qattiqqo'l nazorati ostida bu kadrlar korpusi bilan ishlashga majbur edi. Ayni paytda milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalangan, kelajagi buyuk O'zbekistonni yarata oladigan kadrlarni tarbiyalab borishga ham alohida e'tibor qaratish kerak edi.

Mustaqillik davrida kadrlar siyosati

O'zbekiston Prezidenti Respublika mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlab mamlakatning istiqboldagi taqdiri kadrlarga bog'liq ekanligiga alohida e'tibor berdi. Bu Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va ilgari surilgan harakat Dasturida o'z ifodasini topganligi bejiz emas, albatta. U hozirgi davrda hukumatning kadrlar siyosatidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab berar ekan: **«Biz endi o'zini-o'zi boshqaruv usulini keng joriy qilamiz. Mahalla, qishloqqacha o'zini-o'zi boshqarish, mustaqil bo'lishi zarur. Bu beboshlik, bo'ysunmaslik degani emas. Bunda har qanday rahbar... xalq oldida, yurt oldida mas'ul va javobgardir, degan qoidadan kelib chiqishi shart»**, deb uqtirdi. Bunday ko'rsatma mamlakatda amalga oshiriladigan kadrlar siyosati uchun asos qilib olindi, qator chora-tadbirlar ko'rildi.

Mamlakatda eng avvalo, mahalliy boshqaruv organlari kadrlarini davr talabiga mos darajada mustahkamlashga kirishildi. 1994-yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi to'qqizinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralari qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.



Oliy Kengash shu xususda qabul qilgan qarorida iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish sharoitida ijroiya hokimiyatni mustahkamlash zarurligi munosabati bilan quyidagilarni belgiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining viloyatlari, tumanlari va shaharlarda vakillik hokimiyatiga hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga boshchilik qiladigan hokimlar lavozimi ta'sis etilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

- ♦ viloyatlarning hokimlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga va Xalq deputatlari tegishli kengashlariga hisob beradilar. Prezidentning joylardagi rasmiy vakillari bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadilar va lavozimidan ozod qilinadilar.
- ♦ tumanlar va shaharlarning (Toshkent shahri bundan mustasno) hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanib, xalq deputatlari tegishli tuman, shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadilar.

Bundan tashqari, mazkur hujjatda: «Hokimlar boshchiligida xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni umumdavlat manfaatlariga mos tarzda, Kengash hududida yashayotgan fuqarolarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qiladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarini, yuqori davlat idoralarning qarorlarini amalga oshiradilar», deyiladi.

Shundan keyin qaror talablari asosida joylarda viloyat, shahar va tuman hokimlarini tanlash, tayinlash ishini amalga oshirish uchun tashkilotchilik ishlari amalga oshirildi. Avvalo bo'lajak yangi hokimlarning bilim darajasi, tashkilotchilik va tadbirkorlik fazilatlarini, xalq ichida obro'-e'tiborga ega bo'lishi, ishni uddaburonlik bilan olib borish fazilatlarini hisobga olindi. Shu ma'noda Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasining mas'ul xodimlari, viloyatlarda, shahar va tumanlarda deputatlar va mahalliy faollar bilan jonli, oshkora suhbat, maslahatlashuv olib boradilar.



1992-yil davomida Toshkent shahri va 12 viloyatda Prezident tavsiyasi asosida birinchi marta hokimlar tayinlandilar. Shu davrda respublikaning 212 shahar va tumanida ham shunday lavozim ta'sis etildi.

Hokimlarning ko'pchiligi rahbarlik ishida va katta hayot tajribasiga ega kishilarni tashkil qilar edi. Ayni paytda hokimlar safiga yangi kuchlar ham kelib qo'shildi. Masalan, 50 dan ortiq hokimlar birinchi marta tuman va shahar rahbarligiga kelgan kishilar edilar. Ular mamlakatda yashovchi turli millatlarning vakillari edi. Jumladan, 7 millat vakili hokim qilib tasdiqlandi.

Yangi sharoitda rahbarlik lavozimlariga ko'plab yangi, yosh kadrlar qo'shildi. Bu hol mustaqillik sharoitida rahbarlikning yangicha ish uslubini ularga o'rgatishni taqozo qila boshladi. Shu maqsadda 1992-yil 3-aprelda Toshkentda viloyat, shahar va tuman hokimlari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning birinchi uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda kadrlar siyosatining shakllanishi va uning strategiyasi atroflicha tahlil qilindi. Mavjud kamchiliklar va galdagi vazifalar belgilab berildi. Chunki, joylarda partiya va sovet takshilottlari

eskicha uslubdan hamon voz kecha olmayotgan edilar. Fuqarolar bilan ishlash, ularning talab va istaklarini qondirish borasida joylarda jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilayotgani uchrashuvda qayd qilindi.

Uchrashuvda Prezident I.Karimov qanday tamoyillar va talablar asosida kadrlar tanlash lozimligi haqida fikr yuritib, quyidagi holatlarga alohida urg'u berdi:

«**Birinchi**dan, kadrlar masalasini hal qilishga daxldor kishilar, ayniqsa bizning xalqlarimizning ko'p millatli xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur. Kadrlarning tarkibi ustida ham, milliy va mahalliy cheklanishlardan ustun turish uchun ham barcha choralarni ko'rishimiz lozim. Bu o'rinda respublikaning ko'p yillik shakllangan hayot tarzini, ko'p millatlilik xususiyatlarini, o'zaro hurmat va do'stlik rish-talarini saqlab qolish maqsadlaridan kelib chiqib, ish tutishimiz lozim.

Ikkinchidan, biz kadrlarning ishbilarmonlik fazilatlarini yetarlicha qadrlay bilishimiz kerak.

Uchinchidan, hokim mahkamasida har bir fuqaro uchun eshik ochiq bo'lishi shart... Odamlarni arziyas sabablarga ko'ra sarson-sargardon qilishga, bevosita o'z zimmasidagi ish uchun javobgarlikni o'zidan soqit qilishga urinishiga chek qo'yish payti keldi».

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan o'tgan yillar davomida davlatimiz ijtimoiy hayot muammolarida katta tajriba orttirdi. Ko'p sohalarda bo'lganidek, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasida ham qator qiyinchiliklar ko'zga tashlandi. Bu muammolarni hal qilish uchun ham hukumat mamlakatda kadrlar siyosatini zamon talabiga mos ravishda ko'tarish, bu borada ko'rsatmalarni hayotga ichzil tatbiq etish lozimligini dolzarb masala qilib qo'ymoqda.

O'zbekistonda istiqloq yillarida kadrlar tarbiyalash borasida, ular bilan ishlashdagi dastlabki tajribani tahlil qilar ekan, Prezident I.Karimov kadrlarni uch toifaga bo'ladi.

Birinchi toifa — bu hozirgi og'ir vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qiladigan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, xalq g'ami tashvishidan begona kishilar.

Ikkinchi toifa — befarq, loqayd odamlar bo'lib, ular hech kimga qarshi gapirishni, dushman orttirishni xohlamaydigan kimsalar.

Uchinchi toifa — yosh, tashabbuskor, kuch-g'ayratga to'la, Vatan ravnaqi uchun fidoiylilik bilan xizmat qiluvchi kadrlar.

Mana shu tahlilning o'zi ko'rsatib turibdiki, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish istiqloqni mustahkamlash, mamlakatni yanada rivojlantirish manfaatlarini nuqtai nazaridan g'oyat dolzarb masaladir.

Amaliyot kadrlar siyosatida lavozimlarga kishilarni tanlashning asosiy mezonlarini aniqlab olishni, umuman, bu borada davlat dasturi va strategik yo'lini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Chunki, kadr tanlashdek nozik va mas'uliyatli vazifa har narsadan og'ir va u mamlakat taqdirini, xalq kelajagini, istiqloq istiqbolini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatda islohotlarning izchil amalga oshirilishi, mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi tadbir va dasturlarning ro'yobga chiqarilishi o'rta pog'ona rahbar kadrlar faolligiga bog'liqdir. Shu bois, hokimlar xalq taqdirini o'ylash, mayda-chuyda tashvishlarga o'ralashib qolmasdan, yirik vazifalarni hal qilish, madaniy va ma'rifiy ishlarga to'g'ri yo'nalish berishdek hayotiy zarurat muammolariga ko'proq e'tibor qaratmoqlari kerak.

ahamiyat kasb etadi.



1995-yil sentabr oyida mamlakat Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi tashkil qilindi.

Akademiyaning ochilish marosimida nutq soʻzlar ekan, I.Karimov shunday degan edi: **«Akademiya tashkil qilish, bu shunchaki orzu ketidan quvish, yangi bir institut tashkil etishga intilish emas, balki tabiiy zaruriyat, qonuniyat taqozosi va hayotiy ehtiyojdir... Islohotlarni amalga oshirish borasidagi bundan buyongi olgʻa siljishlarimiz tobora qiyin muammoga borib taqalishi mumkin. U ham boʻlsa, yuksak malakali xodimlarning eng avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruvi, jamoat idoralari, bank va moliya tizimini boshqaradigan darajadagi rahbarlarning yetishmasligidir...»**

Akademiyaning vazifasi faqatgina muayyan soha uchun kadr tayyorlab berishdangina iborat emas, balki u oʻzining ilmiy, pedagogik salohiyati asosida butun maorif tizimini isloh qilish uchun yangi muhit, yangi sharoit yaratib berishi lozim».

Prezident koʻrsatmalari asosida Akademiya qisqa vaqt ichida xalq xoʻjaligining turli sohalari uchun zarur kadrlar tayyorlashda katta ishlarni amalga oshirdi. Faoliyati davomida 1500 dan ortiq yosh mutaxassis boshqaruv sirlarini jahon amaliyoti andozalari darajasida egallab qaytdilar va turli sohalarda faoliyat koʻrsatmoqdalar. Shu davrda Akademiyaning malaka oshirish kurslarida bir necha yuzlab shahar va tuman hokimlari, vazirlik va davlat idoralari xodimlari zamonaviy boshqaruv sanʼatining yangi qirralari bilan tanishib amaliyotda qoʻllamoqdalar.

Hozirgi zamon kadrlar siyosatida kadrlar zaxirasi, uni shakllantirish, undan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident devonida, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasida, viloyat va tuman hokimliklarida ishlayotganlarning asosiy qismini yoshlar tashkil etmoqda. Vazirliklar, konsernlar, aksionerlik birlashmalari rahbarligiga yosh, navqiron, hozirgi siyosiy oʻzgarishlar va islohotlarning tub mohiyatini toʻgʻri anglaydigan, oʻz vazifasi va burchini aniq tushunadigan yoshlar tayinlandi. Bu mamlakatni boshqarishda yangi avlodning kirib kelayotganidan, sogʻlom maʼnaviy-siyosiy muhit shakllanayotganidan dalolat beradi.

Prezident I.Karimov hokimiyatning barcha boʻgʻinlarida kadrlar zaxirasini yaratishda bir qator kamchilik va nuqsonlar mavjudligini koʻrsatdi. Bu bir qator viloyatlar va tumanlarda mavjud boʻlgan mahalliychilik, urugʻ-aymoqchilik, oshnagogʻaynigarchilik, tilyogʻlamachilik, poraxoʻrlik kabi illatlardir. Rahbar eng avvalo millat ramzi, mamlakat obroʻ-eʼtiboridir. U ana shunday yuksak unvonga munosib boʻlishi uchun xalq, vatan, millat tushunchalarini hammadan chuqurroq anglashi, hammadan koʻra koʻproq fidoyi boʻlmogʻi lozim.

Kadrlar bilan ishlash va kadrlar zaxirasini yaratishda hamon joylarda amalparastlik, buyruqbozlik, taʼmagirlik va munofiqlik yoʻqolmagani, hokimlar va tashkilot rahbarlari xali toʻla quvvat bilan ishlamayotganligi holatlarining uchrashi tashvishlidir. Bunday kadrlar haqida 1996—2003-yillarda Qoraqalpogʻiston

Jo'qarg'i Kengesi xalq deputatlari, Jizzax, Sirdaryo, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari sessiyalarida ro'yi-rost gapirildi.

Mustaqillikning o'tgan davri mobaynida bir necha viloyat, shahar va tuman hokimlari, vazirliklar, birlashma va konsernlar rahbarlari zaxiradagi kadrlar bilan almashtirildi. Shu yo'l bilan davlat boshqaruv tizimi mustahkamlanmoqda. Joylarda zamonaviy fikrlaydigan, tub islohotlar mohiyatini tushunadigan va ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan kadrlar tanlanmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda kadrlarning ijtimoiy bazasi har qachongidan ko'ra kengaydi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirish jarayonida yosh, g'ayratli, tashabbuskor xodimlarni hisobga olish bilan ma'lum darajada hayotiy tajriba orttirgan kishilardan ham oqilona foydalanish ayni muddaodir.

Shunday qilib, mamlakatda rivojlanishning keyingi yillarida shakllangan kadrlar quvvatiga tayangan holda mustaqillik sharoitida yangicha kadrlar siyosati ishlab chiqildi. Agar taraqqiyotning avvalgi bosqichlarida kadrlar tanlovida asosiy mezon siyosiy yetuklik, axloqiy fazilatlar, tashkilotchilik qobiliyati bo'lsa, endilikda bozor iqtisodiga o'tish jarayonida kadrlardagi bu fazilatlar bilan birgalikda ulardagi ishbi-larmonlik, tadbirkorlik, xalq bilan uzviy bog'liqlik, uning ijtimoiy kafolatini ta'minlashga qodirlik va milliy istiqolol g'oyasiga birinchi va asosiy mezon hisoblanadigan bo'ldi. Shubhasiz, kadrlar siyosatidagi bu yo'l istiqololni mustahkamlashning muhim omillaridan biri edi.



1. Sho'ro tuzumi davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan kadrlar siyosatining mohiyati va illatlari nimalardan iborat?
2. Mustaqillik sharoitida kadrlar siyosatida tutilgan yangicha yo'lni taqozo etgan zaruriyatlarni ayting.
3. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov amal qilayotgan kadrlar siyosatining mohiyati nimalardan iborat bo'ldi?
4. Kadrlar tanlashda qanday tamoyillar ustun mavqega ega bo'lishi kerak?
5. Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasini tashkil qilishda qanday maqsad ko'zlangan edi?
6. Kadrlar zaxirasi nima uchun kerak?
7. Kadrlarni o'z o'rniga qo'yishdagi asosiy mezonlar haqida fikrlaringiz?
8. Rahbarlardagi qanday xususiyatlarni qadrlaysiz?



Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qila oladigan yetuk kadr bo'lish uchun qanday bilim, ko'nikma va malakalarga, fazilatlariga ega bo'lish kerakligi haqida fikr-mulohazalar yuriting va ularni yozma ravishda bayon eting.

O'ZBEKISTON TARKIBIDAGI SUVEREN QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

9—10-§§. MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG'ISTON DAVLATCHILIGI TARAQQIYOTI

Sho'ro mustam- lakachiligi davrida Qoraqalpog'iston

XX asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, qoraqalpoqlar ham o'z boshlaridan juda katta ijtimoiy-siyosiy larzalarni kechirdilar. Ayniqsa, 1917-yil oktabr to'ntarishidan so'ng o'lkada bolshevikcha sho'ro hokimiyati mustamlakachiligining o'rnatilishi, 1923—1924-yillarda O'rta Osiyoda amalga oshirilgan adolatsiz milliy-davlat chegaralanishi siyosati va undan keyingi yillarda xalqimiz boshi uzra o'ynatilgan ulug' davlatchilik siyosati qoraqalpog' xalqining ham tarixida ayanchli va dahshatli iz qoldirdi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi sho'rolar tomonidan zo'rlik yo'li bilan o'tkazilgan va «bo'lib tashla, hukumronlik qil» degan ulug' saltanatchilik maqsadlariga xizmat qiluvchi tadbir edi. Qolaversa, 1924—1936-yillar o'rtasida sho'ro mustamlakachilari Qoraqalpog'istonni u respublikadan bu respublikaga o'tkazib, ushbu hududda yashab kelayotgan xalqlar taqdiriga bepisandlik bilan munosabatda bo'ldilar. 1924-yilda Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpog'iston Muxtor (Avtonom) viloyati tashkil qilindi. Viloyat volostlarga bo'linadigan To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglaridan iborat edi.



1925-yil 12—19-fevralda To'rtko'l shahrida Muxtor viloyat Sho'rolarning 1-Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Muxtor viloyatining Qozog'iston ASSR tarkibiga «o'z ixtiyori bilan kirganligi» qonunlashtirildi.

Albatta, viloyat aholisining milliy tarkibi ham e'tiborga loyiq edi. Muxtor viloyat tashkil etilgan paytda viloyat hududidagi aholining 38,5 foizini qoraqalpoqlar, 28,7 foizini o'zbeklar, 28,6 foizini qozoqlar va bor yo'g'i 1 foizga yaqinini (shahar aholisidan tashqari) ruslar tashkil etgan.

Oradan 8 yil o'tar-o'tmas Qoraqalpog'iston Muxtor viloyatini yana «O'z ixtiyoriga ko'ra» Qozog'iston tarkibidan olib RSFSR tarkibidagi Qoraqalpog'iston Muxtor Sho'ro Sotsialistik Respublikasi (QQASSR)ga aylantirish» zarurati tug'ildi. Bu qo'lbola zaruriyat Qoraqalpog'iston viloyati Ijroiya Qo'mitasining 1932-yil 5-martdagi navbatdan tashqari bo'lib o'tgan IV plenumida quyidagicha asoslandi: «Qoraqalpog'istonning Moskva va sanoat Markazlaridan uzoqligini, madaniy va

iqtisodiy jihatdan qoloqligini, yanada rivojlanishi istiqbollarini... hisobga olib, Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumidan Qoraqalpog'iston Muxtor viloyatini RSFSRga kiradigan Muxtor Sho'ro Sotsialistik Respublikasiga aylantirish so'ralsin».



Qoraqalpoq xalqining «iltimosi» qondirilib, Butunittifoq MIK Prezidiumi 1932-yil 20-martdagi qarori bilan Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati Qoraqalpog'iston Muxtor Sho'ro Sotsialistik Respublikasiga aylantirilib RSFSR tarkibiga kiritildi.

Ammo oradan yana bor-yo'g'i 4 yil o'tar-o'tmas Qoraqalpog'iston Muxtor Sho'ro Sotsialistik Respublikasini RSFSR tarkibidan O'zbekiston Sho'ro Sotsialistik Respublikasiga «oshirish ehtiyoji» paydo bo'ldi. Bu «ehtiyoj» uchun RSFSR bilan QQASSR o'rtasida umumiy chegaralar yo'qligi «asos» bo'ldi. 1936-yil may oyida tayyorlangan SSSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasida QQASSRni RSFSR tarkibidan chiqarib, O'zbekiston SSR tarkibiga kiritish ko'zda tutilgan edi.



Butunittifoq Sho'rolarining 1936-yil 5-dekabrda bo'lib o'tgan favqulodda VIII qurultoyida SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mazkur Konstitutsiya asosida tayyorlanib 1937-yil 12-fevralda tasdiqlangan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida QQASSRning O'zbekiston Sho'ro Sotsialistik Respublikasi tarkibiga kirganligi qonun bilan mustahkamlandi.

Qoraqalpog'iston xalqlari qariyb 70 yildan beri O'zbekiston xalqlari bilan ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida bir-birlari bilan og'alarcha yelkadosh bo'lib yashab kelmoqdalar.

Sobiq Ittifoq parchalangandan so'ng mustaqil O'zbekiston tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomini oldi. Bu tabiiy hodisa edi. Chunki, asrlar mobaynida qoraqalpoqlar bilan o'zbek xalqi o'rtasida do'stlik, qardoshlik munosabatlari qaror topgan, turmush tarzlari va dunyoqarashlarida mushtaraklik vujudga kelgan edi. Orol bo'yi kengliklarida qadimdan o'zbek va qoraqalpoq ajdodlari birgalikda yashab, mehnat qilishdi. O'zlarining taraqqiyot yo'llarini bosib o'tishdi.

Qadimiy turkiy qavmning ikki shajarasi yillar mobaynida haqiqiy og'a-inichilik fazilatlarini ko'rsatdilar, o'zaro munosabatlarni chuqurlashtirdilar. Bu ikki qavm ma'naviy-ruhiy yaqinligini belgilaydigan asosiy omil va madaniyatlar mushtarakligi, ularning o'zaro yaqinligi edi. Darhaqiqat, tillar yaqinligi dillar yaqinligiga olib keldi. Madaniyatlar bir-birini boyitdi. Qadimiy madaniyat namunalari, umummilliy qadriyatlar, jondoshu qondosh bo'lgan har ikki millat uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan an'analar shakllandi. Shu asosda iqtisodiy hamkorlik, yagona iqtisodiy makon vujudga keldi.

O'zbekiston tarkibida o'tgan salkam 70 yillik davr mobaynida qoraqalpoq xalqi o'z taqdirini o'zbek xalqi taqdiri bilan bog'ladi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy va ma'rifiy sohalarida o'zbek xalqining beg'araz va og'alarcha yordamidan bahramand bo'ldi. Sho'ro mustamlakachiligi yillarida o'zbek xalqi boshiga tushgan og'ir kulfat va musibatlar qoraqalpoq xalqini ham chetlab o'tmadi.

Biroq, yaqin qo‘shnichilik, qardoshlik va do‘stlik har ikki xalq uchun qanchalik qismatli bo‘lmasin, yaqin qo‘shnichilik singari yuksak insoniy fazilatlar asrlar sinovidan o‘tib, og‘ir kunlarda eng ishonchli omil bo‘lib xizmat qildi. Natijada, Sho‘ro hokimiyati yillaridagi og‘ir mustamlakachilik, ma‘muriy boshqaruv usuli, shovinstik milliy siyosat o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari munosabatlariga rahna sololmadi.

Aksincha, ular bir necha o‘n yilliklar mobaynida to‘planib qolgan muammolarni hal etishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada chuqurlashtirishda o‘z an‘analaridan unumli foydalanish yo‘lini tanladilar. Har ikki xalq taqdiri, istiqboli bir ekanligini, ularni mushtarak orzular, yagona intilish birlashtirib turganligini ochiq-oydin ko‘rsatdilar. Tarixan turli davrlarda turli siyosiy o‘zgarishlar va qiyinchiliklarda toblangan do‘stlik va qardoshlik munosabatlari bunga asos bo‘ldi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, sho‘rolar davrida amalga oshirilgan adolatsiz milliy siyosiy va ulug‘ davlatchilik shovinizmi, faqat «ulug‘ og‘a»lar manfaatiga xizmat qilardi, xolos. Bu shiorlar kichik xalqlarning milliy taraqqiyoti va ittifoqdosh respublikalar xalqlarining milliy ehtiyojlarini qondirishdan uzoq edi.

Yuqoridan amalga oshirilgan bir yoqlama rejalashtirish, kichik xalqlarga bo‘lgan e‘tiborning sustligi tufayli Qoraqalpog‘iston sobiq Ittifoq tarkibida taraqqiyot darajasi eng past bo‘lgan o‘lkaga aylandi. Ittifoq hukumatining aybi bilan qiyinchiliklar chuqurlashdi, muammolar ustiga muammolar to‘plandi. Ekologik halokat yuzaga keldi. Amudaryo suvining ifloslanishi va Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq bo‘lgan jiddiy muammolar paydo bo‘ldi.

Mustaqillik sharofati tufayli to‘planib qolgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy taraqqiyot borasidagi muammolar tizimini hal etishda eng adolatli yo‘l tanlandi: yagona zamin, yagona makon birlashtirib turgan, umumiy taqdirini mushtarak etgan o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘z taqdirini abadiy birlikda ko‘rishdi. Qoraqalpoq xalqi milliy davlatchilik asoslarini qurishda hamda tom ma‘nodagi siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka o‘zbek xalqi ko‘magida erishdi va o‘zining porloq kelajagini yaratishga kirishdi. Uning ulkan orzu-umidi bekamu ko‘st amalga oshadigan bo‘ldi.

**O‘zbekiston
Respublikasi tarkibida
mustaqil
Qoraqalpog‘iston**

O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Mustaqil Qoraqalpog‘iston jamoatchiligining davlat mustaqilligi va respublika maqomining huquqiy asosiga ega bo‘lishga intilishi Prezident Islom Karimov tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.



1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasida «O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risida»gi Deklaratsiya qabul qilindi.

Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunda o‘zining huquqiy asosini topdi. Unda Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e‘tirof etildi. Qonunda Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni teng huquqlilik, ikki tomonlama shartnomalar, bitimlar va boshqa qonun aktlari asosida mustahkamlash ko‘rsatib berildi.



O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (70—75-moddalar) o'z aksini topdi (10-ilova).

Natijada ikki tomonlama hurmat asosida qoraqalpoq xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash, mustaqil taraqqiyot hamda milliy davlatchilikni mustahkamlashdagi roli oshdi. Kelajakka qat'iy ishonch bilan qaraydigan, olis istiqbolni yaratishning kafolatini beradigan huquqiy maqomga ega bo'ldi.

Konstitutsiyaning 21-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi ayni paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Bu qoraqalpoq xalqiga O'zbekiston xalqlarining barcha huquqlardan foydalanish imkonini beradi. Ularning haq-huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi taraqqiyoti uchun qator imkoniyatlar beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi o'rinbosarlaridan biri — Oliy Majlis deputati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kengesi Raisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati rahbari lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. 107-moddaga binoan esa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasining xuddi shunday sud organlarining rahbarlari kiradi. Sud hujjatlari o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq tilida ham olib boriladi (115-modda).



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida belgilab qo'yilganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lmog'i kerak. Ana shu huquqiy asosga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining o'n ikkinchi sessiyasida (1993-yil 9-aprelda) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hech qanday monelik qilmaydi, aksincha, uni bosh huquqiy asos sifatida biladi va Qoraqalpog'iston hududida to'la amal qilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'istonning butun hududida majburiy ekanligi e'tirof etilgan.

Suveren Qoraqalpog'iston davlatining paydo bo'lishi

Qoraqalpog'iston milliy davlatchiligi o'z taraqqiyoti tarixida birinchi marta ana shunday insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo'ldi. Ayni paytda u suveren davlatning barcha ramzlariga ega.



◆ 1992-yil 14-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i tasdiqlandi.



- 1993-yil 9-aprelda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi sessiyasida Davlat gerbi tasdiqlandi.
- 1993-yil 4-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n to‘rtinchi sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan 1994-yil 25-dekabrda Oliy Kengashning 75 deputatdan iborat yangi tarkibi muqobillik asosida saylandi. **Respublika parlamenti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qarg‘i Kengesi deb ataldi.** Jo‘qarg‘i Kengeshning 1995-yil 11-yanvarda Nukus shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Jo‘qarg‘i Kenges Raisi, uning o‘rinbosarlari, mandat komissiyasi, 8 ta qo‘mita raislari va uning a‘zolari saylandi. Ayni paytda, deputatlar qo‘mitalar raislari rahbarligida Qoraqalpog‘iston qonunchilik tizimini yaratishda faol ishtirok etmoqdalar.

Xususan, demokratik jamiyat qurish hamda erkin bozor munosabatlarini shakllantirishga mo‘ljallangan muhim qonun va qarorlar qabul qilindi. Jo‘qarg‘i Kenges Raisi qoshida doimiy harakatdagi Kengash tashkil qilindi. Uning tarkibiga Jo‘qarg‘i Kenges Raisi, Rais o‘rinbosarlari, mandat komissiyasi va qo‘mitalar raislari kiradi.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijroiya hokimiyat organi Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibiga Rais, ikkita birinchi o‘rinbosar va 4 ta tarmoq o‘rinbosarlari kiradi. Shuningdek, ijroiya hokimiyat tarkibiga vazirliklar va qator tarmoq qo‘mitalari rahbarlari ham kiritilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida o‘zining ish olib boruvchi doimiy vakiliga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan qator jamoat tashkilotlari bu yerda demokratik jarayonlarning tobora qaror topayotganidan dalolat beradi. Ayni paytda, Respublika hududida hukumatga qarashli bo‘lmagan qator tashkilotlar, jumladan, «Orol va Amudaryoni himoya qilish uyushmasi», «EKOSAN», «Aralsos», «Sog‘lom avlod uchun» singari bir qator xalqaro tashkilotlarning bo‘limlari ish olib bormoqda.

Ayni vaqtda, shuni ta’kidlash joizki, istiqloq yillarida Qoraqalpog‘istonda qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatining zamonaviy tizimini vujudga keltirishda dastlabki qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, xali bu borada qator muammolar saqlanib qolmoqda.

1997-yil 17-iyul kuni Nukusda bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qarg‘i Kengeshining navbatdan tashqari sessiyasi qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati faoliyatlarida davom etib kelayotgan kamchiliklarni chuqur tahlil qildi. Xususan, qabul qilingan qonun va qarorlarni hayotga to‘la tatbiq qilinishida, ijroiya intizomini qaror topdirishda xali jiddiy kamchiliklar borligi qayd qilindi.

Mazkur sessiyada nutq so‘zlagan Prezident I. Karimov «...**Har bir boshqaruv tizimi, har bir rahbar organ, avvalo o‘z tasarrufida belgilangan, topshirilgan ishlar bilan shug‘ullanishini ta’minlashi zarur**», deb qayd etgan edi.

Sessiyada Qoraqalpog‘iston boshqaruv tizimida bir qator kamchiliklar mavjudligi ro‘yi-rost ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan, Jo‘qarg‘i Kenges va Vazirlar

Kengashi faoliyatlaridagi bir-birini takrorlash hollari tanqid qilindi. Amaliy faoliyatga xalaqit berayotgan rasmiyatchilik, qog'ozbozik, bo'lar-bo'lmas ma'lumotlar to'plash kabi nuqsonlar tilga olindi.

Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi rasmiyatchilik illatlariga barham berish alohida ta'kidlandi. Jo'qarg'i Kenges amalda tarixga aylanib qolgan va o'tmish sarqiti hisoblangan — sho'rolar davridagi «Oliy Sovet Prezidiumi» rolini bajarayotgani ko'rsatib o'tildi.

Jo'qarg'i Kenges qo'mitalari faoliyati o'z maqomiga va o'z oldiga qo'yilgan vazifalarga mos kelmayotgani, ishlab chiqarishga doir masalalar bilan o'ralashib qolayotgani ko'rsatib o'tildi.

Uchala hokimiyat organi kengashi va sud hokimiyatlari o'z maqomi doirasida ish olib bormog'i lozimligi qayd etildi. Ana shunda haqiqiy demokratik jamiyat shakllanadi.



1. Sho'ro mustamlakachiligi Qoraqalpoq xalqlari taqdirida qanday asoratlar qoldirdi?
2. O'zbekiston Respublikasi tarkibida «Qoraqalpoq'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya» qachon qabul qilindi va uning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
3. Qoraqalpoq'iston milliy suveren davlati qanday tashkil topdi?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpoq'istonning qanday huquqiy asoslari belgilab berilgan?
5. Qoraqalpoq'iston Respublikasida demokratik jarayonlarning qaror topayotganligidan dalolat beruvchi omillar deb nimalarni hisoblaysiz?



8-sinf «O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» darsligidan foydalanib, Qoraqalpoq'iston Respublikasi (qaysi davlat va viloyatlar bilan chegaralanishi, egallagan maydoni, aholisi va uning tarkibi, poytaxti, yirik shaharlari, tumanlari va boshqalar) haqida ma'lumotlarni to'plang va ularni daf-taringizga yozing.

11-§. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IQTISODIY VA IJTIMOY TARAQQIYOTI

Mustaqillik davri odimlari

munosib hissasi bor.

Shu bois O'zbekiston hukumati bu masalada Qoraqalpoq'iston Respublikasini har tomonlama qo'llab-quvvatlamog'da. 1996-yilda ushbu maqsadlar uchun 10 milliard so'm ajratildi. Bu Qoraqalpoq'iston milliy daromadining 55 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, Qoraqalpoq'istonga berilayotgan moliyaviy yordam miqdori 1994-yilga nisbatan 18-barobar ko'paydi.

Bugungi kunda O'zbekiston markaziy byudjetidan Qoraqalpoq'istonga berilayotgan subvensiya, ya'ni moliyaviy yordam miqdori 9 milliarddan oshiq so'mni yoki butun Qoraqalpoq'iston byudjeti xarajatlarining 75 foizini tashkil etmog'da.



O'zbekiston hukumatining amaliy yordami hamda qoraqalpog' xalqining fidoiy mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo'lida mehnat qilishga sharoit yaratildi.

O'lkada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat sohasida nodavlat sektorning hissasi oshib bordi. Ayni paytda sanoat, qishloq xo'jaligi va savdoda bu ko'rsatkich 80—90 foizni tashkil etmoqda. Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining boshqa yo'nalishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi.

Jumladan, bank-moliya tizimi butunlay yangi shakl va mazmunga ega bo'ldi. Bu yerda davlat banklari bilan birga tijorat va xususiy banklar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banklari ixtisoslashtirilgan hissadorlik tijorat banklariga aylantirildi. Qoraqalpog'iston tarixida birinchi marta tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi.

Qoraqalpog'istonda ulgurji va birja savdosi bilan shug'ullanuvchi hissadorlik uyushmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va ishbilarmonlarning butun imkoniyatlarini ishga solish maqsadida ularning erkinligi va teng huquqliligini ta'minlash choralari ko'rildi.

Qoraqalpog'istonda 1996-yilda 51 ta mayda ulgurji tizim, shu jumladan 2 ta savdo uyi, 13 ta mayda ulgurji savdo do'konlari va omborlar, 17 ta ko'tara savdo bozor hamda O'zbekiston tovar xomashyo birjasi Qoraqalpog'iston bo'limi 19 ta supermarket do'konlari faoliyat ko'rsatdi. 1997-yilning birinchi yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy hajmi 330 million so'mni tashkil etdi. Uning 20 foizi o'lka ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50 foizi esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so'm kredit ajratdi. 2002-yilda 9 ta korxonada davlat tasarrufidan chiqarildi.

Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 1996-yilda fond birjalari filiallarida 191,6 million so'mlik aksiyalar sotildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga aylantirish, qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirishga oid farmonlarini bajarish amalda o'z samalarini bera boshladi.

1997-yil 1-yanvar holatiga qaraganda respublikada soliq idoralari tomonidan 318 ta aksionerlik jamiyatlari ro'yxatga olindi. 1996-yil yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 11 milliard so'mlikni tashkil etdi. Bu 1995-yilga nisbatan 2,2 marta ko'pdir.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 foizga o'sdi. 144 ta sanoat korxonalarini va birlashmalaridan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o'tib ishlay boshladi.

To'rtko'l tumanida 2000-yil 6-martdan e'tiboran Rossiyaning Sayvinovo yigiruv fabrikasi bilan hamkorlikda yiliga 2750 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan qo'shma korxonani qurib tugallashga kirishildi. Kichik va xususiy korxonalar, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar rivojlandi. Mikrofirmalar soni 1999-yildagi 3755 tadan 2000-yilga kelib 5565 taga yoki 1,5 martaga, fermer xo'jaliklari soni esa 1823 tadan 2353 taga yoki 1,6 martaga ko'paydi. Birgina 2002-yilning o'zida respublikaning 12 ta tumanida 21 ta qishloq xo'jalik korxonalari negizida yangidan 901 fermer xo'jaliklari tuzildi va faoliyat ko'rsatib turgan 79 ta fermer xo'jaliklariga qo'shimcha yer maydonlari ajratilib, jami 980 ta fermer xo'jaliklari tuzildi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslasha boshladilar. Mehnat unumdorligi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sa boshladi. Respublikada 1996-yilda amaldagi narxlarda 10754,4 so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu solishtirma narxlarda olganda 1995-yildagiga nisbatan 101,5 foizni tashkil etadi. 2000-yilga kelib yalpi mahsulot yetishtirishda kichik va o'rta biznes hajmining ulushi 27 foizni tashkil etdi. Bu 1999-yilgi ko'rsatkichdan 3 foizga ko'p demakdir. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan 2000-yilda 2,9 milliard so'm miqdorida kreditlar berildi. Natijada harakatsiz turgan korxonalar sonini 771 taga kamaytirish imkoniyati tug'ildi.



1991—2003-yillarda natura ko'rinishida mahsulot ishlab chiqarish ham ko'paydi, xususan past voltli apparaturalar, yo'l qurilishi mashinalari ehtiyot qismlari, yengil sanoat texnologik uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, mebellar va boshqalar ana shular jumlasidandir.

Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste'mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish ko'paydi.

2003-yilda yig'ma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o'simlik yog'i, uzum vinosi, salqin ichimliklar va osh tuzi ishlab chiqarish o'sdi.

Bir qator yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Jumladan, 1995-yilda Xo'jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. Natijada respublikaga chetdan shisha idishlarni tashib keltirish sezilarli darajada kamaydi.

Gaz sanoati

Respublikaning Ustyurt-Orolbo'yi mintaqasi yirik neftgaz hududlarining (Kaspiybo'yi, To'qay va Amudaryo tekisligi) qo'shilgan joyida joylashgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida eng katta neftgaz maydoni (90 ming kv. km dan ziyod) bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida mazkur hududda 7 ta gaz va gaz kondensati koni ochildi. Bu konlarda aniqlangan umumiy gaz zaxirasi 100,1 milliard metr kub, gaz kondensati zaxirasi 2523,1 ming tonnani tashkil etadi.

1995-yilda Qo'ng'irotdagi 37,4 milliard metr kub gaz va 739 ming tonna gaz kondensati zaxirasiga ega bo'lgan «Urga» koni foydalanishga topshirildi. 2003-yilga kelib mazkur kondan bir kunda 3,2 million metr kub gaz, 24 tonna gaz kondensati qazib olinmoqda. 2002-yilning noyabr oyidan boshlab «Sharq Berdaq» koni foydalanishga topshirildi. Mazkur kon bir kunda 3,0 million metr kub gaz va 16 tonna gaz kondensatini qazib olish quvvatiga ega.

2002-yili Ustyurt-Orolbo'yi hududida joylashgan konlardan 1,2 milliard metr kubdan ortiq gaz va 10,4 ming tonna gaz kondensati qazib olindi.

Mustaqillik yillarida respublikada aholi punktlarini gazlashtirish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. 2000-2003-yillar mobaynida 98 aholi punktlariga tabiiy gaz yetkazib berildi.



1993-yilda respublikada 59 foiz aholi gaz, 52 foiz aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, 2003-yilga kelib esa aholini gaz bilan ta'minlash 91,7 foizni, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash esa 66,2 foizni tashkil etdi.

Arxitektura va qurilish

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq xo'jaligining qurilish sohasida ham muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholining infratuzilma inshootlari bo'yicha keyingi 12 yil ichida 97 ta qishloq shifokorlik shahobchalari, 90 o'rinli shifoxona, 11900 o'quvchiga mo'ljallangan maktab binolari, 7,5 ming kv. m turar joy, 2 ming km gaz tarmoqlari, 1,4 ming km suv tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Natijada respublikada 390 ta qishloq aholi punktlari toza ichimlik suvi bilan, yuzga yaqin aholi punktlari esa tabiiy gaz bilan ta'minlandi.

«Qoraqalpoqqurilish» aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kvadrat metr marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi marmar sexi ochildi. «Nukusun» zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sexi qurildi.

Yengil sanoat ishlab chiqarishining bazasi kengaya bordi. 1993-yilda Nukus shahrida «Kateks» to'qimachilik majmuasi, 1995-yilda Ellikqal'a tumanida ham «Elteks» nomli xuddi shunday to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

Moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Nukus va Qo'ng'irotda un kombinatlari, To'rtko'lda 3 million shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqal'a tumanida esa shunday quvvatga ega bo'lgan konserva sexi foydalanishga topshirildi.



1991—2003-yillar mobaynida respublikada arxitektura qurilishi sohasida katta yutuqlarga erishildi. Bu yillar mobaynida San'at va Berdaq nomidagi muzeylar, Mirzo Ulug'bek, Ajiniyoz, «Markaziy bank», «Xalq», «Paxta», «Tadbirkor», «Asaka» banklari, Xo'jalik sudi, Nukus aeroporti binolari, respublika markaziy shifoxonasining binolari qayta ta'mirlandi va bunyod etildi. 80 kilometrli Qo'ng'irotda—Beynov avtomobil yo'li, Nukus—Xo'jayli yo'nalishida temir-beton ko'prigi qurilib foydalanishga topshirildi.

Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida 144 ta sanoat korxonasi 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o'tib ishlay boshladi. Nodavlat shakliga o'tib ishlayotgan korxonalarining rivojlanish darajasi nisbatan yuqori bo'ldi. Shuningdek, bu korxonalarining iqtisodiy samaradorligi, foyda olish borasida ham sezilarli yutuqqa erishdi. Bu borada xususiylashtirilgan korxonalar, ayniqsa, peshqadamlik qila boshladi.

Transport va aloqa O'tgan yillar mobaynida respublikada temir yo'l va havo transporti sohasida ham bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.



Nukus aeroportining bahosi 151,8 million so'm bo'lgan yangi binosi qurilib, foydalanishga topshirildi.

2002-yili rasmiy delegatsiya zalida va Nukus shahar aviakassa agentligining binosiga jahon andozalariga javob beradigan darajada ta'mirlash ishlari olib borildi va zamonaviy texnik asbob-uskunalar bilan jihozlandi. 2002-yilda Nukus aerovokzal majmuasi ta'mirdan chiqarildi va soatiga 200 nafar mijozga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ldi.



Nukus shahar temir yo'l vokzalida ta'mirlash ishlari yakunlanib, xalqaro talablar darajasidagi imoratga ega bo'ldi.

Yangidan «Uchquduq—Miskin—Qorao'zak» temir yo'l liniyalari ishga tushirilib, qo'shni Turkmaniston Respublikasi hududidan o'tmaydigan bo'ldi. Miskin, To'rtkul va Ellikqal'a temir yo'l vokzallari qurib foydalanishga topshirildi. «Qo'ng'iro't—Nukus—Chimboy», «Nukus—To'rtkul» va «To'rtkul—Uchquduq» yo'nalishlari tashkil etildi. «Uchquduq—Miskin—Nukus», «Toshkent—Nukus—Qo'ng'iro't—Toshkent», «Andijon—Nukus—Saratov» va boshqa shaharlararo yo'nalishlar tashkil etildi.



Hozirgi vaqtda «O'ztelekom» aksionerlik kompaniyasining «Qoraqalpoqtelekom» filialida 132,9 ming telefon nuqtasi, ya'ni 202 avtomat telefon stansiyasi aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

1999-yildan boshlab Yaponiya fondining OECF krediti bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining 9 ta shahar tumanlarida (Nukus, Taxiotosh shaharlari va To'rtkul, Beruniy, Ellikqal'a, Xo'jayli, Kegayli, Nukus tumanlari) qayta qurish va rivojlantirish loyihasi bo'yicha yangidan 306 kilometr shisha tolali kabelli 78,5 ming raqamli ATS va 6720,0 ming portga ega raqamli shaharlararo telefon stansiyalari ishga tushirildi. Mazkur ATSlar orqali abonentlar jahondagi 180 davlatiga sanoqli soniyalarda bog'lanishi va sifatli so'zlashish imkoniyatiga ega. Mazkur dasturning ikkinchi bosqichi bo'yicha Chimboy, Qorako'zak, Taxtako'pir, Amudaryo, Qanliko'l, Bo'zatov tumanlarida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Agrar islohotlar

Qoraqalpog'istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Mustaqillik yillarida boshqa sohalar qatorida agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlariga o'tish ro'y berdi. Qishloq xo'jaligi ilgari gidek, o'lka iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i bo'lib qoldi. 1997-yil 1-yanvar holatiga respublikada 263 ta qishloq xo'jalik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Nodavlat sektorining jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi. Ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari, jumladan, paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarining hissasi 97,9 foizni, donchilikda 98,1 foizni, kartoshkachilikda 99,7 foizni, sabzavotchilikda 98,8 foizni, polizchilikda 100 foizni, go'sht yetishtirishda 98,9 foizni, sut va tuxum ishlab chiqarishda 99,4 foizni, qorako'l teri va jun yetishtirishda 100 foizni tashkil etdi.



Mustaqillik yillarida respublikada pilla, g'alla, paxta, sholi va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 2003-yilda o'lkada 568 tonna pilla, 9 ming 746 tonna g'alla yetishtirildi. Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o'zgardi. Mazkur yilda rejadagi 8,0 ming gektar o'rniga 91,5 ming gektar paxta, 55,0 ming gektar o'rniga 61,0 ming gektar yerga sholi ekildi.

Respublika oziq-ovqat majmuasida shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning hissasi tobora ko'payib bormoqda. Qoraqalpog'istonda dehqon fermer xo'jaliklarini tashkil etish bo'yicha yetarli tajriba to'plandi. Masalan, Ellikqal'a tumanida dehqonlarga yer, ishlab chiqarish vositalari va yetishtirilgan mahsulotlarga egalik qilish imkonini berish maqsadida mavjud 14 ta jamoa xo'jaliklari dehqon-fermer xo'jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Ana shu tajribani ma'qullab, O'zbekiston hukumati yerni uzoq muddatga ijaraga berish bo'yicha maxsus qaror qabul qildi.

1991-2003-yillarda investitsiya faoliyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Kapital qurilishda korxonalarining mablag'lari hisobidagi qurilishlar hajmi ko'payib, byudjet mablag'ining hissasi kamaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar

Respublikada istiqloq yillarida tashqi iqtisodiy aloqalarga ham katta e'tibor berildi. Masalan, 1996-yildagi tashqi savdo oboroti 228,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi, bu 1995-yildagiga nisbatan 3,7 marta ko'p bo'ldi.

1996-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklarining hissasi: Rossiya — 11,4 foiz, AQSH — 14,1 foiz, Janubiy Koreya — 11,1 foiz, Shvetsariya — 9,4 foiz, Niderlandiya — 7,2 foizni tashkil etdi.

O'tgan yillar mobaynida respublikada xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar tuzish borasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirildi. 2003-yilga kelib respublika bo'yicha 43 ta qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan ishlab chiqarish sohasida 32 ta, savdo sohasida 2 ta, xizmat ko'rsatish sohasida 4 ta, qishloq xo'jalik sohasida 4 ta, transport sohasida 1 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikada 2003-yil 1-yanvar holati bo'yicha chet el kredit liniyalari orqali 6,5 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar, shu jumladan 5,6 million AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etildi. Xorijiy

investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2003-yilda 2,2 milliard so'mni tashkil etdi.

Granit plitalari, tikuv, konditer va qurilish mahsulotlari kabi 8 turdagi yangi mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yilib, ularning umumiy soni 23 taga yetdi.

Eksport qilingan tovarlar hajmi 122,9 million dollarga teng bo'ldi. Uning tashqi savdo oborotidagi ulushi 53,8 foizni tashkil etdi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xomashyo 113,6 million AQSH dollarini, MDH mamlakatlariga jo'natilganlari esa 9,3 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Uzoq G'arbga asosan paxta tolasi, toladan olingan mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari sotildi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 foizini tashkil etdi.



2002-yilda respublikada ishlab chiqarilgan 26,1 million AQSH dollari miqdoridagi tovarlar eksport qilindi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanishi

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'zini o'zi boshqarish nodavlat va notijorat tashkilotlar faoliyatiga ham katta e'tibor qaratildi. 2000-yilga qadar bo'lgan davrda respublikada 140 ta nodavlat va notijorat tashkilotlar mavjud edi. Aytish joizki, «Perzent» («Farzand»), «Qishki gullar», «Xalq hunarmandlarining ijodiy ustaxonasi», «Progress», «Orolning oltin merosi» va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari to'plagan tajribalar diqqatga loyiqdir.



Mustaqillik yillarida o'lkada aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ularni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Istiqlol yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimida ham muayyan o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu borada eng avvalo aholi sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash uchun tegishli moddiy texnik baza yaratish hamda malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda o'lkada bu sohada 1432 ta malakali shifokor, 3640 ta o'rta tibbiyot xodimlari aholi sog'ligi yo'lida faoliyat ko'rsatishmoqda. O'tgan yillar mobaynida respublika shifoxonalari va poliklinikalarini zamonaviy tibbiy-apparaturalar bilan ta'minlash bo'yicha alohida yutuqlarga erishildi. 1999-yili Yaponiya granti bo'yicha respublikaga bir nechta xorijiy tibbiyot asbob-uskunolari keltirib o'rnatildi.

Respublika tibbiyoti erishgan natijalardan eng muhimi — onalar o'limi soni kamaydi. O'lkada «Homilador ayollarni va bolalar salomatligini mustahkamlash bo'yicha milliy Dastur» hamda «Yosh avlodni sog'lomlashtirish kompleks Dasturi» ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur Dasturlar bo'yicha mamlakatda ayollar va bolalar salomatligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2001-yilda Respublika shoshilinch tibbiyot tez yordam markazi hamda Respublika akusherlik va genekologiya ilmiy tadqiqot institutining Nukus filiali tashkil etilib, aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish hamda xotin-qizlarning sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning oldini olish, bemorlarni sog'lomlashtirish borasida ham ijobiy natijalarga erishildi.



Respublikada jarrohlik, maxsus davolash ambulatoriya markazlari tashkil topdi.

Ekologik tahdid

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 1992-yilda Nukusda Orol muammosiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 2-sentabrda «Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi tibbiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechishni jadal-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi.

Bu qarorning bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati katta kuch sarfladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlarini elektrlashtirish to'la hal qilindi. 1992—2003-yillarda Tuyamo'yin suv omboridan respublika aholi punktlariga 4 ming kilometrdan ortiq vodoprovod tarmog'i olib kelindi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 66,2 foizga yetdi. Shu yillarda 19,6 kilometr kanalizatsiya va 5000 ming kilometrdan ortiq gaz tarmoqlari yotqizildi. Respublika aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 91,7 foizni, shu jumladan, shaharda 99,4 foizni, qishloqda 77,3 foizni tashkil etdi.



1995-yil sentabrda I.A.Karimov tashabbusi bilan Nukusda o'tkazilgan xalqaro konferensiya esa tarixiy voqea bo'ldi. Bu anjumanning asosiy hujjatlaridan biri — Nukus Deklaratsiyasi bo'lib, butun dunyo jamoatchiligi e'tibori Orol muammosiga qaratildi.

1997-yil mart oyida Almatida Markaziy Osiyo Respublikalari Kengashi yig'ilishi bo'ldi. Bu yig'ilishda ham I.A.Karimov tashabbusi bilan Orolbo'yi xalqlariga ijtimoiy muammolarni yechishda amaliy yordam berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston hukumatining Orolbo'yi muammolari to'g'risidagi tashabbuslari yerlik xalqlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Amudaryo bo'yidagi mehnatkashlar ekologik vaziyatning yaxshilanishiga, xalqaro forumlarda Orol dengizi muammolarini hal qilishga doir qabul qilingan qaror o'z samarasini berishiga qat'iy ishonch bildirmoqdalar.



1. O'tish davrida mamlakat iqtisodiyotini isloh qilishda respublikada qanday ishlar amalga oshirildi?
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar xususida nimalarni bilasiz?
3. Agrar sohada amalga oshirilgan tub islohotlar nimalardan iborat bo'ldi?
4. Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. Respublika iqtisodiyotida qanday muammolar mavjud deb hisoblaysiz?

6. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'zini o'zi boshqarish nodavlat notijorat tashkilotlari rivojiga qanday e'tibor berilgan?
7. Respublika ijtimoiy hayotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
8. Respublikada ekologik tanglikning kuchayish sabablari nimalardan iborat? Orolni qutqarish sohasida O'zbekiston hukumati qanday tadbirlarni amalga oshirmoqda?



Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti haqidagi quyidagi jadvalni to'ldiring:

t/r	Sohalar	Sohalar bo'yicha taraqqiyot haqida qisqacha ma'lumotlar
1.	Sanoat	
2.	Arxitektura va qurilish	
3.	Transport va aloqa	
4.	Agrar islohotlar	
5.	Tashqi iqtisodiy aloqalar	
6.	Ijtimoiy soha	

12-§. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XALQ TA'LIMI, FAN VA MADANIYAT

Milliy madaniyat va xalq ta'limi

Qoraqalpoq xalqi qadimiy va boy tarixga ega. Uning milliy madaniyati, jozibali san'ati, mumtoz adabiyoti, qadriyatlarini udum va an'analari olamga mashhurdir.

Mustaqillik tufayli qoraqalpoq xalqi juda ko'p qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Adolat va tenglik, ozodlik va erk uchun kurashgan Yernazar Olako'z, Ollayor Do'stnazarov singari xalq qahramonlarining — jasoratli, o't yurakli qoraqalpoq farzandlarining orzu-armonlari amalga oshdi.

Milliy madaniyat va ma'naviyatning qaror topishiga, qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdaq, Ajiniyoz bobolar ijodiy meroslarining to'la tiklanishiga, aziz xotiralarining ulug'lanishiga yo'l ochib berildi.

Bugungi kunda Ibroyim Yusupov, To'lepbergen Qaibergenov, Tilovbergen Jumamuratov kabi Qoraqalpoq yozuvchi va shoirlarining asarlari xalqlarimiz ma'naviy xazinasidan munosib joy oldi.

Sobir Kamolov, Charjau Abdirov kabi yirik olimlar O'zbekiston fani rivojiga juda katta hissa qo'shdilar.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston madaniy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar haqida gap ketganda, avvalo xalq ta'limi tizimida yuz bergan o'zgarishlarni ta'kidlash o'rinli. Bugungi kunda respublika xalq ta'limi tizimi milliy uyg'onish, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojiga xizmat qilishda yetakchi rol o'ynamoqda.

Respublikada yangi tipdagi o'rta umumta'lim muassasalari — litseylar, gimnaziyalar va alohida fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar, biznes maktablar, kollejlilar va boshqalar tez rivojlanmoqda.

Hozirgi vaqtda Respublikada 25 tadan ziyod maktab va maktab internatlarda o'quvchilarning fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asosida muayyan fanlarni chuqur o'rgatishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari qator maktablarda ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil etilgan.

2003-yilga kelib Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda samarali natijalarga erishildi. Eski turdagi ta'lim muassasalari o'rniga yangi turdagi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 1998—2002-yillarda 3 ta akademik litsey va 33 ta kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi.



Hozirgi paytda respublikada 763 ta umumta'lim maktabi, 405 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 91 maktabdan tashqari ta'lim muassasasi (shundan 28 tasi bolalar sport maktabi) faoliyat ko'rsatmoqda.

Bolalarga xorijiy tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'atini, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etildi.

Barcha qishloq hunar-texnika bilim yurtlarida respublika uchun zarur bo'lgan soha kadrlarini tayyorlashga e'tibor kuchaytirildi. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga, gilam to'qish, keramika buyumlari tayyorlash, ganchkorlar va boshqa shu kabi hunar egalarini tayyorlashga ahamiyat berila boshlandi.



Respublikada o'rta bo'g'indagi kadrlarni tayyorlash tizimida 2003-yilga kelib 71 ta o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi. Shundan 68 tasi kasb-hunar kollejlari, 3 tasi akademik litseylardir. Bugungi kunda mazkur o'quv yurtlarida 51 mingdan ortiq o'quvchi tahsil olmoqda.

Istiqlol yillarida Respublikada oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratildi.



Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat Universitetida bugungi kunda 33 ta mutaxassislik bo'yicha bakalavrlar, 15 ta mutaxassislik bo'yicha esa magistrilar tayyorlanmoqda.

O'ziga xos tarixga ega bo'lgan Ajiniyoz nomli Nukus Davlat pedagogika institutida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanmoqda. Mazkur o'quv yurtining 15 ta fakultetida 4 ming 402 ta talaba ta'lim olmoqda.

O'lkada sog'liqni saqlash sohasidagi kadrlarni tayyorlash borasida ham muayyan ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.



Respublika sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiyot xodimlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 1991-yilda Nukusda Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining Qoraqalpog'iston filiali tashkil etildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri qiyinchiliklariga qaramay respublika hukumati xalq ta'limi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rmoqda. Keyingi besh yil mobaynida yangidan maktablar qurish va kapital ta'mirlash hisobidan 30 ta maktab avariya holatidan chiqarildi. 2001-yili hashar yo'li bilan 2 ta maktab binosi, 2002-yili 8 ta maktab binosi qurilib foydalanishga topshirildi. 2003-yilning o'zida esa 7 ta maktab va kasb-hunar kolleji yangidan qurilib ishga tushirildi.

Fan sohasidagi tub o'zgarishlar

1991—2003-yillarda fan sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi.



1992-yilda O'zbekiston Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq filialiga O'zbekiston Respublikasi FANing Qoraqalpoq bo'limi maqomi berildi.

Uning tarkibida ilgari 3 ta institut mavjud bo'lgan bo'lsa, yana ikkita institut qo'shildi. «Tarix, arxeologiya va etnografiya» hamda «Bioekologiya» institutlari ham shu bo'lim tarkibiga kirdi. Botanika bog'i bo'linmasiga esa bo'lim maqomi berildi. 1994-yilda esa Fanlar Akademiyasi tarkibiga O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tajriba instituti va tibbiyot klinikasi ham kiritildi.

Fanlar Akademiyasi tashkil etgan bunday tadbirlar olimlarga tibbiy va ijtimoiy fanlarni yanada rivojlantirish, xalq xo'jaligi va madaniyatini yuksaltirishda muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga yordam berdi. Qoraqalpoq shaharida erishilgan yutuqlar hamda to'rt jildlik «Qoraqalpoq tilining izohli lug'ati»ni yaratishdagi xizmatlari uchun Fanlar Akademiyasining 4 nafar ilmiy xodimi (M.Qalandarov, R.Yesemuratova, T.To'raboyev, D.Qozoqboyev) 1996 yilda O'zbekiston Respublikasining Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi tashkil etildi. Uning tarkibiga Sh.Musayev nomidagi Chimboy yer ishlari instituti hamda sholichilik va chorchachilik institutlarining filiallari kiritildi.

Nukusda O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy tekshirish institutining bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada oliy o'quv yurtlari ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Keyingi yillarda Toshkent olimlari ko'magida katta miqdordagi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlandi.



Respublikadagi 60 nafar fan doktori va 600 nafar fan nomzodidan deyarli 30 foizi O'zbekiston mustaqilligi yillarida ilmiy daraja oldilar.

Ilgari Fanlar Akademiyasi haqiqiy a'zoligiga saylangan Ch.A.Abdirov, S.K.Kamolov, A.B.Baxiyevlar qatoriga T.Yeshanov, A.Dauletov, U.Hamidov va J.Bozorboyev ham qabul qilindilar. 1997-yilda esa ikki nafar rassom (J.Izentayev va J.Quttimuratov) O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandilar.

Respublikada yuqori malakali kadrlar o'sishida, ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasi-

da O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tarix va arxeologiya, etnografiya, til va adabiyot bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qiluvchi ixtisoslashgan Kengashlarning tashkil etilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublika olimlari keyingi yillarda chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi «Bioekologiya» instituti xodimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993-yildan beri Orolbo'yi ekologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda.



1995-yilda Mo'ynoqda Germaniya Federativ Respublikasi yordamida «Bioekologiya» institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi.

«Tarix, arxeologiya va etnografiya» instituti Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari hamda fransuz arxeologlari bilan birgalikda ish olib bormoqdalar.

Adabiyot va san'at Mustaqil O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o'rin egallaydi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergan Qaipbergenov qatoriga yangi nomlar kelib qo'shildi. Saginbay Ibrohimov, Kenesboy Rahmonov kabi shoirlar, Guloysha Yesemuratova, O'zarboy Abdurahmonov, Muratboy Nizanovlar ana shular jumlasidandir.

2000 yil aprel oyida Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasida 1999 yilda yaratilgan badiiy asarlar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'ldi. Unda eng yaxshi asarlarga Qoraqalpoq Yozuvchilar uyushmasining mukofoti berildi. Jumladan, Davlatmurod Karimov «Qur'oni Karim»ni o'zbek tilidan Qoraqalpoq tiliga tarjima qilgani uchun, Gulchehra Rahimova mustabid tuzum qurbonlari haqidagi qissasi uchun va Minayxon Jumanazarova «Cho'lpon» nashriyotida chop etilgan «Qalbingizda qolgim keladi» she'rlar to'plami uchun mazkur mukofotga sazovor bo'ldilar. Ayniqsa, 1999-yil 4-mayda O'zbekiston Prezidentining Farmoniga ko'ra T.Qaipbergenov va I.Yusupovning «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlanishi respublika hayotida katta voqea bo'ldi.

1993-yil yanvarda Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari, noyabr oyida esa Qoraqalpog'istonda Toshkent madaniyati kunlari o'tkazildi. Xuddi shuningdek, 2000-yil iyun oyida Qoraqalpog'istonda Toshkent shahri va Xorazmdan kelgan madaniyat xodimlari va ijodkorlar ishtirokida ma'naviyat kunlari o'tkazildi. Dekabr oyida esa Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari uyushtirildi. Bu tadbirlar Nukus va Toshkent madaniyat xodimlari faoliyatini bir-birlariga yaqinlashtirdi. 1996-yilda Qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta «Oyjamol» nomli Qoraqalpoq baleti (N.Muhammedinova musiqasi, T.Xodjayev asari) sahnalashtirildi. 1996-yilda O'zbekiston mustaqilligining 5 yilligi oldidan o'tkazilgan «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq-tanlovida yosh qo'shiqchi Roza Kutekeyeva «Mustaqillik gullari» qo'shig'i bilan ishtirok etib, faxrli ikkinchi o'rinni oldi. Shu yili yana Amir Temur Bolining eng yaxshi ijrosi uchun tanlovida Berdaq nomidagi drama artisti Bozorboy Uzoqberganov qatnashib, birinchi o'rinni oldi. Bu misollar Qoraqalpog'iston san'atkorlari mustaqillik yillarida erishgan muvaffaqiyatlardan dalolat beradi.

Qoraqalpog'iston san'atida erishilgan muvaffaqiyatlarni keng targ'ib etishda

Rassomlar uyushmasi, I.V.Savitskiy nomidagi San'at muzeyi, Tarix-o'lkashunoslik muzeyi hamda Jangovor va mehnat shuhrati muzeylari katta ishlarni olib bormoqda.



Qoraqalpog'iston Jo'qarg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining «Erkin Qoraqalpog'iston», «Qoraqalpog'iston xabarleri» gazetalari, yozuvchilar uyushmasining «Amudaryo» jurnali, «Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog bo'limi xabarleri» ilgarigidek muntazam chiqarilmoqda. 1991-yildan respublikada hukumatga qarashli bo'lmagan «Orol qizlari» jurnali chop etila boshladi.

Istiqlol yillarida Nukus shahrining 60 yilligi, To'rtko'l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining 170 yilligi, Amir Temurning 660 yilligi keng nishonlandi. Bular O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixidagi eng muhim voqealar, o'zbek va qoraqalpog xalqlari o'rtasidagi do'stlik ramzidir.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Nukus shahrining 60 yilligi bayramida: **«O'zbekiston taqdiri, bu — Qoraqalpog'iston taqdiridir, o'zbek xalqining taqdiri, bu — qoraqalpog xalqining kelajagidir»** degan otashnafas so'zlari qoraqalpog xalqi xotirasida abadiy saqlanib qoladi.

Bugun Qoraqalpog xalqi shuni yaxshi biladiki, uning amaldagi suvereniteti, mustaqilligi faqat O'zbekiston bilan birga bo'lgandagina ta'minlanishi mumkin. Shuning uchun ham Qoraqalpog xalqi o'z taqdirini o'zbek xalqi va O'zbekiston bilan abadiy bog'lagan. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari buning mustahkam huquqiy katolatidir.



1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston xalqi milliy madaniyat taraqqiyotida qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?
2. Xalq ta'limi sohasida erishilgan yutuqlar nimalardan iborat?
3. Fan sohasidagi muvaffaqiyatlar xususida nimalarni bilasiz?
4. Adabiyot va san'at sohasida Qoraqalpog'iston xalqi qanday yutuqlarni qo'lga kiritdi?



Jadvalda keltirilgan tushunchalar mohiyatini ochib bering:

t/r	Tushunchalar	Tushunchalarning mohiyati
1.	Suveren Qoraqalpog'iston	
2.	Juqarg'i Kenges	
3.	Vazirlar Kengashi	
4.	Ijtimoiy-siyosiy islohotlar	
5.	Ekologik tahdid	
6.	O'zR FA Qoraqalpog bo'limi	

DEMOKRATIK VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANTIRILISHI

13-§. O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH YO‘LI. SUD ISLOHOTLARI

Demokratiya tamoyillari

Huquqiy demokratik davlat nima? Uning mohiyat-mazmuni-chi? — kabi savollar, albatta, har birimizni qiziqtiradi. Buning uchun eng avvalo «demokratiya»ning o‘zi nima, u qanday tamoyillarga ega va qanday ko‘rinishlarda sodir bo‘lishi mumkinligini idrok etmoq kerak bo‘ladi.

«Demokratiya» yunoncha «demos» — «xalq» va «kratos» — «hokimiyat» so‘zlaridan olingan bo‘lib, «xalq hokimiyati» ma’nosini anglatadi. Demokratiyaning shakl va mazmuni kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha bo‘lgan. Shu bois, demokratiyaning boshlanish nuqtasini, tugash nuqtasini ham aniq belgilashning iloji yo‘q. Ammo bitta narsani aniq aytish mumkin: inson paydo bo‘lgan dastlabki kunlardan boshlab demokratiyaga intilgan, uning dastlabki kurtaklari yuzaga kelgan. Ammo, kishilik jamiyati taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisi bo‘lgan XXI asr boshlarida sivilizatsiya va madaniyatning yuqori pog‘onasiga ko‘tarilgan mamlakatlarda ham demokratiya o‘zining so‘nggi cho‘qqisini zabt etgani yo‘q.



Demokratiyaning umumjahon miqyosida tan olingan tamoyillari:

- ◆ Har bir insonning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi va uni amalga oshirishi.
- ◆ Ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi.
- ◆ Barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e‘tiqodidan qat’iy nazar teng huquqliligi.
- ◆ Davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi.
- ◆ Davlat asosiy boshqaruv organlarining saylab qo‘yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berib turishi kabilardir.

O‘zbekistonning demokratik jamiyat qurish yo‘li

Endi haqli ravishda savol tug‘iladi. Xo‘sh, O‘zbekiston demokratiyaning qaysi yo‘nalishlaridan bormoqda? Huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish oliy maqsad ekan, unga erishishning yagona yo‘li demokratiyani chuqurlashtirishdir. Ayni paytda O‘zbekistonda davlatchilikning bu jihatiga qanday qaralmoqda?

Birinchidan, O‘zbekiston demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari va dunyo hamjamiyati e‘tirof etgan yo‘riqlarga amal qiladi. Biroq,

ma'lum bir mamlakatda demokratiyani joriy etishda faqat shuning o'zi kifoya qiladimi? Faqat shuning o'zi aholi barcha ehtiyojlarini, ma'naviy-ruhiy olamini qamrab ola oladimi? Yo'q! Chunki, har bir xalqning o'z turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabati va boshqa jihatlaridan kelib chiqib, demokratiyaga yondashish usuli bor. Shu ma'noda Prezidentimiz: **«Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto, fojeali natijalarga olib keldi. Inqilobni g'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi»**, deganida demokratiyani joriy etishning yurtimizda o'zbekona tamoyillari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach bir qator mamlakatlar, jumladan, Turkiya, Germaniya, Angliya, Fransiya va boshqa davlatlarning demokratik taraqqiyot yo'llari bilan yaqindan tanishdi. Bu mamlakatlarning demokratiyaning ibratli va o'rganishga arziqli tajribalaridan foydalanmoqda. O'zbekiston Prezidenti bu masala bo'yicha o'zining munosabatini aniq va ravshan bayon etdi. Har bir millat o'z milliy ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondashishi zarur. Ayniqsa, o'zbeklar singari juda qadimiy millat va juda boy an'analarga ega xalq ehtiyojlarini hisobga olmaslik og'ir natijalarga olib kelishi mumkin.

Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib, ko'r-ko'rona ko'chirish aslo samara bermaydi. Aksincha, bunday yo'l chalkash va xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, hurriyatga munosabatda ham boshqalardan andoza olish, mamlakat tub aholisi ruhiyatini hisobga olmaslik rahbarni ham, aholini ham, butun mamlakatni ham boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi. G'arb demokratiyasini Sharq mamlakatlarida ko'r-ko'rona joriy etish mumkin emas. Unga taqlid qilish kutilmagan fojialarga olib kelishi mumkin. Buning achchiq natijalarini Tojikiston misolida ko'rayapmiz. Erkinlik niqobidagi boshboshdoqlikka yo'l berish, davlat va boshqaruv apparatining behad kuchsizlanishi va bo'shashib ketishi, hokimiyat jilovining o'z holiga tashlab qo'yilishi ming-minglab xonadonlar boshiga kulfat keltirdi.

To'rtinchidan, odatda yakka-yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, xatti-harakatlari va fe'l-atvoridan umumjamiyat kayfiyati, uning ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Mustaqillik hayotimizga to'бора chuqurroq kirib borayotgan, yangicha ma'naviy, siyosiy muhit shakllanayotgan bir paytda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Endi har galgidan ham hushyorroq bo'lishimiz, qo'lga kiritgan buyuk ne'matni asray olishimiz kerak.

Shulardan kelib chiqib, Prezident Islom Karimov shunday degan edi: **«Demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni va hayotga tatbiq qilishni hamda ularni himoyalash zarurligini avvalambor jamiyatning o'zi anglamog'i darkor»**.

Ana shuning o'zi bizning jamiyat oldidagi, yangilanayotgan hayot oldidagi va kelajak oldidagi vazifalarimizni belgilaydi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlatning mohiyati

O'zbekiston o'zining bosh strategik maqsadi sifatida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdan iborat yo'lni tanlab olganligini oshkora sur'atda butun dunyoga e'lon qildi. Bu yo'lning mohiyati Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z taraqqiyot va istiqloq yo'li» (1992-yil), «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999-yil) va boshqa asarlarida nazariy-ilmii jihatdan asoslab berilgan.

«O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir», deb yozadi mamlakat Prezidenti. Albatta, bu strategik maqsad o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun jamiyat hayotining barcha sohalarida bir qator olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifani ro'yobga chiqarish kerak bo'ladi.



Strategik maqsad amalga oshishi uchun ro'yobga chiqarish kerak bo'lgan vazifalar:

- ♦ *Siyosiy sohada:* jamiyat hayotini quyidan to yuqori pog'onaga qadar demokratlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash.
- ♦ *Iqtisodiy sohada:* iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish; iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish; xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini oshirish; tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi barcha va har qanday to'siqlarni bartaraf etish.
- ♦ *Ijtimoiy sohada:* mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish.
- ♦ *Ma'naviyat sohasida:* xalqimizning ma'naviy qudratlarini ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish; o'zlikni anglash, milliy ong, milliy vijdonni uyg'otish va unga sayqal berish asosida xalqimiz ongida milliy g'oya va istiqloq mafkurasi tamoyillarini shakllantirish; tariximizni, Islom dini madaniyatini tiklash, ularni soxtalashtirish va siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslikdir.

Mustaqil taraqqiyot yillari O'zbekiston tanlagan yo'lning to'g'riligini isbotladi. Mamlakat bu yo'ldan borib demokratiyani rivojlantirishda katta yutuqlarga erishdi, xalqimizning hayotiy tajribalariga, milliy an'alariga mos tushadigan haqiqiy demokratiya tamoyillari qaror topmoqda. Umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi tobora mustahkamlanmoqda, yangi demokratik mezonlar hayotga chuqurroq kirib bormoqda, inson haq-huquqlari va erki Konstitutsiya yo'li bilan kafolat topmoqda. Millati, dini, siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar, har bir fuqaro teng huquqqa egadir. Respublikada yashovchi har bir fuqaro O'zbekiston ular har birining umumiy xonadoni ekanligini tobora teran anglamoqda.

O'zbekiston hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va ahil yashayotgani quvonchlidir. Maktablarda ta'lim 7 tilda olib borilmoqda, ko'plab tillarda gazetalar chop etilmoqda, teleko'rsatuvlar va radio eshittirishlar olib borilmoqda. Respublikada yashovchi millat va elatlarning manfaatini ifoda etuvchi 100 ga yaqin madaniy milliy markazlar ishlab turibdi.

Fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqiga amal qilinmoqda, respublikada 14 ta diniy konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilar shubhasiz islohotlar jarayonida respublikada yangi demokratik siyosiy tizimning asoslari yaratilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Sud hokimiyatining shakllantirilishi

O'zbekiston hukumati va shaxsan I.Karimov mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirish va uni chuqurlashtirishda sud hokimiyatining o'rni va roliga katta e'tibor bermoqda. Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab mamlakatda sud hokimiyatini tashkiliy jihatdan shakllantirishda bir qator amaliy ishlar qilindi. Bu borada amalga oshirilgan keng ko'lamli va katta ishlarga 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun tamal toshini qo'ydi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa demokratik huquqiy davlatchilik zaminini barpo etishning poydevori bo'lib tarixga kirdi.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:

11-modda. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipi asoslanadi.

Shubhasiz, hokimiyatning bunday bo'linishi tamoyilining Konstitutsiyada mustahkamlanishi mustaqillik tufayli erishilgan eng salmoqli yutuqlardan biridir. Chunki, ayni shunday, umum e'tirof etilgan, jahon tajribasida ko'rilgan amalga oshirish, Konstitutsiyaga va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarga, ijtimoiy adolat tamoyillariga og'ishmay amal qilish mumkin bo'ladi. Fuqarolarning tinchligi va ahilligini so'zsiz ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga zamin yaratildi.

O'tgan tarixan qisqa davrda sud hokimiyatini mustahkamlash, sud islohotlarini izchillik bilan o'tkazish masalalari hamisha davlat rahbarining e'tiborida bo'ldi. Oliy Majlisning 1995-yil 21-dekabrda to'rtinchi sessiyasida va 1996-yil 28-avgustdagi oltinchi sessiyasida sud hokimiyati uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmoq ekanligiga, odil sudlov tizimini kengaytirish va demokratiyalashtirish lozimligiga e'tibor berildi.

Xususan I.Karimovning quyidagi so'zlari bu borada diqqatga loyiqdir: «Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish — huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir... Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim».



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:

107-modda. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha

oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu mud-datga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tuman-lararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Huquqiy demokratik insonparvar davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida yangi tizim — huquq tarmoqlarini birlashtirishni va ular o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi Konstitutsiyaviy Sud yuza-ga keldi. Bu tizimning vujudga kelishi demokratik davlat uchun ulkan voqeadir.

Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlanishi odil sudlovni amalga oshirishda keng imkoniyatlar ochdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sho'ro davri konstitutsiyalarining birortasida «sud hokimiyati» degan so'z mutlaqo bo'lmagan.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi hozirgi zamon jahon davlatchiligining eng ilg'or tajribalariga mos keladi va xalqaro talablarga to'la javob beradi.

Konstitutsiyaning 106 va 116-moddalarida sud hokimiyatining asoslari aniq belgilanib, sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi mustahkamlangan. Shunga ko'ra, sud hokimiyati va sudyalar faqat qonungagina bo'ysunadilar. Bu qoida Konstitutsiyada qator kafolatlar bilan himoyalangan. Sud tizimining tuzilishi va Respublika barcha sud organlarining vakolatlari ham Asosiy Qonunda belgilab berilgan.



Mustaqil sud hokimiyatini amalga oshirish mexanizmlari va sud ish-larini ko'rishda adolatsizlik va qonunbuzarliklarga qarshi qo'llaniladigan javobgarlik choralari 1992-yil 10-dekabrda O'zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda va 1993-yil 2-sentabrda Respublika Oliy Kengashining XIII sessiyasida qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda belgilab beril-gan.

Bundan tashqari, O'zbekistonda Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual to'g'risidagi kodekslar qabul qilinib, ularda sud mustaqilligi tamoyillari, taraflarning tengligi, sud ishlarini yuritishda tortishuvlik va odil sudlovning boshqa demokratik me'yorlari mustahkamlangan.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixi davomida qonuniylikni ta'minlashning bundan o'zga mexanizmi topilgani yo'q. Sud hokimiyati mustaqilligi tamoyili bizning mamlakatimiz ham qo'shilgan juda ko'p xalqaro hujjatlarda, shu jumladan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston ko'p yillar davomida totalitar tuzum sharoitida yashab, hokimiyat bo'linishi tamoyili yo'qligi uchun sud hukmron partiyaning qonunsiz da'volarining himoyachisiga, kommunistik mafkuraning jazo organiga aylanib kelgan edi.

Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonun va «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida

harbiy hay'at tashkil etish to'g'risida»gi qaror asosida Qurolli kuchlarning harbiy sudlari, harbiy garnizon sudlari va ularning ish faoliyatlarini nazorat qilish uchun Respublika Oliy sudida harbiy hay'at tashkil etildi. Harbiy hay'at raisi lavozimi bo'yicha Oliy sud Raisining o'rinbosari hisoblanadi. Ularga Qurolli kuchlar safida, chegara qo'shinlarida, milliy xavfsizlik organlarida, Respublika Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlarida va boshqa harbiy tuzilmalarda xizmat qilayotgan, o'quv yig'inlaridagi shaxsiy tarkib tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlarini hamda Qurolli kuchlar harbiy qismlari qo'mondonlariga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'vosi bo'yicha bo'lgan fuqarolik ishlari va ularning g'ayriqonuniy harakatlari yuzasidan tushgan shikoyatlarni ko'rish vakolati yuklatilgan.

Ma'lumki, davlat va jamiyatning obro'si o'sha davlatda mavjud bo'lgan sud va sudyalarning qonun talablariga og'ishmasdan amal qilishlariga, qabul qilingan har qanday qarorlar qonun me'yorlariga nechog'lik mos kelishiga bevosita bog'liq. Darhaqiqat, yaxshi qonunlar bo'lsa-yu, sud tizimida ishlovchilar uning talablariga mos qaror qabul qilmasa sud tizimining obro'siga putur yetkazadi. Bu davlat va jamiyat obro'siga raxna soladi. Sud fuqarolar ko'z oldida ularning haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatida gavdalanishi shart.

Sud hokimiyatining obro'sini ko'tarish, uning xolisligini ta'minlash har bir sudyadan katta mas'uliyat, jasorat, bilim, tajriba orttirishni, poklik va adolatni barcha narsalardan ustun qo'yishni, davlat va xalqqa sodiq bo'lishni taqozo etadi. Shuning uchun ham sud va sudyalarning boshqa tarmoqlardan haqiqiy mustaqilligini, sud qarorlarini qabul qilishda faqat qonunga bo'ysunishini, sudning ham-mabop, himoya doirasi kengayishini ta'minlaydigan tadbirlar ko'rilmoqda.



1. Demokratiya mohiyati jihatidan qanday ma'noni anglatadi?
2. Demokratiyaning butun dunyoda tan olingan tamoyillari nimalardan iborat?
3. Sharqona demokratiyaning mohiyatini qanday tushunasiz va uning g'arb demokratiyasidan farqi nimada?
4. O'zbekiston Respublikasi tanlab olgan demokratik taraqqiyot yo'lini qanday tushunasiz?
5. Adolatli demokratik fuqarolik jamiyatining mohiyati nimada?
6. O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat qurish uchun qanday vazifalarni hal etish kerak bo'ladi?
7. O'zbekistonda sud hokimiyati zarurligini taqozo etgan omillar nimalardan iborat bo'ldi?
8. O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sudlari bajaradigan funksiyalar nimalardan iborat?
9. O'zbekistonda sud hokimiyati faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday tadbirlar amalga oshirildi?



Kundalik hayotingizdan kelib chiqib «Demokratik tamoyillardan qanday foydalanayapman?» mavzusida bayon yozing.

14-§. INSON HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI KAFOLATINING YARATILISHI

Inson huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va uni kafolatlash masalasiga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Chunki, mamlakatimizda uzoq davr hukm surgan mustamlakachilik yillarida o'lka fuqarolarining insoniy haq-huquqlari, erkinliklari va qadriyatlari har tomonlama kamsitildi va oyoqosti qilindi. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekiston hukumati oldida ushbu vaziyatni hisobga olgan holda ma'naviy-huquqiy jihatdan umidsizlikka tushgan o'z xalqining qaddi-bastini ko'tarish, uning qalbida ertangi istiqbolli va porloq hayotga ishonch tug'dirish uchun fuqarolarning haq-huquqlarini tiklash va uni amalga oshirishdek mas'uliyatli vazifa turar edi. Busiz mehnatkash ommani kelajakda huquqiy demokratik davlat barpo etishdek ulug'vor ishga safarbar etib bo'lmasdi. Ana shu olijanob ezgu niyatlar bilan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakat fuqarolarining huquq va erkinliklari e'lon qilindi, bu huquq va erkinliklarni amalda ta'minlash kafolatlandi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bir qator amaliy tadbirlar natijasida mamlakat hududida yashayotgan barcha fuqarolarga qaysi millatga mansubliklaridan qat'iy nazar hayotning hamma sohalarida: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa munosabatlarda teng huquqiy asoslar yaratib berildi. Bu huquqlarni davlatning o'zi himoya qilmoqda.

Ayniqsa, fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligi qonun bilan kafolatlab qo'yildi. Bu huquqlarning amalga oshirilishi me'yoriy qonunlar bilan mustahkamlandi. Jumladan, fuqarolarning dinga munosabati O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni (1998-yil) bilan tartibga solinib, ularning daxlsizligi ta'minlanmoqda.

O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muhofazasi va kafolati, e'tiqod, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa imkoniyatlar qonun bilan himoya qilinmoqda.

O'zbekistonda inson uchun eng oliy ne'mat — yashash huquqi va osoyishta hayot kechirish huquqi to'la ta'min etildi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi yanada mustahkamlanmoqda, demokratik jarayonlar odamlar ongi va qalbi orqali o'tkazilib, hayotga tobora chuqurroq kirib bormoqda.

O'zbekistonda mustaqil davlatchilikning jahon andozalariga mos keladigan, eng ilg'or tajribalari asosida vujudga kelgan zamonaviy usullar joriy etilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta'minlashning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Xalqaro miqyosda qabul qilingan tamoyillarga asosanib faoliyat ko'rsatadigan yangidan yangi huquqiy muassasalar tashkil etildi.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi huquqiy mexanizmlar yaratildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Istiqlol yillarida fuqarolarning huquqlarini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi, ularning turli sohalaridagi faoliyatini tartibga soluvchi 500 dan ortiq qonun va

Parlamentning qonunga tenglashtirilgan qarorlari tizimi vujudga keldi. 2000 dan ortiq Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Bu tarixan juda qisqa davrda amalga oshirilgan ishlar ko'lamini ko'rsatadi. Ularning aksariyati fuqarolar haq-huquqini muhofaza qilish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va to'la qaror toptirish asosida fuqarolarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng inson huquqlari bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar qo'llayotgan tamoyillarga sodiqligini namoyish etib kelmoqda.



O'zbekiston tomonidan inson huquqi va erkinliklariga doir bir qator xalqaro hujjatlar tan olindi. Ular: «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt va fakultativ Bayonnoma» jumlasidandir.

Bu xalqaro hujjatlar hozirgi zamon jahon davlatchiligini va jamiyatni demokratlashtirish jarayonida inson huquqlarini mustahkamlashning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni chog'da, O'zbekiston inson huquqlariga oid 30 dan ortiq Xalqaro Pakt va Konvensiyaga qo'shilgan. Davlatimiz 1996-yilning aprel oyida BMT komissiyasiga siyosiy va inson huquqlari bo'yicha Xalqaro Pakt normalarini bajarish borasida milliy ma'ruza matnini taqdim etdi.

O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillarini saylash, o'zini o'zi boshqarish asosida, referendumlar o'tkazish kabi demokratik huquqiy institutlar orqali qatnashadi. U o'z siyosiy huquqlarini kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, boshqa jamoat va ommaviy tashkilotlarda real ishtirok etish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» va boshqa jahon miqyosida tan olingan xalqaro huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, Oliy Kengash 1991-yil to'rtinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi (1996-yil) qonunlarni qabul qildi.

Mamlakatimizda jamoat tashkilotlari rolini oshirish, ular faoliyati samaradorligini ta'minlash asosida fuqarolarni o'z-o'zini boshqarishga tayyorlash, mahalliy davlat organlari ishini asta-sekinlik bilan jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklashning o'zi insonning yashash huquqini kafolatlash, unga erkinlik berish, ozod turmush tarzini yaratishning debohasidir.

Mamlakatda inson huquqlari bo'yicha Komissiya faoliyat ko'rsatmoqda. 1995-yil 23-fevralda Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili saylandi. Uning maqomi va faoliyat doirasi 1997-yil 26-aprelda qabul qilingan Oliy Majlisning «Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi Qonun bilan belgilab berildi.

1995-yil 30-avgustda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonun ham inson huquqi va erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlarini mukammallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov 1996-yil 28-avgustda bo'lib o'tgan Oliy

Majlisning birinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida: «**Navbatdagi muhim masala respublikaning qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq holga keltirishdir**», deb ta'kidladi.

Jahonda inson huquqlari sohasida 70 ta standart qabul qilingan. Bu hujjatlar-da hukumatning o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlari belgilab berilgan. O'zbekiston bu standartlardan 25 tasiga qo'shilgan.

**Inson huquqlari
bo'yicha O'zbekiston
Respublikasi Milliy
Markazi**

Demokratik jamiyatda inson huquqlari har tomonlama himoya qilinishi, har bir shaxs o'zining huquqlarini bilishi, buning uchun ularga huquqiy bilimlar berilishini takomillashtirish talab etiladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil oktabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tashkil etildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ◆ milliy harakat rejasini, shuningdek, Konstitutsiya, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish;

- ◆ inson huquqlari sohasida O'zRning xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish;

- ◆ O'zRda inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash;

- ◆ davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berib turish faoliyatini amalga oshirish;

- ◆ davlat organlarining inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida tahsil berish, targ'ibot, o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- ◆ O'zRda inson huquqlarini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlarning axborot bazasini barpo etish;

- ◆ davlat organlarining inson huquqlariga rioya etish va bu huquqlarni muhofaza qilish sohasidagi tavsiyalar tayyorlash;

- ◆ inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlarini yuzasidan tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishdan iborat.

Milliy Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra olib bormoqda.

O'quv-ma'rifiy yo'nalish bo'yicha 1997—2002-yillar mobaynida Markaz tomonidan 200 dan ortiq risola nashr etildi. Ommaviy axborot vositalarida maqolalar chop etildi. Televideniya ko'rsatuvlari tayyorlandi. Inson huquqlarini himoyalashning turli yo'nalishlari bo'yicha xalqaro va milliy miqyosda o'quv dasturlari, seminarlar, anjumanlar, ma'ruza kurslari va o'quv safarlari tashkil qilindi. Konrad Adenauer jamg'armasi va BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda huquqni muhofaza etish idoralari xodimlari uchun Andijon,

Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Namangan shaharlarida ixtisoslashgan o'quv seminarlari o'tkazildi.

Milliy Markaz tahliliy yo'nalish bo'yicha ham amaliy ishlar olib bormoqda. Oliy Majlis muhokamasiga qo'yib kelinayotgan inson huquqlari himoyasiga aloqador barcha qonun hujjatlarining muhokamasida faol qatnashmoqda, mazkur qonun loyihalarining ochiq muhokamasini tashkillashtirmoqda. Jumladan, «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Jurnalistning kasbiy faoliyatiga doir faoliyatini himoya qilish to'g'risida», «Axborot olish erkinligi kafolatlari to'g'risida», «Ta'lim to'g'risida» va boshqa bir qator qonunlarni muhokama qilish bo'yicha ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi.

Milliy Markaz **fuqarolarni qabul qilish** masalasiga ham katta e'tibor berayotir. 2002-yilning o'zida 6 mingdan ortiq ariza va shikoyat ko'rib chiqildi.

Ombudsman instituti nima?

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda 1997-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi Qonun alohida ahamiyatga ega.



Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan qator amaliy tadbirlar ham o'tkazildi. 1996-yil may oyida «Fuqarolarni huquqiy himoya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish» mavzusiga bag'ishlangan mamlakat huquqshunoslari konferensiyasi bo'ldi. Unda dolzarb masalalar muhokama qilindi, tajribalar umumlashtirildi. 1996—1997-yillarga mo'ljallangan Dastur va tadbirlar rejasi, 1997-yil avgustda esa «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi» qabul qilindi.

1996-yil sentabr oyida Toshkentda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar Kengash seminari ham o'z e'tiborini inson huquqlariga qaratdi.

1996-yil 15-noyabrda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Konrad Adenauer nomli xalqaro fond va BMTning O'zbekistondagi rivojlanish Dasturi vakilligi bilan birgalikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'ldi. Konferensiyada inson huquqlari muammosiga mintaqaviy yondashish va bu ishda parlamentning roli, inson huquqlari, demokratiya va shaxsni himoya etishning tarixiy-siyosiy jihatlari xususida fikrlashib olindi.

Jahon davlatchiligi nazariyasi va amaliyotining dalolat berishicha, Ombudsman to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi jamiyatda demokratiya yuksak darajada rivojlanayotganligining, davlat bilan fuqarolarning o'zaro munosabatlari inson huquqlari va erkinliklari ustuvor ekanligining ko'rsatkichidir.

«Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi

Qonunga va o'zining faoliyati davomida to'plagan tajribasiga muvofiq quyidagi ustuvor vazifalarni bajarishni o'z oldiga qo'ydi:

— O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari masalalariga doir qonun hujjatlariga (shu jumladan, xalqaro konvensiyalarga) rioya etilishida nazoratni ta'minlash va ularni takomillashtirishga ko'maklashish;

— shikoyatlar ko'rib chiqilishining aniq mexanizmini yaratish va fuqarolar huquqlarining tiklanishi uchun samarali choralarni ko'rish;

— Ombudsmanning fuqarolar, nohukumat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan inson huquqlari monitoringi sohasidagi hamkorligini mustahkamlash;

— fuqarolarning turli toifalari o'rtasidagi axborot-ma'rifiy faoliyatini amalga oshirish;

— Ombudsmanning inson huquqlari masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish kabilardir.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili BMTning Inson huquqlari bo'yicha markazi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Natijada, 2002-yilgacha chet el delegatsiyalari bilan 100 dan ortiq uchrashuv o'tkazildi.

Inson huquqlari bo'yicha Vakil BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining Jenevada bo'lib o'tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so'zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo'yicha Vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida nutq so'zladi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

2003-yilga kelib, Ombudsmanning barcha viloyatlar va Toshkent shahrida vakillari samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, mustaqil O'zbekistonda inson huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun keng imkoniyat yaratildi. Bu O'zbekistonda qurilajak adolatli, demokratik, fuqarolik jamiyatining muhim omilidir.



1. Inson huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat ekanligining mohiyati nimalardan iborat?
2. Mamlakatimizda fuqarolar huquqlari va erkinliklarini kafolatlash uchun qanday tadbirlar amalga oshirilgan?
3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy Markazi qachon tashkil etildi?
4. Uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) qanday ishlar bilan shug'ullanadi?



«O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi»dan inson huquqlari va erkinliklariga tegishli moddalarni tahlil qiling va ularni daftaringizga yozing.

15-§. DEMOKRATIK SAYLOV TIZIMINING BARPO ETILISHI

Saylov tizimining asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab berilgan fuqarolarning saylash va saylanish huquqlarining asosiy tamoyillariga muvofiq demokratik jamiyatga xos saylov tizimi shakllantirildi. 1991-yil 18-noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida»gi, 1993-yil 28-dekabrda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashiga saylov to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar saylov tizimining huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.



2003-yil avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq o'n ikkinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Mazkur Qonun ikki palatali parlament saylovining huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiya va qonunlarda saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan har bir fuqaroning ovoz berishda bevosita ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Sud tomonidan huquqiy muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki sud hukmi-ga ko'ra ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saylovlarda qatnasha olmaydilar.

O'zbekistonda saylovlar umumiy va tenglikka asoslanadi. Har bir saylovchi bitta ovozga ega. Mamlakat fuqarolari ijtimoiy kelib chiqishi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatlari, faoliyat turi va harakati, ijtimoiy va moddiy ahvolidan qat'iy nazar, teng saylov huquqiga egadirlar.

Mamlakatimizda saylovlar nomzodini to'g'ridan-to'g'ri, bevosita saylashga qaratilgan. Buning ma'nosi shuki, Prezident, Oliy Majlis, hokimiyatning mahalliy organlariga bo'lgan saylovlarda har bir saylovchi bevosita o'zi ishtirok etadi.

Saylovlarda yashirin ovoz berish ta'minlanadi. Har bir saylov uchastkasining ovoz beradigan joyda saylov byulletenlarini to'ldirish uchun alohida xonalar tashkil etilgan bo'ladi. Bu xonalarda ovoz beruvchidan boshqa biron-bir kishining bo'lishi man qilinadi. Byulletenni mustaqil to'ldirish imkoniga ega bo'lmagan saylovchi o'z xohishiga ko'ra saylov komissiyasi a'zosidan boshqa biror shaxsni xonaga taklif etishi mumkin. Saylov byulletenida yashirin ovoz berish tartibini buzadigan biron-bir belgi, ishora, raqam yoki saylovchining familiyasi bo'lmasligi qonunlashtirib qo'yilgan.

O'zbekiston saylov tizimining muhim tamoyillaridan biri saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishidir. Saylov belgilangan kundan kamida olti oy burun Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan siyosiy partiyalar deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga ega. Shuningdek, Oliy Majlis deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqi vakolatli hokimiyat organlari — Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashiga berilgan. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tuman va shahar kengashi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga egadir.



«O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq ikki palatali parlamentning Qonunchilik palatasiga faqat siyosiy partiyalar va kamida yuz nafar saylovchidan iborat tashabbuskor guruh deputatlikka nomzod ko‘rsatishi mumkin.

Qonunda har bir fuqaro-saylovchi bir ovozga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. 35 yoshdan kichik bo‘lmagan fuqaro O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to‘lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to‘lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega. Fuqaro bir vaqtning o‘zida ikkidandan ortiq vakillik organining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Saylov huquqlarining kafolatlanishi

Saylovchilar umumxalq ovoziga qo‘yilgan masalalarni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko‘rsatilgan nomzodlarni va hokimiyatning vakillik

organlariga ko‘rsatilgan nomzodlarni yoqlab yoki ularga qarshi tashviqot yuritish huquqiga egadirlar.

Butun saylov kompaniyasi keng oshkoralik asosida o‘tadi. Fuqarolarning saylov huquqlari sud yo‘li bilan himoya qilinadi. Kuch ishlatish, aldash, qo‘rqitish orqali yoki boshqa yo‘llar bilan fuqarolarning saylash va saylanish, referendumda ishtirok etish, saylovoldi targ‘ibotini olib borishdan iborat huquqlardan foydalanishlariga to‘sqinlik qilish Qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Saylov komissiyasining mustaqilligi qonun bilan himoya etiladi. Oliy Majlis tomonidan Markaziy saylov komissiyasi tuziladi. Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalarini tuzadi. Saylov komissiyalari tarkibida siyosiy partiyalar a‘zolarining bo‘lishi man etiladi.

O‘zbekistonda saylov yakunlarini eng demokratik usul bilan aniqlash belgilangan. Saylov natijasida saylovda qatnashganlarning 50 foizidan bitta ortiq ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarli ovoz ololmasa, ikkinchi tur saylovi o‘tkaziladi. Basharti, saylovda saylovchilar ro‘yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami ishtirok etgan bo‘lsa saylov o‘tmagan deb topiladi. Ikkinchi turda saylov okrugida ishtirok etgan nomzodlar orasidan boshqalariga nisbatan ko‘proq ovoz olgan ikkitasi qaytadan saylovga qo‘yiladi va ular orasidan ko‘p ovoz olgan nomzod yutib chiqadi.



1994-yil 5-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun saylovchilar huquqlarini kafolatlovchi muhim huquqiy hujjat bo‘ldi.

Mustaqillik davrida yaratilgan eng demokratik saylov tamoyillari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari deputatlari saylovi, shuningdek, muhim masalalar bo‘yicha referendumlar o‘tkazildi. Ularning yakunlari respublika mamlakat fuqarolarining faolligini yaqqol ko‘rsatdi.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan saylov va referendumlarning natijalari o‘zbekistonliklarning Prezident va hukumat o‘tkazayotgan siyosatga, mamlakatimizning

siyosiy va iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ishonchi mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Referendum yakunlari xalqning islohotlarni yanada chuqurlashtirish va oxiriga yetkazish tarafdori ekanligini bildiruvchi belgidir.



1. Qanday hujjatlar saylov tizimining huquqiy asoslari bo'lib xizmat qilmoqda?
2. Kimlar saylash va saylanish huquqiga ega?
3. Saylov tizimining asosiy tamoyillarini tushuntiring.
4. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish tartibi qanday?
5. Saylov komissiyalari qanday tartibda tuziladi?
6. Saylov yakunlari qanday usulda aniqlanadi?
7. Saylov huquqining kafolati haqida so'zlab bering.



7-ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Oliy Majlisi to'g'risidagi moddalarini tahlil qiling va xulosangizni daftaringizga yozing.

16-§. SIYOSIY PARTIYALAR VA JAMOAT TASHKILOTLARINING SHAKLLANISHI

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik muhitining yaratilishi

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab ko'ppartiyaviylik va hur fikrlik tarafdori ekanligini butun dunyoga oshkor qildi. Chunki, ko'ppartiyaviylik va fikrlar xilma-xilligi jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlaridan biridir. Ko'ppartiyaviylik qonun ustuvor bo'lgan va rivojlangan demokratik jamiyatlar faoliyatining tarkibiy qismi va muhim poydevor ko'rsatkich hisoblanadi. Uning eng muhim va o'ziga xos belgisi — bu jamiyatda hurfikrlik, xilma-xil fikrlash asosida tashkil topgan turli siyosiy partiyalarning faoliyat ko'rsatishidir. Ko'ppartiyaviylik va erkin fikrlash bo'lmagan jamiyatda rivojlanish ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi.

Siyosiy partiyalar o'z harakat dasturlarida fuqarolar turli ijtimoiy guruhlarini manfaatlarini ifoda etadilar va uni parlament, davlat hokimiyati, mahalliy vakillik idoralari kabilar orqali ro'yobga chiqarish va amalga oshirishga harakat qiladilar. Bu hol esa, albatta, jamiyatda siyosiy partiyalarning erkin harakat qilishi va siyosiy raqobat uchun zarur shart-sharoitlar bo'lishini taqozo etadi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy partiyalar, uyushma va harakatlarning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar va huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalarida, O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunlarida, xususan, Oliy Majlisning 1996-yil dekabrda bo'lgan yettinchi sessiyasida qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonun bunga yorqin misol bo'la oladi. Bundan tashqari, mamlakatda ko'ppartiyaviylik, hurfikrlik va oshkoralik muhitini yaratishda O'zbekiston parlamenti tomonidan qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (1991-yil 14-iyun), «Jamoat tashkilotlari to'g'risida»gi (1991-yil 15-fevral), «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (1991-yil 14-iyun), «Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining

huquqlari va kafolatlari to'g'risida»gi (1992-yil 2-iyul) qonunlar ham e'tiborga loyiqdir.

«Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunda shunday deyilgan: «Siyosiy partiya — qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir».



Bugungi kunda O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiya mavjud:

- ◆ Xalq demokratik partiyasi (XDP) — 1991-yil 1-noyabrda tashkil etilgan.
- ◆ «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) — 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan.
- ◆ Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP) — 1995-yil 3-iyunda tashkil topgan.
- ◆ «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi (FMDP) — 1998-yil 28-dekabrda tashkil topgan.
- ◆ Liberal demokratik partiyasi (LDP) — 2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan.

Bundan tashqari, «Xalq birligi» jamoatchilik harakati (1995-yil) faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu siyosiy tashkilotlarning jamiyatda tutgan o'rni va mehnatkashlar ommasi o'rtasidagi obro'-e'tibori ular ishlab chiqqan va amal qilayotgan dasturlar nechog'lik xalq ommasining istak va intilishlarini ifoda etganligi va mazkur siyosiy partiyalarning qay darajada hokimiyatga hamda o'zaro bir-birlari bilan muxolifatga aylanganliklariga bog'liqdir.

Muxolifat nima?

Darhaqiqat, «Muxolifat» deganda biz nimani tushunamiz?



Arabcha «muxolifat» — «kelishmovchilik», «teskarilashish», «qarama-qarshilik», «ziddiyat» kabi ma'nolarni anglatadi.

Muxolifat turli ko'rinishlarda sodir bo'lishi mumkin: a) Parlament doirasidagi muxolifat; b) Parlament doirasidan tashqaridagi muxolifat; d) Siyosiy partiyalar saflaridagi o'zaro ichki partiyaviy muxolifat.

Parlament doirasidagi muxolifat mamlakatda bo'lib o'tgan saylovlar davomida turli xil g'oyaviy-siyosiy va mafkuraviy qarashlardagi siyosiy partiyalar vakillaridan parlamentga saylangan deputatlar guruhi bo'lib, ular parlamentda hukumatga, hukmron partiyaga muxolifat bo'lib alohida fraksiyaga uyushadilar. Mazkur fraksiyalar ijtimoiy-siyosiy masalalarda mamlakatda hukmron siyosiy partiya va hukumat yuritayotgan siyosatga qo'shilmasligi va o'zining ayri-ayri, undan farq qiluvchi yo'lini — dasturini ilgari surishi mumkin.

Parlamentdan tashqaridagi muxolifat esa mamlakat Oliy organi — parlament-

ga saylovlar davomida o'z vakillarini o'tkaza olmagan, ammo ijtimoiy-siyosiy masalalarda mamlakatni boshqarayotgan hukumat va siyosiy partiya muxolifatida bo'lgan siyosiy partiyadir.

Ichki partiyaviy muxolifat esa muayyan partiya rahbariyatining rasmiy siyosati-ga, ish uslubiga, yo'l-yo'rig'iga qo'shilmagan, undan norozi bo'lgan partiya a'zo-lari guruhidir.

Taraqqiy topgan barcha demokratik mamlakatlarda muxolif siyosiy partiyalar mavjud va ular faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Turli partiyalarning bu xildagi qutb-lashuvi odatda parlament doirasidagi muxolifat shaklida ko'zga tashlanadi.

Kommunistik partiyaning yakkaboshchilikdan iborat boshqaruv tizimi hukm-ron bo'lgan Sho'ro tuzumi davrida biror bir muxolifatdagi kuchning bo'lishi mumkin emas edi. Shu bois ham jamiyat inqirozga uchradi. Jamiyatni tang holat-dan olib chiqish va uning yangi taraqqiyotiga yo'l ochish niyatida M.S.Gorbachev hukumati 80-yillarning o'rtalaridan boshlab ma'lum ma'noda demokratiyaga, hur-fikrlilikka va muxolifatga yo'l berdi va birin-ketin KPSSga muxolifatda bo'lgan siyosiy partiyalar va xalq harakatlari vujudga kela boshladi.

O'zbekistonda ham bunday siyosiy jarayon o'ziga xos davom etdi. Shaxsan Prezident I.A.Karimov homiyligida ko'chalarda baqir-chaqir qilib yurgan «siyosatchi»larga qonuniy imkoniyat berildi. Rasman 1989-yilning 28-mayida vujudga kelgan «Birlik» xalq harakati va 1990-yil 30-aprelda tashkil topgan «Erk» demokratik partiyasi shular jumlasidandir. Ular o'z maqsad va intilishlari bilan mavjud mustamlakachilikka asoslangan tuzumga qarshi edilar. O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va boshqa bir qator talablarni o'rta qo'yib chiqqan edilar. Ammo, «Birlik» xalq harakati va «Erk» demokratik partiyasi rahbarlarining fojiasi shunda ediki, ular jamiyat taraqqiyotining obyektiv rivojlanish qonunlarini tushunmas yoki tushunishni ista-mas edilar. Jumladan, ular Sho'rolar mustamlakachiligi davrida qanday kurash yo'lini tanlagan bo'lsalar, O'zbekiston mustaqillikka erishgan va mamlakatda ijo-biy demokratik o'zgarishlar amalga oshirilayotgan davrda ham o'z eski usuldagi kurash yo'llarini o'zgartirmadilar. Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumatining har qanday faoliyatini o'jarlik bilan faqat qora bo'yoqlarda ko'rsatishdan nariga o'tmadilar.

Siyosiy partiyalar huquqiy maqomlari

Mustaqillik yillarida qabul qilingan rasmiy hujjatlarda ko'ppartiyaviylik tizimi qonuniy asoslanishi bilan birga siyosiy partiyalarning huquqiy maqomlari ham o'zining yuridik intihomini topdi. Odatda, rivojlangan demokratik mamlakatlarda siyosiy muxolifatdagi partiyalar saylovlarda g'oliblik shohsupasiga ko'tarilgan raqib-lariga rasmiy dasturlari asosida hokimiyatda faollik ko'rsatishlariga to'sqinlik qil-maydilar. Hokimiyat uchun kurash asosan saylov kompaniyasi davrida olib borila-di. Bu demokratik jarayon qaror topgan jahondagi ilg'or mamlakatlarda hayot sinovidan o'tgan tajriba. O'zbekiston Respublikasi ham ana shu yo'ldan borishni o'z taraqqiyotining asosiy mezonini qilib olgan va bu borada amaliy qadamlar qo'ymoqda.

Albatta siyosiy partiyalar jamiyatda amal qilishlari lozim bo'lgan huquqiy maqomlarni bilmasalar, harakat dasturlari nechog'lik olijanob bo'lmasin, uni amal-ga oshirib bo'lmaydi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 25-dekabrda qabul qilgan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni katta

ahamiyat kasb etadi. Unda ko'ppartiyaviylikning asosiy mezonlari, siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari har tomonlama ko'rsatib berilgan.

Albatta, siyosiy partiyalar o'z harakat dasturlari asosida xilma-xil qarashlarni ilgari suradilar va rivojlangan huquqiy demokratik jamiyatni barpo qilishga hissa qo'shadilar. Ammo siyosiy partiyalar milliy istiqolol mafkurasi tamoyillarini o'z harakatlarining bosh mezoniga aylantirmoqlari lozim. Milliy istiqolol g'oyasiga zid dasturni ilgari suruvchi partiyalar faoliyatiga yo'l qo'yish mumkin emas. Chunki, «Milliy istiqolol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» (2000-yil) risolasida qayd etilganidek: «...Xalq manfaatlarini, istiqolol g'oyalari qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'iy nazar barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir». Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida ko'zda tutilgan masalalar diqqatga loyiq.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:

12-modda. Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Shuningdek, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasida siyosiy partiyalar Respublika Oliy Majlisiga saylangan o'z vakillari ishtirokida alohida fraksiyaga uyushish huquqiga ega ekanliklari ham aniq va ravshan belgilab qo'yilgan (*11-ilo*va).

Partiyalar fraksiyalari har bir partiya fraksiyasi rahbarining bergan tegishli arizasi va ta'sis hujjatlariga asosan Oliy Majlis tomonidan ro'yxatga olinadi. Siyosiy partiya fraksiyasining rahbari Oliy Majlis Kengashi tarkibiga kiradi.

Fraksiyalarning faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining kotibiyati tomonidan ta'minlanadi. Bundan tashqari, mazkur Qonunda siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida tashkiliy va amaliy jihatdan shakllantirish va ular faoliyatining qonuniy yo'nalish va asoslari belgilab berilgan.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishgandan keyingi-yillarda 5 ta siyosiy partiya vujudga keldi va ular faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP) 1991-yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis Qurultoyida Nizomi va dasturi qabul qilindi va 1991-yil 15-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olindi.



Xalq demokratik partiyasi mamlakatda adolatli jamiyat qurish uning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, O'zbekiston xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, fuqarolar totuvligini ta'minlash, har bir

mehnatkashning moddiy va ma'naviy turmushini yaxshilash, fuqarolarning teng konstitutsiyaviy haq-huquqlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston XDPning oliy organi — Qurultoy 5 yilda bir marta chaqiriladi. Unda partiyaning rahbar organlari saylanadi.

O'zbekiston XDP parlament partiyasidir. O'z a'zolaridan Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar paytida nomzodlar ko'rsatib davlat hokimiyati organlarining barcha bo'g'inlarida ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi qarori bilan partiyaning 69 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olindi.

1999-yil 5- va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylangan deputatlardan 48 nafari XDP vakilidir.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi tarkibida 218 ta viloyat, shahar va tuman kengashlari, 13 ming 665 boshlang'ich, jumladan, 3952 hududiy tashkilotlar ish olib bormoqda. Uning 420 mingga yaqin a'zosi bor.

XDPning «O'zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetolari va «Muloqot» jurnali mavjud.

«Vatan taraqqiyoti» partiyasi

O'zbekiston milliy istiqloli yillarida siyosiy kuch sifatida shakllangan partiyalardan yana biri — «Vatan taraqqiyoti» partiyasidir (VTP). U 1992-yil 24-mayda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning Nizomi va dasturi qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1992-yil 10-iyulda ro'yxatga olingan.



«Vatan taraqqiyoti» partiyasining asosiy maqsadi mustaqil O'zbekiston Respublikasida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy demokratiya prinsiplariga asoslangan, yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topgan adolatli fuqarolik jamiyatini qurish edi.

Partiya o'zining a'zolarini Oliy Majlisga, mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar vaqtida nomzod etib ko'rsatdi va davlat hokimiyati organining faoliyatida ishtirok etdi.

1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida partiyaning 14 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olindi.

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) 1995-yil 18-fevralda Toshkentda o'z ishini olib borgan I ta'sis Qurultoyida tuzilgan. Qurultoyda uning Nizomi va dasturi qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995-yil 18-fevralda ro'yxatga olingan.



«Adolat» sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadi mustaqil O'zbekiston Respublikasida barcha millat va elatlarning umumiy manfaatiga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yetuk, demokratiya tamoyillariga asoslangan adolatli fuqarolik jamiyat qurishda faol ishtirok etishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi qarori bilan ushbu partiyaning 47 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olindi.

1999-yil 5- va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 11 nafari «Adolat» sotsial-demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir.

O'zbekiston «Adolat» SDP safida 30 mingdan ortiq a'zo bor. Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlarda, shuningdek 175 shahar va tumanlarda partiya Kengashlari tuzilgan. Joylarda 1000 dan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlari ish olib bormoqda.

Partiyaning «Adolat» nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi mavjud.

O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi

O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP) 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda partiya Nizomi va dasturi qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995-yil 9-iyunda ro'yxatga olingan.



O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining bosh maqsadi milliy manfaatlar milliy yakkilikni ta'minlash, huquqiy davlatni barpo etish va O'zbekistonni jahonning yetakchi davlatlari safiga olib kirish uchun xalqni safarbar qilish. MTDP millatning o'z-o'zini anglashi, fuqarolarda Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini to'la shakllantirish, bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyat qurish, milliy tiklanish yo'lidan rivojlanishga erishish, milliy meros va an'analarni ro'yobga chiqarish, millatni ilmiy, texnikaviy salohiyatini yuksaltirish va demokratik jamiyat qurish uchun kurashadi.

1999-yil 5- va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 10 nafari Milliy tiklanish demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir.

O'zbekiston MTDPning oliy organi 5 yilda chaqiriladigan qurultoy bo'lib, unda rahbar organlar saylanadi. Hozirda joylarda partiya tashkilotlari va bo'g'inlari ish olib bormoqda. Uning 6 mingga yaqin a'zosi bor.

MTDPning «Milliy tiklanish» haftalik gazetasi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi

O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi 1998-yil 28-dekabrda bo'lib o'tgan I ta'sis Qurultoyda tuzilgan. Qurultoyda uning Nizomi va dasturi qabul qilinib, Adliya vazirligi tomonidan

1999-yil 4-yanvarda ro'yxatga olingan.



Partiyaning vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishidan bosh maqsad — ko'p ukladli iqtisodiyotga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga hamda unga xizmat qiladigan demokratik-huquqiy davlatni barpo etish ishiga hissa qo'shishdir.

Ushbu bosh maqsadni ro'yobga chiqarish uchun hozirgi vaqtda joylarda mazkur partiyaning 2000 boshlang'ich hududiy tashkilotlari, 202 ta tuman va shahar partiya tashkilotlari hamda 14 ta viloyat maqomiga ega partiya tashkilotlari faoliyat ko'rsatyapti.

1999-yil 5- va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 34 nafari Fidokorlar milliy demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir.

2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan Prezidentlikka saylovda Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodi ham aynan Fidokorlar milliy-demokratik partiyasidan ko'rsatildi. Xalqaro miqyosda umume'tirof etilgan demokratik tamoyillarga to'liq rioya qilingan holda xorijiy va mahalliy kuzatuvchilarning nazorati ostida odilona tarzda, muqobillik asosida o'tkazilgan mazkur saylovda Fidokorlar partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi respublika tarixi muhim voqeadir.

2000-yil 14-aprelda «Vatan taraqqiyoti» partiyasi va «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasining qo'shma qurultoyi bo'ldi. Unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilindi va ular birlashib ishlash maqsadga muvofiq degan xulosaga keldilar. Partiyalar birlashib, Vatan taraqqiyoti yo'lida xizmat qilishga qaror qilindi. Birlashgan partiyaning nomi «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi deb ataldi.

Partiyalar Oliy Majlisdagi fraksiyalarini ham birlashtirdilar. Natijada FMDPning Oliy Majlisdagi fraksiyasi a'zolari soni 54 taga yetdi.

Partiyaning «Fidokor» nomli ijtimoiy-siyosiy gazetasi mavjud.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (LDP) 2003-yil 15-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzilgan. Qurultoyda uning Nizomi va dasturi qabul qilinib, Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 3-dekabrda ro'yxatga olindi.

LDP mamlakatimizda davlat va jamiyat tizimi rivoji va yangilanishida, Vatan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarning jadal sur'atlar bilan amalga oshirilishida faol ishtirok etadigan yangi siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi.



O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining asosiy vazifasi mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hamda jamiyatimiz taraqqiyotining boshqa sohalarini erkinlashtirish, davlat va jamiyatni demokratik asosda yangilash, islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan dasturni hayotga tatbiq qilishdan iborat.

Partiyaning «XXI asr» nomli ijtimoiy-siyosiy gazetasi mavjud.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakati

Mamlakatda «Xalq birligi» harakati 1995-yil iyundan faoliyat ko'rsatmoqda. Adliya vazirligi 1995-yil 9-iyunda ro'yxatga olgan.



O'zbekiston «Xalq birligi» harakatining asosiy maqsadi ko'p millatli mamlakatda millatlar birligini yanada mustahkamlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan huquq va kafolatlarini to'la-to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat.

«Xalq birligi» harakatining oliy organi — Qurultoy 4 yilda bir marta chaqiriladi. Unda rahbar organlar saylanadi.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakatining «Birlik» va «Yedinstvo» haftalik gazetalari mavjud.

O'zbekiston Kasaba uyushmasi

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari va nodavlat uyushmalari vujudga keldi. 2002-yilga kelib ularning soni 2500 dan oshib ketdi.

O'zbekistondagi eng ommaviy jamoat tashkilotlaridan biri — bu O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmasidir. Unda turli kasb egalari bo'lgan mehnatkashlar jinsi, diniy e'tiqodlari, irqiy va milliy mansubliklaridan qat'iy nazar ixtiyoriy birlashganlar.

Kasaba uyushmalarining tashkiliy tuzilishi o'zgardi. Uning asosini jahon kasaba uyushmalari amaliyoti andozalariga mos keladigan **federalizm**, demokratiya, mustaqillik va ixtiyoriylik tamoyillari tashkil eta boshladi. Kasaba uyushmalarining tuzilishi federalizmga asoslangan. Quyidan yuqorigacha barcha kasaba organlari kasaba uyushmalari a'zolari tomonidan saylangan vakillarning yig'ilishlari, konfrensiyalari va qurultoylarida saylanadi va ular oldida hisob beradi. Kasaba uyushmalarining har bir a'zosi saylash va saylanish, yig'ilishlar, matbuot va boshqa vositalar orqali kasaba uyushmalari hamda ma'muriy organlar faoliyatiga taalluqli masalalarni qo'yishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalarining 53 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotga birlashgan 7,5 milliondan ziyod a'zosi bor. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tarkibida 21 tarmoq kasaba uyushmalaridan tashqari hududiy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat hamda Toshkent shahar kasaba uyushmalari kengashlari mavjud.



1. Ko'ppartiyaviylik va hurfiylik deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik muhitini yaratish borasida nima ishlar qilindi?
3. «Muxolifat»ning ma'no-mohiyati nimadan iborat?
4. Siyosiy partiyalarning huquqlarini so'zlab bering.
5. Oliy Majlisdagi siyosiy partiyalar fraksiyalari qanday huquqlarga ega?

6. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining tashkil topishi va uning faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. O'zbekiston Milliy tiklanish partiyasi qachon tashkil topdi? Uning dasturiy maqsadi va faoliyatini ayting.
8. «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining tashkil etilishi, uning dasturiy maqsadlari va faoliyatini tushuntiring.
9. O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi qachon tashkil topdi? Bu partiyaning dasturiy maqsadi va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
10. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi nima maqsadda tuzilgan va uning vazifasi nimalardan iborat?
11. «Xalq birligi» harakati haqida so'zlang.
12. O'zbekistonda qanday jamoat tashkilotlari va uyushmalarini bilasiz? Ularning faoliyati haqida so'zlab bering?



O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalardan birini tanlang va uning faoliyati yuzasidan fikr-mulohazalaringizni yozing.

17-§. SOXTA DEMOKRATLARNING EKSTREMISTIK FAOLIYATI VA ULARNING FOSH BO'LISHI

O'tish davrining qiyinchiliklari

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillarda bir qator qiyinchiliklarni bosib o'tishga to'g'ri keldi. Bu qiyinchiliklar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va ma'naviy hayotiga daxldor bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat edi:

Birinchidan, siyosiy va davlat qurilishi sohasidagi qiyinchilik edi. O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini e'lon qilgan paytda davlat boshqaruv mashinasini darhol o'z qo'liga oladigan tayyor idora mexanizmi hali yaratilmagan edi. Uni yo'l-yo'lakay, qadamba-qadam yaratishga to'g'ri keldi. Ma'lum muddatga qadar Sho'ro tuzumi davrida yaratilgan va shakllantirilgan davlat boshqaruv mexanizmidan foydalanishga majbur bo'lindi. Sho'ro davridagi davlat boshqaruv mashinasi esa bata-mom markazning topshirig'i va buyrug'ini so'zsiz bajarishga bo'ysindirilgan bo'lib, unda egalik tuyg'usi, milliylik va ijodiy bunyodkorlik kabi xususiyatlar begona edi.

Ikkinchidan, iqtisodiy sohadagi qiyinchilik. Sho'ro zamonida mamlakat xalq xo'jaligi yuz foiz markaz hukmiga bo'ysindirilgan edi. U asosan markazning xomashyo yetkazib beruvchi bazasi bo'lib qolgan edi. O'zbekiston o'zining ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'iga ega emas edi. U markazga yetkazib beradigan xomashyo tovarlari hisobiga tayyor iste'mol mollarinig 60% ni o'zga respublikalardan olardi. Respublika o'zining davlat mustaqilligini e'lon qilgach, chetdan kelib turgan bu iste'mol mollaridan ham mahrum bo'lib qoldi. Qardosh respublikalardan keladigan ehtiyot qismlar hisobidan faoliyat ko'rsatib turgan mamlakat sanoat korxonalarining ko'plari to'xtab qoldi. Bu qiyinchiliklar mamlakat aholisini zarur bo'lgan iste'mol mollar bilan ta'minlashda bir qator muammolarni keltirib chiqardi.

Uchinchidan, ma'naviyatda mustahkam o'rnashib olgan Sho'ro mafkurasi

ta'sirida jamiyat ijtimoiy hayotida aks sado berayotgan kemtiklar va kamchiliklar tufayli kelib chiqayotgan qiyinchiliklardir. O'zbekiston o'z milliy davlat mustaqilligini e'lon qilgan bo'lsada, respublika hududida yashab istiqomat qilib kelayotgan xalq ommasi asosan Sho'ro mafkurasi ruhida tarbiya topgan va ongi shakllangan edi. Shu bois, ularning ongida boqimandalik, tayyorga ayorlik, vatan va millat taqdiriga befarqlik, tobelik va qullik kabi illatlar mustahkam o'rin olgan bo'lib, ularda yurtga egalik hissi mutlaqo so'nib ketgan, milliy ong, milliy tuyg'u barham topish darajasiga borib qolgan edi.

To'rtinchidan, kadrlar bilan bog'liq qiyinchiliklar. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda milliy istiqolol g'oyasi va mafkurasi ruhida ongi va shu-ur shakllangan, Vatan millat va xalq dardi bilan yonib kuyadigan kadrlarga ega emas edi. Boshqaruv idoralarida mansab shohsupasini egallab turgan xodimlar sho'rolarning boshqaruv tegirmonida «chiniqib tarbiya topgan» kadrlar edilar. Ularning aksariyati ongida manmanlik, kibr havo shaxsiyatparastlik, mol-dunyoga o'chlik, poraxo'rlik, laganbardorlik, xushomadgo'ylik kabi illatlar, tomir otgan edi. Ammo, shunga qaramasdan O'zbekiston rahbariyati Sho'ro zamonida shakllangan mazkur kadrlardan, ularning tajribalaridan foydalanishga majbur edi. Ayni paytda milliy istiqolol g'oyalari ruhida tarbiya topgan kadrlarni tayyorlash va tarbiyalash respublika hukumatining diqqat e'tiboridan chetda qolmadi.

**Norasmiy harakatlar-ning vujudga kelishi.
«Birlik» xalq harakati**

80-yillarning oxirlarida vujudga kelgan «Birlik» xalq harakati va «Erk» demokratik partiyasi O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshi berk ko'chaga kirib qolgan edi. Buning eng asosiy sababi shunda ediki, har ikkala «siyosiy uyushma»ning ham O'zbekiston milliy istiqololga erishgandan keyingi davrda amal qilishi lozim bo'lgan harakat dasturi yo'q edi. Ya'ni na «Birlik», na «Erk» partiyasi amalga oshirish uchun kurash olib borishini asoslaydigan rasmiy hujjatga ega emas edi.

Sho'ro tuzumi davrida vujudga kelgan «Birlik» xalq harakati O'zbekiston milliy davlat mustaqilligi sharoiti talablariga javob bera oladigan dasturini qabul qilmagan edi. O'zbekiston «Birlik» xalq harakatining 1990-yildagi dasturida esa O'zbekistonda Sho'ro hokimiyatini ag'darish va uning o'rniga qandaydir boshqa davlat tizimi barpo etish vazifasi qo'yilmagan edi.

Yurt farovonligi, vatan ravnaqi, til, matbuot va vijdon erkinligi kabi xalqimizning azaliy orzu-umidlarini o'ziga shior qilib olgan «Birlik» harakati ma'lum bir muddat turli nomaqbul yo'llar bilan mamlakat siyosiy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilib ko'rdi. Lekin respublikani ma'naviy va iqtisodiy inqirozdan olib chiqishga qaratilgan biron-bir aniq dasturga, xalqni bir yoqadan bosh chiqarib yurt osoyishtaligi va Vatan ravnaqini ta'minlashdek yagona maqsadga chorlovchi g'oyaga ega bo'lmaganligi sababli ko'p o'tmay ushbu harakat xalq ishonchsizligiga uchradi va mamlakat siyosiy sahnasidan tushib ketishga majbur bo'ldi.

Tashqi g'animlarning mamlakatda mavjud barqarorlikni buzishga qaratilgan xavf-xatarlarini bartaraf etish endigina oyoqqa turgan mustaqil O'zbekiston uchun katta muammo bo'lib turgan bir paytda, «Birlik» harakati tarafdorlari kabi ichki g'animlarning ba'zan ko'r-ko'rona, ba'zan atayin yuzaga qalqib chiqishi O'zbekistonda barqarorlikni ta'minlashga jiddiy tahdid tug'dirdi. Xalq osoyishtaligini

xavf ostiga qo'ydi. Mamlakatda barqarorlikni ta'minlash, xalqimiz yakdilligiga raxna soluvchi, turgan-bitgani xalqimiz uchun ham, davlatimiz uchun ham koni ziyon bo'lgan bunday harakatlar faoliyatini bartaraf etish, mamlakat xalqini buyuk kelajak qurishdek yagona maqsadga chorlaydigan sog'lom siyosiy muhit yuzaga kelishiga imkon yaratish maqsadida yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib, Prezident I.Karimov bunday partiya va harakatlarning faoliyatini qoraladi.

**«Erk» partiyasining
soxta demokratik
urinishlari**

«Erk» demokratik partiyasi vakillari va ularning homiylari mamlakatda vujudga kelgan qiyinchiliklarni ro'kach qilib, har qanday yo'l bilan hokimiyat tepasiga chiqib olish uchun ochiqdan-ochiq kurash boshladilar. Ular ko'cha-ko'ylarda mitinglar uyushtirib, ommaviy noroziliklarni keltirib chiqarishga harakat qildilar. Xalq saylagan deputatlarga ishonchsizlik bildirib, ularning iste'foga chiqishlarini talab qilishdi.

Balki, hukumat boshqaruv jilovini ozgina bo'shashtirganda, ikkilanish yoki sarosimaga tushganda Tojikistondagi voqealardan ham dahshatlirog'i yuz berishi mumkin edi. Lekin unday bo'lmadi. O'zbekiston hukumati qanchalik ta'na-dashnomlar yomg'iri tagida qolmasin demokratiya kushandasi, diktatura hokimiyati degan malomatlarni eshitmasin, o'z yo'lida qat'iy turdi, ikkilanmadi.

«Erk» demokratik partiyasining tajovuzkorona harakatlari va siyosiy qo'poruvchilik faoliyati, ayniqsa, 1991-yil 29-dekabrda Prezident saylovlari kunlarida eng yuqori cho'qqigacha chiqdi. Bu partiya vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlarda, partiya yig'ilishlarida ehtirosga berilishlar, qonuniy hukumatni ochiqdan-ochiq badnom qilish va zo'rvonlik singari salbiy harakatlarni yaqqol namoyish qildilar. To'g'ridan-to'g'ri hukumat rahbarlariga turli yo'llar bilan g'oyaviy, siyosiy va ma'naviy zarba berishga harakat qildilar.




«Erk» demokratik partiyasining dasturi 1990-yilda qabul qilingan edi va asosan parchalanayotgan sobiq saltanat davrida partiya oldida turgan vazifalarni o'zida ifoda etgan edi. Mazkur dasturda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar, «Erk» partiyasining mamlakatdagi boshqa siyosiy partiyalar va harakatlarga munosabati nazariy-ilmii jihatdan ishlab chiqilmaganligi sababli partiya boshi berk ko'chaga kirib qolgan edi.

Natijada «Erk» partiyasi raisi Muhammad Solih yakka boshchilikdan iborat diktatorlik yo'lini egalladi. U esa birin-ketin jiddiy tashkiliy-taktikaviy va strategiyaviy xatoliklarga yo'l qo'ya boshladi. Ayniqsa, bu jarayon 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan Prezidentlik saylovlarida Muhammad Solih mag'lubiyatga uchragach kuchli tus oldi. U hech kim bilan hisoblashmay O'zbekiston xalq deputati mandatini tashlab Oliy Kengash sessiyasi zalidan chiqib ketdi, qonuniy yo'l bilan saylangan Respublika Prezidentiga qarshi ochiqdan-ochiq kurash yo'lga o'tdi. 1993-yilda Muhammad Solih chet elga qochib ketdi. «Erk» partiyasida chuqur ichki partiyaviy bo'hron vujudga keldi. Partiya Markaziy Kengashi a'zolarining bir qismi Muhammad Solih tutgan yo'lga qarshi chiqdilar. U O'zbekistondagi Konstitutsiyaviy ijtimoiy-siyosiy tuzumni noqonuniy jihat yo'li bilan ag'darib tashlash va islom davlatini tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan «vahhobiylar», «Islom uyg'onishi hizbi» kabi o'ta



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov BMT Bosh assambleyasining 48-sessiyasida nutq so'zlamogda.



I.Karimovning AQSH Prezidenti J.Bush bilan uchrashuvi.



Olam taqdiri — odam taqdiri. O'zbekiston delegatsiyasi YXHT ishida ishtirok etmoqda.



I. Karimovning Yaponiya imperatori Akixito bilan uchrashuvi




MDH davlatlari rahbarlarining uchrashuvi.



Ikki buyuk madaniyat, buyuk tarix uchrashuvi. F.Mitteran o'zbek milliy libosida.



Islom Karimovning Eron Prezidenti Muhammad Xotami bilan uchrashuvi.



I.Karimovning Polsha Prezidenti A.Kvashnevskiy bilan uchrashuvi.



Fransiyada Amir Temur kunlari.




I. Karimov va J. Shirak.



Do'stona muloqot.



Qondoshlik, qardoshlik, jondoshlik — muqaddas tuyg'u.



I.Karimov Xalqaro Olimpiya ordeni bilan taqdirlandi.



I.Karimov F.Mayor bilan.



Tafakkur xazinalari.



ISLAM KARIMOV

РОДИНА
СВЯЩЕННА

ISLAM KARIMOV

ВАТАН
САЖДАГОХ КАБИ
МУҚАДДАСДИР

3

ЎЗБЕКИСТОН



Birlashgan o'zar. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari uchrashuvi.



Vatan himoyachilari bilan uchrashuv.



Yurtboshi — andijonliklar dalasida.



Qizilqum — O'zbekiston g'aznasi. I.Karimov Zarafshon konchilarini qutlamoqda.




Islohot quvonchlari.



I. Karimov faxriylar davrasida.




I.Karimov Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti A.Akayev bilan «O'zDEUavto» korxonasiida.



I.Karimov Navro'z bayramida nutq so'zlamogda.



Davlat va xalq birligi.



Islam Karimov Chingiz Aytmatovni qutlamoqda.



Ehtirom.

qo'poruvchi va terroristik harakat rahbarlari bilan aloqa bog'lab, 1993—1999-yillar davomida qator jinoyi ishlarga qo'l urdi. 2000-yil 30-oktabrdan 17-noyabrga qadar Toshkentda o'z ishini olib borgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati asosiy va bosh maqsadi davlat hokimiyatini egallab olishga qaratilgan jinoyi guruhning 12 rahbari ustidan sud hohokamasini olib bordi. Ular qatorida Muhammad Solih (Saloy Madaminov) ham sirtidan sud qilindi. Mamlakat Oliy sud hay'ati qarori bilan u mol-u mulki musodara qilinib, 15 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilindi.



«Erk» demokratik partiyasi va uning raisi Muhammad Solih tanlagan «demokratiya» va «adolat uchun kurash»ning mazkur yo'li siyosiy va ongli kurash madaniyatidan yiroq bo'lgan ibtidoiy va olomoncha kurash usulining yorqin timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Davlat to'ntarishiga urinishning barbod etilishi

1991-yilning oxirlari O'zbekiston mustaqilligining eng tahlikali, iztiroblar va og'ir kechinmalar jo'sh urgan davri edi. Xalq Moskvada sobiq Ittifoqni saqlab qolish ilinjida yurgan siyosiy arboblarning jazavalari tut-

gan, asabiy kayfiyat hukmronlik qilayotgan, umidlari kelajakdan katta bo'lgan bir paytlar edi.

Mustaqillik e'lon qilingach, orqada pisib o'tirib, zimdan ishlayotganlar asta-sekin bosh ko'tardilar. Endi o'zlarini istiqloq qahramoni, mustaqillik jarchisi, mamlakatni boshqarishda «nodir iste'dod» ekanliklarini ko'rsata boshladilar. Butun mas'uliyatni zimmasiga olib, hayoti va oilasini xavf ostida qoldirib, mustaqillikni e'lon qilganlarga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar.

Bu borada 1991-yil 18—21-noyabr kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasi O'zbekiston tarixida alohida voqea sifatida muhrlandi. Ayni ana shu sessiyada bir guruh soxta demokratlar ochiqdan-ochiq bosh ko'tardilar. Turli tomondan so'z olib, sessiya kun tartibini buzish, unga qo'shimchalar kiritish bahonasida turli, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan muammolarni ko'tarib chiqishga intildilar. Mamlakatda olib borilayotgan izchil siyosatga zid, bo'htondan iborat fikrlar bildira boshladilar. «Tashabbus» guruhi nomi bilan so'zga chiqqan bir guruh deputatlar «O'zbekistonda mitinglar va namoyishlar o'tkazilishini taqiqlash to'g'risida»gi qarorni bekor qilish, respublika ma'muriy organlari, shuningdek Konstitutsiyaviy Nazorat Qo'mitasiga ultimatum qo'yish talabi bilan chiqisha boshladilar.

Ayni chog'da, o'zlarini mustaqillik va xalq tarafdorlari sifatida ko'rsatishga urinib, «demokratiyami yoki diktaturami?» qabilida sessiyaga, uning rahbariyatiga asossiz kesatqli savollar qo'ya boshladilar.

Bir so'z bilan aytganda, sessiyaga ma'lum kuchlarning oldindan tayyorgarlik ko'rgani yaqqol sezila boshlandi. Bu o'z navbatida sobiq Ittifoq hududida sarosimalik, barcha ittifoqdosh respublikalarda turli hadiksirashlar va ikkilanishlar, mustaqil O'zbekistonda esa iqtisodiy tanglik hukmronlik qilayotgan bir paytda muxolif kuchlarning turli hiyla va nayranglar bilan o'zlarini demokratiyaning tarafdorlari sifatida ko'rsatish bilan hokimiyatni egallashga harakat qilayotganliklarini ko'rsatar edi.



1991-yil 18–21-noyabr kunlari bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sakkizinchi sessiyasi jangovarlik, shafqatsiz kurash va hujumkorlik ruhida o‘tdi. Unda Prezident Islom Karimovning qat‘iy iroda kuchi, har qanday tanqidiy fikr va qo‘poruvchilik harakatlariga og‘ir-vazminlik, siyosiy hushyorlik hamda asosli mulohazalari bilan munosabat bildirganligi natijasida soxta «demokratik kuchlar» o‘z maqsadiga yeta olmadilar.

Sog‘lom fikrli kishilar, aslida gap nimada ekanligini aqlan chuqur his qilgan fuqarolar yuqoridagi soxta «demokratlar» chiqishlarini qo‘llab-quvvatlamadilar, kun tartibidagi masalalar yuzasidan amaliy takliflar bildirdilar, har bir masalada mamlakatda olib borilayotgan xalqchil siyosatni ma‘qulladilar, mamlakat Prezidenti atrofiga yanada jiplashdilar.

Prezident Islom Karimov mamlakat jar yoqasiga borib qolgan bir paytda qat-tiqqo‘lligi, o‘z fikriga qat‘iyiligi va pozitsiyasini qo‘ldan bermaslik fazilati bilan mamlakatdagi barqarorlikni saqlay oldi. Buni jahon matbuoti o‘z vaqtida yuksak baholadi.



«Vek» (Rossiya) gazetasining 1995-yil 21–27-iyul sonida shunday deyiladi: «SSSR parchalanib ketganidan so‘ng eng dahshatli voqea O‘zbekistonda yuz berishi lozim edi. Lekin, bunday bo‘lmadi. Karimov birorta ham xatoga yo‘l qo‘ymadi. Karimovning mitinglarni taqiqlab qo‘yishi qirg‘izlar, tojiklar bilan o‘zaro munosabatlardagi murakkab vazifa-larni hal etish kabi juda to‘g‘ri ish edi».

Mustaqillik osonlik bilan qo‘lga kiritilmadi. Kurashlar va iztiroblar tur-mushimizdagi qator qiyinchiliklar va muammolar bilan birga qorishib ketdi. Ichki va tashqi g‘animlar bilan olishib, mustaqillik himoya qilindi. O‘tgan davr xalqimizni ko‘p narsaga o‘rgatdi. Endi u o‘z istiqboliga va istiqboliga qat‘iy ishonadi.



1. O‘tish davrining qiyinchiliklari nimalardan iborat bo‘ldi?
2. O‘tish davrida «Birlik» xalq harakati qanday yo‘l tutdi va bu yo‘lning xavfli tomonlari nimalardan iborat edi?
3. «Erk» demokratik partiyasi va uning rahbariyati tanlagan soxta «demokratik yo‘l»ning mohiyatini asoslab bering.
4. «Erk» partiyasiga nima sababdan xalq ommasi ergashmadi?
5. «Erk» partiyasi rahbari Muhammad Solih nima sababdan I.Karimovga qarshi ochiq kurashga o‘tdi?
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Muhammad Solihga qanday aybnomalar qo‘ydi va qanday hukm chiqardi?
7. O‘zbekistonda davlat to‘ntarishini amalga oshirishga uringan kuchlarning asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?



«Demokratiya» deganda nimani tushunasiz? Fikr-mulohazalaringizni yozma bayon qiling.

18-§. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ROLINING ORTIB BORISHI

Ommaviy axborot vositalari huquqiy asoslarining yaratilishi

Huquqiy demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o'zni va roli benihoya katta. Sho'rolar davrida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan ommaviy axborot vositalari o'z milliy zaminidan uzilgan edi. U o'zbek xalqiga, O'zbekistonga xizmat qilmas edi. Ommaviy axborot sho'rolar zamonida kommunistik mafkura dastyori sifatida mehnatkashlar ommasi ongi va dunyoqarashida tobelik, qaramlik va qullik g'oyalari targ'ib qilar edi.

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida bo'lgani singari ommaviy axborot vositalari faoliyatida ham mutlaqo yangi tub sifati o'zgarishlar davri boshlandi, u o'zining milliy zaminiga ega bo'ldi. Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida ro'y bergan tub sifati o'zgarishlari ommaviy axborot vositalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo'ydi. U ham bo'lsa, mamlakat fuqarolari o'rtasida keng qamrovli milliy istiqloq g'oyalari targ'ibot qilish asosida ularni kelajagi buyuk O'zbekistonni yaratishdek olijanob ishga safarbar etishdan iborat edi. Bu ulug'vor va olijanob vazifalarni amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini yaratish talab qilinar edi. Shu bois, O'zbekiston hukumati ommaviy axborot vositalarining mustaqil respublika mezonlariga javob bera oladigan yuridik maqomlarini belgilab beruvchi rasmiy hujjatlar majmuasini qabul qildi.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:

67-modda. Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari asoslarini o'zida mujassam etgan juda ko'plab qonun va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1996-yil 30-avgustda bo'lib o'tgan oltinchi sessiyasida «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi hamda «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonunlarni qabul qildi. Shuningdek, 1997-yilda «Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida»gi, «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (yangi tahrirda) qonunlarning qabul qilinishi (12-ilova), «Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi»ning tashkil etilishi mamlakatimizda so'z va fikr erkinligini kafolatlashga xizmat qiladi.

1999–2000-o'quv yilida O'zbekiston jahon tillari universitetida Xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etilishi esa o'zbek jurnalistikasi tarixida muhim voqea bo'ldi.

Matbuot turlarining ko'payishi

Matbuot milliy istiqloq uchun jamiyatni demokratlashtirish va kelajagi buyuk O'zbekistonni taraqqiy ettirishning o'tkir quroli ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. 2004-yil 1-yanvargacha bo'lgan statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda 12 tilda jami 866 ta ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsat-

gan. Shundan 611 ta gazeta, 165 ta jurnal, 43 ta xususiy televideniye, 29 ta kabelli televideniye, 4 ta axborot agentligi va 12 ta xususiy, 1 ta davlat FM radiokanali, 1 ta teleradiokompaniya mamlakat ijtimoiy siyosiy faoliyatida qatnashmoqda.

«To‘rtinchi hokimiyat» hisoblangan ommaviy axborot vositalari mustaqillik sharoitidan turli xil fikrlar, rang-barang qarashlar va yondashuvlarga tobora keng yo‘l ochib bermoqda. Hayotda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otmoqda, tobora xolislik, adolat va haqqoniyat tamoyillari asosida voqea va hodisalarga o‘z munosabatini bildirmoqda. Milliy istiqlol hur fikrlikni barqaror etishning yangidan-yangi imkoniyatlarini yaratdi. Jumladan, vaqtli matbuot turlari va sonlari ko‘paydi. Demokratik erkinlik sharoitida bir nechta mustaqil siyosiy partiyalar, harakatlar, jamoat birlashmalarining nashrlari tashkil qilindi. Xususan, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining «O‘zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana», «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining «Adolat», «Milliy tiklanish» partiyasining «Milliy tiklanish», Fidokorlar milliy-demokratik partiyasining «Fidokor», Liberal-demokratik partiyasining «XXI asr», «Xalq birligi» harakatining «Birlik» gazetolari nashr qilinmoqda. Qator vazirliklar, davlat qo‘mitalari, uyushma va konsernlar o‘z sohalariga doir nashrlar tashkil etishdi. Bunday gazeta va jurnallarning chiqishi ma‘lum tarmoq muammolarini, o‘ziga xos murakkabliklarni o‘z vaqtida o‘rganishga yordam beradi.

Mustaqil nashrlar o‘z muassislari g‘oyalari va dasturlari yo‘nalishlari doirasida mustaqil ish olib boradilar. Islohotlar va yangilanishlarga o‘z munosabatlari, muammolarga yondashish usullari bor. Biroq, yagona maqsad — istiqlol taqdiri, mamlakat va xalq istiqloli ularni birlashtirib turadi.

Prezidentimiz ommaviy axborot vositalarining rolini alohida ta’kidlab, **«Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular haqli ravishda hokimiyatning to‘rtinchi tarmog‘i bo‘lishi darkor»**, — degan edi.

Ommaviy axborot vositalari hayotimizga kun sayin chuqurroq kirib borayotganini hozir hech kim inkor etolmaydi. Bu jarayonni tabiiy hol, deb qabul qilmoqdamiz.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarida o‘ziga xoslik paydo bo‘ldi. Gazetalar, jurnallar, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarda bevosita respublikaning mustaqilligiga bag‘ishlangan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularga keng o‘rin berilgan.

O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari xorijiy mamlakatlarda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi axborotlarni, yangiliklarni, o‘sha mamlakatlar yoki yirik axborot agentliklaridan bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilib olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.



1996-yilning may oyida Amerika Qo‘shma Shtatlarida joylashgan jahondagi yirik kompyuter tizimi — «Internet» bilan aloqa o‘rnatildi va undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olish yo‘lga qo‘yildi.

«Internet»ning 50 million abonenti bo‘lib, jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a‘zo bo‘lishgan. U butun dunyo bo‘yicha turli sohalaridagi yangiliklarni qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o‘z abonentlariga tez va aniq yetkazib beradi.

O‘z navbatida mamlakatimiz haqidagi muhim xabarlar ham bu yerda faoliyat

ko'rsatayotgan xorijiy axborot agentliklari vakillari va muxbirlari tomonidan o'sha mamlakatlar axborot vositalari uchun yetkazib berilmoqda. Axborot almashinuvi, dunyo voqealaridan xabardorlik, dunyo sahnasiga chiqish imkoniyati tug'ildi.



Mustaqillik tufayli gazeta sahifalari, radioeshittirishlari va teleko'rsatuvlarda mamlakatning qadimiy tarixi, o'tmishi, madaniyati, sho'rolar tuzumi davrida taqiqlab qo'yilgan milliy qahramonlarimiz haqida, o'zbek xalqining o'ziga xos urf-odatlarini, aqidalari to'g'risida qiziqarli maqolalarga keng o'rin berildi. Ana shuning o'zi endi mamlakatimizda hurriyat, hurfiylik, milliy manfaatlar va milliy ravnaqqa yo'l ochilganidan dalolat beradi.

Shuningdek, matbuotda islom madaniyati, nazariyasi, tarixi va qonuniyatlari ni targ'ib qilishga keng yo'l berildi. Buyuk mutasavvuf allomalar Hakim at-Termiziy, Imom Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband hamda boshqa tarixiy shaxslar, ulug' donishmandlar, xususan, Sohibqiron Amir Temur haqida keng ma'lumotlar berib borilishi jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

Umuman olganda, istiqloq erkin fikrlashga, har kimning o'z fikrini oshkora bayon qilishga, hurriyatga keng eshik ochdi va o'zining milliy istiqloq uchun kurash jarchisi bo'lishdek tarixiy o'rnini bajarmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining qo'llab-quvvatlanishi

Jamiyat taraqqiyoti albatta bir yerda to'xtab turmaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, xususan, islohotlarning ikkinchi bosqichidagi keng ko'lamli vazifalar o'z navbatida ommaviy

axborot vositalari zimmasiga butunlay yangi vazifalarni qo'ya boshladi.

Davlat rahbarining ommaviy axborot vositalari oldiga qo'ygan bunday tanqidiy fikr-xulosalaridan kelib chiqib ommaviy axborot vositalarining huquqiy bazasini yanada mustahkamlash choralarini ko'rildi.



«Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida», «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida» singari qonun loyihalari ishlab chiqildi, xalq muhokamasiga qo'yildi va 1997-yil 24-aprelda Oliy Majlis ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida qabul qilindi.

Ushbu qonunlarning dunyoga kelishi va to'la quvvat bilan amal qilishi bevosita hozirgi o'zbek milliy davlatchiligi ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Bunday qonunlar yaratilishining, deputatlar va umumxalq muhokamasiga havola qilinishining o'zi O'zbekistonning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, inson huquqlari erkinligi, ozodligi, uning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish kabi xalqaro huquq normalariga izchil amal qilayotganligidan dalolat beradi.

Demokratiyaning, konstitutsiyaviy taraqqiyotni ta'minlashning, inson huquqlari va erkinliklari, qadr-qimmatini himoya qilishning g'oyat muhim masalasi sifatida televideniye va radio eshittirish tizimini milliy g'oyalar asosida qayta shakllantirish, uning respublikada iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarning amalga oshirishdagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida 1996-yil 7-mayda

«O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmon qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Davlat televideniye va radioeshittirish Qo‘mitasi O‘zteleradiokompaniyaga aylantirildi.



1996-yilning may oyida «O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasi» tashkil qilindi.

Bu ommaviy axborot vositalari vakillarining mustaqil o‘z-o‘zini boshqaruvchi, hukumatga qarashli bo‘lmagan ijtimoiy xayriya tashkiloti hisoblanadi.

1996-yil 19-dekabr kuni Prezident Devonida I.Karimov tomonidan «O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasi» vakillari qabul qilindi. Unda mamlakat rahbari bugungi kunda O‘zbekiston matbuoti oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida to‘xtalar ekan, mamlakatimiz istiqloli va ravnaqi, milliy tafakkurni shakllantirish xalqimiz g‘ururi va imyon-e‘tiqodining qay darajada mustahkamligiga har jihatdan bog‘liq ekanini alohida ta’kidladi. Jumladan: **«Inson ozod va hur tug‘iladi va shunday yashashi lozim, — dedi Islom Karimov. — Buning uchun esa u ana shu oliy ne‘matni asray va ardoqlay bilishi kerak. Xalqimiz ruhan to‘la qayta uyg‘ongan taqdirdagina bu qadriyatlar hayotimizdan mustahkam o‘rin oladi».**

Ushbu uchrashuv chog‘ida jamg‘arma faoliyatini yanada jonlantirish, uning «Hurriyat» nomli yangi gazetasini nashr etish, Milliy matbuot markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq masalalar ham ko‘rib chiqildi.

Xullas, mustaqillik yillarida mamlakat Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan qator farmonlar, qarorlar va farmoyishlar, Oliy Majlis qabul qilgan qonunlar ommaviy axborot vositalarining «to‘rtinchi hokimiyat» darajasida faoliyat ko‘rsatishiga imkon yaratmoqda. Jurnalstning erkin ijod qilishi va mamlakat ravnaqi yo‘lida bel bog‘lab xizmat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlab bermoqda.



1. Huquqiy demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalari qanday o‘rin tutadi?
2. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari qaysi rasmiy hujjatda belgilab berilgan?
3. O‘zbekistonda matbuotning qanday turlari mavjud?
4. Ommaviy axborot vositalarini huquqiy jihatdan yanada qo‘llab-quvvatlash zarurati nimalardan iborat edi va bu borada qanday amaliy ishlar qilindi?



1. 12-ilovadagi «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonunning keltirilgan moddalarini tahlil qiling va fikr-mulohazalaringizni daftaringizga yozing.
2. Quyidagi tushunchalarning mohiyatini ochib bering:
 - a) Fuqarolik jamiyati — bu . . .
 - b) Inson huquqlari — bular . . .
 - d) «To‘rtinchi hokimiyat» mening tasavvurimda — bu . . .

IJTIMOIY-SIYOSIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHI

19-§. AHOLINI KUCHLI IJTIMOIY HIMOYALASH — DAVLAT SIYOSATINING BOSH YO'NALISHI

Aholini ijtimoiy himoyalashning mohiyati va maqsadlari

Adolatsizlikka va zo'rvonlikka asoslangan sotsialistik iqtisodiy tuzumdan mulkchilikning turli ko'rinishlari erkin faoliyat ko'rsatadigan tuzumga bir hamla bilan silliqqina va osongina o'tish mumkin emas.

Uzoq muddat davom etadigan o'tish jarayonida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, eng avvalo iqtisodiy turmush taraqqiyotida hayotda kutilmagan noxush jarayonlar, qiyinchiliklar va larzalar ro'y berishi tabiiy jarayondir. Bunday sharoitda eskicha sotsialistik iqtisodiy tuzum qonuniyatlari asosida hayot kechirishga ko'nikib qolgan jamiyat a'zolarining kattagina qismi bozor iqtisodiyoti munosabatlari asoslangan yangi jamiyat qonun-qoidalariga ham nazariy, ham amaliy jihatdan yetarli darajada tayyor bo'lmasligi oqibatida nochor va kam ta'minlangan iqtisodiy turmush tarziga tushib qolishi mumkin.

Ana shu obyektiv jarayonni nazariy jihatdan to'g'ri va oqilona baholay olgan O'zbekiston Prezidenti I.Karimov mustaqillikning birinchi kunidan boshlab aholini kuchli ijtimoiy himoyalash masalasini davlat iqtisodiy siyosatining muhim tamoyili sifatida o'rtaga tashladi.

O'tish davridagi obyektiv shart-sharoit taqozosiga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan aholini kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati jamiyatning barcha a'zolarini emas, balki aholining kam ta'minlangan, moddiy va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qisminigina himoya qilishni ko'zda tutadi.



Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashda quyidagi manbalardan foydalanilmoqda:

- ◆ Davlat byudjeti.
- ◆ Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi.
- ◆ Korxonalar va jamoat tashkilotlari ajratayotgan mablag'lar.
- ◆ «Navro'z», «Mahalla», «Sog'lom avlod uchun», «Salomatlik va mehrshafqat» kabi xayriya jamg'armalari va boshqalar.

Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash

ishsizlar, o'quvchi yoshlar, shuningdek qayd etilgan miqdorda nafaqa oluvchi

«Biz,— degan edi I.Karimov, —aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari — pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar,

kishilarni himoya qilish davlatning muqaddas burchidir, degan qoidaga asoslanib ish tutdik».

Darhaqiqat aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash masalasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkam o'rin olgan.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:
45-modda. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

Kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish ishi bilan shug'ullanadigan davlat muassasalari, idora va korxonalarining yaxlit tizimi yaratildi. Bular — Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi, 12 viloyat, Toshkent shahar, 233 ta tuman va shaharlardagi Ijtimoiy ta'minot bo'limlaridir. Bulardan tashqari, mamlakatimizda 34 ta qariyalar va nogironlar internat uylari, urush va mehnat faxriylari respublika pansionati, «Oltiariq» va «Tavoqsoy» pansionatlari va boshqa o'nlab muassasalar aholiga ijtimoiy yordam tadbirlarini amalga oshirmoqdalar.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi bilan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga asosan aholini nafaqaga chiqarishning yagona tartibi joriy etildi. Umumiy tartibda 60 yoshga kirgan va 25 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan erkaklar nafaqaga chiqariladi. Ayollar uchun esa bu o'lchov 1999-yil mart oyidan 54 yosh va 20 yillik mehnat staji qilib belgilandi. Bundan tashqari, nogironlik pensiyasi va boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga beriladigan pensiyalar ham mavjud. Mazkur pensiyalarni joriy etish va to'lash bilan bog'liq tartib qoidalar 1992-yil 4-fevralda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonunida asoslab berildi.

Ish haqini oshirish bilan birga barcha toifadagi maktablarning muallimlari, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar tarbiyachilari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari, ijodiy va tibbiy xodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularning mehnatini rag'batlantirish maqsadida ularga qo'shimcha imtiyozlar — kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berildi, keyinchalik bu imtiyozlar oylik maoshga qo'shib beriladigan kimpensatsiya bilan almashtirildi, ularga yakka tartibda uy-joy qurib olish uchun yer uchastkalari birinchi navbatda ajratiladigan bo'ldi.

Ayni chog'da yolg'iz pensionerlarni turar-joy va kommunal xizmatlar uchun haq to'lashdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ular dori-darmonlar va eng zarur mollarni belgilangan me'yorda bepul olish va jamoat transportida tekin yurish huquqidan foydalanadigan bo'ldilar. Ularga madad berish uchun maxsus ijtimoiy yordam bo'limlari tuzildi. Bu bo'limlar yolg'iz pensionerlar va nogironlarning uyida ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatishni uyushtirmoqda.

1998-yilgi ma'lumotlarga qaraganda respublikada 27 mingdan ko'proq yolg'iz qariya bo'lgan. Ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan xodimlar birlashtirib qo'yilgan, ijtimoiy-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatilmogda.

Nogironlar va qariyalarni sog'lomlashtirish, ularning sanatoriya va kurortlarda dam olishlarini tashkil etish borasida ham ma'lum ishlar amalga oshirildi. Masalan,

2001—2003-yillarda shu toifadagi 25 ming kishi dam olish uylarida va sanatoriyalarda davolanib qaytdilar.

1994-yildan boshlab O'zbekistonning aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutlaqo yangi tizimi shakllantirildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, mamlakatimizning kelajagi hisoblanmish bolalar va kam daromadli oilalar bu yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar bo'lib qoldi. Endi hamma nafaqalar va moddiy yordam faqat oila orqali yetkazib beriladigan bo'ldi. Oila asosiy mavqega ega bo'ldi. Bunday yondashuv umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an'analarga va ruhiyatga mos keladi.

Ijtimoiy ko'maklashuvning yangi tizimida farzand tug'ilganda bir yo'la beriladigan to'lovlar saqlab qolinishi bilan birga nafaqalar va imtiyozlarning quyidagi turi ham amalga oshiriladigan bo'ldi. Jumladan, bola boquvchi onalarga to'lanayotgan nafaqaning miqdori ko'paytirilibgina qolmay, uning muddati ham uzaytirildi. Ilgari bunday yordam bir yarim yilgacha to'langan bo'lsa, endi bu muddat ikki yilgacha uzaytirildi. Ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham bu nafaqadan foydalanadigan bo'ldilar.

Beshta va undan ko'proq bolali oila uchun nafaqaning eng ko'p miqdori avvaliga eng kam ish haqining yarmi miqdorida bo'lsa, 1996-yilga kelib eng kam ish haqining to'la stavkasi darajasida belgilab qo'yildi.

1994-yil 24-avgustda Prezidentning «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra 1994-yilning oktabridan davlat kam daromadli oilalarga faol yordam bera boshladi.

1996-yil 10-dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida» Farmon chiqarildi. Unda 1997-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish yig'inlari orqali yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab eng oz ish haqining 50 foizidan boshlab 175 foizigacha nafaqalar beriladigan bo'ldi.

Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini davlat tomonidan moddiy ta'minlash doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.



1997-yil sentabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi. Kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi.

Hukumatimiz tomonidan ayrim toifadagi fuqarolar va oilalar uchun belgilangan boshqa imtiyoz, kafolat va qo'shimchalardan ham foydalanmoqdalar.

Ichki iste'mol bozori-ning himoya qilinishi

Mamlakatning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat mollarinin asosiy turlari iste'molirini muayyan darajada saqlab turish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar aholini ijtimoiy himoyalab turadi.

1992—1994-yillarda un mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut, qand-

shakar, o'simlik moyi, kir sovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun davlat dotatsiyalari qisman saqlab turildi. Bu aholiga ijtimoiy jihatdan katta yordam bo'ldi. Daromad darajasi turlicha bo'lgan oilalar bulardan bir qadar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Dastlab murakkab bir paytda iste'mol mollarini sotib olish uchun bir marta, so'ngra esa ko'p marta ishlatiladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kundalik zarur tovarlarning cheklangan turlarini me'yorlangan tarzda sotishni tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Bu tizim o'zini to'la oqladi. U bozorni pishiq-puxta himoya qilibgina qolmay, savdo tarmog'iga barcha zarur oziq-ovqat mahsulotlarini va kundalik xarid mollarini muntazam ravishda chiqarib turishni ta'minlash, ularni iste'mol qilish hajmlarini kamaytirmaslik imkonini berdi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichiga o'tilgach, 1995-yildan boshlab oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechildi va erkin narxlarga o'tildi.

Xullas, mamlakatimizda mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarni o'tkazishdan ko'zda tutilgan bosh maqsad xalq farovonligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar 1996-yildan e'tiboran o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Respublikamizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish muttasil ko'payib borishi bilan birga aholining pul daromadlari ham aniq va ayni paytda uning xarid qilish quvvati ham o'sib bordi. Buni quyida keltirilgan aniq raqamlardan yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot 1997-yilda 1,6 foizga, 1998-yilda 5,2 foizga, 1999-yilda 4,4 foizga va 2000-yilda 1,4 foiz atrofida ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot yo'lidan borib, yangidan-yangi ijtimoiy iqtisodiy yutuqlarga erishmoqda. Istiqlol yillarida xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishni 56,6 foiz ko'paytirishga erishildi.

Inson salomatligiga davlat g'amxo'rliqi

Inson salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish mustaqil O'zbekiston davlati ijtimoiy siyosatining markaziy o'rinlaridan birida turadi. Zero, mustaqil

O'zbekistonimizning eng asosiy va bebaho boyligi, uning mehnatsevar va oliyhimmat mehnatkash xalqidir. Xalq ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, baquvvat, aqlli va komil bo'lsa, mamlakat ham shu qadar kuchli va baquvvat bo'ladi. Xalqimizda «Salomat el — alomat el», «Salomatlik — tuman boylik», «Sog'lom tanda sog' aql» kabi naqlar bejiz aytilmagan. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi rahbariyati sog'lom avlod uchun kurash masalasini o'z faoliyatining bosh markaziga qo'ydi.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:
40-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

O'zbekistonda Prezidentning 1993-yil 4-mart Farmoni bilan ta'sis etilgan O'zbekistonning birinchi ordeni — «Sog'lom avlod uchun» ordeni bo'ldi. Bular davlatimizning inson salomatligi to'g'risida qanchalik g'amxo'rlik qilayotganligidan dalolat beradi.



Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining «OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida»gi (1991-yil), «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi (1992-yil), «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi (1996-yil), «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi (1997-yil), «Odamning immunitet tanqisligi virusi to'g'risida»gi (1999-yil) qonunlari qabul qilindi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston hukumati inson salomatligi to'g'risida qayg'urib, bir qator qarorlar ham qabul qildi. Vazirlar Mahkamasining «Sog'lom avlod uchun» jurnalini tashkil etish to'g'risida»gi (1995-yil), «Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini kompleks hal etish to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining tibbiy va farmatsevtika sanoatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi (1996-yil), «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi (1999-yil) qarorlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Tibbiyot tizimidagi islohotlar

Yurtimizda mustaqillikning birinchi yillaridan sog'liqni saqlash tizimini qayta o'zgartirish, birlamchi tibbiy yordamni rivojlantirish, tibbiyot xodimlarini tayyorlash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning oldini olish, tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish, nodavlat xususiy tibbiy tizimni kengaytirish va chet davlatlar bilan aloqalarni kuchaytirish, tibbiyot fanini rivojlantirish ishlariga alohida ahamiyat qaratildi.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimining asosiy vazifasi qilib kasalliklarning oldini olish, xastalarni davolash va undan forig' qilish, yashash muhitini sog'lomlashtirishdan iborat qilib belgilandi. Bundan xalq tabobatining boy an'alariga, ilm-fan va texnikaning ilg'or yutuqlariga, olim va mutaxassislarining zakovat-u salohiyatiga suyanish maqsad qilindi. 1991-yilga kelib O'zbekistonda kasalxona muassasalarining soni 1370 taga, vrachlar soni 71,1 mingga yetgan edi. Sho'rolar tuzumi davrida sog'liqni saqlash tizimi kengaygan bo'lsa-da, lekin yerga turli xil kuchli kimyoviy dorilar solinishi, paxta yakkahokimligi va boshqa oqibatlar natijasida aholi orasida turli kasalliklar ko'payib ketgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng aholining salomatligini muhofaza qilish muammolari birinchi darajali ahamiyat kasb etdi.



O'zbekiston Respublikasida tibbiyot tizimini isloh qilishda:

- ♦ sohaga mo'ljallanadigan mablag'ni aholi jon boshi hisobidan ajratish; sog'liqni saqlash ishining asosiy tamoili — profilaktik yo'nalishni tiklash;
- ♦ onalar va bolalar salomatligi muhofazasini kuchaytirish;
- ♦ tibbiy ta'lim tizimi va kadrlar siyosatini isloh qilish;
- ♦ mamlakatda yetarli dori-darmon va tibbiyot ashyolari hamda texnik vositalari ishlab chiqaradigan sanoatni vujudga keltirish;
- ♦ sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini yanada yaxshilash;

- ◆ davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, mulkchilik shaklini o'zgartirish va sug'urta tartibiga o'tish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Sog'liqni saqlash ehtiyojlari uchun 1994-yili milliy daromadning 4,1% miqdorida mablag' ajratilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib 7,5% ni tashkil etdi.

Bozor munosabatlariga o'tish sog'liqni saqlash sohasiga ham yangi talablar qo'ydi. Ular: ma'muriy-boshqarish sarf-xarajatlarini kamaytirish; kasallarning bir qismini ularning ahvoriga qarab kunu tun emas, balki faqat kunduzgi davolanishga o'tkazish; jarrohlik yordami ko'rsatishda ish hajmining bir qismini kasalxonadan poliklinikaga ko'chirish; kasalxonalaridagi kam samarali o'rinlar sonini qisqartirish; shartnoma asosida bajariladigan ishlar uchun haq olish va boshqa choralar shular jumlasidandir. Tibbiyot xodimlarining mehnatiga to'lanadigan haq ham har bir xodimning qo'shgan hissasiga va muassasa ishining oxirgi natijasiga bog'liq bo'lib qoldi.



1998-yil 10-noyabrda Prezident Farmoni bilan «2006-yilgacha sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi» qabul qilindi.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar mazkur Davlat dasturi asosida amalga oshirilmoqda. 2002-yilgi ma'lumotlarga qaraganda respublikada 3471 ta ambulatoriya-poliklinika, 1057 ta shifoxona aholiga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ko'plab ixtisoslashgan shifoxonalar, maxsus dispanserlar, shahar shifoxonolari, tuman markaziy shifoxonolari, qishloq uchastka shifoxonolari, qishloq vrachlik va feldsherlik akusherlik punktlari ham ishlab turibdi.

Aholi sog'lig'ini tekshirib borish va har xil kasalliklar bilan og'rish hollarini nazorat qilib turish, ayniqsa, atrof-muhitni sog'lomlashtirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Ishchilarga davolash-profilaktika xizmati ko'rsatadigan sanatoriy-profilaktoriyalar tarmog'i kengaytirildi. Respublika «Salomatlik» markazi, uning viloyatlar va shaharlardagi shahobchalari radio va televideniye hamda matbuotdan foydalangan holda aholi o'rtasida sanitariya-gigiyenaga oid bilimlarni keng targ'ib qilmoqda. Toshkentda oliy va o'rta tibbiy o'quv yurtlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari, tibbiyotga oid ilmiy asarlar, vrachlar uchun amaliy qo'llanmalar, sanitariya maorifi bo'yicha ommabop tibbiy adabiyotlar, lug'at va ma'lumotnomalar nashr etadigan «Ibn Sino» nomidagi nashriyot ishlab turibdi. «Sihat-salomatlik» jurnali muntazam nashr etilmoqda.

Xorij tibbiyot muassasalari bilan aloqalar

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgach, xalq salomatligi yo'lida xorijiy mamlakatlar bilan keng ko'lamli o'zaro hamkorlik aloqalarni yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu sohada, ayniqsa, AQSH, Shvetsariya, Vengriya, Rossiya, Boltiqbo'yi mamlakatlari, Yaponiya, Xitoy va boshqa davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatilgan. Jumladan, 1993-yil iyun oyida Namanganda 120 o'rinli Kardiologiya markazi qurilib ishga tushirildi. Barcha qulayliklarga ega bo'lgan mazkur markazga Boltiqbo'yi, Shvetsiya, Vengriya, Yaponiya singari xorijiy mamlakatlardan eng zamonaviy tibbiyot apparatlari olib kelib o'rnatildi. Markaz

ochilgandan keyin o'tgan davr mobaynida bu yerda 10 mingdan ortiq bemor o'z salomatligini tikladi.

1995-yil avgust oyida Namanganda qurilib ishga tushirilgan 120 o'rinli «Oromgoh» mavzesidagi dispanserga Boltiqbo'yi davlatlaridan olib kelib o'rnatilgan nur bilan davolovchi AGAT-R-1, Yaponiyadan oshqozon-ichak, o'sma kasalliklarini aniqlovchi gastrofibroskop, Sankt-Peterburgdan Lazer-Yava-3 apparatlari olib kelib jihozlandi. Ushbu shifoxona xizmati tufayli viloyatda o'sma kasalliklarini barvaqt aniqlash ikki barobarga, xastalikning oldini olish esa 20—25 foizga o'sdi.

1991-yilda «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi bilan «Amerilares» tashkiloti o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan edi. «Umid» deb nomlangan birinchi tadbirda O'zbekistonga AQSHning beshta xalqaro xayriya tashkiloti vakillari, xususan, tibbiyot mutaxassislari tashrif buyurib katta miqdordagi muruvvat yordamini olib kelgan edilar. 2000-yil — «Sog'lom avlod yili»da o'zaro hamkorlik yanada faollashdi. O'zbekistonga 4,3 million AQSH dollari miqdorida tibbiy dori-darmonlar keltirildi. Jumladan, «Insulin» preparati, sanitariya va gigiena buyumlari yuklangan yettita samolyot bunga yorqin dalil bo'la oladi. 2001-yil — «Onalar va bolalar yili»da 3,5 million AQSH dollari miqdoridagi 31 tonnalik dori-darmonlar, tibbiy jihozlar, sanitariya va gigiyena buyumlari «Amerilares» tashkiloti tomonidan O'zbekistonga yordam tariqasida jo'natildi. Hamkorlik yo'lga qo'yilgan kundan boshlab «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi «Amerilares» tashkilotidan jami 12 million dollardan ortiq qiymatga ega bo'lgan muruvvat yordami oldi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida respublikada fuqarolarning farovon turmush tarzini ta'minlash va ularning salomatligini mustahkamlash bobida amalga oshirilayotgan tadbirlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.



1. Respublikamizda aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilishning mohiyati va maqsadlari nimalardan iborat?
2. Aholini ijtimoiy himoyalashda qaysi manbalardan foydalaniladi?
3. Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida aholini ijtimoiy himoyalashda qanday tadbirlar amalga oshirildi?
4. Aholini ijtimoiy himoya qilishning 2010-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan konsepsiyasi xususida nimalarni bilasiz?
5. Aholining ijtimoiy ta'minoti bilan respublikamizda qaysi idora va muassasalar shug'ullanadi?
6. Hukumat tomonidan ayrim toifadagi fuqarolar va oilalar uchun belgilangan imtiyoz, kafolat va qo'shimchalarni sanab bering.
7. Ichki iste'mol bozorini himoya qilish bo'yicha respublikamizda qanday chora tadbirlar ko'rildi?
8. Respublikamizda inson salomatligiga davlat tomonidan qanday g'amxo'rlik qilinmoqda?
9. Tibbiyot sohasini isloh qilish bo'yicha mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlarni so'zlab bering.
10. Mamlakatimizda ona va bola manfaatlari muhofazasi qanday tashkil qilingan?
11. O'zbekiston Respublikasi tibbiyot muassasalarining xorijlik hamkasblari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari haqida nimalarni bilasiz?

12. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini izohlab bering.



O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha amalga oshirilgan eng muhim ishlarni quyidagi jadvalga yozing:

t/r	Yo'nalishlar	Amalga oshirilgan ishlar
1.	Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha	
2.	Ichki iste'mol bozorining himoya etilishi bo'yicha	
3.	Aholi salomatligi, shu jumladan, onalar va bolalar salomatligi muhofazasi bo'yicha	

20-§. MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH CHORALARINING AMALGA OSHIRILISHI

Mustaqillik sharoitida milliy munosabatlarning huquqiy asoslari

Mamlakatimiz hududida juda qadim zamonlardan turli millatlarga mansub xalqlarning vakillari qo'ni-qo'shnichilik, quda-andachilik, do'st-u birodarlik va oshna-og'aynigarchilik asosida tinch-totuv va o'zaro hamkorlikda yashab kelganlar. Moziyga nazar solsak, O'zbekiston hududida milliylik va millatchilik negizida hech qachon mojarolar bo'lmagan. Bu xalqimizning o'ziga xos xususiyati va bag'ri kengligining yorqin ifodasidir.

Mustaqil O'zbekistonimiz hududida bugungi kunda 130 millat va elat vakillari istiqomat qiladilar. Har bir kishi millati va irqidan qat'iy nazar yaratganning mo'jizasidir. Insonning yaxshi-yomonligi uning u yoki bu millatga mansubligiga qarab belgilanmaydi. Balki, har bir insonning o'ziga xos yaxshi-yomon xislatlari, fazilatlar va xususiyatlarining shakllanib kamol topishida o'sha insonni o'rab olgan ijtimoiy muhit, u olgan ta'lim-tarbiya bosh omil hisoblanadi. Shu boisdan ham millatlararo totuvlik, o'zaro hamkorlik, birodarlik va bag'rikenglik — ulug' fazilat va umumbashariy qadriyatdir. Bu qadriyat turli millat va elatlar vakillari bilan birgalikda istiqomat qiladigan har qanday davlatning tarixiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.



«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida: «Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, bu g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin» deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakatimizda siyosiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lgan milliy masalaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda va adolatli milliy siyosat olib bormoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida milliy munosabatlar huquqiy asoslarining yuridik jihatdan adolatli tarzda hal qilib berilganligida yaqqol ko'rish mumkin. Unda barcha fuqarolar qonun oldida teng qilib qo'yildi. Har bir fuqaro qalbida yagona zamin, yagona makon, yagona Vatan uchun javobgarlik hissi kuchaytirildi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'p millatli har qanday mamlakatda hukmron mavqega ega bo'lgan millat vakillari faqat o'z milliy ehtiyoj va talablarini qondirish to'g'risidagina o'ylab bosh qotirmasliklari lozim. Chunki, o'zga millat va elatlarning huquq va erkinliklarini kamsituvchi, uni mensimovchi millatning o'zi ham erkin bo'la olmaydi. Aksincha hukmron millat tarixiy taqdir taqozosiga ko'ra turli davrlarda o'z yurti, eli vatanidan begonalashib, bu yerlarga kelib qolgan o'zga millat va elatlarning vakillariga begonasiramadan, ularning ham milliy talab va ehtiyojlarini to'la qondira oladigan shart-sharoitlarni yaratmoqlari joiz.

Sobiq SSSR Konstitutsiyasida milliy ravnaq, milliy madaniyatlar rivoji xususida fikrlar bayon qilingan bo'lsa-da, amalda «ulug' og'a»chilik, ruslashtirish siyosati hukmron edi. Barcha millatlar va elatlarni o'zaro yaqinlashtirish asosida milliy xususiyatlarni yo'qotish va yasama «sovet» xalqini vujudga keltirish tendensiyasi davlat va hukmron partiya siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Darhaqiqat, KPSS dasturida «yagona sovet xalqi vujudga keldi. Bu sovet davlati milliy siyosatining ulkan yutug'idir» deb surbetlarcha bayon etilgan edi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, millatlararo munosabatlarda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar asta-sekinlik bilan bartaraf etila boshlandi. Ko'p millatli mamlakatda xalqlar tinch-totuvligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:
8-modda. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

Demak, O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosidir.

Mazkur moddada mustahkamlangan O'zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyili inson huquqlariga oid barcha xalqaro hujjatlarga, jumladan, O'zbekiston Respublikasi nomidan uning Prezidenti imzolagan «Yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi» talablariga to'la mos keladi.

Mazkur tamoyil mamlakatimizdagi tinchlik, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Ana shu talablardan kelib chiqib mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy choralar belgilandi. Shuni aytish lozimki, mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda tilning o'rni va roli benuhoy. O'zbekistonda o'zbek tili davlat tili maqomini oldi. Bu o'z navbatida uning mamlakatda yashovchi fuqarolar o'rtasida millatlararo aloqalar vositasiga aylanishiga imkon berdi.

Ma'lumki, 1989-yil oktabrda Oliy Kengash sessiyasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. 1995-yil 21-dekabrda Oliy Majlisning birinchi chaqiriq to'rtinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi.



«O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonundan: 4-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'kidlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Milliy-madaniy markazlarning vujudga kelishi

Mustaqillik barcha millat vakillariga hur va erkin taraqqiy etish imkoniyatlarini berdi. Milliy ong yanada rivojlandi, milliy uyg'onish jarayoni kuchaydi. Bu hol nafaqat o'zbeklarda, balki boshqa millat va elatlar orasida ham milliy jipslashish jarayonini keltirib chiqardi. Oqibatda milliy-madaniy markazlar vujudga kela boshladi.

1989-yilda Madaniyat ishlari vazirligi qoshida mamlakat millatlariaro Madaniyat Markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan qozoq, koreys, arman, ozarbayjon, tojik kabi madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Vaqt o'tgani sayin ularning soni orta bordi. Xususan, 1995-yilga kelib mamlakatda ularning soni 80 tadan oshdi. Bu o'z navbatida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni taqozo qilardi.



1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Baynalmilal madaniyat Markazi tashkil qilindi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi.

Baynalmilal madaniyat Markazi faoliyatidagi muhim yo'nalish umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda faol ishtirok etish bo'ldi. Jumladan, yurtimizda o'tkaziladigan an'anaviy «Navro'z» bayramida nafaqat mahalliy millat vakillari, balki, yurtimizda yashayotgan barcha millat vakillari qatnashadilar. O'z navbatida mahalliy aholi ham ruslarning milliy bayrami bo'lmish «Maslennitsa», «Rojdestvo», tatarlarning «Sabanto'y» va boshqa qator xalqlarning milliy bayramlarida faol ishtirok eta boshladilar.

Bu bir jihatdan ma'lum bir xalqning milliy bayramini, o'ziga xos an'ana va urf-odatlarini o'rganishga, shu tufayli o'z dunyoqarashlarini boyitishga yordam beradi. Ikkinchidan, o'zaro hurmat va yaqin qardoshlik asosida umumiy xonadon — yagona Vatan tuyg'usini kuchaytiradi. Uchinchidan, mamlakatda sog'lom, ma'naviy-ruhiy iqlimning barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Baynalmilal madaniyat Markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo'nalishi — bu 1994-yili boshlangan birinchi «Xalq ijodiyoti» festivali bo'ldi. Bu festival O'zbekiston mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va uni har ikki yilda bir marta o'tkazishga qaror qilindi.

Ayniqsa, arman, ozarbayjon, tojik, qozoq, tatar, nemis va koreys xalqlarining professional va badiiy havaskorlik to'garaklari san'atkorlarining chiqishlarini xalq katta qiziqish bilan kutib oldi. Har bir Madaniyat Markazining festivali chinakamiga milliy bayramga, o'sha millatning tom ma'nodagi porloq istiqbolining kafolatiga, yashab turgan zamin uning uchun begona emasligi, aksincha, u ana shu yurt, ana shu tuproq taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirishga xizmat qildi.

O'zbekistonda qardosh xalqlar ijodkorlari bilan uchrashuvlar, ular ijodiga bag'ishlangan kechalar o'tkazish odat tusiga kirdi. Keyingi yillarda O'zbekiston kunlarining Qozog'istonda, Qozog'iston kunlarining O'zbekistonda o'tkazilishi qozoq va o'zbek xalqi o'rtasidagi qardoshlarcha aloqaning yanada ravnaq topishiga katta hissa qo'shdi. Rus madaniyat Markazi Rossiyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda S.Yesenin tug'ilgan kunining 100 yilligini, Qozoq madaniyat Markazi Qozog'istonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda buyuk qozoq shoiri Abay tavalludining 150 yilligini, milliy istiqloq uchun tolmas kurashchilar Turor Risqulov, Sultonbek Xojanovlarning 100 yilligini, Qirg'iz madaniyat Markazi Qirg'izistonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda «Manas» eposining 1000 yilligini keng nishonladilar.

Bu sanalar o'z navbatida o'zbek xalqining ham katta bayramiga aylandi. Milliy madaniyat markazlari mamlakat Fanlar Akademiyasi va oliy o'quv yurtlari ishtirokida an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazishni odatga aylantirdilar.

Milliy totuvlik — bar-qarorlik tayanchi

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illat, bu — millatchilik va shovinizmdir. Millatchilik bilan shovinizm o'rtasiga chegara qo'yib bo'lmaydi.

Shu bois, millatchilik va shovinizmga qarshi doimiy sur'atda va bir vaqtning o'zida kurash olib borish, yoshlarimiz ongi-shuurida milliy totuvlik va bag'rikenglik g'oyalari shakllantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi davlat delegatsiyasi Germaniya, Rossiya, Koreya, Ukraina va Markaziy Osiyo mamlakatlariga rasmiy tashrif buyurganda, tegishli Milliy-madaniy markazlar raislari ham Hukumat delegatsiyasi tarkibida bordilar. Bu har ikki davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlarning yanada chuqurlashuviga xizmat qildi.



O'zbekiston Respublikasi Mamlakat Baynalmilal madaniyat Markazi 1995-yil 10—11-mart kunlari Toshkent shahar hokimiyati hamda «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazi bilan hamkorlikda «Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar madaniyati» mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazdi.

Ushbu konferensiya tavsiflari keyingi yillarda millatlararo totuvlikni rivojlantirishga doir ishlarni yanada takomillashtirishga, uni yangidan yangi tajribalar va ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishga yordam berdi.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakati va Baynalmilal madaniyat Markazi 1996-yilda «O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida» nomli kitobni nashr etdi. Unda milliy va millatlararo munosabatlarning jamiyatni tubdan isloh qilish sharoitida tut-

gan o'rni va roli, milliy madaniyatlar ravnaqi va mustaqillik imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda mamlakatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan keng miqyosli tadbirlar bugungi kunda respublikada hukm surayotgan ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning muhim omili bo'lmoqda.



1. Mustaqil O'zbekistonda milliy masalaga alohida e'tibor berishni talab qilayotgan shart-sharoitlar nimalardan iborat?
2. Respublikamizda turli millat vakillari o'rtasidagi munosabatlar qaysi rasmiy hujjatlarda huquqiy jihatdan asoslab berilgan?
3. O'zbekistonda Milliy madaniyat markazlari tashkil etilishini taqozo etgan omillarni aytib bering.
4. Mamlakatimizda qanday Milliy madaniy markazlar tashkil etilgan va ular o'z oldilariga qanaqa maqsadlarni qo'yib faoliyat ko'rsatmoqdalar?
5. Milliy munosabatlarda totuvlik va hamkorlikni ta'minlash masalasi davlat e'tiborida ekanligini isbotlang.
6. Milliy totuvlikning mamlakatimizda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rmini qanday tushunasiz?



«Mamlakatimizda — millatlararo totuvlik» mavzuida bayon yozing.

21-§. MILLIY XAVFSIZLIK VA MAMLAKAT MUDOFAA QOBILIYATINING MUSTAHKAMLANISHI

Milliy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati

Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun va «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida Bayonoti»da ilgari surilgan tadbirlar mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash va davlatimiz mudofaasini tashkil etishning ilk qadamlardan biridir.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari bo'lib o'tgan oltinchi sessiyasida qabul qilingan «O'zbekiston



«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega» (2-ilova).

Xuddi shuningdek, Oliy Kengashda qabul qilingan Bayonotda ham O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini hamda hududiy birligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuzilishi qayd etildi.

Keyinchalik bu qoidalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yanada mustahkamlandi.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan:

XXVI bob. MUDOFAA VA XAVFSIZLIK

125-modda. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

126-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlarga ega.»

Milliy xavfsizlik va mudofaa tizimining shakllantirilishi

O'zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash va davlat mudofaa tizimini tashkil etishga alohida e'tibor berdi.



- ♦ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi Farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi.
- ♦ 1991-yil 26-sentabrda O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston SSR Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi (DXQ) tugatilib, uning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Xizmati (O'zRMXX) tashkil etildi. 1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tuzildi.
- ♦ 1992-yil 3-iyulda Prezident I.Karimov Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi — O'zbekiston Respublikasi
- ♦ Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Milliy Xavfsizlik Xizmati oldiga mamlakat milliy xavfsizligi va davlat mudofaasini tashkil etishni ta'minlashdek g'oyat murakkab va ayni paytda olijanob vazifa qo'yildi. Vaziyat milliy xavfsizlikning keng qamrovli konsepsiyasini ishlab chiqishni, uning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi qonunlar yaratishni taqozo etardi.

Milliy xavfsizlik masalasining davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo'ljallangan strategiyasi mamlakat Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Prezident I.Karimov tomonidan aniq va batafsil yoritib berildi.



1995-yil 1-mayda Prezident I.Karimov Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik Kengashi tuzildi.

Milliy xavfsizlik Kengashi mamlakatimizda milliy xavfsizlikni ta'minlash masalalarini o'rganish, muhokama qilish va zarur chora-tadbirlar ko'rish bilan shug'ullanuvchi maslahat organi hisoblanadi.

1996-yil 24-aprelda Oliy Majlisning beshinchi sessiyasida to'rt bo'lim, yigirma sakkiz moddadan iborat bo'lgan «Milliy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama qilindi. Mazkur loyiha Milliy xavfsizlik tizimini shakllantirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar va ularni amalga oshirish prinsiplarini

huquqiy normalarda belgilab beradigan, butunlay yangicha hujjat sifatida ko'rib chiqildi. 1997-yil avgust oyida Oliy Majlisning birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlarining barpo etilishi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vujudga kelishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi Qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi.



1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasi Qarori bilan respublika hududida joylashgan sobiq Ittifoq Qurolli Kuchlarining barcha qismlari, qo'shilmalari, harbiy o'quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi va ular moddiy-texnika, mablag' bilan ta'minlanadigan bo'ldi.

Shu tarzda Mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning dastlabki tashkiliy davri amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyulda bo'lib o'tgan o'ninchi sessiyasi «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi va «Muqobil xizmat to'g'risida»gi muhim qonunlar, shuningdek, harbiy qasamyodning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi qabul qilindi.

Davlatimizning harbiy sohadagi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati faoliyatining asosiy tamoyillari» haqidagi Qonunda mujassamlangan. Qonunda «O'zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi va harbiy-siyosiy blokka transformatsiya qilingan vaqtda har qanday xalqaro tashkilotlardan chiqish huquqini o'z ixtiyorida qoldiradi» deb qonuniy rasmiylashtirilgan. Bu Qonun O'zbekistonning tinchliksevarlik siyosatini, uning dunyo hamjamiyatida integratsiyaga intilishlarini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari — harbiy tuzilmalar, harbiy o'quv yurtlari va boshqa harbiy qismlardan iborat. U O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayot kechirishini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgandir.



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlatni himoya qilishda butun mudofaa tizimining asosini tashkil etadi va tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ♦ Quriqlikdagi qo'shinlar.
- ♦ Harbiy-havo va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari.
- ♦ Maxsus qo'shinlar.
- ♦ Milliy gvardiya brigadasi.
- ♦ Chegara va ichki qo'shinlar.
- ♦ Milliy xavfsizlik xizmati.
- ♦ Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqalar.

1999-yilgacha Chegara qo'shinlari Milliy Xavfsizlik xizmati tarkibida bo'lgan. 1999-yil 13-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tashkil etildi.

Qurolli Kuchlarni joylashtirish (dislokatsiya) O'zbekiston Respublikasi hududlari, chegaralari va havo bo'shliqlarining mustahkam mudofaasini umumiy strategik maqsad asosida ta'minlashdan kelib chiqib belgilanadi va harbiy doktrina talablariga muvofiq strategik va operativ rejalar bo'yicha amalga oshiriladi.



Qurolli Kuchlarga Oliy boshqaruvni Prezident amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 20-bandiga muvofiq Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi.

«Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga muvofiq Prezident mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash, qurolli tajovuz bo'lgan hollarda davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish yuzasidan zarur chora-tadbirlar qabul qiladi, Mudofaa vazirini tayinlaydi. Qurolli Kuchlarga jangovar harakatlarni olib borish to'g'risida qaror qabul qiladi va buyruq beradi.

Qonunchilikda Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar, davlat hokimiyati mahalliy organlari va boshqarmalarning mudofaa sohasidagi vakolatlari, shuningdek, korxonalar, muassasa, tashkilot va fuqarolar majburiyatlari aniq belgilab berilgan.

Mudofaa vazirligi Qurolli Kuchlarning davlat boshqaruvining markaziy organi hisoblanadi. Vazirlik Qurolli Kuchlarining ahvoli va kelgusidagi taraqqiyotiga, jangovar tayyorgarlik va intizomga to'liq javobgar. U mudofaa sohasi va harbiy qurilishda ishlab chiqilgan davlat siyosatining Qurolli Kuchlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mudofaa rejaları va konsepsiyasi loyihasi, Qurolli Kuchlarning qurilishi va taraqqiyoti, qurollar va harbiy texnika taraqqiyotining davlat dasturlari mudofaa ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag'lar bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga taqdim etadi. Mudofaa va harbiy qurilish sohalarida ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi, harbiy texnika va boshqa ashyolar yaratish, ishlab chiqarish va ta'mirlash uchun davlat buyurtmalarining bajarilishini nazorat qiladi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq o'ninchi sessiyasida (2002-yil 12-dekabr) «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» hamda «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlarga ko'ra, Qurolli Kuchlar safidagi muddatli xizmat bir yarim yildan bir yilga qisqartirildi. Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari esa xizmatga faqat to'qqiz oyga chaqiriladigan bo'ldi.

Yangi qonunlarning qabul qilinishi Qurolli Kuchlar va Davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi, Ichki qo'shinlar hamda Milliy xavfsizlik xizmati bo'linmalarining tashkiliy va boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Harbiy kadrlar tayyorlash

Mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, professional armiyaga ega bo'lish ko'p jihatdan yuqori malakali harbiy mutaxassislariga ega bo'lishga

bog'liqdir.

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligining dastlabki kunlarida yuqori malakali milliy harbiy mutaxassislariga deyarli ega emas edi. Shu bois, mamlakatimiz o'z qurolli kuchlarini malakali kadrlar bilan ta'minlashda katta qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri keldi. O'zbekiston hukumati yuksak mahoratli, o'z millati, Vatani yo'lida jon fido qilishga tayyor bo'lgan professional harbiy mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tiborni qaratdi. Ana shu maqsadda mustaqillik yillarida harbiy-mutaxassis kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi bir qator o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari tashkil etildi.

Masalan, harbiy kasbni tanlovchi yoshlar uchun Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Urganch shaharlarida harbiy mutaxassisliklarga yo'naltiruvchi litseylar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda ta'lim olayotgan yoshlar o'zlari tanlagan qo'shin turlari bo'yicha Oliy harbiy bilim yurtlariga yo'l oladilar.

Toshkent umumqo'shin komandirlari harbiy bilim yurti, Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar harbiy bilim yurti, Chirchiq tankchi komandir-muhandislar harbiy bilim yurti, Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurti, Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakulteti Qurolli Kuchlarimiz saflariga turli mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlab beruvchi harbiy ilm o'choqlaridir.

Qurolli Kuchlarimizga oliy qo'mondonlik tarkibini tayyorlayotgan harbiy Akademiyaning ochilishi O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim voqeadir. Shuningdek, jangovar tayyorgarlikning yuqori saviyada bo'lishini ta'minlash qism va bo'linmalar, harbiy o'quv yurtlari, umuman, Qurolli Kuchlarning bosh vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.



1. Milliy xavfsizlik deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy xavfsizlik va mamlakat mudofaasini tashkil etishning huquqiy asoslari qaysi rasmiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan?
3. Respublikamiz milliy xavfsizligi va mudofaasi tizimlarini tashkil etish bo'yicha qanday amaliy ishlar qilindi?
4. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklangan vazifalar nimalardan iborat?
5. Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni kim va uning zimmasiga qanday vazifalar yuklangan?
6. Harbiy islohotlarning ikkinchi bosqichidagi vazifalarni aytib bering.
7. Harbiy kadrlar tayyorlash bobida mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar xususida so'zlab bering.



Milliy xavfsizlik va mudofaa tizimini mustahkamlash uchun amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan qonuniy hujjatlar nomini quyidagi jadvalga yozing.

T/r	Amalga oshirilgan tadbir va qabul qilingan hujjatlar nomi	Sana

IQTISODIY ISLOHOTLAR. BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI

22-§. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH YO'LI

Bozorning qadimiy an'analari

Milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi. Sho'rolar davridagi sotsialistik tizimning iqtisodiy asosini tash-

kil etgan rejalashtiruvchi siyosatdan voz kechdi.

Xo'sh, bozor iqtisodiyotining o'zi nima?



Bozor iqtisodiyotining asosida tovar-pul munosabatlari yotadi va ana shu munosabatlarga xos iqtisodiy qonunlar harakat qiladi. Bozor iqtisodiyoti jamiyatning barcha a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali o'zaro raqobatning ishtirokchilariga aylantiradi.

Shu boisdan bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish muttasil takomillashib boradi, mahsulotning sifat darajasi yaxshilanadi, uning miqdori ko'payadi va jamiyat taraqqiyoti tezlashadi.

Tarixan bozor munosabatlarining ikki turi mavjud: *birinchisi*, tartibsiz, o'zi bo'larchilik asosida, stixiyali rivojlanadigan bozor iqtisodiyoti munosabatidir. U tarqoq, maqsadi va harakati oldindan kelishilmagan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi oldi-berdi munosabatlariga asoslanadi. ***Ikkinchisi*** esa, tartibga solinadigan, boshqariladigan bozor iqtisodiyoti munosabatidir. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lining asosi qilib ikkinchi yo'lni — davlat tomonidan tartibga solib boriladigan va boshqariladigan bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi. Bunda jamiyat davlat orqali bozorga narx, soliq, foiz, foyda, renta, subsidiya kabi iqtisodiy vositalar bilan ma'lum bir yo'nalish beradi va ongli ta'sir ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining o'ziga xos sifat belgilari va xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tovar ishlab chiqaruvchi iqtisodiy jihatdan erkin bo'ladi, ya'ni bozor uchun mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaga yoki shaxs erkin va mustaqil faoliyat ko'rsatadi.

2. Tovar ishlab chiqaruvchi mulk egasi bo'ladi yoki ijara mulkiga ega bo'ladi va uni o'z bilganicha ishlatadi, unga hech kim monelik qila olmaydi, buyruq bera olmaydi.

3. Tovar ishlab chiqaruvchi o'zi ishlab chiqargan mahsulotning egasi, xo'jayinidir. Shu bois, o'z mahsulotini xohlarsa sotadi, xohlarsa sotmaydi yoki u

xohlasa o'z tovarini boshqa bir tashkilot, korxonaga yoki biron bir shaxsga sovg'a qilib tekinga hadya qilishi ham mumkin.

4. Bozorga chiqarilgan tovarni oldi-sotdi qilish sotuvchi bilan xaridorning erkin va ixtiyoriy munosabatiga asoslanadi.

5. Bozor iqtisodiyoti monopolizmni, ya'ni yakka hukmronlikni inkor etadi, tovar ishlab chiqaruvchilarning bozordagi erkin raqobatini taqozo etadi.

6. Bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste'molchi o'z shartini qo'yadi, chunki pul uning qo'lida bo'ladi. Tovar ishlab chiqaruvchi iste'molchining talabi, ehtiyojini qondiradigan mahsulot ishlab chiqargan taqdirdagina daromad topa oladi.

7. Ishlab chiqarilgan tovarga sarf qilinadigan mehnat xaridorning mahsulotga talabi darajasi miqdorida bo'lishi lozim. Aks holda ishlab chiqarilgan tovar bozorda kasodga uchraydi.

8. Bozorda qanday tovarga talab oshib borsa, o'sha mahsulotni ishlab chiqarish foyda keltiradi.

9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilar jamiyat a'zolari o'z daromadlari miqdoriga qarab tabaqalanadilar.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari mamlakatimiz uchun yangilik emas. Uzoq yillar davomida qadimdan ajdodlarimiz jahon hamjamiyatining bir bo'lagi va tarkibiy qismi sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab kelganlar. Tarixiy yozma manbalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda O'rta Osiyo xalqlari bundan ming yillar ilgari ham dunyoning deyarli barcha mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatganlar. Bu borada «Buyuk ipak yo'li» yorqin dalil bo'la oladi.

Miloddan avval XI asrdan to milodning XVI asriga qadar Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasida savdo iqtisodiy va madaniyat sohalarida ko'priklarni o'ynab kelgan «Buyuk ipak yo'li» orqali amalga oshirilgan. 12 ming chaqirimni tashkil etgan bu yo'l O'rta Osiyoning deyarli barcha yirik shaharlarini kesib o'tgan.



«Buyuk ipak yo'li» orqali ajdodlarimiz Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Rum, Yunoniston va boshqa mamlakatlar bilan bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari va talablari asosida savdo-sotiq qilganlar. O'rta Osiyo hududlari Rossiya tomonidan bosib olingach, xususan Sho'rolar hukmronligi yillarida bu tarixiy an'ana barham topdi.

Jahon mamlakatlarining, shu jumladan, o'lkamiz xalqlarining tarixiy tajribalari shundan dalolat beradiki, iqtisodiyot har doim faqat uning o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlar bilan rivojlanadi. Bu qonunlar inson irodasidan tashqarida harakatda bo'lib, odamlar izmiga bo'ysunmaydi, ularning buyruq va topshiriqlarini bajar-maydi. Shu bois, bozor iqtisodiyoti qonunlarini nazar-pisand qilmaslik yoki uni buzish og'ir iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Buni sobiq SSSR deb atalmish saltanatda o'rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum buni isbotladi.

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish qonuniyat-lari, albatta, umumiydir. Biroq, ana shu umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanib borayotgan har bir mamlakat, u xoh Turkiya yoki Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lsin, xoh Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo'lsin, ularning har biri

o'zining tarixiy-taraqqiyot an'analari, milliy o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z yo'li, o'z modelini ishlab chiqishi va unga amal qilishi lozim.

O'zbekiston ham ana shu umumiy dastur va umumiy qonuniyat mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishga imkoniyat beradigan o'z yo'lini tanlab oldi. Bu yo'lning asosiy tamoyillari va qoidalari I.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli asarlarida, mamlakat parlamentida qilgan ma'ruza va nutqlarida bayon qilib berilgan.

Bu yo'lni ishlab chiqishda:

Birinchiidan, dunyo davlatlarining bosib o'tgan tarixiy tajribalari hisobga olindi.

Ikkinchiidan, O'zbekistonning xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, mustamlakachilik tuzumlaridan meros bo'lib qolgan muammolar asos qilib olindi. Chunki 130-yildan ortiqroq davom etgan buyuk saltanat o'lkamizda o'zining og'ir va ayanchli oqibatlarini meros qilib qoldirgan edi. Bular:

- barbod bo'lgan va mutlaqo markazga tobe bo'lib qolgan iqtisod;
- milliy davlatchilik va boshqaruv tizimining tugatilganligi, milliy boshqaruv tajribasining yo'qligi, yakkaboshchilik, buyruqbozlik, laganbardorlik, ko'ngil ovlash, poraxo'rlik, o'g'rilik, mansabni suiiste'mol qilish kabilarni hisobga olmaslikning mutlaqo iloji yo'q edi.

Uchinchiidan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishni belgilashda mamlakatimizning tarixan tarkib topgan milliy qadriyatlarini, an'analari, xususiyatlari va manfaatlarini hisobga olindi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'lga doir Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil nafaqat mamlakatimizda, shuningdek jahon jamoatchiligi tomonidan ma'qullandi. Eng muhimi, xalqimizning o'zi besh tamoyilni qabul qildi va qo'llab-quvvatladi.

Birinchi tamoyil.



Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilish, unga tazyiq o'tkazish darajasiga ko'tarilmasligi zarur. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarur.

Bir qancha mamlakatlarning achchiq tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiyot siyosiy manfaatlariga bo'ysundirilganda u barbod bo'ladi. Iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmog'i zarur. **Iqtisodiyot**, — deb ta'kidlaydi I.Karimov, — **siyosatga nisbatan ustuvor mavqeida bo'lishi lozim.**

Ikkinchi tamoyil.



Milliy iqtisodni shakllantirish, mustaqillikni iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni himoya qilish, jahon xo'jaligi bilan integratsiyaga erishish va xalq manfaatini yuzaga chiqarish uchun iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solib turilishi lozim.

Jahon tajribasi o'tish davrida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turish zarurligini ko'rsatdi. Aks holda iqtisodiyot tanazzulga uchrashi mumkin.

«Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchisi bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur»,— deb ta'kidlaydi I.Karimov.

Davlat ixtiyoridagi iqtisodiy mexanizmni yo'qotib, o'rniga birdaniga bozor mexanizmini o'rnatish mumkin emas. Shu bois, O'zbekistonda davlat tizimi birdaniga bo'sh qo'yib yuborilmadi, uning hukmdorligi saqlab qolindi.

Uchinchi tamoyil.



Bozor iqtisodiyotiga o'tishda qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti qonunchilikka tayanadi. Uning qoidalari, mezonlari ming yillar davomida yaratilgan. Bozor iqtisodiyoti huquqiy normalar va qoidalarga tayanishi bilan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan farq qiladi. Yaxlit bozor tizimini vujudga keltirish uchun uning qonunchilik tizimi yaratilishi, ularga rioya qilinishi shart. Qonunchilik buzilgan joyda bozor iqtisodiyotini amalga oshirib bo'lmaydi.

Qonunning ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan ham kelib chiqadi. Qonun oldida hamma barobardir. Barcha ijtimoiy, va iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi. Huquqiy davlatning mohiyati ma'lum qonunlar tizimi borligi bilan emas, balki ommaning shu qonunlarni bilishi, o'z faoliyatida ularga bo'ysunishi bilan belgilanadi.

To'rtinchi tamoyil.



Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish zarur.

Buning zaruriyati iqtisodiy ahvol bilan bog'liq. Birinchidan, O'zbekistonda aholining deyarli to'rtidan uch qismi Sho'rolar hokimiyatining so'nggi yillarida ham o'zlarining minimal ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lmay, davlat madadiga muhtoj edi. Ikkinchidan, aholi tarkibida davlat va jamiyat o'z himoyasiga olishi zarur bo'lgan bolalar, o'smirlar, qariyalar ko'pchilikni tashkil etadi. Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida dastlab aholi ijtimoiy jihatdan tabaqalanadi va himoyaga muhtoj bo'lganlar qatlami kengayadi. Shu boisdan, iqtisodiy islohotlar jarayonida avval odamlarni, birinchi navbatda, himoyaga muhtoj qatlamni oldindan kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralari ko'rish zarurligi inobatga olinadi. Ijtimoiy siyosat inflyatsiya keltirib chiqargan qimmatchilik sharoitida aholi xarid qobiliyatini himoya qilishni ham ko'zda tutadi.

Beshinchi tamoyil.



Bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Buning sababi shundaki, bozor iqtisodiyoti murakkab tizim, uni birdan yaratib bo'lmaydi. Mamlakat aholisining mustamlakachilik tuzumi sharoitida tarkib

topib shakllangan hayotiy qarashlari va ko'nikmalarini darhol, birdaniga bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslab o'zgartirib bo'lmaydi. Chunki, mustamlakachilik tuzumi davrida, odamlarning ongi, shuuri va psixologiyasiga zo'rlik yo'li bilan singdirilgan tobelik, qaramlik, qullik, befarqlik, boqibeg'amlik, tayyorga ayyorlik kabi qarashlarni bir zarba bilan yo'q qilish va aksincha bozor iqtisodiyoti va mustaqillik sharoiti talablari asosida egalik, yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik, faollik kabi olijanob fazilatlarini ham darhol shakllantirishning iloji yo'q. Buning uchun albatta vaqt, sabr-toqat kerak. Bular bosqichma-bosqich yaratiladi. Bu tamoyil jamiyat a'zolaridan bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan barcha ijobiy qadriyatlarga xayrixohlik bilan qarash va ularni asrab-avaylab rivojlantirish, sayqal berishni talab qiladi. Prezident I.Karimovning «yangi uy qurmay turib, eskisini buzma» degan hikmatli so'zi ham xuddi ana shu g'oyaga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni tubdan isloh qilish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishda yuqorida bayon etilgan beshta tamoyil birday muhim va hayotiy belgilovchi ahamiyatga egadir.



1. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz? Uning qanday turlari mavjud?
2. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining o'ziga xos belgilari va xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Mamlakatimiz hududlarida mavjud bo'lgan bozor munosabatlarining qadimiy an'analari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
4. O'zbekiston nima sababdan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi?
5. O'zbekiston tanlagan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Nima sababdan iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lmog'i kerak?
7. Davlat bosh islohotchi deganda nimani tushunasiz?
8. Qonun va qonunlarga rioya etish zaruratini tushuntiring.
9. Kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyati nimada?
10. Nima sababdan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tiladi?



Islohotning besh tamoyili mazmun-mohiyatini ochib bering va ularni quyidagi jadval bo'yicha daftaringizga yozing.

Tamoyillar	Tamoyillarning mazmun-mohiyati
Birinchi	
Ikkinchi	
Uchinchi	
To'rtinchi	
Beshinchi	

23-§. IQTISODIY ISLOHOTLAR STRATEGIYASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI

Iqtisodiyotni isloh qilishning strategik maqsadlari

Prezident I.Karimovning «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» asarida iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy strategik maqsadlari asoslab berilgan.



Iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy strategik maqsadlari:

Birinchidan, kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan, kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etish.

Ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyotni, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har tomonlama o‘sishi uchun asos bo‘ladigan xususiy mulkchilikni vujudga keltirish, uning davlat tomonidan himoya qilinishini ta‘minlash.

Uchinchidan, korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinlik berish, ularning xo‘jalik ishlariga davlat yo‘li bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashishdan voz kechish.

To‘rtinchidan, iqtisodiyotda chuqur strukturaviy o‘zgarishlar qilish, moddiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta‘minlash.

Beshinchidan, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib borish.

Oltinchidan, kishilarning dunyoqarashini o‘zgartirish, ularda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish.

Prezident Islom Karimov asarlarida va nutqlarida iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari ham nazariy jihatdan puxta asoslab berildi. Ular quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish. Shu maqsadda qat‘iy moliyaviy siyosat yuritish, kredit-bank tizimini mustahkamlash, pulning qadrsizlanishi va monopoliyaga qarshi ta‘sirchan chora-tadbirlar ko‘rish;
- iqtisodiyotning tarkibini qayta qurish, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, kichik va o‘rta korxonalar qurish;
- keng ko‘lamda agrar islohotlar orqali har bir dehqonga manfaatdorlik bilan mehnat qilish, o‘zi yetishtirgan mahsulotiga mustaqil egalik qilish, o‘z oilasining to‘qchiligini ta‘minlash imkonini beruvchi mexanizm yaratish. Qishloq joylariga sanoatni olib kirish, qishloqda ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani, kommunikatsiyalar tarmog‘ini, maishiy xizmat shoxobchalarini tashkil etish;
- xo‘jalikning davlatimiz mustaqilligini ta‘minlovchi bazaviy tarmoqlarini — neft va gaz sanoati, energetika, oltin qazib chiqarish va rangli metallurgiya tarmoqlarini rivojlantirish;
- mamlakatning eksport quvvatidan to‘la-to‘kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bozor islohotlarining yuqorida ta‘kidlangan strategik maqsadlari va ustuvor

vazifalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiy siyosati-ning negizini tashkil etdi. Belgilangan maqsadlarga bosqichma-bosqich erishib borildi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrining birinchi bosqichi mustaqillik kunidan milliy valyutani muomalaga kiritishgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda ikkita asosiy vazifa hal qilindi.

Birinchidan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengib o'tildi, tanglikka barham berildi va iqtisodiy barqarorlashtirildi.

Ikkinchidan, bozor munosabatlarining negizlari shakllantirildi.

Birinchi bosqichda iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi va ularni amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. Bular nimalardan iborat bo'ldi?

1. Moliya va soliq siyosati sohasida qattiq moliyaviy siyosat amalga oshirildi, davlat byudjeti kamomadi iloji boricha kamaytirildi, soliq tizimi takomillashtirildi.

2. Kredit-pul siyosati sohasida markaziy bank boshchiligida keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar vujudga keltirildi, mamlakatda chet el banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoitlar yaratildi, barqaror pul muomalasini ta'minlash choralari ko'rildi va O'zbekistonning milliy valyutasini muomalaga kiritish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi va chora-tadbirlar amalga oshirildi.

3. Narx-navo va pulning qadrsizlanishiga qarshi siyosat yuritildi va tegishli chora-tadbirlar ko'rildi.

Bozor iqtisodiyoti huquqiy negizining yaratilishi

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish yo'lini tanlab olganligi yuqorida ta'kidlandi. Ammo g'oyatda murakkab vazifani amalga oshirish uning huquqiy negizlarini asoslab berishni talab qilar edi.

Buningiz mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yaratib bo'lmas edi. Shu boisdan ham islohotlar birinchi bosqichining dastlabki yillaridayoq unga alohida e'tibor berildi. Bozor iqtisodiyoti huquqiy negizining nazariy asoslari Prezident I. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlovl va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» va boshqa asarlari, nutq va ma'ruzalarida har tomonlama ko'rsatib berildi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yaratishning bevosita huquqiy negizlari amaliy jihatdan Mamlakat Oliy Kengashi qabul qilgan rasmiy hujjatlarda o'z aksini topdi. Islohotlarning birinchi bosqichida Oliy Kengash tomonidan iqtisodiyotga oid 100 dan ortiq qonun qabul qilindi. Albatta, ana shu rasmiy hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi alohida ahamiyatga ega. Konstitutsiyamiz XII bobining 53—55-moddalarida bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning iqtisodiy negizlari huquqiy jihatdan asoslab berilgan (14-ilova).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida aniq belgilab berilgan qonun-qoidalar asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyat yaratish borasida mamlakatda bir qator amaliy tadbirlar ro'yobga chiqarildi. Avvalo islohotlar jarayonini huquqiy jihatdan boshqarishni ta'minlash maqsadida davlat idora tizimi barpo etildi. Bu tizim hokimiyatning hamma tarmoqlarini — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini o'zida uzviy qovushtiradi. Undan

tashqari, Prezident huzurida maxsus idoralararo kengash tuzildi. Bu kengash iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha faoliyat ko'rsatadi.

Iqtisodiy islohotlar bo'yicha qabul qilingan qonunlarning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichida qabul qilingan **iqtisodiy sohaga oid qonunlarni asosan beshta yo'nalishga bo'lish mumkin:**



Birinchi yo'nalish — O'zbekistonning davlat mustaqilligi, iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlarini ifodalovchi, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlardir.

Bu qonunlar jumlasiga: «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi (1991-yil 31-avgust), «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi (1994-yil), «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi (1993-yil), «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi (1993-yil), «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (1993-yil) va boshqa qonunlar kiradi. Bu qonunlar asosida markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tizimi vujudga keldi.



Ikkinchi yo'nalish — yangi iqtisodiy munosabatlarni, eng avvalo, xususiy mulkchilikni va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar majmuasi.

Bu yo'nalish doirasida «Mulk to'g'risida»gi (1991-yil), «Yer to'g'risida»gi (1991-yil), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi (1991-yil), «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi (1993-yil) va boshqa qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar bozor munosabatlarining asoslari va zarur shartlari bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishida huquqiy me'yorlar bo'lib xizmat qildi.



Uchinchi yo'nalish — xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar.

Bu borada «Xo'jalik jamoalari va shirkatlari to'g'risida»gi (1998-yil), «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi (1998-yil), «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi (1998-yil) qonunlar qabul qilindi. Ular xo'jalik yuritish yangi mexanizmining asosiy qoidalarini belgilab berdi.

Bozor infrastrukturasi yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (1996-yil), «O'zbekiston Respublikasining pul tizimi to'g'risida»gi (1993-yil), «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi (2000-yil), «Sug'urta to'g'risida»gi (1993-yil), «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi (1993-yil), «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi (2000-yil), «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi (2000-yil) va boshqa qonunlar qabul qilindi.

Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi soliq tizimi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, xo'jalik-protsessual kodeksi ishlab chiqildi, xo'jalik sudi

tuzildi. Bu qonunlarning qabul qilinishi bilan mamlakatda bozor mexanizmlarini rivojlantirish ishiga mustahkam poydevor qo'yildi.



To'rtinchi yo'nalish — O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar.

«Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (2000-yil), «O'zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi to'g'risida»gi, «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi, «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi (1996-yil) qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlarning O'zbekiston tomonidan imzolinishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan, xorijiy investorlarning manfaat va huquqlarini himoya qilishga ishonchli kafolat yaratadigan qonunlarning qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.



Beshinchi yo'nalish — inson huquqlarini, aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va ijtimoiy kafolatini ta'minlaydigan qonunlar.

«Aholining bandligi to'g'risida»gi (1998-yil), «Nogironlarning ijtimoiy muhofazasi to'g'risida»gi (1991-yil), Fuqarolarning Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi (1993-yil), «Ta'lim to'g'risida»gi (1997-yil), «Yoshlarga doir davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi (1991-yil), «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (1998-yil) qonunlar shular jumlasidandir. Bu huquqiy hujjatlar bozor munosabatlariga o'tishning murakkab sharoitida aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, kishilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada jo'sh urdirish imkoniyatini berdi.



1. Iqtisodiyotni isloh qilishning strategik maqsadlari nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida qanday ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi?
3. Bozor iqtisodiyotining huquqiy negizlari qaysi manbalarda va rasmiy hujjatlarda asoslab berilgan?
4. Iqtisodiy islohotlar bo'yicha qabul qilingan qonunlarning asosiy yo'nalishlarini tushuntirib bering.



Iqtisodiy islohotlar bo'yicha qabul qilingan qonunlarni yo'nalishlar bo'yicha quyidagi jadval asosida yozib chiqing:

Yo'nalishlar	Qonunlarning nomi	Sana
Birinchi		
Ikkinchi		
Uchinchi		
To'rtinchi		
Beshinchi		

24-§. DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH. MULKDORLAR SINFI SHAKLLANTIRILISHI

Davlat mulkini xususiylashtirish zaruriyati

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatni barpo etishning asosiy sharti: 1) davlat mulkini xususiylashtirish; 2) ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish; 3) ishlab chiqarish korxonalari va mulkdorlar o'rtasida o'zaro raqobatlashish uchun zarur sharoitlar yaratish; 4) mulkdorlar sinfini shakllantirishdan iboratdir. Albatta, bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan bu xususiyatlar mustamlakachilik tuzumiga asoslangan sobiq Sho'ro saltanati uchun begona edi.

O'zbekiston Respublikasi ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish maqsadlarini ko'zlab davlat mulkini xususiylashtirish yo'lini tutdi. Bu yo'l jahon davlatlari tajribasida hayotda o'zini oqlagan yo'ldir. Bu yo'ldan dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Filippin singari davlatlari ham bormoqdalar.



O'zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish maqsadida 1992-yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo'mitasi ta'sis qilindi. 1994-yilda u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasiga aylantirildi.

Mazkur qo'mita zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklatildi. Ular quyidagilardan iborat edi:

- ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda yagona siyosatni amalga oshirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
 - mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va xususiylashtirish dasturini ishlab chiqish;
 - xususiyy biznes rivojlanishiga yordam ko'rsatish va boshqalar.
- Xususiylashtirish tanlov va kim oshdi savdosi orqali amalga oshirildi, bu tartib takomillashib bordi. Dastlab savdo-sotiqqa faqat mol-mulkning o'zi qo'yilgan bo'lsa, keyinroq xususiylashtirilayotgan mol-mulk joylashgan yer uchastkalar, yangi qurilish qilish uchun yer maydonlari ham kim oshdi savdosiga qo'yildi.

Xususiylashtirishdan tushgan barcha mablag'lar tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun berildi. Bu jarayon ham O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan o'ziga xos yangi tajriba sifatida dunyo mamlakatlarida katta qiziqish uyg'otdi.

Davlat mulkini xususiylashtirish tamoyillari

Davlat mulkini xususiylashtirishning Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishning nazariy-ilmiy va amaliy asosi bo'lib xizmat qildi.

Chunki, unda O'zbekistonning o'ziga xos shart-sharoitlari, xususiyatlari va talablari har tomonlama hisobga olinganligidan tashqari, jahon mamlakatlarining bu boradagi ilg'or tajribalari ham chetlab o'tilmagan edi. Buni nimalarda ko'rish mumkin?

Birinchidan, xususiylashtirish qandaydir kishilar yoki ma'lum mafkura manfaati uchun bo'ysundirilmadi. «Davlat bosh islohotchi» tamoyiliga amal qilindi. Davlat xususiylashtirishni boshqarib bordi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda chek vositasi bilan xususiylashtirish g'oyasidan voz kechildi, davlat mol-mulki yangi mulkdorga faqat sotish yo'li bilangina mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi. Bunda «tekin narsaning qadri ham bo'lmaydi» degan qoidaga amal qilindi.

Uchinchidan, xususiylashtirishga dasturiy yondashuvni ta'minlash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borildi. Albatta, bu qoida har bir yangi bosqich uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Masalan, dastlabki bosqich xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini, xullas «kichik xususiylashtirish» jarayonini qamrab oldi.



1992—1993-yillarda 28,8 ming yuridik shaxs 53,9 mingta xususiyy obyekt egasi bo'ldi. Shu yillarda 1 million kvartira xususiylashtirildi. Ular xususiyy mulkka aylandi.

2002-yilga kelib O'zbekiston aholisining asosiy qismi qaysidir shakldagi mulk egasi bo'ldi. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlardan tashqari, barcha mulkka fuqaroning o'zi egalik qilmoqda.

2003-yilning birinchi yarmiga kelib mamlakatda 698 korxonalar va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Ushbu xususiylashtirishdan tushgan jami mablag' 22,5 milliard so'mni tashkil qildi.

Xususiylashtirishning huquqiy negizlari

O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish 1990-yildayoq hukumat tavsiyasi asosida mahalliy sanoatda 3 ta xususiyy korxonalar tashkil qilinishi bilan belgilangan edi. Samarqanddagi uy mehnatiga asoslangan xususiyy fabrika hissadorlik jamiyatiga aylandi. Sirdaryo shoyi to'qish fabrikasi va boshqa qator korxonalar ijaraga o'tib ishlay boshladi. Bu yerda to'plangan dastlabki tajribalar keyinchalik davlat mulkini xususiylashtirishda hisobga olindi, undan samarali foydalanildi.



1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida mulkni «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

Unga ko'ra xususiylashtirish va mulkchilik shakllarini o'zgartirish maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Dasturga asosan dastlabki bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini qamrab oldi. Bu «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.

Kichik xususiylashtirish 1994-yildayoq tugallandi. 1992—1994-yillarda 54 mingga yaqin korxonalar va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Ularning 18,4 mingtasi xususiyy mulk bo'lib qoldi. 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa,

661 tasi ijara korxonalariga aylandi. 1994-yilda mamlakat yalpi ijtimoiy mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda 4 millionga yaqin kishi ish bilan band bo'ldi.

Bir million kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i xususiy-
lashtirildi. Har uch kvartiraning bittasi egalarga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari va ijodiy ziyolilar kvartiralarning bepul egalari bo'lishdi.



Mamlakat Oliy Majlisi mulkdorlar sinfini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida 1996-yil 25-aprelda o'zining beshinchi sessiyasida «Aksiyadorlar jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi qonunlarni qabul qildi.

Xususiylashtirishning yangi bosqichlari

1994-yil 21-yanvarda qabul qilingan «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994-yil 16-martda qabul qilingan. «Muljni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident Farmonlari xususiylashtirish jarayonini yana ham yangi pog'onaga ko'tarish, uni sifat jihatidan yaxshilash imkonini berdi.

Qabul qilingan qarorlarga muvofiq yangi bosqichda korxonalarni ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirish, ushbu jarayonga mamlakat aholisini va chet ellik investorlarni kengroq jalb qilish vazifasi qo'yildi. Qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk bozorini tashkil etish uchun asos yaratildi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kimoshdi savdolari va tanlovlari o'tkaziladigan bo'ldi.

Xususiylashtirish borasidagi barcha ishlar izchil va muntazam olib borildi. Muljni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga doir 20 dan ortiq davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturlarga muvofiq xalq xo'jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiylashtirish uchun imkon yaratildi, bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994-yil 29-martda tasdiqlangan Davlat dasturiga muvofiq shu yilning o'zida 5127 obyekt xususiylashtirildi.

1995-yili xalq xo'jaligida ommaviy xususiylashtirishlar davri bo'ldi. Yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshlandi. Shu yili mashinasozlik kompleksiga qarashli 89 ta korxonalar, 81 ta yoqilg'i energetika, 55 ta qurilish industriyasiga qarashli, 114 ta transport, 68 ta uy-joy kommunal xo'jaligi, 229 ta qayta ishlash korxonasi va 291 ta qurilish bilan bog'liq obyektlar xususiylashtirildi. Iqtisodiyotning davlat sektori negizida mingdan ortiq ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, 6000 xususiylashtirilgan va oilaviy korxonalar vujudga keldi.

O'zbekistonda muljni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholi uchun imtiyozli tizim yaratildi. Masalan, xususiylashtirilayotgan korxonalar xodimlariga imtiyozli aksiyalar berildi. Shuningdek, davlat xo'jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli shartlarda xususiylashtirildi.

1998-yilga kelib xususiylashtirilgan korxonalar tarmog'i keskin ko'payganligi bilan xarakterlanadi. Agar 1993-yilda mamlakatdagi jami korxonalar 39,4 foizdan ortiqrog'i davlatga tegishli bo'lmagan korxonalar bo'lgan bo'lsa, 1994-yilga kelib bunday korxonalar 57,7 foizga va 1998-yilga kelib esa 88,2 foizga teng bo'ldi.

Davlat mulkini xususiylashtirish yuzasidan mamlakatimizda olib borilgan katta ko‘lamdagi amaliy ishlar natijasida mamlakatda ko‘p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi vujudga keldi.



2003-yil boshiga kelib, xususiy va kichik korxonalar soni 120 mingdan oshib ketdi.

To‘plangan tajriba katta-katta sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish imkonini berdi. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya-ishlab chiqarish birlashmasi ochiq turdagi davlat-aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Qishloq xo‘jaligi mashinasozligining 15 ta korxonasi yuqori investitsiya salohiyatiga ega bo‘lgan xo‘jalik tuzilmasini — «O‘zqishloqxo‘jalikmashxolding»ni tashkil etdi. Uning tarkibiga Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasi, Toshkent agregat zavodi, «Chirchiqqishmash», «O‘zbekqishmash» aksionerlik jamiyatlari kabi yirik korxonalar kirdi.

Bir so‘z bilan aytganda, mustaqillik yillarida xususiylashtirish jarayoni O‘zbekistonda izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirila bordi.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash

Mustaqillik-yillarida mamlakat ijtimoiy hayotida yangi iqtisodiy yo‘nalish — tadbirkorlik keng ravnaq topdi va rivojlandi. Bu sohani qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish masalasiga mamlakatimizda katta e‘tibor berilmoqda va bu sohaga Prezident I.Karimovning o‘zi g‘amxo‘rlik qilmoqda.



1996-yil 12-martda tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezident I.Karimovning «O‘zbekistonda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasini tashkil etish to‘g‘risida» Farmoni e‘lon qilindi.

Mazkur farmon asosida mamlakatimizda yakka tartibda mehnat faoliyati bilan band bo‘lgan jismoniy shaxslarning manfaatlarini himoya qilish ishlarini tashkil etishda yordam ko‘rsatish vazifalarini o‘z zimmasiga oluvchi tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasining viloyatlarda hududiy bo‘limlari ham tashkil etildi. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish fondi tuzildi. Tadbirkorlarga va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko‘maklashish maqsadida ilmiy-texnikaviy ko‘maklashuv jamiyati O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash markazini tuzdi. Yevropa va O‘rta Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Buyuk Britaniya investitsiya fondi tadbirkorlarga ko‘maklashmoqda.

O‘tgan-yillar mobaynida mamlakatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari talablari asosida xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, xususiy tadbirkorlar, kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan kreditlar miqdori yildan-yilga oshirib borilmoqda. Faqatgina 2002-yilning o‘zida mamlakat tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga o‘z mablag‘lari, byudjetdan tashqari jamg‘armalar va xorijiy

kredit liniyalari hisobidan jami 265 milliard so'm miqdorda kreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlarning 180 milliard so'mi yoki 67,9 foizi o'rta va uzoq muddatlarga berilgan.

2003-yilning birinchi yarmiga kelib mamlakatda mavjud tijorat banklarining jami mablag'lari 32 foizga ortdi, kreditlarning qaytarilish darajasi yaxshilandi. Bu esa, o'z navbatida, o'tgan yarim-yillikning o'zida berilgan kreditlar hajmini 36 foiz oshirishga imkon tug'dirdi.

Ushbu misollarda ko'rsatilganidek, mamlakatimizda davlat va hukumat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularga iqtisodiy ko'mak berishga ustuvor vazifa sifatida qarab kelinmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan ekan, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berildi.



1. Davlat mulkini xususiylashtirishning mohiyati nimalardan iborat?
2. Davlat mulkini xususiylashtirish tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?
3. Xususiylashtirish jarayoniga qanday davlat organi rahbarlik qiladi?
4. Davlat mulkini xususiylashtirishning huquqiy asoslari qaysi rasmiy hujjatlarda belgilab berilgan?
5. Mamlakatimizda xususiylashtirish jarayoni qanday kechganligini so'zlab bering.
6. Ko'p ukladli iqtisodiyotning barpo etilishini isbotlab bering.
7. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday amaliy tadbirlar amalga oshirildi?



Siz yashab turgan hududda, tevarak-atrofigingizda xususiy korxonalar, muassasa, xo'jalik, maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilganligi haqida ma'lumotlarni to'plang va daftaringizga yozing.

25-§. BOZOR INFRASTRUKTURASINING SHAKLLANTIRILISHI

Bozor infrastrukturasi va uning zaruriyati

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish uchun albatta, bozor infrastrukturasi yaratish lozim. Ya'ni bozor munosabatlarini harakatga keltiruvchi va uning ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratib beruvchi sohalarini shakllantirish lozim. Aks holda bozor munosabatlariga o'tib bo'lmaydi.



Bozor infrastrukturasi deyilganda, tovar va pul bozorida, mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlovchi iqtisodiy vositalar — tegishli moliya va bank-kredit tizimi, sug'urta, auditorlik, yuridik va xususiy firmalar tizimi tushuniladi.

Bozor infrastrukturasi birdaniga yaratish mumkin emas. Uni shakllantirish jarayoni jamiyat a'zolarining yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirishni, mazkur soha bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlashni talab qiladi.

Bozor infrastrukturasi shakllantirishning O'zbekiston Respublikasi uchun o'ziga xos bir qator shartlari mavjud. Ana shulardan bittasi Sho'ro tuzumidan

meros bo'lib qolgan mahsulot yetkazib berishning majburiy davlat buyurtmasidan voz kechishdan iborat bo'ldi. Davlat buyurtmasi zarur bo'lgan mahsulotlarni erkin (kelishilgan) narxlarda xarid qilish bilan almashtirildi.

Davlat buyurtmasi tugatilishi bilan bir qatorda, tovar resurslarni Sho'ro davridagidek markazlashgan tartibda taqsimlashga javobgar bo'lgan sobiq ta'minot idora va tashkilotlar ham so'zsiz tugatildi. Ularning o'rniga tovarlar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi. 1991-yilda mamlakatda birinchi bo'lib «Toshkent» tovar-fond birjasi tuzildi va dastlabki kim oshdi savdosini o'tkazdi. 1992-yilda 30 dan ortiq shunday birjalar ish olib bordi. Mamlakat tovar-xomashyo birjasi 1994-yilda umumiy summasi 1,3 milliard so'mdan ortiq bo'lgan mingdan ziyod oldi-sotdi bitimini rasmiylashtirdi.

Tovar resurslarini taqsimlashning birja tizimi bilan bog'liq holda ko'plab tadbirkorlik bo'g'inlari — brokerlik va dillerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'ldi.

1994-yildan boshlab mamlakatda kredit resurslari bozori faol ishlay boshladi. Foiz stavkasi (darajasi) o'zgartirildi, endi u moliyaviy resurslarni korxonalar o'rtasida qayta taqsimlashga faol ta'sir eta boshladi. Banklararo valyuta birjasi tashkil etildi. Bu birja tomonidan o'tkazilayotgan valyuta kim oshdi savdosida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bemaol qatnashadigan bo'ldi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishsizlik asosiy muammolardan biriga aylandi. Chunki, iqtisodiy tizimlar o'zgarayotgan, ommaviy xususiyashtirish amalga oshirilayotgan bir paytda, nafaqat malakasiz, hatto, ma'lum ixtisosga ega bo'lgan malakali xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar safi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'rildi. Shuning uchun 240 dan ortiq Mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq tashkil etildi. Har bir tumanda Mehnat birjalari barpo qilindi. Ular ishsizlarni ro'yxatga olish, ishga joylashtirish kabi vazifalarni bajaradilar. Xodimlarning kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi. Ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash tartibi yo'lga qo'yildi.

Pul-kredit siyosati

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning muhim shartlaridan biri — bu mamlakatda to'g'ri pul-kredit siyosatini olib borishdir. Shu boisdan ham mustaqillikning birinchi kundan boshlab bu masalaga alohida e'tibor berildi.

O'zbekiston 1991—1993-yillarda rubl zonasida bo'lgan davrda ishlab chiqarishning butunlay inqirozga yuz tutishiga va aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, savdo balansining ahvolini yaxshilashga, iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratilgan siyosat olib bordi. Bir tomondan, siyosiy mustaqillik, boshqa tomondan yagona rubl zonasida, yagona iqtisodiy zonada turganlik holati O'zbekiston uchun o'ziga xos xususiyatga ega edi. Bu o'z navbatida pul-kredit siyosatini belgilashda ham o'ziga xos yo'lni ishlab chiqishni taqozo etardi.

Bu boradagi muhim vazifa banklar faoliyatini, ular vazifalarini yangi talab va ehtiyojlar asosida tashkil qilishni talab qilar edi. Mamlakatda ikki pog'onali samarali bank tizimini yaratmoq kerak edi. Busiz O'zbekistonda bozor munosabatlarini yuzaga keltirib, uning xo'jalik mexanizmini, pul muomalasini qayta qurib bo'lmasdi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi

O'zbekiston SSR Qonuni, shuningdek, keyin unga kiritilgan qo'shimcha va o'zgarishlar bank, bank muassasalarini tashkil etish yo'llarini belgilab berdi.

Mazkur Qonunga muvofiq, SSSR Davlat Bankining mintaqaviy bo'limi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga aylantirilib, unga oltin-valyuta zaxmalarini saqlash, banklar faoliyatini nazorat qilish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish va boshqa vazifalar topshirildi.

Shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy banklar tajribalarini inobatga olib hamda mustaqil mamlakat pul-kredit siyosatini butunlay yangidan izga solish maqsadida Markaziy Bank to'g'risida, banklar va banklar faoliyati to'g'risida alohida Qonunlar ishlab chiqish zaruriyati vujudga keldi.



1995-yil 21-dekabrda Oliy Majlisning to'rtinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

Bu huquqiy hujjat Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon Banki tomonidan yuqori baholandi.

Mamlakatda o'tgan yillar mobaynida amalga oshirilgan qat'iy pul-kredit siyosati asosan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish suratlari oshirish va pul massasini qisqartirish yordamida inflyatsiya darajasini pasaytirishga qaratildi.

Makroiqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish maqsadida Markaziy bankning pul-kredit siyosati byudjet-soliq siyosati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borilmoqda.

Bank tizimi islohoti

Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilgan islohotlardan biri bank tizimini isloh qilishdir. Xususan, islohotlar asosan, bozor iqtisodiyoti talablariga to'la javob beruvchi bank tizimini shakllanitirishga, banklar faoliyatini xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashtirishga, ichki va tashqi moliya bozorlarida banklarning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirildi.

Bank tizimini rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish maqsadida bank faoliyati, jumladan, pul muomalasi, bank nazorati va hisob-kitoblar tizimiga oid me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish orasida o'tgan yillar mobaynida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublika Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi (2000-yil 21-mart) Farmoni va Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi (2000-yil 24-mart) qarori bilan tasdiqlangan «2000-2003-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish Dasturi» qabul qilindi.

Ushbu Dasturga muvofiq aholining banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, aholi jamg'armalarini banklarga jalb qilish, jamg'arma hajmlarini oshirish va omonatlarini davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash maqsadida Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida (2002-yil 5-aprel) «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2002-yil 19-sentabr) Qaroriga asosan «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi» tashkil etildi.

Bu bank tizimi va ijtimoiy muxofaza sohasidagi davlat faoliyatini tartibga soladigan muhim huquqiy asosdir.

2003-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda 35 ta tijorat banki va ularning hududlarida 805 ta filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari va chet el davlatlari banklarining 8 ta vakolatxonasi mavjud.

Bundan tashqari, mamlakatda mini banklar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Agar 2000-yilda mamlakatimiz bo'yicha hammasi bo'lib 15 ta minibank faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2003-yilning birinchi yarmiga kelib ularning soni 530 tadan oshib ketdi. Kichik va o'rta korxonalar, fermer xo'jaliklarining bank tizimi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari ancha kengaydi.

Xorijiy banklar bilan hamkorlik

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz banklarining xorijiy banklar bilan, jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, Yevropa

Tiklanish va Taraqqiyot Banki va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar hamda chet el markaziy va tijorat banklari bilan o'zaro foydali hamkorligi rivojlanib bordi.



Mazkur xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik asosan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda:

- ◆ makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashish;
- ◆ milliy valyutani mustahkamlash;
- ◆ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish;
- ◆ kichik va o'rta biznesni rivojlantirish;
- ◆ kadrlar tayyorlash va boshqalar.

Ushbu aloqalar mamlakat iqtisodiyotini xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi jarayonini tezlashtirish va chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

2002-yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda Xalqaro valyuta fondi o'rtasida iqtisodiy va moliyaviy siyosat masalalari yuzasidan Memorandum imzolandi. Mazkur Memorandumda mamlakatda iqtisodiy islohotlarning kelgusi yo'nalishlarini belgilash, valyuta bozorini erkinlashtirish, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyutani erkin almashtirishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutildi. Hozirgi vaqtda Xalqaro valyuta fondi tomonidan O'zbekistonga umumiy miqdori 165,2 million AQSH dollari miqdorida kreditlar ajratildi.

2002-yilning 11—20-sentabrida Xalqaro valyuta fondi missiyasi yuqorida qayd etilgan Memorandum shartlarining bajarilishini tahlil qilish, o'rganish va baholash uchun O'zbekistonga tashrif buyurishdi. Ushbu missiya ish faoliyati yakunlari bo'yicha O'zbekistonda pul-kredit va soliq-byudjet siyosati kelishilgan nazorat

ko'rsatkichlariga muvofiq holda yuritilganligi, naqd puldagi operatsiyalarni erkinlashtirish, naqd chet el valyutasi bozorini kengaytirish va davlat xaridlari sohasida islohotlarni o'tkazishda ijobiy natijalarga erishilganligi qayd etildi.

O'zbekiston va Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (XTTB) o'rtasidagi hamkorlik ham har 3 yilda qayta takrorlanadigan «Mamlakatga yordam berish strategiyasi» dasturi asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Umuman, 1992—2003-yillarda XTTB O'zbekistonga umumiy miqdori 534,1 million AQSH dollariga teng miqdordagi 11 ta qarz berilishini tasdiqladi. Hozirgi vaqtga kelib ushbu qarz 330 million AQSH dollari miqdorida o'zlashtirildi.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) bilan ham keng hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ayni paytda mamlakatimizda OTB ishtirokidagi umumiy miqdori 497 million AQSH dollari miqdoriga teng bo'lgan 10 ta loyiha amalga oshirilmoqda. 2002-yil may oyida OTB Respublikamizga 36 million AQSH dollari miqdoridagi kredit berilishini ma'qulladi. Ushbu kredit Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish uchun mo'ljallangan.

Shuningdek, mamlakatimiz banklari tomonidan iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish uchun Xalqaro moliya korporatsiyasi, Markaziy Osiyo—Amerika tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Germaniya kredit agentligi, Yaponiya xalqaro hamkorlik banki va boshqa xorijiy tashkilotlar hamda banklarning kredit yo'nalishlarini ochish va ularga xizmat ko'rsatishga doir chora-tadbirlar ham faol ravishda amalga oshirib borilmoqda.

So'mning muomalaga kiritilishi

Mamlakatimizda amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri — bu iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan pul muomalasini mustahkamlash, valyuta munosabatlarini tartibga solish bo'ldi.

Prezident I.Karimov 1993-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida «**Mustaqil davlat boshqa davlatlardan ayri tarzda iqtisodiy hur bo'lishi uchun o'z pulga, o'zining milliy valyutasiga ega bo'lmog'i kerak. Bu iqtisodiy mustaqillikning asosiy shartlaridan biridir**», — degan edi.



1994-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining pul birligi — so'm muomalaga kiritildi. Shu kundan boshlab so'm mamlakat hududidagi yagona qonuniy to'lov vositasi sifatida qabul qilindi.

Umuman, mamlakatda milliy valyutaning muomalaga kiritilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishning, korxonalar va tarmoqlarning moliyaviy ahvoli mustahkamlanishining, aholini va mamlakat iste'mol bozorini muhofaza qilishning muhim omili bo'ldi.

O'tish davri iqtisodiyotining obyektiv shart-sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda kreditlar birinchi navbatda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga yo'naltirildi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, «O'zDEUavto» va «SamKochavto» avtomobil zavodlari singari xalq xo'jaligining ulkan qurilishlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Birgina 2002-yilda mamlakat banklarining iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi 851 milliard so'mga yoki 43,2 foizga o'sib, bu ko'rsatkich yil

oxirida 2821,1 milliard so'mga yetdi va bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan 37,3 foizga teng bo'ldi.

Shuningdek, ushbu davrda banklarning boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalari va investitsiyalari ham 13,2 milliard so'mga yoki 23,7 foizga o'sdi hamda 2003-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 68,8 milliard so'mni tashkil etdi.

Mamlakatda mavjud tadbirkorlik subyektlari uchun kredit resurslariga keng yo'l ochib berish, xususiy tadbirkorlar, dehqon va fermer ho'jaliklari hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlash ko'lamini kengaytirish maqsadida ularni kreditlashning huquqiy asoslarini rivojlantirish zarur bo'lib qoldi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida (2002-yil 5-aprel) «Kredit uyushmalari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

Ushbu Qonunning qabul qilinishi tijorat banklariga nisbatan muqobil moliyaviy institutlar sifatida kredit uyushmalarining tashkil etilishiga va faoliyat yuritishiga zamin yaratdi.

Narxlarning erkinlashtirilishi

O'zbekiston hukumati mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga olib, narxlarni erkinlashtirish masalasiga puxta va uzoq tayyorgarlik ko'rdi. Narxlar 1992-yil yanvardan boshlab bosqichma-bosqich, aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan choralarni oldindan ko'rib qo'yan holda erkinlashtirila boshlandi. Vazirlar Mahkamasining «Narxlarni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq 1992-yil 10-yanvardan boshlab O'zbekistonda keng doiradagi ishlab chiqarish mahsulotlari, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan (erkin) narxlari va tariflarga o'tildi. Hukumat aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasini, ko'rsatiladigan ayrim turdagi xizmatlarining eng yuqori tariflarini belgilab qo'ydi. Shu munosabat bilan don, bug'doy yetishtirish uchun, un va boshqa oziq-ovqat mollarini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlarning bir qismi respublika byudjetidan to'landi. O'quvchi va talabalarga bepul nonushta va imtiyozli ovqat davlat hisobidan qoplandi, bolalarga mo'ljallangan ayrim turdagi tovarlarni, dori-darmonlarni ishlab chiqarishga davlat dotatsiyasi berildi.



1994-yilning oktabr—noyabr oylari narxlarni erkinlashtirish jarayonida jiddiy bosqich bo'ldi. Xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxleri erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi.

Non va uning narxlari, uy-joy kommunal xo'jaligi, shahar umumiy transporti xizmatlarining tariflarigagina qisman dotatsiya beriladigan bo'ldi, xolos.

Shunday qilib, iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'la erkinlashtirish bilan tugadi, bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamg'armalarini tuzdi, pensiyalar, nafaqalar va talabalarga stipendiyalarni muntazam oshirib bordi.

Narxlarni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. 1993-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonuni kuchga kiritildi. Mazkur qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tarkibida tuzilgan Antimonopol va narxnavo siyosatini o'tkazish bosh boshqarmasi monopoliya mavqeidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni tartibga solib turibdi.

Soliq siyosati

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan choralar ham muhim rol o'ynadi. Chunki, soliqlar xazinani to'ldiruvchi asosiy manbadir. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida mamlakatda mavjud soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berildi.



Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida Davlat Soliq organlari haqida»gi Qarori asosida O'zbekistonda eng zamonaviy shaklda, butunlay yangi tipdagi soliq tizimi yuzaga keldi. 12-avgust «Soliqchilar kuni» deb e'lon qilindi va u kasb bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Bosh Boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi Farmoni soliqchilar hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarning kengayib ketganligi mazkur Bosh Boshqarma xizmat doirasini kengaytirib yubordi. Natijada u 1997-yildan boshlab Davlat qo'mitasiga aylantirildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida barcha sohalar qatori soliq tizimiga bo'lgan munosabatlar ham tubdan o'zgardi. U bozor iqtisodiyotini amalda tartibga soluvchi muhim vosita va davlat daromadlarini vujudga keltiruvchi bosh manba darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatda soliq tizimini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar soliq to'lovchilar ongida tub o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi.

Mulk shaklidan qat'iy nazar soliq to'lovchilar soni yildan-yilga ko'paydi. Ulardan byudjetga tushayotgan soliq to'lovlari yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida fuqarolarning yillik daromadlarini Deklaratsiya qilish tartibi joriy qilindi. Bu masalada dastlab Chilonzor va Shayxontahur tumani soliq inspeksiyalarida tajriba o'tkazilib, keyinchalik respublika miqyosida yoyildi.

Mamlakatda soliq tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tarishda hukumatimiz ko'rsatayotgan doimiy g'amxo'rlik tufayli respublika soliqchilarining ish tajribasi endilikda MDHga a'zo mamlakatlarda qiziqish uyg'ota boshladi. 2000—2003-yillarda Rossiya Federatsiyasi Soliq politsiyasi departamenti, Yaponiya Moliya vazirligi delegatsiyasi, BMTning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi, Jahon banki va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi ish faoliyati bilan tanishdilar va unga yuqori baho berdilar.

O'zbekiston soliq organlari 1991-yilda qabul qilingan «Korxonalar, birlash-

malar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonun, 1995-yil 22-dekabrda ushbu Qonunga kiritilgan o'zgarishlar, 1999-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi» asosida ish yuritilmoqda.



Qonun hujjatlariga asosan soliqqa tortishning quyidagi to'rt tamoyili joriy etildi:

- ♦ Daromad manbalaridan qat'iy nazar hamma daromadlarni soliqqa tortishning majburiyligi.
- ♦ Mahalliy hokimiyatlar hisobga olingan holda butun mamlakatda yagona umumdavlat soliq siyosatini olib borish.
- ♦ Korxonalar va tashkilotlar muhim ijtimoiy, iqtisodiy ekologik masalalarni hal etayotganligini hisobga olib, ularni manfaatdor qilish maqsadida imtiyozlar berish orqali soliqlarning manfaat keltiruvchilik rolini ta'minlash.
- ♦ Soliq to'lovchilar majburiyatlarining bajarilishi ustidan moliyaviy nazorat o'rnatish. Bu tamoyil soliq idoralarining bosh vazifasi bo'lib qolmoqda.

Soliqqa tortishning yuqoridagi 3-tamoyili jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida g'oyat dolzarbdir. Lekin asta-sekin bozor qaror topishi bilan og'irlikning bir qismi davlat zimmasidan soqit bo'lib, korxonalar va tashkilotlar zimmasiga yuklanadi. Chunki, ishchilar salomatligi, atrof-muhit musaffoligi birinchi galda korxonalarga zarurdir.



1. Bozor infrastrukturasida deganda nimani tushunasiz?
2. Bozor infrastrukturasini shakllantirish zarurati nimalardan iborat bo'ldi?
3. Tovarlar bozorining shakllantirilishi haqida so'zlang.
4. Mehnat birjalari nima va ular qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?
5. Respublikada pul-kredit siyosati qanday yo'lga qo'yilgan?
6. Mamlakatimizda bankning qanaqa turlari bor va ular faoliyatining yo'nalishlari nimalardan iborat?
7. So'mning muomalaga kiritilishi haqida so'zlang.
8. O'zbekistonda narxlar qay tartibda erkinlashtirildi?
9. Respublikada amalga oshirilayotgan soliq siyosatining mohiyatini tushuntiring.



«Daromaddan soliq to'lash har bir fuqaroning burchi» mavzusida bayon yozing.

26-§. IQTISODIYOTNING AGRAR SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR

Qishloqda tub islohotlarning zarurati va uning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi salmog'i sanoatdan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Sho'ro mustamlakachiligi yillarida yuritilgan shovinistik va zo'ravonlik siyosat tufayli O'zbekiston qishloq xo'jaligi bir tomonlama, faqat paxtachilikka moslab rivojlantirildi va mamlakatda paxta yakka hokimligi vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat qishloq xo'jaligini milliy mustaqillik talablari asosida har tomonlama (kompleks) rivojlantirish imkoniyatini beradigan shart-sharoitlarni yaratishni ko'zlab tub islohotlarni amalga oshirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yildi.



Qishloqda tub islohotlarni o'tkazishning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

- ◆ Xalq xo'jaligi barcha sohalari taraqqiyoti qishloq xo'jaligining ishlab chiqarishiga bog'liq. Iqtisodiyotning asosiy qon tomiri bo'lgan sanoat ham bundan mustasno emas.
 - ◆ Mamlakat aholisining oziq-ovqat va kiyim kechakka bo'lgan ehtiyojini ham yuksak darajada rivojlangan va taraqqiy etgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishsiz to'la qondirish mumkin emas.
- O'zbekiston aholisining asosiy qismi — 60 foizdan ortiqrog'i qishloqda
- ◆ yashaydi, ularning 50 foizidan ortig'ini 18 yoshga yetmagan yoshlar tashkil etadi.

Sanab o'tilgan va boshqa bir qator omillar taqozosiga ko'ra mamlakat rahbariyati mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab bu sohaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Dastlab, 1992-yilda Prezident Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasida qishloq xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvchi kompleks tashkil qilindi. Sohaga rahbarlikni takomillashtirish ishlari doimo respublika parlamenti va davlat rahbarining diqqat markazida bo'ldi.

Islohot yillarida mamlakat parlamenti bir qator qonunlar majmuasini qabul qildi: «Yer to'g'risida»gi (1998-yil), «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi (2000-yil), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi (1991-yil), «Ijara to'g'risida»gi (1991-yil), «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi (1992-yil), «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida»gi (1993-yil), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi (1993-yil), «Yer solig'i to'g'risida»gi, «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida»gi (1995-yil), «Naslchilik to'g'risida»gi (1995-yil), «Qishloq xo'jaligi kooperativi (Shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi (1998-yil), «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi (1998-yil), «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi (1998-yil) qonunlar va «O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi» (1998-yil) shular jumlasidandir.

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ham 1991—2003-yillar davomida qishloq xo'jaligini isloh qilish masalalari bo'yicha 10 dan ortiq qarorlar qabul qildi. Jumladan, «Paxta va paxta tolasini xarid va ulgurji narxlarini oshirish to'g'risida» (1991-yil 26-sentabr), «Paxta, pilla, chorvachilik mahsulotlarining xarid narxlarini va paxta tolasining xarid narxlarini oshirish to'g'risida» (1992-yil 31-mart), «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotni yanada chuqurlashtirish choralari to'g'risida» (1993-yil 9-yanvar), «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», «Chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiylashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish to'g'risida» (1994-yil 24-fevral), «Paxta tolasini resurslaridan kompleks foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» (1994-yil 25-avgust), «Xo'jaliklarga ularning ixtiyorida qoldiriladigan paxta tolasini eksport qilishda ko'maklashish to'g'risida»

(1994-yil 2-dekabr), «Chorvachilikda bundan keyingi xususiylashtirish va xususiylashtirishni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida» (1995-yil 24-mart), «1996-yilda paxta yetishtirish hajmlari to'g'risida» (1996-yil 25-yanvar) va boshqa qarorlarni ta'kidlash mumkin. Bu hujjatlarda qishloqda ko'p ukladli xo'jalikni vujudga keltirish, paxta yakkahokimligiga barham berish, qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirish va shu asosda mamlakatning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga erishish tadbirlari ilgari surildi. Mazkur masalalar mustaqillik yillarida Prezident I.Karimov tomonidan e'lon qilingan o'nlab farmonlarda ham o'z aksini topdi.

Agrar islohotlar

Milliy istiqloq-yillarida mamlakat hukumati tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mamlakat qishloq xo'jaligida agrar islohotlar amalga oshirildi. Qishloqda amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida mamlakatda sho'rolar davrida hukm surgan «sotsialistik mulk»ning ikki shakli: davlat mulki va jamoa mulki (amalda u ham davlat mulki edi) o'rniga ko'p ukladli xo'jaliklar shakllantirildi.



O'zbekistonda shakllantirilgan ko'p ukladli xo'jaliklar quyidagilardan iborat:

- ♦ **Kooperativ mulk sektori:** jamoa xo'jaliklari, xo'jaliklararo korxonalar, shirkatlar, uyushmalar, davlat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan xo'jaliklar, jamoa mulkiga aylantirilgan fermalar va hokazo.
- ♦ **Davlat mulki sektori:** davlat xo'jaliklari, naslchilik zavodlari, o'quv-tajriba hamda tajriba xo'jaliklari.
- ♦ **Xususiylashtirilgan mulk sektori:** dehqon va fermer xo'jaliklari, xususiylashtirilgan korxonalar.
- ♦ Aholiga qarashli bo'lgan shaxsiy tomorqa **yordamchi xo'jalik sektori.**

1991—2003-yillarda qishloqda amalga oshirilgan tub agrar islohotlar O'zbekiston qishloq hayotini mutlaqo yangi shakl va tizimga o'zgartirib yubordi. 2003-yilga kelib respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 1043 ta jamoa xo'jaligi, 80 ming fermer xo'jaligi, 3 million 300 ming dehqon xo'jaligi, 444 ta shirkatlar uyushmasi, 270 ta chorvachilik aksiyadorlik jamiyati, 87 ta ijarachilar uyushmasi, 155 ta xo'jaliklararo korxonalar, 764 ta xususiylashtirilgan fermalar, 751 ta qurilish tashkilotlari va boshqalar faoliyat ko'rsatdi. Fermer va dehqon xo'jaliklariga ajratilgan yer miqdori ham yildan-yilga oshirib borildi. 2003-yilga kelib Respublikada mavjud 3541 ming gektar ekin maydonining 3326 ming gektari yoki 94% shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lsa, shundan 992 ming gektari fermer va 404 ming gektari dehqon xo'jaliklari tasarrufiga o'tdi.

Masalaning eng muhim tomoni shundaki, 2003-yilda respublikada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99 foizi iqtisodiyotning nodavlat sektori hissasiga to'g'ri keldi.



1996-yil 21-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «2000-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi qishloq infrastrukturasi rivojlantirish Dasturi to'g'risida» Qaror qabul qildi.

Ushbu qarorda qishloqning iqtisodiy va mehnat imkoniyatlaridan yanada to'liq va samarali foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish tadbirlari belgilandi. Qishloq aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirlar va Xalq ta'limi vazirligiga 2000-yilgacha qishloq infrastrukturasi rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirishni topshirdi.

Qishloq joylardagi ta'lim muassasalarini jihozlar, mebellar bilan o'z vaqtida to'liq ta'minlash maqsadida Xalq ta'limi vazirligi bilan Toshkent shahridagi «Fayz» mebel ishlab chiqarish xolding kompaniyasi o'rtasida 1996—2000-yillarga mo'ljallangan shartnoma tuzildi. Shartnomaga asosan hissadorlik jamiyatining ikkita sexida faqat ta'lim muassasalari, xususan, maktablar uchun mebel, jihozlar ishlab chiqarilishi haqida kelishilib, bu ish 1996-yilning birinchi choragidayoq boshlab yuborildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi murakkabliklar hisobga olinib, ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan o'quv ko'rgazma qurollari va jihozlarni ta'mirlash borasida vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarda amaliy chora-tadbirlar belgilandi. Respublika «Ta'lim-ta'minot-jihoz» va Andijon viloyat «Ta'lim-ta'minot» korxonalari qoshida Rossiya bilan lingofon, fizika, kimyo kabinetlari, elektr uskunalari ta'mirlovchi «Maktab-lingofon», Buxoro viloyati «Ta'lim-ta'minot» korxonasi qoshida esa kodoskop, epidaskop, epiprojektor, grafoprojektor, teleskop va filmskoplarni ta'mirlovchi «Maktab-jihoz-Buxoro» qo'shma korxonalari ochildi.

Aholini tabiiy gaz, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida ham sezilarli ishlar qilindi.

1991-yilgacha mamlakatimizda 1 million 842 ming xonadon gazlashtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1997-yilda 3 million 155 mingga yetdi.

Qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash yosh O'zbekiston davlati iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Mustaqillik yillarida qishloqda yashayotgan mehnatga yaroqli aholini ish bilan ta'minlash masalasiga ham katta e'tibor berildi. Chunki, mustaqillikning dastlabki yillarida qishloqlarda 2 millionga yaqin ortiqcha ishchi kuchi mavjud edi. Shu bois, Respublika Prezidenti va hukumati tomonidan ishlab chiqilgan Dasturda qishloqda qariyb 2 millionga yaqin ish joyi yaratish, deyarli 650 ming kishini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish mo'ljallandi.

Xullas, mamlakat hukumati O'zbekistonda qishloqni har tomonlama rivojlantirishga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida islohotlarni chuqurlashtirish, bu sohaning moddiy bazasi va moliyaviy ahvolini mustahkamlashga, agrar siyosatning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga muntazam e'tibor bermoqda.

Qishloq infratuzilmasidagi o'zgarishlar

Mamlakat qishloq xo'jaligiga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi olib boradi. U Respublika Prezidenti va Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan rasmiy davlat hujjatlarini, qonun va qarorlarning hayotga tatbiq etilishini o'zining viloyat va tuman boshqarmalari orqali ro'yobga chiqaradi va qishloqda davlat siyosatini yo'lga qo'yadi. Qishloqda bevosita ishlab chiqarish jarayoniga mutasaddi bo'lgan davlat va jamoa xo'jaliklari, shirkatlar uyushmalari va ijara xo'jaliklari yuqori boshqaruv tashkilotlari rahnamoligida

faoliyat ko'rsatadilar. Bundan tashqari, respublikada mustaqil «O'zmevasabzavot-uzumsanoatxolding» kompaniyasi tashkil etilgan. U ixtisoslashtirilgan bog'dorchilik, uzumchilik, issiqxona xo'jaliklariga rahbarlikni amalga oshiradi. O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi «Qorako'l», «O'zbek ipagi», «O'zparrandasanoat», «Asal» kabi nomlar bilan ataladigan ishlab chiqarish uyushmalari faoliyatini ham boshqarib boradi.

O'zbekiston Prezidenti mustaqillik yillarida qishloq infratuzilmasini o'zgartirish bo'yicha bir qator farmonlarni e'lon qildi. Jumladan: «Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini to'g'risida» (1991-yil 29-noyabr), «Yaylov chorvachiligi (qorako'lchilik, qo'ychilik, yilqichilik, tuyachilik) xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo'shimcha tadbirlari to'g'risida» (1992-yil 7-yanvar), «Paxtaning xarid narxlarini oshirish to'g'risida» (1992-yil 22-oktabr), «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» (1996-yil 3-aprel) kabi Prezident farmonlari agrar sohadagi islohotlarni amalga oshirishga xizmat qildi. Respublika Prezidenti birgina 1996-yil 3-apreldagi Farmoni bilan qishloq xo'jaligini sifatli texnika, mineral o'g'itlar, ekinlarni himoya qilishning kimyoviy vositalari bilan ta'minlash bo'yicha 2000-yilga qadar respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kompleks dasturini ilgari surdi.

2001—2002-yillarda yuz bergan qurg'oqchilikni nazarda tutib, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash maqsadida mamlakat hukumati alohida qaror qabul qildi.

O'zbekiston hukumati mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini mustahkamlash, uning ilmiy salohiyatini yuksaltirish va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasiga ham katta g'amxo'rlik qildi. Birgina «O'zqishloqxo'jalikta'minotta'mir» tizimining o'zida Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat birlashmasi, 166 ta tuman ishlab chiqarish korxonasi, 28 ta ta'mirlash zavodi, 64 ta kichik korxonasi va 13 ta korxonasi mamlakat qishloq xo'jaligiga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon qishloq xo'jaligi ilmi erishgan va erishayotgan yutuqlar va ularni mamlakatning xo'jalik hayotiga olib kirish muammolari bilan O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi tizimiga qarashli bo'lgan ilmiy markazning 17 ta ilmiy tadqiqot instituti, ularning 12 ta filiali, 15 ta punkti, 9 ta tajriba-sinov bazasi va 50 taga yaqin boshqa bo'limlari shug'ullanadi.

Mamlakat qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan va zamonaviy bilimlar sohibi bo'lgan yuqori malakali oliy va o'rta maxsus ta'lim olgan mutaxassis kadrlarni Toshkent Davlat Agrar universiteti, Andijon, Samarqand Qishloq xo'jaligi, Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot, Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti va respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 40 dan ortiq texnikum va kollejlari tayyorlab bermoqda.

2003-yildan Toshkent Agrar universitetining Nukus filiali ish boshladi va voha qishloq xo'jaligini kadrlar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xullas, mustaqillik sharofati tufayli O'zbekistonda agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida Sho'ro mustamlakachiligi davridagidan keskin farq qiluvchi tub sifat tizimi vujudga keldi.



1. Qishloqda tub islohotlarni amalga oshirish zarurati nimalardan iborat?
2. Qishloq xo'jaligini isloh qilishda huquqiy asos bo'lgan rasmiy davlat hujjatlari-dan qaysi birlarini bilasiz?
3. Agrar islohotlar va ularning natijalari nima bo'ldi?
4. Qishloq xo'jaligini boshqarish va idora qilish qaysi idoralar zimmasiga yuklangan?
5. Davlat qishloq xo'jaligini qanday yordamlar bilan qo'llab-quvvatlaydi?



Iqtisodiyotning agrar sohasini isloh qilish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni (qonun va qarorlarni) quyidagi jadval asosida yozing.

№	Qonun va qarorlar	Qabul qilingan sana

27-§. MAKROIQTISODIYOTNI BARQARORLASHTIRISHGA ERISHISH

Sanoat ishlab chiqarishning odimlari

O'zbekiston Respublikasi hukumati Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab mamlakatda makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish siyosatini olib bordi.

Mamlakat makroiqtisodiyotida barqarorlikni ta'minlashda sanoat ishlab chiqarishining o'rni beqiyosdir. Ammo Sho'ro mustamlakachiligi yillarida O'zbekistonda to'la ma'noda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilmadi, u bir tomonlama rivojlantirildi. Respublikada faqat yengil sanoat va markazga xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlarigina taraqqiy etdi. Mamlakat sanoat ishlab chiqarishni kompleks rivojlantirmasdan turib, xususan og'ir sanoat tarmog'ini yaratmasdan turib, O'zbekistonda makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish, ayniqsa, milliy mustaqillikni qo'lda saqlab qolishning iloji yo'q. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida bu masalaga katta e'tibor berildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar sanoatning negiz tarmoqlarini ustun darajada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi, mamlakatning eksport imkoniyatlarini oshirdi, O'zbekistonga chetdan keltiriladigan tovarlar o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini tug'dirdi. Bu hol bozorni xalq iste'moli va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar hozirladi.

Bugungi O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarish xaritasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustaqillikning qisqa davrida 100 dan ortiq tarmoq jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligini ko'ramiz. Asosiy fondlarning 40 foizi sanoat hissasiga to'g'ri keladi.



O'zbekiston sanoatining tarmoqlari quyidagilardan iborat: elektr energiya, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari, elektrodvigatellar, transformatorlar, kabellar, ekskavatorlar, ko'priklari ko'targichlar, yigiruv mashinalari, samolyotlar, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalardir.

1992—2003-yillarda iqtisodiyotga 10 milliarddan ziyodroq AQSH dollari hajmida xorijiy investitsiyalar jalb etildi. Birgina 2000-yilda 810 million AQSH dollari miqdorida xorijiy sarmoya kiritildi. Natijada iqtisodiyotning mutlaqo yangi, samarali tizimlarini shakllantiruvchi yirik sanoat korxonalari barpo etildi. Dunyoning 162 mamlakati sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 3287 dan ortiq qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatdi.

2003-yilga kelib O‘zbekistonda 200 million AQSH dollaridan ko‘proq xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, shundan 65 millioni to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bo‘lib, ularning miqdori 2002-yilga nisbatan 1,9 barobarga ortdi.

Iqtisodiyot tarkibida amalga oshirilgan islohotlar ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 2003-yilning birinchi yarmiga kelib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,8 foizga o‘tdi. Iqtisodiyotning deyarli barcha soha va tarmoqlari jadal va izchil rivojlandi. Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 5,5 foizga, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish 4 foizga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 3,8 foizga, investitsiyalar hajmi esa 2,6 foizga ko‘paydi. Aholi bandligi o‘shirish sur‘atlarining barqarorligi saqlab qolindi — bu ko‘rsatkich 102,8 foizni tashkil etdi. Tashqi savdoda 530 million AQSH dollari miqdorida ijobiy saldogo erishildi. Mamlakatimizning to‘lov balansi yanada mustahkamlandi. O‘zbekiston o‘zining barcha tashqi majburiyatlari bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘z mudatida amalga oshirmoqda.

Ushbu raqamlar iqtisodiyotimizdagi ijobiy o‘zgarishlarning o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida yurtimizda bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonlari jadal va samarali davom etayotganini ko‘rsatib turibdi.

Energetika sanoati

O‘zbekiston energetika tizimida Sirdaryo GRES, Yangi Angren GRES, Toshkent GRES, Navoiy GRES, Angren GRES, Taxiatoosh GRES, Talimarjon GRES, Chorvoq GES, Xo‘jakent GES, G‘azalkent GES, Farhod GES va boshqa ko‘plab issiqlik elektr markazlari katta o‘rin tutadi.



Yaqin kelgusida respublikamizda gidroenergetika tizimini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishda Pskom daryosi, To‘palang, Hisorak, Ohangaron suv omborlarida GESlarni loyihalash va qurish istiqbolli rejalarini qo‘lga kiritish imkonini beradi.

Energetika sanoati xalq xo‘jaligi barcha sohalari rivojini harakatga keltiruvchi qon tomiridir. Shu bois mazkur soha doimo mamlakat rahbariyatining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston energetika tizimi 19 ming sanoat, 80 ming qishloq xo‘jaligi, 19 ming kommunal va 3,5 million maishiy iste‘molchilarga elektr energiya yetkazib bermoqda. Agar 1980-yilda O‘zbekistonda 33,9 milliard kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2002-yilda bu ko‘rsatkich 51,0 milliard kVt soatni tashkil etdi.

Mamlakat yoqilg‘i sanoati majmuiga ko‘mir, neft, tabiiy gaz kabi sohalari kiradi. Mazkur tarmoqlar mustaqillik yillarida jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda. O‘zbekistonda ilgari anchagina neft zaxiralari mavjudligi aniqlangan bo‘lsada, 90-yillarning boshlariga qadar neft mahsulotlari, asosan, chetdan keltiriladi.

Qariyb 2 million tonna paxta xomashyosi (600 ming tonna paxta tolasi) Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan ham bu borada O'zbekiston neft mustaqilligini ta'minlash birinchi darajali vazifa qatoriga qo'yildi. 1996-yilga keliboq bu vazifa amalga oshirildi. Agar 1990-yilda respublika 5,7 million tonna neft mahsulotlarini chetdan sotib olgan bo'lsa, 1995-yilga kelib bu ko'rsatkich 0,2 million tonnani tashkil etdi. 1996-yilga kelganda esa mamlakat neft mustaqilligi ta'minlandi. 1997-yildan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi neft mahsulotlarini boshqa mamlakatlarga eksport qiluvchi davlatlar qatoridan joy oldi.

Milliy istiqolol yillarida neft mahsulotlari sanoatini rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi. Yangi neft konlari izlab topildi. Bu o'rinda Vorux, G'umxona, Chust-Pop, Mingbuloq, Ko'kdumaloq neft konlarining topilishi diqqatga loyiqdir. Ayniqsa, Ko'kdumaloq neft koni bazasida Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi mamlakatimiz tarixida mislsiz voqea bo'ldi. Zavod qurilishi 1993-yil avgustda boshlandi. 1997-yilga kelib zavodning bir yilda 2,5 mln tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan birinchi navbati ishga tushirildi. Fransiyaning «Teknii» firmasi bilan birgalikda qurilgan mazkur korxonaning umumiy yer maydoni 205 gektarni tashkil etadi.

2003-yilga kelib «Sho'rtan» gaz-kondensat konida yuqori bosim beruvchi kompressor stansiyasi qurilib ishga tushirildi.



Endilikda O'zbekiston 50 turdan ortiq neft mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. Mamlakat neft sanoati korxonalarining bir yillik quvvati 11 mln. tonna neftni qayta ishlash imkoniyatini beradi. O'zbekistonda 160 dan ortiq neft konlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i sanoati balansida gaz yetakchi o'rinni egallaydi va 87,3 foizni tashkil etadi. Sho'ro mustamlakachiligi yillarida mamlakatimiz yer qa'ridan olinayotgan gaz mahsulotlari O'zbekistonga va uning zahmatkash xalqiga deyarli xizmat qilmas edi. U Buxoro-Ural, O'rta Osiyo-Markaz gaz quvurlari orqali mamlakatimizdan tashqariga oqizilardi. Milliy istiqololimiz sharo-fati tufayli xalqimizning milliy boyligi endilikda uning o'ziga xizmat qilmoqda. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan gaz mahsulotlari faqatgina mamlakat fuqarolarining talab va ehtiyojlarinigina qondirayotgani yo'q. Balki, mustaqillik yillarida gaz sanoatining rivojlanishi mamlakat sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ham jadal sur'atlarda rivojlantirish imkoniyatini bermoqda. O'zbekiston hukumati ishlab chiqarish korxonalari va aholining gazga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirishga har qachongidan ko'ra ham katta e'tibor qaratmoqda.



Mamlakatimizda topilgan gaz zaxiralari 2 trillion kubometrda yaqindir. Mutaxassislarning hisob kitoblariga qaraganda u 35-yil davomida mamlakat ehtiyojini qondira oladi.

Yurtimizning asosan beshta mintaqasida neft-gaz zaxiralari mavjud. Bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-G'arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg'ona

mintaqalaridir. O'zbekistonning neft va gaz zaxiralari bir trillion AQSH dollari hajmida deb baholanmoqda.

Eng yirik gaz konlari Janubiy-G'arbiy Hisor va Buxoro-Xiva mintaqalarda joylashgan. Bular asosan Sho'rtan va Muborak guruhlariga kiruvchi konlar hisoblanadi.

Qazib olinayotgan gazlar tarkibida etan, propan, butan va boshqa moddalar mavjud. Ulardan polietilen, polivinilxlorid va boshqa mahsulotlarni olish mumkin. Gazni va gaz kondensatini qayta ishlash bo'yicha ishlab turgan va loyihalashtirilayotgan obyektlarning hammasida oltingugurtli birikmalardan foydalanish nazarda tutilgan. O'zbekistonda ikkita — Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlash zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Transport tarmoqlari Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport va aloqa nechog'lik katta ahamiyatga ega. Shu boisdan ham O'zbekiston hukumati ushbu masalaga katta e'tibor bilan qarab kelmoqda.



Yurtimiz transport tarmog'i tizimi quyidagilardan iborat:

- Temir yo'l.
- Avtomobil yo'llari.
- Havo yo'llari.
- Suv transporti.
- Shahar yo'lovchilar tashish transporti.
- Truboprovod transporti.

O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lg'a kiritgach, transportga rahbarlikni qo'lg'a oldi. Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab mamlakat rahbariyatining asosiy e'tibori transportning xalq xo'jaligiga va aholiga xizmat ko'rsatish darajasini tubdan yaxshilashga qaratildi. Shu maqsadda transport tarmoqlari tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilishni takomillashtirish choralari ko'rildi. Bu borada 1992-yil 28-yanvarda «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi, 1993-yil 8-yanvarda O'zbekiston avtomobil transporti — «O'zavtotrans» davlat aksiyadorlik korporatsiyasi, 1997-yil 7-noyabrda «O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasining tashkil etilishi va boshqa tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablari asosida transport korxonalarini davlat ishtirokidagi aksionerlik kompaniyalari, korporatsiyalari ochiq turdagi aksionerlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga va jamoat korxonalariga aylantirildi. Ayni paytda avtotransportlarning ma'lum bir qismini jamoa mulki va fuqarolarning xususiy mulki sifatida boshqarishlariga yo'l berildi.

Mustaqillik yillarida deyarli barcha transport tizimlari zamonaviy va xalqaro standartlar darajasida qayta jihozlantirildi va takomillashtirildi. Toshkent shahrida, Qoraqalpog'iston Respublikasi markazi Nukus hamda viloyatlarning markazlarida zamonaviy temir yo'l va avtomobil vokzallari barpo etildi. Yaponiya, Germaniya va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Namangan, Termiz va boshqa shaharlardagi aeroportlar xalqaro standartlar darajasida qayta qurildi va jihozlandi.



Transport tarmoqlari tizimida temir yo'l transporti alohida o'rin tutadi. 2003-yilga kelib mamlakatimiz temir yo'llarining uzunligi 7 ming kilometrdan oshdi.

Temir yo'l va avtomobil transporti kommunikatsiyalari tarmog'i yurtimizning eng olis tumanlari va aholi manzilgohlarini o'zaro bog'lab turishdan tashqari, xalqaro transport tizimlariga ulanishni ham ta'minlaydi.

O'zbekistonning O'rta Osiyodagi qardosh mamlakatlar bilan birga Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (EKO)ga kiruvchi Pokiston, Eron, Turkiya, Afg'oniston va Ozarbayjon hukumatlararo shartnoma tuzib Transosiy magistrali: Istambul-Toshkent, Olmoniya-Pekin temir yo'lini qurishga qo'shilganligi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan birgalikda «TRASEKA» loyihasini ro'yobga chiqarishda ham faol ishtirok etmoqda. Mazkur loyiha O'rta Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Gruziya hududi orqali Qora dengiz bandargohlariga olib chiqadigan Transkavkaz magistralini vujudga keltirishni nazarda tutadi. O'zbekiston bilan xorijiy mamlakatlar o'rtasida transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, uni yanada mustahkamlash mamlakatda yagona temir yo'l tarmog'ini vujudga keltirishni taqozo etadi. Shu boisdan ham O'zbekiston qanchalik og'ir bo'lmasin o'z moddiy mablag'lari hisobidan ikkita yirik temir yo'l magistralini qurishga qaror qildi. Birinchisi — 2002-yili foydalanishga topshirilgan, uzunligi 342 kilometr bo'lgan Navoiy—Uchquduq—Sulton Uvays—Nukus temir yo'li bo'lsa, ikkinchisi — 223 kilometrli G'uzor—Boysun—Qumqo'rg'on magistralidir. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda so'zsiz katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'llar elektr energiyasi quvvatlari vositasida ishlaydi.

Mustaqillik yillarida «O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyasi Germaniya va boshqa xorijiy mamlakatlardan 50 mingdan ortiq turli xildagi yuk vagonlari, 1450 yo'lovchi tashiydigan vagonlar va ko'plab refrejeratorlar oldi. Xullas, kompaniya o'z faoliyatini mustaqillik talablari asosida qayta qurmoqda.

Avtomobil transporti mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega. O'zbekiston avtotransporti zamon va davr talablari darajasida mamlakat xalq xo'jaligi va aholining ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. O'zbekiston o'z milliy mustaqilligiga erishgach, ayniqsa, bu tarmoqqa e'tibor kuchaydi. 1993-yil 8-yanvarda Prezident Islom Karimovning Farmoniga asosan «O'zbekiston avtomobil transporti («O'zavtotrans») davlat aksionerlik korporatsiyasining tashkil etilishi tarmoq faoliyatini yanada takomillashtirish omili bo'lib xizmat qildi. Uning tarkibida aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan yo'lovchi tashishni amalga oshiradigan, yuk tashish bilan shug'ullanadigan va aralash avtokorxonalar mavjud.



Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon—O'sh—Ergashtom—Qashqar, Buxoro—Saraxs—Mashhad va Termiz—Hirot—Karochi avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Davlatimiz bu yo'llar qurilishiga juda katta hajmdagi pul mablag'larini ajratmoqda. Birgina Toshkent—O'sh avtomagistrali yo'lidagi Qamchiq—Rezak dovon-

larida 2484 metrli tonnel yo'lini qurish uchun 1997—2000-yillarda to'rt yarim ming kishi mehnat qildi va davlatning 27 milliard so'm mablag'i sarf qilindi.

Respublikamizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida havo transporti katta o'rin tutadi. Ayniqsa, mustaqillik-yillarida bu tarmoqqa alohida e'tibor qaratilmoqda.



Sobiq Ittifoq fuqaro aviatsiyasi vazirligining respublikamizdagi bo'limi bo'lgan O'zbekiston Fuqaro aviatsiya boshqarmasi o'rniga 1992-yil 28-yanvardan «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.

Mazkur aviakompaniya bugungi kunda O'rta Osiyodagi eng yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda aviakompaniya MDH davlatlaridan tashqari, jahonning AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur singari yigirmadan ortiq mamlakatlari bilan bevosita havo yo'llari orqali aloqalar o'rnatdi. Germaniya, Fransiya, Rossiya, AQSH, Irlandiya, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari firmalari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda. Bu hamkorliklar natijasida «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi xilma-xil zamonaviy havo kemalariga ega bo'ldi.



Bugungi kunda O'zbekistonning mahalliy havo yo'llarida qatnayotgan AN-24, YAK-40, IL-114 samolyotlardan tashqari, xalqaro havo yo'llarida IL-76, IL-62, IL-86, Tu-154, A-310, Boing-757 va Boing-764 samolyotlari ham fuqarolarga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi ixtiyorida MI-2, MI-8, KN-26 kabi zamonaviy vertolyotlar ham mavjud. Aviakompaniya ixtiyoridagi samolyotlar va vertolyotlar faqat yo'lovchilargagina xizmat qilayotgani yo'q. AN-24 samolyoti, MI-2, MI-8, KA-26 kabi vertolyotlardan qishloq xo'jaligi, tibbiy sanitariya xizmati, meteorologiya, geologiya-qidiruv, gaz sanoati va boshqa sohalarda ham keng foydalanilmoqda. Deyarli barcha viloyat markazlarida zamonaviy aeroportlar mavjud. Uchquduqda xalqaro standartlarning barcha talablariga javob bera oladigan aeroport qurilishi jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Qo'qon, Shahrisabz, Zarafshon, Uchquduq, Sariosiyo, Qo'ng'iro't, To'rtko'l, Mo'ynoq kabi shaharlarda ham barcha qulayliklarga ega bo'lgan aeroportlar ishlab turibdi.

Bulardan tashqari, O'zbekistonda suv transporti, shahar yo'lovchi tashish transporti va truboprovod transporti tarmoqlari ham jadal rivojlanmoqda.

Suv transportining umumiy uzunligi qariyb 1000 kilometrni tashkil etadi.

Shahar yo'lovchilar tashish transporti eng zamonaviy Chexiyaning «Tatra» tramvaylari, «Shkoda» trolleybuslari bilan ta'minlangan. Toshkent shahrida 27,2 kilometrli metropolitenning «Sobir Rahimov—Buyuk Ipak yo'li» va «Chkalov—Beruniy» yo'nalishlarida bir kecha-kunduzda 270—300 ming yo'lovchi tashilmoqda. Uzunligi 14 kilometrga teng bo'lgan Janubiy temir yo'l vokzalini Yunusobod dahasi bilan bog'lovchi metropoliten uchinchi yo'nalishining bir qismi ishga tushirilib, ikkinchi qismi qurilishi jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Shahar yo'lovchi tashish transporti ish faoliyatini islohot talablari asosida qayta qurishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 6-mayda matbuotda e'lon qilingan «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 19-avgustda qabul qilgan «Toshkent shahri aholisiga transport xizmati ko'rsatishini tubdan yaxshilash to'g'risida»gi Qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Aloqa xizmati

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida aloqa xizmatining o'rni ham katta. O'zbekiston milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng bu sohaga e'tibor, ayniqsa, kuchaytirildi. Bu borada 1992-yilning 13-yanvarida O'zbekiston Respublikasining «Aloqa to'g'risida» qabul qilingan Qonuni katta ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonun asosida aloqa tizimi butunlay qayta isloh qilindi.



1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalqaro elektroaloqa ittifoqi a'zoligiga qabul qilindi.

Shu davrdan e'tiboran mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar bilan aloqa tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha hamkorlik aloqalari keng yo'lga qo'yildi. Hozirgi paytda bu sohada AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya Respublikasi, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan keng qamrovli aloqalar yo'lga qo'yilgan.



O'zbekistonning aloqa xo'jaligi keng tarmoqlidir. U pochta aloqasi, telegraf-telefon aloqasi, radio va televizion aloqasi hamda matbuot tarqatish sohaslarini o'z ichiga oladi.

Pochta aloqasiga 1992-yilda tashkil etilgan «O'zbekiston pochta» konserni rahbarlik qiladi. Yurtimizda pochta aloqasi o'rnatilmagan hududning o'zi yo'q. Ayni paytda mamlakatda «O'zbekiston pochta»ning tarkibiga kirgan 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat pochta korxonalari boshqarmalari, Toshkent xalqaro pochta, 198 ta aloqa uzeli va 3045 ta aloqa bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Telegraf-telefon aloqasi ham zamon talablari asosida rivojlanib bormoqda. Mamlakatda 1,5 milliondan ortiq abonent telefon tarmog'i xizmatidan foydalanmoqda. Mamlakatimizda AQSHning «Motorolla», Germaniyaning «Simens», «Alkatel», Janubiy Koreya Respublikasining «DEU telekom», Yaponiyaning «Mitsun» va boshqa yetakchi chet el firmalari bilan hamkorlikda telekommunikatsiya tarmoqlarini qayta ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Jumladan, 1992-yilda Toshkentda Yaponiyaning «NEK» firmasi bilan hamkorlikda 150 kanalli raqamli xalqaro kosmik (fazoviy) telefon stansiyasi qurildi va foydalanishga topshirildi. Natijada abonentlar jahon telefon tarmoqlariga chiqishlari va xalqaro teleko'rsatuvlarni tomosha qilishlari uchun sharoit yaratildi.



Aloqa sohasida «Uzdunrobita», «Koskom», «UzmaKom», «Rubikom», «Buztel», «DEU» «Sentral-Peyshing» kabi korxonalar tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

1997-yilda Xitoy (Shanxay) bilan Germaniya (Frankfurt)ni bog'laydigan shisha kabelli Trans—Osiyo—Yevropa magistralining O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tadigan 926 kilometr masofaga teng bo'lgan qismi qurilib ishga tushirildi. Turkiyaning «Netash», «Teletash», «Samko» firmalari ham Toshkent shahrida 30 kanalli xalqaro kosmik telefon stansiyani qurib foydalanishga topshirdilar.

Bu tadbirlar natijasida xalqaro telefon so'zlashuvlarining 80 foizini bevosita sun'iy aloqa yo'ldoshlari orqali xorijiy mamlakatlarga uzatish va ulardan qabul qilib olish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston televideniyesi eng zamonaviy texnik va texnologik imkoniyatlarga ega. Bo'zsuv kanalining o'ng sohilida qad rostlab turgan, balandligi 375 metrga teng bo'lgan Toshkent teleminorasi mamlakat fuqarolarining faxridir. Balandligi jihatidan O'rta Osiyoda yagona bo'lgan bu ulkan inshoot dunyoda Moskvadagi Ostankino, Kanadadagi Toronto, Yaponiyadagi Tokio teleminoralaridan keyin to'rtinchi o'rindadir.

Toshkent shahridan tashqari Nukus, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Urganch, Termiz shaharlarida ham telestudiyalar ishlab turibdi. Bulardan tashqari mamlakatimizda 30 ta mahalliy va tijorat studiyalari ham faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston televideniyesi orqali Rossiya, Turkiya, AQSH, Hindiston, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarning teledasturlari ham olib ko'rsatilmoqda. Bu borada 1994-yildan e'tiboran O'zbekiston—AQSH qo'shma korxonasi «Kamalak TV-Peyjing» kabel televideniye tarmoqlarining tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimiz hayotida matbuot tarqatish shaxobchalarining o'rni ham beqiyos kattadir. 1994-yildan boshlab «Soyuzpechat» boshqarmasi o'rniga «Matbuot tarqatish uyushmasi» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko'rsatmoqda. Uning barcha viloyatlarda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida bo'limlari tashkil etilgan.

Kullas, O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim sohasi bo'lgan sanoat ishlab chiqarishi 90-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi.



1. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarish rivojini talab qilgan omillar nimalardan iborat?
2. Mustaqillik-yillarida mamlakat sanoat ishlab chiqarishi sohasida erishgan muvaffaqiyatlarini asoslab bering.
3. Yoqilg'i sanoati tizimiga qaysi tarmoqlar kiradi?
4. Mustaqillik yillarida mamlakat neft mustaqilligiga qanday erishildi?
5. Respublikamizda gaz sanoatining o'rmini sharhlang.
6. Avtomobil transporti va avtomobil yo'l qurilishi sohasida O'zbekistonda qilingan ishlar xususida nimalarni bilasiz?
7. O'zbekiston Respublikasi havo transporti to'g'risida so'zlang.
8. Respublika aloqa tizimi va radio-televideniye tarmoqlari to'g'risida gapirib bering.



Mustaqillik davrida energetika sanoati, transport tarmoqlari va aloqa xizmatida erishilgan muhim muvaffaqiyatlarni quyidagi jadval bo'yicha yozing.

t/r	Sanoat tarmoqlari	Erishilgan muhim muvaffaqiyatlar
1.	Energetika sanoati	
2.	Transport tarmoqlari	
3.	Aloqa xizmatlari	

28-§. O'ZBEKISTON — ZAMONAVIY AVTOMOBIL ISHLAB CHIQARUVCHI MAMLAKAT

Milliy avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi O'zbekistonda haqiqiy va to'la ma'noda milliy mashinasozlik sanoati mamlakatimizning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi davlat delegatsiyasining 1992-yil iyun oyida Janubiy Koreya Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida dastlabki hujjatlar imzolandi. 1992-yilning avgust oyida esa Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar barpo etish to'g'risida kelishib olindi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 5-noyabrda «Selxozmash» konserni va «DEU korporeyshn» korporatsiyasi bilan hamkorlikda avtomobil ishlab chiqaruvchi «O'zDEUavto» qo'shma korxonasini tashkil qilish to'g'risida maxsus Qaror qabul qildi.

Qarorda «Selxozmash» konserniga 3 oy muddat ichida avtomobilsozlikni rivojlantirishga qaratilgan Konsepsiya ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Ushbu qo'shma korxonalar ta'rischilari etib Janubiy Koreya Respublikasi tomonidan «DEU» korporatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi tomonidan esa «O'zavtosanoat» uyushmasi belgilandi va O'zbekistonda barpo qilinayotgan avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonani «O'zDEUavto» nomi bilan yuritishga kelishildi. Shartnomaga ko'ra, har ikki tarafning qo'shma korxonadagi ulushi miqdori «DEU» korporatsiyasi uchun 50% — 100 million AQSH dollari va «O'zavtosanoat» uyushmasi uchun 50% — 100 million AQSH dollari hisobida belgilandi.

Bir qarashda O'zbekiston mashinasozligi ma'lum bir bosqichni bosib o'tgan, o'z tarixiga ega bo'lgan sohalardan biri. Sobiq sho'rolar davrida o'lkamizda qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaradigan «Toshqishmash», «O'zbekqishmash», Toshkent traktor zavodi, Ekskovator zavodi, «Chirchiqqishmash» zavodlari bunyod etilgan edi. Andijon va boshqa viloyatlarda turli rusumdagi traktorlar ishlab chiqarilar edi. Biroq, aslida ular tom ma'nodagi ishlab chiqarish quvvati va imkoniyatiga ega emas edi. Bu korxonalarga sobiq Ittifoqning o'nlab shaharlaridagi turdosh

korxonalaridan tayyor qismlar olib kelinib bu yerda yig'ilar edi. Shu bois mazkur korxonalarni zavod deb emas, balki butlovchi korxonalar deb atalsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bundan kelib chiqadigan qat'iy xulosa shuki, «O'zDEUavto» korxonasi qurilishi bilan O'zbekistonda tom ma'noda milliy avtomobilsozlik sanoatini tamal toshi qo'yildi.

**«O'zDEUavto»
korxonasi**

Korxonaning umumiy maydoni 476 ming 266 kvadrat metrdir. Shundan bino va inshootlar uchun ajratilgan qismi 146 ming 266 kvadrat metrni tashkil etadi.



«O'zDEUavto» korxonasi qurilishi 1993-yil fevralda boshlanib, 1996-yil 19-iyulda — 32 oy mobaynida poyoniga yetkazildi.

Loyiha ishlarini asosan «DEU injineri» va «O'zbektyajprom» firmalari amalga oshirdilar. O'zining hajmi va ko'lamiga ko'ra nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyoda yagona bo'lgan mazkur korxonada qurilishida har turdagi 25 ming tonnadan ziyod metall konstruksiyalar, 17 ming tonna yig'ma temir beton, 40 ming kub metr monolit beton va 1000 kilometr kabel liniyalari o'tkazilib, 25 ming tonnadan ziyod murakkab texnologik jihozlar va dastgohlar o'rnatildi.



Loyiha quvvatiga ko'ra, yiliga 200 ming avtomobil ishlab chiqara oladigan bu ulkan inshootning umumiy qiymati 658 million AQSH dollarini tashkil etadi.

Korxonada 1996-yilda jami 29 ming 835 dona, shu jumladan 11 ming 285 ta «Damas», 5030 ta «Tiko» va 13 ming 520 ta «Neksiya» rusumidagi avtomobillar ishlab chiqarildi, ulardan 7000 tasi eksport qilindi. 1997-yilda 64883 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Avtomobilsozlikda ko'p jihatdan yangi bo'lgan ilg'or texnologiyalar qo'llanilgan ushbu korxonada ishlaydigan ishchi, muhandis kadrlar tayyorlash ishlariga katta e'tibor berildi.

Korxonada sexlarida mehnat qilayotgan yoshlarning 1000 dan ko'prog'i Janubiy Koreya Respublikasida — «DEU» kompaniyasi avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ishlab tajriba orttirib qaytishdi. Keyinchalik yana 2000 kishi o'z malakalarini oshirish uchun Janubiy Koreyada «DEU» kompaniyasining avtomobilsozlik zavodlariga yuborildi.

Qo'shma korxonada bajarilgan qurilish ishlari, asosan, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyati qurilish tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi.



2002-yildan boshlab korxonada «Matiz» va «Neksiya-2», 2003-yildan boshlab esa «Lasetti» rusumidagi yangi avtomobil ishlab chiqarishga kirishildi.

Asaka shahrida «O'zDEUavto» qo'shma korxonasining ishga tushishi O'zbekiston sanoatining qudrati muttasil ortib borayotganini ko'rsatuvchi muhim dalildir.

Jahon mamlakatlari tarixi guvohlik berayaptiki, dunyodagi eng kuchli mamlakatlarga avtomobil sanoatiga ega. Ular asosan, AQSH, G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Rossiya va Janubiy Osiyodagi mamlakatlardan iborat 28 mamlakatni tashkil etadi.

Avtomobilsozlikni yanada rivojlantirish tadbirlari

O'zbekiston hukumati mamlakatimizda mustaqillik tamoyillari asosida avtomobil sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator tadbirlar ishlab chiqdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasiga chet el investitsiyalarini jalb etgan holda avtomobil sanoatining ishlab chiqarish bazasini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 30-mayda «Avtomobillar uchun butlovchi buyumlar ishlab chiqaradigan O'zbekiston—Koreya qo'shma korxonalarini tashkil etish to'g'risida» Qaror qabul qildi. Mazkur Qaror «O'zDEUavto» korxonasi avtomobillari uchun zarur bo'lgan qismlarni O'zbekistonning o'zida ishlab chiqarishga katta yo'l ochib berdi.

Vazirlar Mahkamasi «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi ishlab chiqargan avtomobillarni sotish va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish maqsadida 1996-yil 3-sentabrda «O'zDEUavto qo'shma korxonasida avtomobillar ishlab chiqarish, sotish va ularga texnik xizmat ko'rsatish masalalari to'g'risida» Qaror qabul qildi.

Ushbu Qarorda «Mercedes-Bens», «DEU» va boshqa yirik avtomobil kompaniyalarining mutaxassislarini jalb etgan holda «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi avtomobillarini ham mamlakat ichida, ham mamlakat tashqarisida sotish bo'yicha marketing tadqiqotlari markazini tashkil etish ko'zda tutildi. Ayni chog'da bu markaz «DEU» korporatsiyasi bilan kelishgan holda avtomobil modellarini yangilashga doir tadbirlar ishlab chiqishi kerakligi nazarda tutildi.

1996-yilda korxonada 4000 ga yaqin ishchi ishlagan bo'lsa, yaqin kelajakda taxminan 55—65 ming kishi ishlaydigan yirik avtomobilsozlik markaziga aylanadi.



1999-yil 16-mart kuni Samarqandda O'zbekistonning yana bir avtomobil zavodi ish boshladi. «SamKochavto» qo'shma korxonasida yiliga minglab turli rsumdagi qulay va ixcham avtobuslar, turfa xil yuk tashish mashinalari ishlab chiqarilmoqda.

Qisqa muddatda qad rostlagan mazkur avtomobil zavodi qurilishiga 1995-yili «O'zavtosanoat» uyushmasi Turkiyadagi mashhur «Koch xolding» kompaniyasi bilan imzolagan shartnomaga muvofiq kirishilgan edi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi

O'zbekiston Respublikasining tarixan agrar qishloq xo'jalik o'lkasi ekanligi bu hududda obyektiv sur'atda qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirishni talab qilsa-da, Sho'ro hukumati bu tarmoq taraqqiyotiga ham ulug' davlatchilik siyosati nuqtai nazaridan yondashdi. Mamlakat qishloq xo'jaligining ehtiyojlarini asosan «Toshkent traktor zavodi» (TTZ), «Toshqishloqxo'jalikmash» kabi korxonalar qondirib kelgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bu korxonalar deyarli to'xtab qolish darajasiga kelib qoldi. Mamlakat iqtisodiy hayoti nihoyatda og'ir bo'lgan bir sharoitda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov bu sohada ham uzoqni ko'zlab, qishloq xo'jali-

gini zarur bo'lgan traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash choralari ko'rdi.

Jumladan, Toshkent traktor zavodi ish faoliyatini mustaqillik talablari asosida takomillashtirish choralari ko'rildi.



Quvvati 30 ot kuchiga ega bo'lgan TTZ-30 traktori yaratildi va uni 1993-yildan boshlab ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Zavodning davlat-aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi ham ijobiy natijalar bera boshladi. 1994-yilda dizel dvigatelli TTZ-80/100 universal chopiq traktori sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi. Shundan so'ng bu xil traktorlarni ommaviy sur'atda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.



1994-yilda O'zbekiston—Italiya qo'shma korxonasi — «O'zItalmotor» aksionerlik tashkilotiga asos solindi. Unda AQSHning «KEYS» firmasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi va qishloq xo'jaligi uchun yangi traktorlar va kombaynlarni yig'ish amalga oshirilmogda.

O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi mashinasozligining 15 ta korxonasi «O'zqishloqxo'jalik mashinasozlik xolding» kompaniyasiga aylantirildi. Uning tarkibiga Toshkent traktor zavodi, «Toshqishmash» ishlab chiqarish birlashmasi, Toshkent agregat zavodi, «Chirchiqqishmash», «O'zbekqishmash» singari aksiyadorlik jamiyatlari kirdi. Bu kompaniya 1996-yildan boshlab mamlakat qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida AQSHning «KEYS» va «MAGNUM» korporatsiyalari bilan birgalikda traktorlar, kombaynlar yig'ishni yo'lga qo'ydi.

2002-yildan boshlab Toshkent traktor zavodida O'zbekiston—Xitoy qo'shma loyihasini amalga oshirish natijasida qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon fermer xo'jaliklari uchun ixcham traktorlar ishlab chiqarish texnologiyasi o'zlashtirildi.

2003-yildan boshlab esa avtomobillar uchun oyna ishlab chiqaradigan «Avtooyna» aksiyadorlik jamiyati ishga tushirildi.

Bulardan tashqari, O'zbekistonda paxta tozalash to'qimachilik mashinasozligi kabi sanoat tarmoqlari ham o'z faoliyatlarini milliy istiqolol talablari asosida qayta qurmoqdalar. Birgina «O'zbekto'qimachilikmash» birlashmasida to'qimachilik mashinalari, apparatlari va avtomatlarining 50 dan ortiq namunasi ishlab chiqarishga joriy qilingan.

Xalq xo'jaligiga zamonaviy texnika

Qo'lga kiritilgan milliy istiqolol xalq xo'jaligining barcha sohalarini yangi zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan qayta jihozlash va kompleks rivojlantirishni talab etadi. Shu bois ham mamlakat hukumati birorta sohani ham o'z diqqat e'tiboridan chetda qoldirgani yo'q. Ana shunday sohalardan biri radioelektronika va elektrotexnika sanoati hisoblanadi. 1990-yilda «Radioelektrontexasbob» davlat konserni tashkil etilgan edi. 1994-yilga kelib konsern «O'zeltexasanoat» uyushmasi shaklida qayta tashkil etildi.



«O'zeltexsanoat» uyushmasida 46 mingdan ortiq ishchi va xizmatchilar mehnat qiladilar. Uyushma tarkibida 50 dan ortiq korxonalar va tashkilotlar mavjud. «O'zkabel» aksiyadorlik jamiyati, «Foton», «Chirchiq transformator», «Uzelektroapparat», «Signal», «Oniks», «Andijonkabel», «Algoritm» aksiyadorlik jamiyatlari, Jizzax akkumulyator zavodi kabilar ana shular jumlasiga kiradi.

O'zbekiston o'zining samolyotsozlik sanoatiga ham ega. Ikkinchi jahon urushi natijasida Sho'rolar 1941-yilda Moskva aviatsiya zavodini Toshkentga ko'chirishga majbur bo'lgan edilar va shu tariqa O'zbekistonda bu sanoat tarmog'iga asos solingan edi. Ammo, Sho'ro hokimiyati yillarida mazkur zavod o'zi mustaqil samolyot ishlab chiqara olmas va butlovchi korxonalar hisoblanar edi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, zavod ancha og'ir ahvolda tushib qoldi. Mamlakat rahbariyati zavod ish faoliyatini qayta qurish va takomillashtirish bo'yicha zarur choralarini ko'rdi. Bu tezda o'z natijalarini bera boshladi.

1996-yildan e'tiboran V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya zavodi «Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi» davlat aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. Natijada korxonada ilgari tayyorlab kelinayotgan samolyotlar qatorida mahalliy havo yo'llarida qatnashga mo'ljallangan 64 o'rinli yangi IL-114 samolyotlari ham ishlab chiqarila boshladi.

Bulardan tashqari O'zbekistonda asbobsozlik, kimyo va neft-kimyo mashinasozligi, qurilish va yo'l mashinasozligi, kommunal xo'jalik, madaniy-maishiy va uy-ro'zg'or texnikasi mashinasozligi kabi sanoat tarmoqlari ham davlatimizning g'amxo'rliqi va diqqat markazidadir.

Xullas, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng mustaqil davlat o'laroq qudratli industrial bazaga asoslangan mashinasozlik sanoatini yaratishga azmu qaror qildi va bu borada ishonchli qadamlar bilan ilgari bormoqda.



1. Respublikamizda milliy avtomobilsozlikka qanday asos solindi?
2. «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi xususida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekistonda avtomobilsozlik sanoatini yanada rivojlantirish sohasida qanday ishlar qilinmoqda?
4. «UzDEUavto» qo'shma korxonasi mamlakat iqtisodiy-xo'jalik hayotida qanday ahamiyatga ega?
5. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mashinasozligining ahvoli qanday?
6. Mamlakat qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnika olib kirish maqsadida qaysi xorijiy mamlakatlarning firmalari bilan qanaqa hamkorlik aloqalari olib borilmoqda?
7. Respublikamiz radioelektronika va elektrotexnika sanoati xususida nimalarni bilasiz?
8. O'zbekiston samolyotsozligi sanoatining bugungi ahvoli to'g'risida so'zlab bering.



«Mustaqil O'zbekiston avtomobilsozlik sohasida erishgan yutuqlari» mavzusida bayon yozing.

O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY-MA’RIFIY VA MADANIY TARAQQIYOTI

29-§. MA’NAVIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH

Ma’naviy yangilanish jarayoni va yangi tafakkur

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dolzarb muammolardan biri — yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kishilarni tarbiyalash edi. Bu o‘z navbatida bir necha o‘n yillar mobaynida sinfiy-

partiyaviy mafkura tomonidan taqiqlangan o‘zbek xalqining ma’naviy merosini tiklash va uning yanada kamol topishi uchun keng imkoniyatlar ochish kerak edi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma’naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlash uchun xalqni safarbar qilib bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatdi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati istiqlolning dastlabki paytidanoq bu borada zarur choralar ko‘rdi.



O‘zbekiston rahbarligiga saylangan I.Karimov O‘zKP XXII syezdida (1990-yil iyun) shunday degan edi:

«Yaqindagina o‘zbek adabiyotining klassigi Boburni baholashda tor sinfiy yondashuv ro‘y berdi. Adib ijodining milliy va umuminsoniy ahamiyati kamsitildi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining 1986-yilda bo‘lgan uchinchi Plenumida Bobur shaxsi tahqirlanib, u «ma’rifatli zolim» deb tilga olindi.

Xalqimiz Markaziy Qo‘mita va jumhuriyat hukumatining Navoiy, Ulug‘bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Qodiriy va xalqimizning boshqa buyuk farzandlari yubileylarini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorini juda ruhlanib kutib olganligi bejiz emas. Ularning merosi O‘zbekiston xalqlari umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qilib kelgan edi va bundan buyon ham xizmat qiladi. Biz ularning bebaho merosini xalqqa, avvalo yoshlarga yetkazish uchun barcha ishlarni qilamiz».

O‘zbekiston yangi rahbariyatining bunday pozitsiyasi respublikada ma’naviy poklanish, yangilanish davrining boshlanganini bildirar edi.

Shundan so‘ng adib Primqul Qodirovning Bobur va boburiylar haqida hikoya qiluvchi «Yulduzli tunlar» romani e‘lon qilindi, Boburning «Boburnoma»si yangitdan nashr qilindi. «Sharq Yulduzi» jurnalida «Temur tuzuklari»ning to‘la e‘lon qilinishi keng jamoatchilikni behad quvontirdi. Bular, albatta, yurtimiz tarixida

o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz shaxsiga yangicha munosabatlar qaror topayotganini ko'rsatar edi.

Endilikda mamlakat istiqloqlga erishgandan so'ng, asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan bu boyliklarni e'zozlash, avaylab asrash, o'rganish va ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lindi.



1991-yili Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi barcha hur fikrli kishilar tomonidan keng nishonlandi.

Bu to'yga yurtimizda katta tayyorgarlik ko'rildi va u xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Avvalo buyuk shoir asarlarini keng xalq ommasiga yetkazish uchun muhim ishlar amalga oshirildi. Uning yigirma jildlik mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi. Bundan tashqari, «Lison-ut tayr», «Sab'ai sayyor», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat ul-Abror» singari shoh asarlari alohida-alohida holda bir necha ming nusxada bosmadan chiqarildi. Bir necha ilmiy-ommabop asarlar sovg'a kitoblar sifatida nashr qilindi.

Yubiley oldidan Alisher Navoiyning buyuk siymosi ifoda etilgan sahna asarlari, kinofilmlar yaratildi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta'sis etildi. Pushkin nomidagi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Shoir nomi berilgan Davlat adabiyot muzeyi yangi eksponatlar bilan boyitildi. Toshkentda ulug' bobomizning muhtasham va purviqor haykali qo'yildiki, bugungi kunda u xalqimiz muqaddas ziyoratgohiga aylandi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan 1994-yil Ulug'bek yili deb e'lon qilindi va uning 600 yilligi mamlakat va jahon miqyosida keng nishonlandi.

Bu tadbirlar buyuk alloma qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir.

Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan allomalar sifatida xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldi. Samarqand, Buxoro va Xiva butun insoniyat uchun ziyoratgohga aylandi.

O'zbekistonda xar yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Fitrat, Furqat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi ulug' shoir va ma'rifatparvarlar kunlarini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Masalan, 1992-yil may oyida mamlakatimiz poytaxtida boshlangan Mashrabxonlik kunlari uning vatani Namanganda keng nishonlandi. Ushbu shaharda uning nomi bilan ataluvchi katta istirohat bog'i barpo etildi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga binoan 1998-yil 24-oktabr kuni Farg'onada Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi, 1999-yil 5-noyabrda Xorazmda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga, 1999-yil 17-dekabr kuni Xorazmda Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, 1999-yil 18-dekabr kuni Nukusda Ajiniyoz Qosiboy o'g'li tavalludining 175 yilligi keng nishonlandi.

Bulardan tashqari, mustaqillik yillarida Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Berdaq, Fayzulla Xo'jayev singari madaniyat va jamoat arboblari yubileylarini o'tkazish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar ham ma'naviy hayotdagi muhim qadamlardir.

UNESKO bilan O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida yana bir muhim qadam qo'yildi. O'zbekiston hukumati va UNESKO o'rtasida imzolangan bitim faqat madaniyat, ilm-fan va maorif sohalari muammolari bilan cheklanib qolmaydi. U mavjud ekologik, xususan, Orol dengizi qurishi bilan bog'liq muammolarni hal etishning ilmiy yechimini topishni ham nazarda tutishi bilan qimmatlidir. Bitimga ko'ra, ko'p o'tmay Toshkentda UNESKOning vakolatxonasi ochildi.



UNESKO ijroiya qo'mitasining maxsus qaroriga binoan 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 1999-yil 6-noyabr kuni Termizda «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlandi.

Tabiiyki, ma'naviy ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi.

2001-yilda hazrat A.Navoiyning 560 yilligi yana ham kengroq nishonlandi. Buyuk mutafakkir nomi bilan ataladigan viloyat markazida 100 gektar maydonda bog' yaratildi. Bog'da bobokalonimizning purviqor haykali o'rnatildi.



2001-yilda Xorazmda «Avesto»ning 2700 yilligi keng nishonlandi. Mo'tabar madaniy yodgorlik hisoblangan «Avesto» kitobi dunyoga kelganidan buyon birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi.

2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi, Shahrisabzning 2700 yilligi UNESKO ishtirokida keng bayram qilindi. 2003-yilda Abduxoliq G'ijduvoni tavnalludining 900 yilligi nishonlandi.

Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Mamlakat ma'naviy hayotini yanada takomillashtirishda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazining o'rni alohida e'tiborga loyiqdir.



1994-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi Farmoni e'lon qilindi.

Shu yili 8-iyunda Vazirlar Mahkamasi mazkur Farmonning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan maxsus qaror qabul qildi. Unda Markazning asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishi qilib o'zbek xalqining boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish, jami-yatdagi sog'lom kuchlar, yuksak iste'dod va

tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini oshirish, tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqada yashayotgan millatlarning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiyot tomirlari mustarakligini targ'ib qilish va hokazolar qilib belgilandi.

1994-yil sentabrda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshidagi «Oltin Meros» Xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi.

Mustaqillik butun hayotimizni yangilab, uzluksiz mudroqlikdan uyg'otib, qarashlarimizni o'zgartirib yuborgani kabi ma'naviyatga munosabatlarimizni ham isloh qildi. Ma'naviy va ma'rifiy turmushimiz muammolarini hal etishda bosh islohotchi — Davlat yana ko'makka keldi va mamlakat Prezidenti «**Biz ma'rifat va ma'naviyatga tadbirkorlik va tijorat sohalari tomonidan qilinayotgan homiylikni qo'llab-quvvatlaymiz, bunday homiylarga yengillik berish lozimligini ham bilamiz. Lekin homiylik mablag'lari chinakam badiiy asarlarga, chinakam ijodiy tadbirlarga sarflanishi shart. Xalqimizning kelajagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy — davlatning o'zi**», — dedi.

Bu moddiy jihatdan birmuncha qiyinchilik sezilayotgan bir davrda ma'naviy hayotimizga davlat g'amxo'rligining yorqin ko'rinishidir. Bularning hammasi O'zbekistonda milliy madaniyat va ma'naviyat ravnaqining keng miqyosli dasturi mavjudligini, unga bevosita davlatning o'zi va shaxsan Prezident I. Karimov rahnamolik qilayotganini ko'rsatadi.

Davlat tili va ma'naviy tiklanish

Ma'naviy poklanish o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonuni ancha ilgari — 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan edi. Bu qonun xalqimiz milliy ongining rivojlanishiga, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma'naviy yangilanishida muhim rol o'ynadi.

Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinganidan keyingi yillar mobaynida mamlakatda katta ishlar qilindi. O'zbek tilini davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, sudlarda, davlat notarial idoralari qo'llash to'g'risidagi moddalar ro'yobga chiqarildi. Xalq ta'limi, fan sohalari, ommaviy axborot vositalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'plab tarixiy nomlar tiklandi, atamalar milliy til asoslariga muvofiq yangilana boshladi.



1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonun qabul qildi. 1995-yil may oyida Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida mazkur Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida Qonun qabul qilindi.

Mazkur qonunlar o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlanishi, mamlakatning har taraflama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishi uchun ancha qulay shart-sharoit yaratib berdi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini uzil-kesil joriy etishni 2005-yil 1-sentabrgacha bosqichma-bosqich amalga oshirib borishga qaror qilindi.

Hayot Davlat tili haqidagi Qonunning ayrim moddalarini qayta ko'rib chiqish, tahrir qilishni talab qilardi. Xususan, 4-modda davlat hokimiyati va boshqaruvning barcha xodimlaridan o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun yetarli darajada Davlat tilini bilishni taqozo etadi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, bu talabni rus tilida o'qigan va uzoq yillar shu tilda kasb-kor bilan shug'ullangan yuzlab va minglab keksaygan malakali mutaxassislar bajarishga qodir emas edi. Ularga jamiyat ravnaqi yo'lida xotirjam ishlash va o'z imkoniyatlaridan loaqal pensiya yoshiga yetgunga qadar samarali foydalanishlari uchun imkoniyat berish maqsadga muvofiq bo'lib qoldi. Hamma joyda Davlat tili va yangi alifboga o'tishning asosli o'quv-uslubiy negizini yaratishni taqozo etardi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

«Navro'z»ning tiklanishi

Xalq turmush tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, odat marosim va bayramlari tashkil qiladi. Shu bois, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma'naviy tiklanish haqida gapirganda xalqning azaliy qadriyatlarini tiklash borasida olib borilgan ishlarni ham alohida ta'kidlash lozim.



Mamlakat Prezident I.A.Karimovning Farmoni bilan 1991-yildan boshlab har yili 21-mart — «Navro'z» bayrami umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu kun dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish «Navro'z» bayramining xalqimizga qaytarib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi.

Darhaqiqat, avlodlarimiz Navro'zni juda muqaddas bilganlar, uni g'oyat qadrlaganlar. Navro'z kunlarida qadimda, hatto, urushlar ham to'xtatilgan, el-yurt osoyishta hayot kechirgan. Navro'z go'zallik va yaxshilik, mehr-oqibat, muruvvat bayrami sifatida qadrlangan. Shuning uchun ham, bu shodiyona kunlarda inson dilini og'ritish juda qattiq gunoh hisoblangan. Bir-birlarini muborak ayyom bilan qutlab, yaxshi tilaklar izhor etganlar. Gina-kuduratlar unutilgan, adovat o'rniga ezgulik tuyg'ular jo'sh urgan. Ana shu el ardoqlagan, avlodan-avlodga o'tib kelgan azaliy an'ana yana hayotdan mustahkam joy ola boshladi.

Bu qadimiy bayramni xalqimiz nihoyatda orziqib kutishining yana bir boisi shundaki, Navro'z rizq-ro'zimiz bo'lmish dehqon yilining boshlanishi hamdir. Navro'zning bayram qilinishi teran xalq an'analari, yerga va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, dehqon mehnatini hurmat qilish, yaxshi qo'shnichilikka, mehr-muruvvatga va boshqalarning dardiga malham bo'lishga intilishlari tiklanishning qudratli omili bo'lmoqda.

Har bir jamoa, muassasada nishonlanadigan bunday bayramlar, kishilarda xalqimizning qadimiy an'alariga hurmat, mehnatga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Bundan tashqari, ma'naviy hayotdagi diniy bayramlar, hayit kunlarining mamlakatda umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ham ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishidir.

Din va davlat o'rtasidagi munosabatlar

Sir emas, Sho'ro tuzumi sharoitida «din afyundir» degan kommunistik shior hukm surib keldi. Dindorning ma'naviy huquqi cheklandi. Bunday bir tomonlamalik ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'nggi tarixiy o'zgarishlar bunday qarashlar asossiz ekanligini ko'rsatdi.

Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston — dunyoviy davlat, binobarin, mamlakatimizda din davlatdan ajratilgan. Mamlakatimiz rahbariyati bu masalaga oqilona yondashib, din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, jamiyatdan ajratilmaganini, xususan, O'zbekiston singari qadimiy va barqaror diniy an'analarga ega mamlakatda bu borada g'oyat nazokat va ehtiyotkorlik bilan ish yuritish lozimligini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetdi.

Ko'p millatli mamlakatimizda hech qaysi din vakillarining diniy nafsoniyatlarini kamsitmagan holda, ayni vaqtda diniy hissiyotlarni avj ham oldirmasdan, og'ir-vazmin, uzoqni ko'zlangan siyosat amalga oshirilmoqda.



Davlatimizning dinga bo'lgan siyosatining mohiyati Prezidentning quyidagi fikrlarida aniq-ravshan belgilab berilgan: «Din odamzotni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Bu dunyoning o'tkinchi ekanini ta'kidlab, odam bolasini hushyor bo'lishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi.

Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz, diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta'limga doimo jiddiy e'tibor beriladi. Ayni zamonda biz din peshvolariga, o'zimizga o'xshagan musulmon birodarlarimizga bir narsani takror va takror uqtirmoqchimiz: din o'z yo'li bilan, davlat o'z yo'li bilan. Diniy partiyalar tuzib, hokimiyat talashib yurishlar xudoga ham yoqmaydi. Islom dini insonlarni kamtarlikka, kamsuqumlikka undaydi... Hamma ahil, hamma pokiza bo'lib yashasin, kimning fazilati qancha, kimning gunohi qancha ekanini Yaratganning o'zi ajrim qilib beradi».

Qachonki kishi o'zligini anglamasa, o'z vijdoni bilan yuzma-yuz turmasa, iymon va e'tiqod oldida hisob bermasa, qo'shnisi, mahallasi, jamiyat, Vatan oldidagi mas'uliyatini his etmasa, bunday odam insonlik sharafiga munosib bo'lmaydi.

Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi.



1992-yil 27-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro'za hayiti kunini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida» Farmoni e'lon qilindi.

Musulmon hayotidagi qutlug' sanalar — Qurbon va Ramazon hayitlari kunlarini bundan buyon doimiy sur'atda bayram qilish va ularni dam olish kunlari deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi.

Islom ma'rifati

Islom olamining zabardast allomalari — vatandoshlarimiz imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi (1995-yil), Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi (1993-yil) va Xoja Ahrori Valiyning 600 yilligi keng ko'lamda nishonlanishi yurtimizda imon, din-u diyonat qaytadan yuksalayotganiga yorqin dalil bo'ldi. Bu aziz va mukarram zotlarning bebaho asarlari qayta chop etildi, nomlari abadiylashtirildi.

2000-yili Islom olamining ulug' huquqshunosi Burhoniddin Marg'iloniyning 1200 yilligi va benazir alloma Abu Mansur Moturidiyning 1130 yilligi keng nishonlandi. Ularning merosini o'rganishga bag'ishlab xalqaro konferensiya o'tkazildi.

2003-yili Naqshbandiy ta'limotining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi. Uning maqbarasi va, umuman, G'ijduvon shahri qayta ta'mirlandi, yangi binolar, bog'lar, yo'llar barpo etildi.

Jamiyat a'zolarining vijdon erkinligini ta'minlash, ularning o'z diniy marosim va urf-odatlarini ado etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Yangidan-yangi masjid va madrasalar qurish, eskilarini tiklash-ta'mirlash bo'yicha ulkan tadbirlar amalga oshirildi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Diniy asarlarni nashr etish keskin suratda oshdi. Jumladan, imom Buxoriyning to'rt jildidan iborat, imom Termiziyning bir jildli hadis kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Qur'oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi.

2002-yili Qur'oni Karimning izohli tarjimasi shayx Abdulaziz Mansur tomonidan tayyorlandi va ommaviy nusxada nashr etildi. Bundan tashqari, hadis va shar'iy ilmlariga doir ko'pgina asarlar ona tilimizga o'girildi va minglab nusxalarda chop etildi.

Mamlakatimizning har bir viloyatida kamida bittadan diniy Madrasa, Toshkent shahrida esa Toshkent Islom Universiteti, Xalqaro Islom tadqiqotlar markazi, Imom Buxoriy nomidagi Islom mas'hadi, Eshon Boboxon nomidagi ayollar madrasasi, Abulqosim va Ko'kaldosh madrasalari faoliyat ko'rsatmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-maydagi Qarori bilan Toshkent shahrida islom ta'limoti va falsafasini, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur o'rganish maqsadida Xalqaro islom tadqiqot markazi tashkil etildi.

Mazkur markazning asosiy vazifasi diyorimiz musulmonlariga milliy qadriyatlarimizni va haqiqiy islom ta'limotini yetkazish, mavjud islomiy osori-atiqalar tarixini o'rganish, nodir qo'lyozma asarlarni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo'llanmalar, lug'atlar tayyorlash va nashr qilishdan iboratdir. Mamlakat televideniyesi orqali berilayotgan «Ma'rifatnoma», «Ziyo» ko'rsatuvlari xalqning ma'naviyatini yuksaltirishda, diniy ma'rifatini o'stirishda katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston musulmonlariga mislsiz erkinlik va imkoniyatlar berilgan. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga egadirlar. Har yili mamlakatimizdan o'rtacha 4 mingga yaqin fuqarolar Makkai munavvara va Madinai mukarramaga safar qiladilar.



1. Ma'naviy meros nima? Uni tiklash deganda nimani tushunasiz?
2. Mustaqil O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy yangilanish zarurati, uning mohiyati haqida gapirib bering.
3. «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Madaniy meros va yangicha tafakkur deganda nimani tushunasiz?
5. Respublikamizda madaniy merosni tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar haqida so'zlang.
6. Davlat tili to'g'risidagi Qonun va uning ahamiyati haqida gapiring.
7. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risidagi Qonunlar va ularning ahamiyatini tushuntiring.
8. Davlat tili to'g'risidagi Qonunga nima uchun o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ldi?
9. «Navro'z» bayrami, uning mohiyati va ahamiyatini tushuntiring.
10. Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qanday choralar ko'rilmogda?
11. Din va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiling.
12. Islom madaniyati, umuman, diniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?



Ma'naviy merosni tiklashga oid quyidagi jadvalni to'ldiring.

t/r	Buyuk alloma	Tavalludi	Yubileyi o'tkazilgan shahar	Sana

30-§. MILLIY ISTIQLOL VA AMIR TEMUR OMILI

Amir Temur merosi — buyuk qadriyat — Mustaqillik davri tom ma'noda hazrati Temurning qayta tug'ilish davri bo'ldi. Amir Temurga munosabat, uning tarixiy xizmatini munosib baholash va izzatini o'niga qo'yishda shaxsan Prezident I.Karimovning o'zi tashabbuskor bo'ldi. Sohibqiron shaxsini ulug'lash uchun u butun imkoniyatini ishga soldi. Buning sababi nimada? **Buni Prezident quyidagicha izohlaydi:**

Birinchidan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarida ongu shuuri-mizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularimizni qayta tiklash, millatni millat, davlatni davlat qilish uchun kerak.



Sohibqironning «Bizkim, mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Bizkim, millatlarning eng qadimgi va eng ulug'i — turkning bosh bo'g'inimiz», degan gaplari xalqimizga milliy o'zligini, buyuk va jahonshumul an'analarga voris ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy g'ururini, milliy ongini yuksaltirish uchun qariyb unutilgan tariximizni qayta tiklash lozim. Amir Temur esa ana shu ko'hna tarixning buyuk cho'qqisidir.

Uchinchidan, Amir Temurning hurmatini joyiga qo'yish farzandlari-mizni, kelgusi avlodni ulug' ajdodlarimizning nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, ularni ana shu buyuk an'analarning munosib davomchilari qilib tarbiyalash, milliy g'ururini yuksaltirish uchun kerak.

To'rtinchidan, Amir Temur qadriyati bizga demokratik, huquqiy, qudratli O'zbekiston davlatini barpo etish uchun, «O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat» degan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun kerak. Yangi jamiyat, yangi hayot, yangi tafakkur, qolaversa, butun davlatchilik asoslarini qayta tiklayotgan bir paytda Amir Temur o'zbek xalqiga tog'day tayanch bo'lib xizmat qiladi, uning olijanob ishlari-ga beqiyos safarbarlik ruhi baxsh etadi.

Beshinchidan, Amir Temur qadriyati mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak.

Mamlakatimiz tumanlari, xo'jaliklari, so'lim ko'chalariga bobokalonimiz Amir Temur nomi berildi.



Toshkent shahrining markazida Amir Temur xiyoboni bunyod etildi. 1993-yilda mazkur xiyobon o'rtasida Sohobqiron Amir Temurga suvoriy haykal o'rnatildi.

Amir Temur faoliyatiga oid turli adabiyotlar nashr etishga kirishildi. «Temur tuzuklari» nashr etildi. «**Amir Temur tuzuklarini o'qisam**, — degan edi Prezident I.Karimov, — **xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgan-dek bo'laman**».

Sohobqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi

Bugun biz mustaqillik mohiyatini, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni hamda xalq turmushidagi beqiyos ahamiyatini ulug' bobokalonimiz sohobqiron Amir Temur orqali yana ham chuqurroq anglamoq-

damiz.

Mustaqilligimizning 5 yilligi va Amir Temur tavalludining 660 yillik tantanalari bir-biriga ulanib ketdi. Bu tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishi ajdodlarimizning muqaddas ruhi va bugungi avlod xohish-irodasining mushtarakligidan dalolat beradi. Biroq, bu kunlarga yetib kelish oson bo'lmadi.

Shunisi quvonchliki, YUNESKO Amir Temurning insoniyat tarixidagi ulkan xizmatlarini jahon ahliga tanitishga O'zbekiston hukumati bilan birgalikda jonbozlik ko'rsatdi. Bu, ulug' bobokalonimizning jahon tarixidagi beqiyos nufuzidan dalolat bersa, ikkinchidan, millat sha'ni, uning tarixiy shavkatini tiklash yo'lida Prezident I.Karimov sa'yi harakatlarining natijasidir.

1995-yil dekabrda Prezident I.Karimov 1996-yilni Amir Temur yili deb atash to'g'risida Farmon e'lon qildi. «Temur tuzuklari» bir necha tillarda chop etildi. O'sha davr tarixiy madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Muqaddas qadamjo — Amir Temur maqbarasi ta'mirlandi. Juda qisqa fursatda, bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar davri tarixi muzeyi qurildi.

Amir Temurning san'at va madaniyatga homiyligi, mamlakat obodonchiligi

uchun g'amxo'rliqi, insonni tabiatning gultoji sifatida e'zozlashga intilish singari xususiyatlari bugun ham katta qiymatga ega.

Hurfikrik, fuqarolar ongi va tafakkurida bunyodkorlik, ijodkorlik, istiqbol uchun kurashish tuyg'usini shakllantirish insonparvar jamiyatning oliy fazilatidir. Bu borada ham Sohibqironning sa'yi-harakatlari va tadbirlari biz uchun o'rnatqidir.

Bugun O'zbekiston o'z kelajagini aniq va ravshan ko'rib turibdi. Chunki, azaldan ozod bo'lgan, ozodlik va hurriyat gashtini surgan, jahon taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatib kelgan buyuk xalqning irodasi ham, daholik qudrati ham, yaratuvchilik va bunyodkorlik kuchi ham buyuk bo'ladi. Sohibqiron sabog'i bizni ana shu haqiqatni chuqur idrok etishga o'rgatadi.



Prezident I.Karimov Sohibqiron Amir Temurning 660 yillik yubileyiga bag'ishlangan 1996-yil 24-oktabrda Toshkentda o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda shunday dedi:

«Bizning tariximizda Amir Temurday ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu o'gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan muammolarni yechishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q. Shuning uchun ham mana shu minbardan turib, butun O'zbekiston xalqiga, qolaversa, butun jahon ahliga qarata «Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimiz!»,— deb aytсам, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'laman».

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boy merosimiz milliy mustaqillik tufayli umumbashariyat merosiga aylanmoqda. Bu merosga qiziqib qaragan har bir olim-u fozil qayerda ishlamasin, ichki bir ishtiyoq va kasb taqozosi bilan shu sohadagi yuzlab, minglab hamkasblari bilan o'zaro yaqinlashib boraveradi. Demak, o'zbek tarixi, xususan, Amir Temur siymosi umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qiladi. Bundan davlatlar va xalqlar o'rtasida hamkorlik yanada mustahkamlanib boraveradi. Shu ma'noda Sohibqiron yubileyining juda katta siyosiy, tarixiy va ma'naviy ahamiyati bor.

Amir Temur tavalludining 660 yilligi jahonning 50 dan ortiq davlatlarida nishonlangani, ulug' bobokalonimiz merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanda 30 ga yaqin mamlakat olimlari ishtirok etgani buni yana bir bor tasdiqlaydi.



Sohibqiron Amir Temurning 660 yillik yubileyi 1996-yil 21—24-aprel kunlari Fransiya poytaxti Parij shahrida YUNESKO tashabbusi va rahbarligida nishonlandi, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ishtirok etdi va katta nutq so'zladı.

YUNESKO qarorgohida «**Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi**» mavzuida xalqaro konferensiya va ko'rgazma uyushtirildi. O'zbek san'at ustalari Parijdagi «Odson» teatri va YUNESKO qarorgohida katta konsert dasturlarini namoyish etishdi. Butun dunyo uni beqiyos zavqu shavq, olqishlar bilan kutib oldi.

«Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuidagi ko'rgazmaga qo'yilgan eksponatlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga

tegishli bir necha mingyillik davrni o'z ichiga qamrab oladi. Ko'rgazmaga kelgan kishilar o'zbek xalqi ijodi, madaniy va ma'naviy merosi, tasviriy san'ati namunalari bilan tanishish imkoniga ega bo'lishdi.

Bu ko'rgazma ochilishiga dasturda belgilanmagan holda shaxsiy qiziqishi va o'zbek madaniyatiga hurmat-ehtiromi tufayli Fransiya Prezidenti Jak Shirak rafiqasi bilan tashrif buyurishi ham muhim voqea bo'lgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur marosimda O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini qayta tiklash va targ'ib qilishdagi katta xizmatlari uchun YUNESKO o'sha paytdagi bosh direktori F.Mayorga «Do'stlik» ordenini topshirdi. Fransiyalik mashhur olim, Temur va temuriylar hukmronligi yillari tarixining zukko bilimdoni, O'zbekiston va Fransiya madaniyatlarini o'zaro yaqinlashtirish ishining jonkuyari L.Keren «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi.

O'zbekiston Prezidentining Fransiya Prezidenti bilan Yelisey saroyidagi dastlabki uchrashuvi rejada ko'zda tutilganidan deyarli ikki barobar ko'p davom etgani qalblar yaqinligini, tuyg'ular mushtarakligini ko'rsatadi.

O'zbek-fransuz aloqalari uzoq tarixga ega. Fransiya Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan uchrashganida Amir Temurhing 1402-yili Fransuz qiroli Sharl VI ga yo'llagan maktubini sovg'a qilishida ham teran ramziy ma'no bor.



1996-yilning 18-oktabr kuni ulug' bobokalonimiz, buyuk davlat arbobi va yengilmas sarkarda Amir Temur yodi xotirasiga atab Sharq milliy me'morchiligining noyob namunasi sifatida bunyod etilgan — Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'ldi.

Muzey ochilishida minglab kishilar — toshkentliklar, mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelgan mehmonlar, xorijiy elchixonalar va vakolatxonalarining vakillari hozir bo'lishdi. Ulamoi kiromlarning fотиhasi bilan qo'ylar so'yilib, qurbonlik qilindi.

Shundan so'ng muzey ochilishiga bag'ishlangan tantanali miting boshlandi. Prezident Islom Karimov yig'ilganlar oldida katta nutq so'zladı.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi g'oyat qisqa fursatda bunyod qilindi. Boryo'g'i olti oy mobaynida me'moriy jihatdan nihoyatda murakkab muhtasham inshoot barpo etildi. Bu avvalo, bobokalonimizning sha'nu shavkatiga, dunyoviy obro'-e'tibori va daholigiga munosib bo'lsa, ikkinchi tomondan temuriylar bugungi avlodining bunyodkorlik qudratidan, nozik didi, beqiyos iste'dod va xayolotining cheksizligidan dalolat beradi.

Bayram tantanalari muzey sahniga ulanib ketgan Amir Temur xiyobonida davom etdi. Prezidentimiz xiyobondagi Sohıbqiron haykali poyiga gulchambar qo'ydi. Davlat va hukumat rahbarlari, fan, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari, ishlab chiqarish ilg'orlari, nuroniy otaxonlar va onaxonlar, jamaatchilik vakillari ham marosimda ishtirok etishdi.

Ulug' ajdodimiz ruhini xotirlash temuriylar davlatining poytaxti Samarqanda alohida shukuh va joziba kasb etdi. Jahon sayqaliga aylangan bu ko'hna va tabaruk shahar Sohıbqiron taqdiri, uning bezovta-yu beorom kunlari, buyuk orzulari, armon-iztiroblariga guvoh bo'lgan muqaddas maskandir. Ayni paytda Samarqand

millatni millat, davlatni davlat qilgan Amir Temur daholik qudratining ramzi, uning beqiyos ifodasidir.

Sohibqiron yubileyiga tayyorgarlik jarayonida samarqandliklar o'nlab tarixiy obidalarni, osori atiqalarni ta'mirladilar, ularni qayta tikladilar. Yangi inshootlar qurildi, bog'lar barpo qilindi. Shahar markazidagi ko'rkam Amir Temur maydoni Samarqand sayqaliga sayqal qo'shdi.



1996-yilning 18-oktabr kuni davlatimiz rahbari I.Karimov Samarqandning Amir Temur maydonida qad ko'targan Sohibqironning haykalini tantanali ravishda ochdi.

Yig'ilganlar ko'z o'ngida hamisha muzaffar va g'olib Amir Temurning salobat va ulug'vorlik bilan taxtda o'tirgan siyosi gavalandi.

O'sha muborak kun Qashqadaryo vohasida, xususan Shahrisabz — qadimiy Kesh shahrida tarixiy kun bo'ldi. Bu mo'tabar tuproq bobokalonimizga beshik bo'lgan, uni voyaga yetkazgan ota makon.



1996-yilning 18-oktabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shahrisabzning qadimiy Oqsaroy hovlisiga ulanib ketgan ulkan maydon markaziga o'rnatilgan Amir Temurning ulug'vor haykalini ochdi.

Amir Temur yubileyi bizning hozirgi dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari urush va tinchlik muammolariga, inson hayotining daxlsizligiga yan ham jiddiyrq mas'uliyat bilan qarashimizni taqozo etadi.

Amir Temur shaxsiyati jahon davlatchiligi an'analarini yanada boyitish, bu boradagi sharq tajribalaridan unumli foydalangan holda yosh mustaqil davlatimiz tizimini tobora takomillashtirish sabog'ini bermoqda. Zotan, biz huquqiy demokratik adolatli davlat va insonparvar fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqdamiz. Demak, ulug' bobokalonimizning davlatchilik borasidagi sabog'i — adolat va haqiqat tantanasiga, yuksak ma'naviyat ravnaqiga erishish hamda ma'naviy barkamol jamiyat bunyod etish tamoyillari biz uchun ibrat va namunadir. Ayni paytda u barpo etgan siyosiy tizim, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, milliy xavfsizlik borasidagi strategik qarashlar ham ulkan maktab vazifasini o'taydi.



1. Amir Temur xotirasini tiklashning tarixiy ahamiyati va zaruriyati nimadan iborat?
2. Sohibqiron Amir Temur haykali birinchi bo'lib qayerda va qachon o'rnatildi?
3. Siz yashayotgan viloyat, shahar yoki tumanda Amir Temur nomini abadiylashtirish uchun uning nomi qayerlarga qo'yilgan? Qanday yodgorliklar o'rnatilgan?
4. Amir Temur davri biz uchun qaysi jihatdan xarakterli?
5. Sohibqiron yubileyi dunyoda qanday nishonlandi?
6. Parijda YUNESKO rahbarligida o'tkazilgan tantanalar haqida so'zlang.
7. Qaysi yil O'zbekistonda Amir Temur yili deb ataldi? U qaysi farmonda va qachon o'z aksini topgan?
8. Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur yubileyi qanday nishonlandi?



«Sohibqiron Amir Temur — buyuk tarixiy shaxs» mavzusida bayon yozing.

31-§. MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI

Milliy istiqlol g'oyasi. Ehtiyojning tug'ilishi

Sobiq Ittifoq tarqalib ketganligi, uning tarkibidagi respublikalarning mustaqil suveren davlat maqomiga ega bo'lganligi, jamiyatda yuz bergan demokratik jarayonlar, xalqning milliy ongi muttasil oshib borishi va hurfikrlilikka intilishi mavjud hodisalarga yangicha tafakkur bilan qarashni taqozo qilardi. Jumladan, O'zbekistonda ham butunlay yangi tarixiy sharoitlarda butunlay yangicha qarashlarni, munosabatlarni qaror toptirish zarur edi. Chunki, u o'z kelajagini yangilangan federatsiya tarkibida emas, balki mustaqil-milliy davlatchilik qaror topgandagina, o'zining to'la siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligiga erishgandagina belgilashi mumkinligini ancha oldin tushungan va bu borada o'zining qat'iy qaroriga kelgan edi.



Xalqni yangi yo'ldan boshlab borish, uning qarashlari va orzu-maqсадlarini bir yo'nalishga burib, kuchlarni uyg'unlashtirish uchun yagona g'oyaviy qurol zarur edi.

O'zbekiston boshqa ittifoqdosh respublikalar ichida birinchilardan bo'lib o'zining mustaqilligini e'lon qilgan edi. Bu albatta, O'zbekiston uchun buyuk tarixiy voqea, milliy mafkura shakllanishida yangi davrning boshlanishi edi. Bu hol tabiiy sur'atda kishilarning siyosiy ongi oshishiga olib keldi. Odamlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar shiddati oldida birmuncha gangib qolishdi. Turli safsatalar, g'oyaviy kurashlar ko'payib ketdi. Bir maromdagi turmush va bir qolipdagi fikrlash tarzi buzilib, sarosimalik, to'qnashuvlar va parokandalik kayfiyatlarini kuchyaya bordi.



Ana shunday paytda umumxalq va umumdavlat manfaatiga mos keladigan eng maqbul yo'lni tanlash, buning uchun esa mafkuraviy yakkahokimlikka barham bergan holda aholining barcha tabaqasi qatlamlarini, talab-ehtiyojlarini ma'naviy-ruhiy chanqoqligini qondira oladigan yetuk va barkamol g'oyani yaratish zarur edi.

Masalaning yana boshqa bir tomoni ham bor edi. Bu bevosita uzoq yillar mobaynida hukmron bo'lgan g'oya va aqidalardan xalos bo'lish, uning bir yoqlama, havoyi, balandparvoz da'vatlaridan voz kechish kabi og'ir, vaqt talab etadigan jarayon bilan bog'liq.

Sho'rolar davri mafkurasida kishilar ongiga ijtimoiy tenglik, boshqacha qilib aytganda boqimandalik tushunchasini, ya'ni yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan mafkurani singdirib kelgan edi. Bunday yondashish kishilarda tashabbusni bo'g'ib qo'yardi. Chunki, kishi o'zining samarali mehnatidan manfaatdor bo'lmasa, unda mehnatga intilish, ish natijasi uchun mas'uliyatni oshirish tuyg'usi yo'qoladi.

1992-yil 2-iyulda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'ninchi sessiyasida chinakam mustaqil O'zbekiston davlatini barpo qilish yo'lida barchaning birlashishini ta'minlash kunning dolzarb vazifasi qilib qo'yildi. Bunday

vazifani esa barcha uchun muqaddas hisoblangan milliy istiqlol g'oyasi, mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan g'oyalar orqali uddalash mumkin edi.



Prezident I.A.Karimov Oliy Kengashning o'ninchi sessiyasida nutq so'zlab shunday dedi:

«Bugungi kunda xalqni yakdil qiladigan ishlar va g'oyalar oz emas. Ularning ichida eng ulug'i, eng olijanobi — O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta'minlash. Ana shu maqsad, ana shu g'oya atrofida birlashsak, aslo xor bo'lmaymiz».

Bu borada 1992-yil 1-sentabr arafasida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» deb nomlangan kitobi nashrdan chiqqani katta voqea bo'ldi. U mamlakat ma'naviy va siyosiy hayotida muhim qo'llanma sifatida kutib olindi. To'g'ri, shu vaqtga qadar O'zbekistonda mustaqillik haqida u yoki bu tarzda gaplar bo'lgan. Biroq, mustaqillikni qo'lga kiritish, uning nazariy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlari, istiqlolni mustahkamlash yo'llari bu darajada atroflicha talqin qilinmagan edi. Ana shu nuqtai nazardan mazkur asar istiqlol mafkurasi uchun nazariy asos, ma'naviy hayot uchun yo'l-yo'riq bo'ldi.



I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida O'zbekistonni yanada rivojlantirish yo'li quyidagi to'rtta negizga asoslanishi ko'rsatib berilgan:

- ♦ Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
- ♦ Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish.
- ♦ Inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi.
- ♦ Vatanparvarlik.

O'z navbatida aynan shu to'rtta negiz istiqlol mafkurasi uchun asos bo'luvchi tamoyillardir.

Prezident I.Karimov bu tamoyillarni ishlab chiqishda xalq dunyoqarashi, yashash tarzi, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabati, qolaversa uning ma'naviy-ruhiy omillariga asoslangan. Chunki, sharqda azaldan ma'naviyatga tayanib yashash, komillikka intilish, har tomonlama barkamollik oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Odamlarning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, yagona o'lchov — insonning insonligi uchun ulug'lash, inson degan muqaddas nomga munosib bo'lish bosh mezon qilib olingan.

Milliy g'oya — milliy qadriyat

Har qanday jamiyat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga olmasa, taraqqiyot asoslari uning ma'naviy qadriyatlariga, moddiy manfaatlariga mos kelmasa, bunday jamiyat tanazzulga uchrashi tabiiy.

Prezident mamlakat kuch-qudratini xalqning ma'naviy kamolotida ko'radi. Shuning uchun ham u jamiki insoniy fazilatlarini takomillashtirish uchun zarur sharoit yaratishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Bu bir tomondan, mustaqillik sharoitida endigina shakllanayotgan davlat siyosatining nechog'lik insonparvarligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, davlat rahbarining siyosiy-madaniy salohiyatining benihoya yuksakligini, xalq ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini naqadar chuqur o'rgan-ganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu xalq va hokimiyat intilishlarining

mushtarakligidan dalolat beradi. Prezident I.Karimov O'zbekistonning ma'naviy rivoji negizlarini belgilab berar ekan, vatanparvarlik g'oyasiga alohida urg'u berdi. Binobarin, Vatanni sevish xalqimizga xos-azaliy qadriyat hisoblangan.

1992-yili dastlabki tajribalarni umumlashtirib Prezident I.A.Karimov o'zining ikkinchi kitobini «O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat» nomli asarini yaratdiki, u kitobda keyingi yillarga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlar, qadriyatlar haqida fikr yuritiladi. Jumladan, xalq ongida keskin o'zgarish yuz bergani, istiqloq tufayli onazaminga, Vatanga mehr-muhabbatli munosabat shakllana boshlanganligi qoniqish bilan qayd qilinadi.



Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat» nomli asarida shunday deb uqtiradi:

«O'zbekiston Mustaqillik sari yo'l olar ekan, dastlabki kunlardan o'tmish madaniyati va qadriyatlarini tiklash, nohaq jabrlangan insonlarning nomlarini yuzaga chiqarish, milliy ongni o'stirish kabi vazifalarni o'z oldimizga oliy maqsad qilib qo'ydik».

Umumiy g'oya atrofida birlashish, umummanfaat yo'lida birlashib kurashish maqsadlar yaxlitligini, intilishlar uyg'unligini ko'rsatadi. Bu o'zbek xalqi uchun azaliy fazilat, an'anaga aylangan muqaddas odat.

Mustaqillikning dastlabki yillarida vujudga kelgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy qiyinchiliklar bir muddat odamlar ruhiyatiga salbiy ta'sir qildi. Ularni sarosimaga solib qo'ydi. Natijada vaziyat ancha-muncha chigallashib, fuqarolar turmushiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Endi ana shunday o'pirilish va bo'hronlardan chiqib olish muammosi hukumat oldida ko'ndalang bo'lib qoldi. Vaziyatning naqadar og'irligi va murakkabligini o'z vaqtida anglagan mamlakat Prezidenti I.Karimov 1993-yilning 23-aprelida bir guruh adiblar bilan uchrashdi. Oradan ko'p o'tmay — 1993-yil 6-mayda mamlakat Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasida mafkurasiz, aniq yo'nalishga ega bo'lgan g'oyalarsiz taraqqiyot bo'lmasligini, oldimizda turgan eng muhim masalalardan biri milliy istiqloq mafkurasini yaratish ekanligini ko'rsatib berdi.



1993-yil 7-dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasining bir yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda mamlakat Prezidenti I.Karimov milliy mafkura milliy ehtiyoj ekanligini asoslab berdi:

«Mafkuraviy masalani hal etmasdan, uni amalga tatbiq etmasdan turib, Konstitutsiya belgilab bergan maqsadlarga erishish, u oldimizdagi qo'yg'an talablarga javob berish mushkul bo'ladi.

Yangi mafkuraning asl mazmuni — yangicha, erkin fikrlaydigan, mutelik va jur'atsizlik tuyg'usidan mutlaqo xoli, mustaqil insonni tarbiyalashdir».

Milliy istiqloq g'oyasi va uning ildizlari

Milliy istiqloq g'oyasi, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, falsafiy, badiiy va diniy qarashlar majmuasi, xalqni kelajakka ishonch, e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyaviy qurol, barcha toifa kishilarini shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil hisoblanadi.

Istiqlol g'oyasining nazariy jihatlarini Prezident I.A.Karimovning nutq va risolarida atroflicha yoritib berildi. Xususan, 1995-yil 24-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqlolining asosiy tamoyillari» mavzuida keng qamrovli ma'ruza qildi va u kitob holda nashr etildi.

Avvalo ushbu risola o'zining nazariy jihatdan puxta, rivojlanishimizga doir amaliy taklif va mulohazalarga boy qo'llanmaliligi bilan xarakterlidir. Darhaqiqat, kitobda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi, bugungi ijtimoiy siyosiy hayotga tavsif beriladi, ichki va tashqi siyosatga doir vazifalar oydinlashtiriladi. Shuning uchun ham ushbu nutq siyosiy hayot uchun dasturiy hujjat, amaliy faoliyat uchun qo'llanma bo'ldi.

Ana shu sessiyada so'zlangan nutq milliy istiqlol g'oyasining asl o'zagini, butun mazmun-mohiyatini, ko'lami va miqyosini ko'rsatib berdi.

Yuqoridagilar, shubhasiz mustaqillik g'oyalari sodiqlik, ozod, erkin yashashga intilish o'zbek xalqiga xos azaliy tuyg'u ekanligini, ayni chog'da, bunday g'oyaga xalq har qanday sharoitda — ichki va tashqi kuchlar tazyiqiga qaramasdan sodiqliklarini yana bir bor namoyon qildi. Istiqlol tafakkuri, istiqlol g'oyasi bilan chiniquqan bunday xalqni o'zi tanlagan istiqlol yo'lidan qaytarib bo'lmaydi.



Demak:

Milliy g'oya, milliy ong ayni milliy an'analar, urf-odatlar va turmush tarzi asosida shakllanadi. Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan milliy manfaat atrofida ongli ravishda, aql-idrok yo'rig'i bilan jipslashgan g'oyagina milliy mafkuraga aylanadi. U o'ziga million-million kishilarni ergashtiradi. Ular orzu-umidlarini o'zida ifoda etadi.

Jamiyat ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmaguncha, yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini tushunmaguncha, amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlarni siyosiy, huquqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ehtiyoj darajasida anglamaguncha jiddiy o'zgarishlarni, tub yangilanishlarni kutish mumkin emas. O'zbekistonda ko'p qirrali islohotlarning ayni fuqarolar ongi va qalbi orqali o'tkazilganligi, ularni islohotlarga tayyorlashning ma'naviy-ma'rifiy mezonlari ishlab chiqilganligi va bu konsepsiya sifatida davlatning islohchilik siyosati strategiyasining muhim qismiga aylanganligining o'zi milliy istiqlol mafkurasining asosi bo'lib xizmat qildi.

Albatta, mustaqillikning o'tgan davri bugun ongimiz va tafakkurimizni anchamuncha yangiladi. Jumladan, hayotga munosabatlarimiz o'zgardi, kelajakka ishonchimiz oshdi va mamlakatimizning kelajagi buyuk bo'lishiga qat'iy iymon keltiryapmiz.

Mustaqil taraqqiyotning tobelik va mutelik sharoitidan afzalroq ekanligini angladik. Ana shu jarayonda hur inson, ozod shaxs, erkin fuqaro degan tushunchalarning mohiyati naqadar muqaddas va naqadar mo'tabar ekanligini payqadik. Insonning o'zligini anglashi, o'z qadru qimmatini, insonlik mohiyati va mavjudot sifatidagi oliy maqomlari haqida o'ylay boshladik. Prezident I.A.Karimovning: «**Men insonning insoniyligini uyg'otmoqchiman**», — degan g'oyat jozibali, niho-yatda sodda va tabiiy, ayni paytda ham Prezident, ham fuqaro sifatidagi cheksiz iztiroblarining ro'yobini ko'ra boshladik.

Inson ruh va tafakkur egasi bo'lgan mavjudot sifatida o'zining tengsiz qobiliyatini, cheksiz va chegarasiz imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratildi.



Endi har bir fuqaro o'zini ozod his etish, erkin faoliyat ko'rsatish orqali yaratuvchilik qobiliyatini shakllantirishga, tom ma'noda o'zining taqdirini o'zi belgilash va yakka tartibda jamiyat taqdirini belgilashga daxldor ekanligini anglay boshladi. Har bir kishida jamiyat hayotiga daxldorlik, millat va mamlakat taqdiriga befarq bo'lmaslik hissi shakllana boshladi.

Mafkuraviy immunitet – milliy ehtiyoj

Mamlakatimiz Prezidenti jahon milliy mafkurasida falsafa fanida butunlay yangi iborani ishlatadi. Ya'ni begona g'oyalar o'z ta'sirini o'tkazolmaydigan, unga qarshi kurasha oladigan **immunitet** zarurligini uqtiradi.



Prezident Islom Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblarida (2000-yil) shunday degan edi:

«Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning **mafkuraviy immunitetini** kuchaytirishimiz zarur».

Ayni mafkuraviy immunitet jamiyat hayotining eng nozik jihatlaridan, fuqarolarning his-tuyg'ularidan, maqsad va intilishlaridan, ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy-axloqiy darajasidan kelib chiqadi. Agar mafkura insonlik sha'ni bilan bog'liq bo'lgan hissiyotdan kelib chiqsagina insonni boshqaradi, yo'lga soladi.

Turli g'oyaviy xurujlar avj olayotgan, ular bizning eng muqaddas g'oyalari-mizga va maqsadlarimizga tahdid solayotgan bir paytda fojialar sodir bo'lmasidan ilgariroq uning oldini olishning eng to'g'ri va yagona yo'li ham begona va soxta g'oyalarga qarshi **g'oyaviy immunitetni** kuchaytirish lozim. Buni Prezident juda muhim va dolzarb vazifa qilib ko'tardi.



1. Milliy istiqlol g'oyasining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlari nimada ko'rinadi?
3. Yangilanayotgan jamiyat va mafkura haqida fikrlang.
4. Milliy istiqlol g'oyasiga zarurat nimalarda namoyon bo'lishi mumkin?
5. Yangi mafkuraning asl mazmuni deganda nimalarni tushunasiz?
6. Mafkuraviy immunitet nima?
7. Milliy g'oyani milliy qadriyat sifatida talqinini bering.



Hadisu sharifdagi «Vatanni sevmagan inson hech narsani sevmaydi» degan o'g'itni yozma ravishda izohlang.

32-§. TA'LIM TARAQQIYOTI

Ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar

Ma'lumki, sho'rolar hukumati davrida hukmron tuzum o'zining jahonda eng insonparvar, odil, demokratik va eng savodxon jamiyat barpo etgani bilan maqtanib butun jahonga jar solar edi. «Dunyodagi eng o'qimishli mamlakat», «oliy ma'lumotli mutaxassislar soniga ko'ra jahondagi birinchi davlat» degan soxta ta'riflar berilardi.

Sirtidan qaraganda, haqiqatan ham, manzara shunday edi. Sobiq SSSRda yuzlab universitet va institutlar, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari, minglab ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatardi. Lekin ular, son va miqdor jihatidan ko'p bo'lgani bilan jahon andozalari darajasida emas edi. Buning asosiy sabablaridan biri kommunistik jamiyatda hamma narsa, jumladan, ilm-fan, maktab-maorif tizimining ham o'sha yolg'on g'oyalarga qurbon qilinganida edi. Sovet Ittifoqini tanazulga olib kelgan sabablardan biri ham shunda ekani shubhasiz.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq fan va texnikaga munosabat o'zgardi, xalq ta'limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi.



1992-yilda mustaqil O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonun, birinchidan, O'zbekiston ta'lim tizimida ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga, ikkinchidan esa, eski tuzum sarqitlarini ko'rsatib berishga xizmat qildi. 1992-yil qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun eski tuzumdan yangisiga o'tishga ko'prik vazifasini o'taydigan qonun edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan islohotlarning eng muhim jihati — ta'lim mazmunini yangilashdan iborat bo'ldi. Ta'lim mazmuni tahlil qilinib, o'quv reja va dasturlarga o'zgartirishlar kiritildi.



Istiqlolning birinchi yillari ta'limning barcha turlaridagi o'quv fanlari mazmunidagi mafkuramizga zid bo'lgan g'oyalar o'quv dasturi va darsliklardan chiqarildi. Ta'lim mazmuniga mustaqil mamlakatimizning milliy g'oyalari singdirildi.

Masalan, mustaqillikdan avval umumta'lim maktablarida O'zbekiston tarixi bor-yo'g'i 17 soat umumiy tarix tarkibida o'qitilar edi. U ham bo'lsa, sovet tarixshunosligi mafkurasida bayon etilar edi. Jumladan, Sohibqiron Amir Temurning jahonshumul ishlarini chetlab o'tib, uni bosqinchi deb, o'quvchilarda noto'g'ri fikr uyg'otishga harakat qilingan. Mustaqillikka erishilgandan so'ng maktablarimizda O'zbekiston tarixi alohida o'quv fani tariqasida joriy etilib, V—XI sinflarda jami 340 soat o'qitiladigan bo'ldi. Darsliklarda birinchi marta O'zbekiston tarixining jahon tarixida tutgan o'rni ko'rsatib berildi. Jumladan, O'rta Osiyo uyg'onish davrining Yevropa madaniyatining vujudga kelishiga ta'siri, bunda Amir Temur, Bobur, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino va boshqa allomalarimizning jahon tarixida tutgan o'rni va mavqei haqqoniy yoritib berildi.

Mamlakatda prinsip jihatdan yangi o'rta o'quv yurtlari — lisiy va gimnaziyalar, ya'ni, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan maktablar tarmog'i tez rivojlandi. Ta'lim

muassasalarining o'quv rejaları, ta'lim shakllari va usullarini ishlab chiqishda erkinlikka ega bo'lganliklari prinsip jihatdan yangilik bo'ldi. O'quvchilar bilimni sinashda an'anaviy usullar bilan birga test sinovlaridan o'tkazish tizimi kengroq qo'llana boshlandi.

Ta'limga e'tibor deyilganda ta'lim mazmuni qatorida ta'lim muassasasi binolari ham tushuniladi. Mustaqillikning ilk yillarida Prezidentimizning da'vati bilan yangi maktablar qurilishi boshqa MDH davlatlaridek to'xtab qolgani yo'q. Jumladan, 1994-yilda 80 ming o'rinli 209 ta, 1995-yilda 55 ming o'rinli 134 ta, 1996-yilda 64 ming o'rinli 198 ta maktab qurilib foydalanishga topshirildi.

Eng zamonaviy ixtisosliklar bo'yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy kon-metallurgiya instituti, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi kabi o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Toshkent davlat elektrotexnika va aloqa texnikumi institutga aylantirildi. Viloyatlarda yangidan-yangi o'quv yurtlari ochildi.



Prezident I.Karimovning 1992-yil 28-fevraldagi Farmoni bilan sakkizta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi.

Bu hukumatimiz izchil madaniy-ma'rifiy siyosatining yana bir dalili bo'ldi. Mamlakat viloyatlarida oliy universal ta'limni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasiga suyanib ish tutildi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarining Kembrij shahridagi Garvard, Stenford, Priston, Buyuk Britaniyaning Oksford, Lid, Fransiyaning Strasburg, Lion, Dijon, Grenobl shaharlari nomi bilan ataluvchi universitetlari bu mamlakatlarning poytaxtlarida emas, turli viloyatlarida joylashgan bo'lishiga qaramasdan, o'zining yuksak malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatlari bilan jahonda nom qozongan.

Xalqi ma'rifatli, jahon ilm-fani va madaniyatidan xabardor mamlakatning ravnaqiga ravnaq qo'shilaveradi. Shu bois keyingi yillarda O'zbekiston rahbariyati joylarda ilm-fanni, birinchi galda, universal oliy ta'limni rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'ra boshladi. Bu maqsadlarga katta miqdorda mablag' ajratildi. Xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy ta'lim sohasida hamkorlik tobora chuqurlashib bordi. Shubhasiz, bu tadbirlar mazkur tizimda keskin burilish yasash, kelajakda mamlakatni yuksak malakali bilimdon mutaxassislar bilan ta'minlash imkonini berdi.

Mustaqillikka erishilgan kundan boshlab, xalq ta'limi xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, yordam berish masalalariga e'tibor kuchaytirildi. 10 mingdan ortiq xalq ta'limi xodimiga davlat uylari bepul xususiyashtirib berildi, 22 mingdan ortiq xodimga esa tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylar xususiyashtirilib berildi. 50 mingdan ortiq pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi. Qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to'lovlardan ozod etilgan bo'lsalar, shaharliklar uning 50 foizi miqdorida to'lab bordilar. Keyinchalik kommunal xizmat bo'yicha bu imtiyozlar oylik maoshlariga qo'shib beriladigan kompensatsiya bilan almashtirildi.

Moddiy manfaatdorlikka ma'naviy rag'batlantirish hamohang bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil dekabrda Qarori bilan 1-oktabr — «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Bu bayram arafasida yuzlab ta'lim fidoyilariga davlatning eng mo'tabar mukofotlari topshiriladigan bo'ldi.

Uzluksiz ta'limga asos solinishi

1992-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq umumiy o'rta ta'lim tarkib jihatidan uch bosqichdan, ya'ni boshlang'ich (1—4-sinflar), tayanch (5—9-sinflar) va o'rta ta'lim (10—11-sinflar)dan tashkil topgan edi. Mazkur ta'lim tizimi bo'yicha eng asosiy kamchilik bu — o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatish, mehnat faoliyatiga tayyorlash muammosining paydo bo'lganligi edi. Aniq bir mutaxassislikni, biror bir mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallamagan 9-sinf bitiruvchilari (shuningdek, 11-sinf bitiruvchilari ham) hayotda o'zlariga munosib o'rin topolmayotganliklari kuzatildi.

Mavjud ta'lim tizimining ikki joyida, ya'ni tayanch (1—9-sinflar) ta'limi bilan o'rta ta'lim (10—11-sinflar) hamda umumiy o'rta ta'lim bilan o'rta maxsus ta'lim o'rtasida «uzilishlar» mavjudligi ko'zga yaqqol tashlanib qoldi. 1992-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun eski tuzum sarqitlarini ko'rsatib berishga, illatlarni anglab olishimizga, aniqrog'i eski tizimdan yangisiga o'tishga ko'prik vazifasini o'tadi. Lekin ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yetarli asos bo'la olmasligi kuzatildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan hozirgi sharoitda ta'lim jarayonining turli bosqichlariga mansub bilim maskanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish dolzarb vazifalardan biridir.

1997-yil fevralda Prezident Islom Karimov Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasini ko'tardi. Bu borada Prezident shunday dedi: «**Ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi, professional bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish, ma'mur-menejerlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qobil ishchi va mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.**»



Prezident I.Karimovning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida qabul qilindi.

Yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun bo'yicha ta'lim turlari maktabgacha ta'lim (6—7 yoshgacha), umumiy o'rta ta'lim (9 yillik), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (3 yillik), oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limdan iborat qilib belgilandi (13-ilova).

Qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maktabgacha ta'limdan to fanlar akademiyasigacha bo'lgan zamonaviy,

yangi uzluksiz ta'lim tizimini vujudga keltirishga, O'zbekiston ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga asos bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim

Uzluksiz ta'lim maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Ta'lim tizimining eski tuzilmasida u «Maktabgacha tarbiya» deyilar edi. Yangi ta'lim tizimi bo'yicha «Maktabgacha ta'lim» deb nomlanib, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida na faqat «bog'cha» bolalari, balki respublikadagi 6-7 yoshgacha bo'lgan jamiki bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi qo'yildi.



Hozirgi paytda respublika bo'yicha 6899 ta maktabgacha ta'lim muassasasida 631 ming bola ta'lim-tarbiya olmoqda. Ulardan 203 tasi «Maktab-bog'cha» majmuasi, 186 tasi sanatoriya tipidagi maktabgacha ta'lim muassasalaridir.

Bolalarni maktabgacha tayyorlash qamrovini kengaytirish maqsadida maktabgacha ta'limning noan'anaviy turlari — xonadon bog'chalari, shanba va yakshanbalik maktablari, turli markaz va guruhlar tashkil etish, ularni me'yoriy hujjatlar, variativ dasturlar, qo'llanmalar, didaktik materiallar bilan ta'minlashga e'tibor berilmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ta'limning maktab bosqichiga tayyorlash, bolalar bog'chalari, umumta'lim maktablari, mahalla guzarlari, maktabdan va sifndan tashqari muassasalar qoshida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda «Uchinchi ming yillik bolasi» tayanch dasturi asosida amalga oshirilmoqda. 2003-yilda shu yo'l bilan 535 ming 6—7 yoshli bolalar maktab ta'limiga tayyorlab berildi. Bu umumta'lim maktablarning 1-sinflariga 2003-yilda qabul qilingan bolalarning 88,5 foizini tashkil etadi. 2001-yilda bu ko'rsatgich 57,0 foizni, 2002-yilda esa 84,0 foizni tashkil etgan edi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 24-iyundagi Qaroriga muvofiq xususiy lashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2003-yilning o'zida 96 ta maktabgacha ta'lim muassasasi xususiylashtirildi. 2004-yil 1-yanvargacha bo'lgan ma'lumotga ko'ra, jami 145 ta xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar, davlat talablari va dasturlar amaliyotga joriy etilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimida asosiy bo'gin bo'lib, ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar olishini, mehnat ta'limi, boshlang'ich kasbkor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egalashlarini, shuningdek, o'z ijodiy qobiliyatlari va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlaydi.



Yangi ta'lim tizimi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar) va o'rta ta'lim (5-9-sinflar) bosqichlaridan iborat. 2003-2004-o'quv yilida 9711 ta umumta'lim maktabida 6 mln 226 ming o'quvchi ta'lim oldi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ishlab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil avgustda tasdiqlangan «Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari» asosida yangi o'quv dasturlari amaliyotga joriy etildi. Darsliklarning yangi avlodini yaratish borasida izlanishlar olib borilmoqda.

O'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlash masalasi mamlakatimizda ustuvor masalalardan biri bo'lganligi bois, Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 5-fevraldagi Qarori bilan tasdiqlangan «Ona va bola» davlat dasturida «O'quvchilarni kutubxonalaridan pulli-qaytarib beradigan darsliklar bilan ta'minlash tizimini tashkil etish» to'g'risidagi tadbiri belgilangan. Xalq ta'limi vazirligi ushbu tadbirni Osiyo Taraqqiyoti Bankining kredit mablag'lari hisobidan «Umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv adabiyotlarning nashr qilish tizimini takomillashtirish loyihasi» doirasida amalga oshirmoqda. 2001—2002-o'quv yilidan e'tiboran maktab o'quvchilariga darsliklarni ijaraga berish tizimi asosida ta'minlashga bosqichma-bosqich o'tila boshlandi.

2001-yildan boshlab darsliklarni tanlov asosida yaratish yo'lga qo'yildi. Tanlov xalqaro miqyosda e'lon qilingan bo'lib, unda nafaqat O'zbekistondagi, balki xorijiy mamlakatlarning nashriyotlari ham ishtirok etishi mumkin.

Xalq ta'limi tizimida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ijrosining birinchi bosqichi asosiy vazifalaridan bo'lgan monitoring tizimi shakllantirildi. Bunda o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlarini va o'quv dasturlarini o'zlashtirishi monitoring yordamida aniqlash, uning natijalari asosida chora-tadbirlar belgilash, pirovard natijada ta'lim samaradorligi oshirish ishlari yo'lga qo'yildi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqich vazifalaridan ilg'or yangi pedagogik texnologiyalarni tanlash va ta'lim jarayoniga keng joriy etish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Yangi ta'lim tizimiga muvofiq iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar uchun 500 dan ortiq yangi turdagi o'quv muassasalari tashkil etildi. Iqtidorli o'quvchilar bu ta'lim dargohlarida xorijiy, xususan, ingliz tilini ham puxta o'rgana boshladilar. Bu ularning xalqaro fan olimpiadalarida qatnashish imkoniyatini yaratdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bir necha nafar O'zbekiston o'quvchilari xalqaro fan olimpiadalarining g'oliblari bo'lishdi. Ayni kungacha 50 nafardan ortiq iqtidorli o'quvchilarimiz turli xalqaro olimpiadalarida oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritib, O'zbekiston degan nomning bir qancha rivojlangan davlatlar orasida tilga olinishiga erishdilar. Bu yurt farzandlarining salohiyati yuqori ekanligidan, ta'lim tizimining mukammalligidan darak beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq umumiy o'rta ta'limning to'qqiz yillik etib belgilanishi munosabati bilan kelajakda to'qqiz yillik maktabni tugatgan barcha o'quvchilar ta'lim olishni o'rta maxsus yoki kasb-hunar kollejlarda ta'lim olishni davom ettiradilar. Bu yangi ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tilmoqda.



2002-2003-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf-larini bitirgan 598 ming o'quvchidan 13 mingi akademik litseylarda, 202 mingi kasb-hunar kollejlariga qabul qilindilar. Qolgan o'quvchilar umumta'lim maktablarining 10-sinfida o'qishni davom ettirdilar.

Yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonundagi ta'limning yangi turi bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bo'yicha qisqa vaqt ichida ulkan ishlar amalga oshirildi.



1998-2003-yillarda mamlakatimizda zamonaviy o'quv va ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan 36 ming o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 57 ta akademik litsey va 368 ming o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 539 ta kasb-hunar kolleji ishga tushirildi.

Har bir viloyat va tumanlarda tadbirkorlik, fermerlik xo'jaliklari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun 20 ta umumta'lim fanlaridan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori bilan tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining mazkur Qarori asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun 23 ta umumta'lim fan dasturlari, akademik litseylarning 69 nomdagi chuqurlashtirilgan fan dasturlari, kasb-hunar kollejlari uchun 3300 dan ortiq maxsus fan dasturlari, akademik litseylarning 5 ta, kasb-hunar kollejlari uchun 277 ta tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha tarmoq ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga joriy etildi.

Bu o'quv dasturlari asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun jami 602 nomda 4 mln ga yaqin nusxada darslik va o'quv qo'llanmalar yaratildi. Undan tashqari, 70 nomda elektron darslik va kompyuter dasturlari, 1210 ta maxsus fandan ma'ruza matnlari tayyorlanib, ta'lim muassasalariga yetkazildi. Kasb-hunar kollejlari uchun har bir o'quv dasturi bo'yicha turli nomdagi darsliklar yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun zamonaviy usulda dars bera oladigan pedagog-kadrlarni tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilmoqda. 1998—2003-yillarda 39 ta soha va yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan malaka oshirish markazlarida 41 mingdan ziyod pedagog malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridan o'tdilar.

«Ustoz» jamg'armasi yo'llanmasi va chet el investitsiyalari hisobidan 686 nafar tizim pedagoglari AQSH, Germaniya, Frantsiya, Gollandiya, Yaponiya, Koreya kabi rivojlangan xorijiy davlatlarda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni, zamonaviy dars uslublarini o'rganish bo'yicha malaka oshirib keldilar.

Yangi ta'lim tizim bo'yicha tashkil etilgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining birinchi navbati Mustaqillikning 10 yillik bayrami arafasiga to'g'ri keldi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun 2001-yildagi 4890 nafar ilk «qaldirg'ochlari» hozirgi paytda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirmoqdalar, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Oliy ta'lim

Davlatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va mavqei belgilovchi asosiy omillardan biri, bu uning intellektual salohiyatidir. Shu bois, mustaqil mamlakatimizda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni izlash, kamolga yetkazish, kelajakda ularning aql-zakovatidan iqtisodiyot,

ilm-fan, madaniyatning dolzarb muammolarini yechishda samarali foydalanish masalasi dolzarb vazifa etib belgilangan.



1997-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga binoan oliy ta'lim ikki bosqichda — bakalavriyat va magistratura bosqichlaridan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimning oldingi bosqichlari bo'lgan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun o'qituvchi, muhandis-pedagog kadrlar tayyorlash oliy ta'lim zimmasiga yuklatilgan.

Ikki pog'onali o'qish tizimiga o'tilgani ham oliy ta'limni hozirgi zamon sharoitida yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirdir. Masalan, bakalavrlk darajasini olish uchun kamida 4 yil, magistrlik darajasini olish uchun yana kamida 2 yil o'qish talab qilinadi.



Hozirgi paytda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 62 ta oliy o'quv yurtida 260 ming talaba tahsil olmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yoshlarga hozirgi zamon eng ilg'or bilimlarini berish, ularni davr talabiga mos mutaxassis qilib tarbiyalashda izchil ishlar olib borila boshlandi. Mustaqillik yillarida iqtidorli talabalarni xorijda o'qitish ishlari yo'lga qo'yildi. Respublikaning xalqaro aloqalari kengayishi natijasida o'quvchilarga hukumatlararo bitimlar bo'yicha xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida bilim olish imkoniyati yaratildi. Har yili test sinovlaridan o'tgan 50 dan ziyod umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey bitiruvchisi AKSELS yo'li bilan AQSHga o'qishga yuboriladigan bo'lindi.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda talabalarning xorijda o'tadigan stajirovkalariga va qo'shma korxonalar, firmalar, auditorlik kompaniyalarida ishlab chiqarish praktikasidan o'tishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Shu kunlarda mamlakatimizdan 700 nafar talaba xorijiy mamlakat o'quv yurtlarida iqtisodiy ixtisoslar bo'yicha o'qishmoqda. Bir necha ming talaba 3 oydan bir yilgacha xorijiy o'quv yurtlarida ta'lim olmoqda.



1. 1992-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Mustaqillik davridagi ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlarni aytib bering.
3. 1997-yilda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 1992-yildagisidan asosiy farqlari nimalardan iborat?
4. Uzluksiz ta'lim tizimining mohiyatini tushuntirib bering.
5. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqida nimalarni bilasiz?
6. Maktabgacha ta'lim sohasida qanday islohotlar amalga oshirildi?
7. Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishdagi olib borilgan ishlarni aytib bering.
8. Ta'limning yangi turi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasidagi yutuqlarni aytib bering.
9. Oliy ta'limdagi ijobiy o'zgarishlar nimalardan iborat?



14-illovadagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonundan keltirilgan moddalarni tahlil qiling. Ta'lim turlari: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'limga ta'rif bering. Ularni daf-taringizda bayon eting.

33-§. MADANIYAT VA SPORT SOHALARIDAGI YUTUQLAR

Teatr san'ati

Ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida bo'lganidek madaniy hayotda ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi.

Bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshlandi, yangidan-yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi.



- ♦ 1991-yilda Farg'onada va 1993-yilda Xivada davlat qo'g'irchoq teatr-lari ish boshladi.
- ♦ 1993-yilda Toshkent shahrida hashamatli «Turkiston» saroyi ish bosh-ladi.
- ♦ 1994-yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlari ochildi.
- ♦ 2001-yilda Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri butunlay qayta qurilib, unga O'zbek milliy akademik teatri nomi berildi.
- ♦ 2002-yilda Toshkent Davlat konservatoriyasining yangi, muhtasham binosi ishga tushirilib, unga O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi maqomi berildi.

Bulardan tashqari, Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994-yilda Abbos Bakirov nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. 2000-yili Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatri to'la ta'mir etildi.

Yuqoridagi misollar istiqlol yillarida madaniyat muassasalari moddiy bazasini mustahkamlashga mamlakat rahbariyati katta e'tibor berganligini ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'zbek teatrlari va san'atkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun yanada keng yo'l ochildi. Navoiy nomidagi teatr balet truppasining Malayziya va Tailandga, A.Hidoyatov nomidagi teatrning Angliya, Shotlandiya va Germaniyaga, Rus yoshlar teatrining Qohiraga safarlari shular jumlasidandir.

O'zbek teatrlari sahnasida yangi zamonaviy mavzudagi asarlar namoyish etila boshlandi.

Uzoq yillardan buyon taqiqlab kelingan Amir Temur mavzusiga e'tibor kuchayganligi ham istiqlolning buyuk ne'mati. Qashqadaryo viloyat musiqali drama va komediya teatridan so'ng ikkinchi bo'lib, O'zbek milliy akademik teatrida Sohibqiron hayoti haqidagi drama sahnaga qo'yildi.

Milliy istiqlolning ikki yilligi arafasida poytaxtimizning qator teatrlarida yangi sahna asarlarining ko'riklari bo'lib o'tdi. A.Hidoyatov nomidagi o'zbek Davlat drama teatrida jahon badiiy xazinasining o'lmas durdonalaridan biri

Abdulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asari 1000 yilligiga bag'ishlab, mazkur asar asosida «Faridun» nomli ikki qismli fojia sahnalashtirildi. Shuningdek, Abdulhamid Cho'lpon qalamiga mansub, badiiy jihatdan yaxshilik, chin muhabbat, insof-diyonat ulug'lanib, fisq-u fasod hamda tajovuzkorlik keskin qoralangan «Yorqinoy» pyesasi ham yana sahna yuzini ko'rdi. A.Majidiy nomidagi Kattaqo'rg'on shahar drama teatrlarining ijodiy jamoasi mazkur tomoshani o'z muxlislariga taqdim etdilar.

1998-yili Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi sharafiga Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrida M.Vafoyevning «Al-Farg'oni» asari sahnalashtirildi.

1994-yili «Humo» yoshlar teatrlarining halqaro festivali muvafaqqiyatli o'tdi. Unda o'nlab yangi sahna asarlari namoyish etildi.

Markaziy Osiyo xalqlari teatrlarining o'zaro ijodiy hamkorligi yo'lga qo'yildi. Mazkur soha jamoalarining 1992-yilning 26-martidan to 4-aprelgacha «Navro'z—92» xalqaro anjumani o'tkazildi. Mazkur anjumanning g'oliblari aniqlandi. Oliy mukofot (Gran Pri) — Turkmaniston Davlat yoshlar teatrlarining «Dalli Dumbul» spektakliga, Xalqaro Teatr uyushmalari konfederatsiyasining maxsus mukofoti — Y.Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrlarining «Toshkentga sayohat» komediyasiga berildi.

1997-yilning oktabr oyida esa Toshkentda «Teatr: Sharq va G'arb» xalqaro festivali o'tkazildi. Festivalda dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan teatr san'atkorlari bilan birga Markaziy Osiyo davlatlari teatrlari ham o'z asarlarini mahorat bilan namoyish etdilar. Ushbu festivalda Gonkongning «Rezolyu» teatri jamoasining «Osmono'par binodagi ikki odobli xizmatkor» spektakli, Germaniyaning Dortmund opera va balet teatri jamoasining «Donnitorn xonimning esdan og'ishi» operasi, Turkmaniston Respublikasi A.Qulahmedov nomidagi teatr jamoasining «Payg'ambarlar nolasi» kabi spektakllari tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

2003-yili O'zbek milliy akademik drama teatrida Y.Muqimovning «Spitamen» asari sahnalashtirildi. Bu tarixiy mavzuni zamonaviy sahna talqini sifatida milliy san'atimizning katta yulduzi bo'ldi.

Ayni paytda o'zbek milliy teatr san'ati rivojlanishi va takomillashishi jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu milliy o'zlikni anglash, milliy tafakkur va milliy istiqbol mafkurasining qudratidir.

Musiqqa san'ati

Tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgidir. Asrlar osha avlodan-avlodga ustoz-shogirdlik tizimi yo'li bilan rivojlanib kelganligi tufayli musiqqa merosi qatlamlari — mehnat va marosim kuy, qo'shiqlaridan tortib murakkab doston, ashula, katta ashula va maqom yo'llari davrma-davr saralanib kelgan. Shu bois, hozirgi davrgacha yetib kelgan deyarli barcha asarlar shaklan va mazmunan katta-kichikligiga qaramay badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillarida musiqqa san'atida tub burilish, asliga qaytish, an'anaviy ohanglar ravnaqi davri bo'ldi. Buning uchun eng avvalo, xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish, eng noyob xalq iste'dodlarini izlab topish zarur edi. Ana shuning uchun 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, xalq ijodi

va madaniy-ma'rifiy ishlar markazi musiqa san'ati sohalari bo'yicha bir qancha ko'rik-tanlovlar o'tkazdi. Jumladan, shu yili mart oyida Toshkent shahrida tanbur, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan jumhuriyat ko'rik-tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo'g'irchoq teatrlari jamoalarining ko'rik-tanlovi, shuningdek, aprel oyida mashhur san'atkorlar Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov va Janaq Shomurotovlar asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlari» deb nomlangan ko'rik tanlovlari o'tkazildi. Shuningdek, Xorazm viloyatida may oyida folklor jamoalarining, Askiya, qiziqchi va masxarabozlarning iyun oyida Qo'qon shahrida o'tkazilgan IX an'anaviy, lapar va yalla ijrochilarining, avgust oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan II an'anaviy ko'rik-tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Shu bilan birga, bir necha o'nlab iste'dodlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

O'zbek xalq cholg'ulari va bayan sozanda-ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan navbatdagi oltinchi ko'rik-tanlovi ilgarigilaridan farqli o'laroq uch bosqichda o'tkazildi. Uchinchi bosqich g'oliblari «Bahor» konsert zalida T.Jalilov nomidagi O'zbekiston Davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri hamda O'zbekiston televideniye va radioeshittirish Davlat kompaniyasining D.Zokirov nomidagi O'zbek xalq cholg'ulari orkestri jo'rligida maxsus tanlov dasturini jiro etdilar. Tanlovda barcha viloyatlardan 46 nafar ijrochi ishtirok etdi.

Respublika Madaniyat ishlari vazirligi Xalqlar Do'stligi saroyida 1993-yil 14-aprelda vazirlik tasarrufidagi san'at va madaniyat oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talaba-o'quvchilari hamda o'qituvchilari ishtirokida «Istiqlol jilolari» yig'ma konsertini namoyish etdi. Konsert dasturida xalq kuy va qo'shiqlari, dilrabo raqslar, o'zbek va xorijiy mamlakatlar bastakorlarining asarlari va badiiy ko'rgazmalari ham namoyish etildi.



Mustaqillik yillari davrida bir qator bastakorlar, jumladan, Mustafo Bafoyev, Dilrom Omonullayeva, Alisher Ikromov, Anor Nazarovlar ijodining yangi davri boshlandi.

Birgina misol: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi M.Bafoyev o'zbek milliy musiqasi tarixida uslub jihatidan ham, g'oyaviy jihatdan ham butunlay yangi bo'lgan «Hajnoma» oratoriyasini yaratib, ulkan ijodiy muvaffaqiyatga erishdi. Ayni paytda bu sermahsul va ulkan iste'dod sohibi bir necha o'nlab qo'shiqlar, turli-tuman operalar yaratdi. Bastakorning, ayniqsa, Amir Temur yubileyiga bag'ishlangan musiqalari va qo'shiqlari o'zbek milliy-an'anaviy yo'li bilan jahon musiqa san'ati ilg'or tajribalarining betimsol, uyg'unlashgan namunasi bo'ldi. Orkestr ohanglarining bu milliy shakli endigina yaratildi.

**«O'zbekiston —
Vatanim manim»
qo'shiq bayrami**

1995-yil dekabrda Prezident I.Karimov Farmoni bilan «O'zbekiston—Vatanim manim» mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi e'lon qilingandan so'ng, yuzlab yangi, mustaqillik davri qo'shiqlari yaratildi.

Bu ko'rik-tanlov mamlakatimizning hamma joylarida ko'tarinkilik bilan o'tkazildi.



1996-yil mart oyida poytaxtning «Bahor» konsert zalida «O'zbekiston — Vatanim manim» deb atalgan qo'shiq tanlovining birinchi bosqichi bo'ldi.

Umuman, ko'rik-tanlovning birinchi bosqichida mamlakat bo'yicha 54 mingdan ziyod san'atkor qatnashdi. 10 mingdan ortiq qo'shiq ijro etildi.

1996-yil 24-avgust kuni Toshkentdagi «Turkiston» saroyida ko'rik-tanlovning yakuniy bosqichi bo'ldi. Ozod Vatanimiz va mustaqilligimizni tarannum etuvchi eng sara qo'shiqlar mamlakat bosh hay'ati hukmiga havola etildi. Tanlovda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'pgina millat vakillari faol qatnashdi. Rus, qozoq, turkman, uyg'ur, qirg'iz, koreys tillarida ham jonajon Vatanimizni madh etuvchi qo'shiqlar yangradi.

Uch kun davom etgan ko'rik-tanlovning yakunlovchi bosqichida hakamlar hay'ati va san'at muxlislari e'tiboriga 60 dan ortiq qo'shiq tavsiya etildi. Bu ko'rik-tanlov 1996-yil 28-avgustda Mustaqillik bayramining 5 yilligi arafasida Toshkentda Xalqlar Do'stligi saroyida yakunlandi. Unda viloyatlar, vazirliklar, muassasalar bo'yicha tanlov g'oliblari o'zlarining dilrabo qo'shiqlari bilan ishtirok etdilar. Tanlov yakuniga bag'ishlangan katta konsertda, O'zbekiston Prezidenti, parlament va hukumat raisi va a'zolari, Toshkentdagi diplomatik korpus xodimlari, mamlakat jamoatchiligi vakillari ishtirok etdilar.



Prezident Farmoni bilan kelajagi buyuk davlatimiz va uning bunyodkor, bag'ri keng, xalqini madh etuvchi, qalbida Vatan tuyg'usini, mustaqillikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, buning uchun kerak bo'lsa jon fido qilishga undovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo'shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi — «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirishda 1996-yil 5-aprelda I.Karimov Farmoni asosida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi.

1998-yilda mamlakatimizda birinchi marta xalqaro simfonik musiqa festivali o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi bastakorlar uyushmasi o'tkazgan mazkur festivalda yigirmaga yaqin mamlakatdan ijrochilar ishtirok etishdi. Ular O'zbekistonda jahon musiqa san'ati klassik namunalari eng oliy darajada ijro etilganligiga va ushbu soha jahon klassik an'analari bilan o'zbek milliy musiqa san'atining uyg'unlashgan yangi maktabi yaratilganligiga guvoh bo'lishdi. Ushbu festival har ikki yilda o'tkazilmoqda. Mutal Burxonov, Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil, Sobir Boboyev, Boris Giyenko, Rustam Abdullayev, Mustafu Bafoyev singari bastakorlarning ijodiga yuksak baho berdilar.

Bugun milliy-an'anaviy qo'shiqchiligimiz bilan birga milliy estrada san'ati ham tobora rivojlanmoqda. O'lmas Saidjonov, Munojot Yo'lchiyeva, Nasiba Sattorova, Ismoil va Isroil Vahobovlar bilan bir qatorda Nasiba Abdullayeva, Farrux Zokirov va ularning yuzlab kasbdoshlari o'zbek qo'shiqchilik san'atini dunyoga olib chiq-

moqdalar. Shavkat Mirzayev, Baxtiyor Aliyev, Abduhoshim Ismoilov, Anor Nazar, Dilorom Omonullayevalar yaratgan musiqaviy asarlar aynan ana shu ikki yo'nalishning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

An'anaviy «Sharq taronalari» festivali besh qit'a san'at ahlining diqqatini o'ziga tortmoqda. Dunyoda tinchlik va ezgulikni, barqarorlik va o'zaro bir-birini tushunishni qo'shiq orqali, san'at orqali amalga oshirish mumkinligi ko'rsatilmoqda.

2003-yili «Sharq taronalari» festivali to'rtinchi marta o'tkazildi.

Kino san'ati ustalari ham mustabidlik va mustaqillik davrlarining mohiyatini badiiyat vositasi bilan ochib berish yo'lida tinmay izlanib, xalqimizga o'zlarining yangi-yangi asarlarini taqdim etmoqdalar. O'zbek kinosi qariyb 100 yillik tarixga ega bo'lsa-da, chin ma'nodagi milliy o'zbek kinosi faqat mustaqillik yillaridagina shakllana boshladi. So'nggi yillarda yaratilgan «O'tkan kunlar», «Otamdan qolgan dalalar», «Yozning yolg'iz yodgori», «Kichkina tabib», «Voiz» kabi badiiy filmlar tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Adabiyot

Mustaqillik o'zbek badiiy adabiyoti rivojiga, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi.



Asarlari g'oyaviy jihatdan zararli, o'zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Tavallo, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvarqori singari ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganila boshlandi. Asarlari chop etildi, sahna yuzini ko'rdi.

Jadidchilik harakatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rmini ro'y-rost ko'rsatish boshlandi. Bir vaqtlar diniy va saroy adabiyoti vakili deb nohaq qoralangan Ahmad Yassaviy, Boqirg'oniy, G'azzoliy, Xoja Ahror, Bahouddin Naqshband, Husayn Boyqaro, Feruz singari buyuk mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi. Zararli falsafa, kommunistik mafkuraga yot nazariya deb qaralgan tasavvuf she'riyati chuqur o'rganila boshlandi.

A.Navoiyning yuksak insoniy g'oyalarni diniy manbalar asosida yorituvchi «Munojot», «Arba'in», «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va hokimlar haqida») kabi asarlari nashrdan chiqdi. Mustaqillik sharofati bois mo'tabar Qur'on va hadislar chop etildi. Aytish mumkinki, bunday asarlarning xalqimiz qo'lga yetib borishi butunlay yangi, sog'lom, sof milliy g'oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Mazkur tadqiqot va unga o'xshagan boshqa asarlar milliy istiqlol mafkurasining tantanasini ko'rsatadi.

Amir Temur bilan aloqador orzularning yuzaga chiqishi mustaqillikning ulkan tantanasidir.



A. Hayitmetovning «Amir Temur va o'zbek adabiyoti» asari chop etildi. A.Oripovning «Sohibqiron», M.Jalilning «Sohibqiron Temur» dramalari dunyoga keldi.

B.Valixojayevning Xoja Ahror va uning muhiti bilan bog'liq bir qancha

tadqiqotlari yaratildi. T.Malikning «Shaytanat» romanlari, E.Vohidov, A.Oripov, O.Muxtor, O.Matchon, O.Hojiyeva, Y.Eshbek, X.Do'stmuhammad, U.Azim singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari tufayli o'zbek milliy istiqloq adabiyoti shakllandi. Bular yangi davr adabiyotining nodir namunalari bo'lishi bilan birga, yangi hayot, yangicha turmush tarzi va istiqbolga yangicha qarashning shakllanayotganidan, million-million xalqimizni istiqloldek buyuk ne'matdan bahramand etayotganidan dalolat beradi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligi oldidagi muhim vazifalarni hal etishda, turli yo'nalishlarda Begali Qosimov, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Erik Karimov, Ahmad Aliyev, Ibrohim Haqqulov, Sherali Turdiyev, Hamidulla Boltaboyev, Vohid Rahim, Bahodir Karimov singari mutaxassislar «Cho'lponning badiiy olami», «Yassaviy kim edi?», «Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari» kabi to'plamlarni chop etishdi. I.Haqqulovning «Tasavvuf va she'riyat», N.Karimovning «Cho'lpon», B.Qosimovning «Maslakdoshlar» (Behbudiy, Ajziy, Fitrat) va O.Sharafiddinovning «Cho'lponni anglash» kabi maqola va tadqiqotlari milliy istiqloqning mevalaridir.

Badiiy publitsistika davrimizning eng hozirjavob janrlaridan biriga aylandi. Yangilanayotgan hayot jarayonlari, islohotlarning rivojlanish bosqichlari va ular orqali yangilanayotgan inson, yangilanayotgan jamiyat qadriyatlarini mumkin qadar kengroq qamrab olinadigan va o'z vaqtida munosabat bildirgan janr sifatida publitsistika o'zining imkoniyatlarini ko'rsata bildi.

O'zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa'dulla ijodlari ayni mustaqillik davrining mazmuni orqali o'zining yangi imkoniyatlarini ko'rsatdi. Omon Muxtorning «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam» va «Tepalikdagi xaroba» romanlaridan iborat «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobilovning qariyb uch ming yillik tariximizni mustaqillik evolyutsiyasi orqali ifodalagan «O'zbeknoma», «Yangi Xamsa» she'riy romanlari bugungi kun adabiyotining mevasidir.

O'zbekiston sporti

Jismoniy tarbiya kishilik jamiyati tarixining barcha bosqichlarida xalq madaniyatining tarkibiy va muhim qismi bo'lib kelgan. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.



1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining to'qqizinchi sessiyasida «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun 2000-yilda yangi tahrirda qaytadan qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 1993-yili 18-martda «O'zbekiston Respublikasi futbolini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 1996-yil 17-yanvarda «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» maxsus Qaror qabul qildi.

Mamlakatda «Sog'lom avlod» Davlat dasturi ishlab chiqildi va keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Ushbu dasturga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi milliy ma'naviyatni tiklashga katta e'tibor berildi. Milliy o'yin va sport turlari bo'yicha har yili musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi.

1992-yildan Termiz va Shahrisabz shahrida milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazila boshlandi. 1994-yilda Toshkentda Tennis saroyi qurilib, unda «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini» uchun tennis bo'yicha katta xalqaro musobaqa o'tkazilmoqda. 1992—2003-yillarda O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari sport turlari bo'yicha bir qancha jahon va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, 1994-yili O'zbekiston Respublikasi sportchilari birinchi marta Yaponiyaning Xirosima shahrida o'tkazilgan 12-Osiyo o'yinlarida ishtirok etdilar va ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular 42 medalni, jumladan, 10 oltin, 12 kumush, 20 bronza medalini qo'lga kiritdilar. O'zbekiston futbol terma komandasi Osiyo o'yinlari chempioni bo'ldi.

1996-yil O'zbekiston sporti tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston boks federatsiyasi sport bo'yicha yo'riqchisi Artur Grigoryan o'z vazni bo'yicha Germaniyada o'tkazilgan jahon chempionatida qatnashib katta yutuqlarga erishdi. U mutlaq chempion «Oltin kamarini» qo'lga kiritdi. 2002-yilgacha 17 marta jahon chempioni nomini saqladi.

Jismoniy tarbiya va sportning moddiy bazasi muttasil mustahkamlanib bordi. Ayni paytda mamlakatimizda 300 ta stadion, 5040 ta sport zali, 155 ta suzish havzasi, 33 mingta sport maydonchasi, 5 mingga yaqin futbol maydoni, 2 mingga yaqin otish turi, 13 mingdan ortiq voleybol, 7 mingdan ortiq basketbol maydonchasi, 180 ta tennis korti, «Yoshlik» sport arenasi, «Paxtakor» markaziy stadioni, Tennis saroyi va boshqalar sportchilar ixtiyorida. O'zbekiston sporti tarixida Milliy olimpiya qo'mitasining tashkil topishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.



1993-yilning sentabrida Xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi to'la-to'kis tan olindi.

Qo'mita xalqaro sport va olimpiya harakatining rivojlanishiga yordam bermoqda. U O'zbekistonda olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish, olimpiya o'yinlarida respublika vakillari ishtirokini ta'minlash, jahon sportchilari bilan do'stona aloqalar o'rnatish va rivojlantirishdek sharaflı vazifa bilan shug'ullanmoqda. Milliy olimpiya qo'mitasining 127 nafar a'zosi, 11 nafar faxriy a'zosi bor.



1996-yil yanvarda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining qaroriga muvofiq, jahon sportini rivojlantirishdagi xizmatlari va olimpiya g'oyalariga sadoqati uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Olimpiya Oltin ordeni bilan mukofotlandi.

Toshkentda 1996-yil 14-avgustda Olimpiya muzeyi tashkil etildi. Uni Xalqaro olimpiya qo'mitasining Prezidenti X.A.Samaranch mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov bilan birga tantanali ravishda ochib berdi. X.A.Samaranchning O'zbekiston sportini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari hukumatimizning Do'stlik ordeni bilan taqdirlandi.

2002-yili Vazirlar Mahkamasining bolalar sportini rivojlantirish borasidagi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan aholi turar joylarida, tashkilot va muassasalarda bolalarning sport bilan shug'ullanishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida maxsus jamg'arma tuzildi. Uni bevosita mamlakat Prezidentining o'zi boshqaradi va rahnamolik qiladi.

Mazkur qarorga asosan o'tgan davr mobaynida mamlakat Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa mutasaddi idoralar tomonidan bolalarning jismoniy va ma'naviy jixatdan uyg'un ravishda kamol topishini ta'minlash, yurtimizda bolalar sportining asosiy yo'nalish va turlarini rivojlantirishning tibbiy va ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

2001—2002-yillardan boshlab har yili umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari orasida to'rt bosqichda (maktab, tuman, viloyat va respublika bosqichlari) «Umid nihollari», Akademik litsey, kollej va 10—11-sinf o'quvchilari orasida «Barkamol avlod», har ikki yilda bir marta oliy o'quv yurtlari talabalari orasida «Universiada» sport musobaqalarini o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Umumiy ta'lim maktablari uchun yangi o'quv yiliga mo'ljallab jismoniy tarbiya va bolalar sportiga oid o'quv dasturlari, darslik, metodik qo'llanmalar hamda plakatlar tayyorlash dasturi hamda 2003-yilda Respublika miqyosida yangi bolalar sport inshootlarini barpo etish dasturlari tuzildi. «Sog'lom oila» musobaqalarini o'tkazish Nizomi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur musobaqalar mamlakatimizda har yili «Navro'z» bayrami arafasida mahallalar miqyosida o'tkaziladigan bo'ldi.

2002-yilning o'zida o'zbek sportchilari turli musobaqalarda qatnashib 186 dan ortiq oltin medalni qo'lga kiritdilar. Tennis malikasi Iroda To'laganova, mashhur bokschi Ruslan Chagayev, Olimpiada chempioni Muhammadqodir Abdullayev, xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov va boshqa o'nlab sportchilarimiz yurtimiz nomini sharaflamoqdalar.



1. Teatr sohasidagi o'zgarishlar haqida gapirib bering.
2. Milliy musiqa san'atini rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar qilindi?
3. Adabiyot va adabiyotshunoslikdagi tub o'zgarishlarni gapiring.
4. O'zbekistonda sport sohasida islohotlarning boshlanishi haqida gapiring.
5. Sportning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishining mohiyati va ahamiyati haqida fikrlaringiz.
6. Vazirlar Mahkamasining bolalar sportini rivojlantirish borasidagi qarori qachon qabul qilindi? Mazkur qaror haqida nimalarni bilasiz?



Madaniyat va sport sohasida erishilgan yutuqlarni quyidagi jadval bo'yicha yozing.

t/r	Sohalar	Sohalar bo'yicha erishilgan yutuqlar
1.	Teatr san'ati	
2.	Musiqa san'ati	
3.	Adabiyot	
4.	Sport	

O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGI

34-§. SIYOSIY VA IQTISODIY IMKONIYATLAR

XXI asr bo'sag'asida dunyo

Jahon xalqlari tarixi shundan guvohlik beradiki, dunyodagi har bir mustaqil davlat xalqaro hamjamiyatdan ajralgan holda o'z qobig'iga o'ralib alohida yashay

olishi mumkin emas. Ayniqsa, bu jarayon endigina mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan yosh davlatlar uchun g'oyatda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlagan har bir davlat jahon hamjamiyatiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishga harakat qiladi. Albatta, 1991-yilda o'z mustaqilligiga erishgan O'zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas.

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgan XXI asr bo'sag'asidagi dunyo qiyofasi qanaqa edi? Uning ijobiy siyosiy tomonlari, jumloq va muammolari nimalardan iborat? Dunyo xalqlari qatorida O'zbekistonimiz uchun XXI asr qanday keladi? O'zbekiston yangi asrda jahon hamjamiyatida qanday o'ringa ega bo'ladi?— degan savollarning tug'ilishi tabiiy.

Ma'lumki, ilgari jahonda ikki qarama-qarshi sistema -- SSSR va AQSH yetakchi bo'lgan bir-biriga g'oyaviy jihatdan qarama-qarshi ikki tizim, ikki blok mavjud edi. Dunyoning xavfsizlik tizimi ham xuddi shu ikki blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi.



1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanib ketgach, xalqaro maydonda yangi — g'oyat murakkab va qaltis bir davr yuzaga keldi.

Bu davrning asosiy belgilari quyidagilardan iborat edi:

Birinchidan, davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda siyosiy-iqtisodiy bo'linish ro'y berdi. Kuchlar markazi ilgari ikki joyda bo'lsa, endilikda o'z taqdirini o'zi belgilash orqali ichki imkoniyatlarni ishga solish, har kim o'z aravasini o'zi tortish zarurati tug'ildi.

Ikkinchidan, bugungi kunda navbatdagi jahon urushi xavfi tahlikasi yo'qolgan bo'lsada, davlatlar o'rtasidagi, ayniqsa, yer yuzini ko'proq o'z ta'sir doirasiga olishga intilishdan qaytmayotgan buyuk davlatlar o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar zarracha bo'lsada zaiflashgani yo'q, aksincha, u yanada kuchaydi va keskinlashdi. Faqat endi bu ziddiyat va qarama-qarshiliklar yadro poligonlaridan kuchliroq bo'lgan mafkura poligonlarida olib borilmoqda.

Uchinchidan, jahonda mulkiy tengsizlik kuchaydi. Ya'ni sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut va ziddiyatlar kuchaya boshladi.

Bu holat jahon resurslarini taqsimlashda yaqqol ko'rinadi. Ya'ni tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblanadi. Lekin sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o'z qo'llariga olishga intila boshladilar.

To'rtinchidan, dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud bo'lib qoldi. Ya'ni yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar tahdidi hamon tahlilali holatda saqlanib qolmoqda.

Beshinchidan, jahon miqosidagi umumiy taraqqiyot odamlar dunyo-qarashining o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'siri sezildi. Davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro birlashishga intilishni kuchaytirgan, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an'analar va ma'naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarur bo'lib qoldi.

Oltinchidan, rivojlanishning hozirgi bosqichida har qanday mamlakatning nufuzi, avvalo, uning eng yangi texnologiyalarni qabul qilish va foydalanish qobiliyatiga qarab belgilanadigan bo'ldi.

Mana shunday murakkab, ziddiyatli va qarama-qarshiliklarga boy XXI asr bo'sag'asida O'zbekiston Milliy Mustaqil davlat sifatida jahon xaritasida paydo bo'ldi.



Mamlakatimiz xalqlari oldida turgan g'oyatda og'ir, murakkab va ayni zamonda ulug' va mo'tabar vazifa ham shunda ediki, qo'lga kiritilgan milliy mustaqillikni saqlab qolishgina emas, balki uni yanada mustahkamlab qudratli va istiqbolda dunyodagi rivoj topgan buyuk davlatlardan biriga aylantirishdan iborat edi.

Jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida O'zbekistonning geosiyosiy o'rni

XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi. XX asrning so'nggi o'n yilligi har qanday zo'ravonliklar, tazyiqlar va g'oyaviy xurujlarni aql-idrok va ochiq-dan-ochiq munosabatlar orqali hal etish sari dadil qadam qo'yilgan davr bo'ldi.



O'zbekiston yosh mustaqil davlat sifatida o'z mavqei va nufuzini mustahkamlash bilan birga jahon siyosatini isloh qilishga dunyo ahlini da'vat etgan davlatlardan biri bo'lib maydonga chiqdi.

Geografik-siyosiy o'rni jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashganligi ayni ana shu mintaqada barqarorlikni chuqurlashtirish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi. Mustaqillikning qisqa davrida u o'zining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qudratini to'la-to'kis ko'rsata oldi. Ayni ana shu mintaqa taqdirini hal qilishga qodir bo'lgan kuchli davlat sifatida o'zini namoyon etdi.

Undan tashqari, O'zbekiston Osiyo va Yevropa qit'olari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, siyosiy iqlimni mo'tadillashtiruvchi G'arb va Sharq o'rtasidagi azaliy raqobatni aql-idrok, donolik, tafakkurga asoslangan munozaralar va muzokaralar orqali uyg'unlashtirishga da'vat bo'lib maydonga chiqdi.



Bugun O'zbekiston, Pokiston, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston muammolari bilan birga Rossiya va, umuman, Yevropa mamlakatlari munosabatlarini ma'lum bir o'zanga solishga da'vat qilayotgani, uni o'zining amaliy faoliyati bilan yaxshilik sari burayotgan davlatdir.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov dunyo muammolarini hal qilishning eng insonparvar, eng adolatparvar tamoyillarni o'rtaga tashlar ekan, u mintaqaviy mojarolar va qo'shni mamlakatlarni o'zaro kelishmovchilik muammolaridan tortib butun yer shari va insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan juda ulkan masalalarni o'rtaga tashlamoqda. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorizm va narkobiznes, diniy aqida-parastlik va ekstremizm bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Ana shu muammolar bugun dunyo ahli hayotiga tahdid solayotgan eng og'ir fojia ekanligi, u bilan murosa qilib bo'lmasligini, bu illatlarni barbod qilishda juda katta qat'iyat, siyosiy iroda va ichki qudrat kerakligini O'zbekiston o'z timsolida ko'rsatdi.

Prezident Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq XIV sessiyasida (1999-yil 14-aprel) qilgan «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzasida xuddi ana shu muammolarni keskin qilib qo'ydi. Xalqaro terrorizm va narkobiznesning o'zaro uzviyligi, bir-biriga bog'liqligi, uning tarqalishiga ba'zan diniy niqoblardan foydalanilayotganligi, natijada diniy aqidaparastlik va ekstremizمنىning rivojlanib borayotganligi ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilgan. O'zbekiston rahbarining ana shu har ikki asari davlatimizning yangi yuzyillik va yangi mingyillikdagi siyosiy strategiyasini belgilaydi. Mazkur kitobning dunyoning bir necha o'nlab mamlakatlarida tarjima qilib bosilganligi, jahon siyosatdonlari va davlat arboblarning bu kitobda ko'tarilgan masalalarga bergan yuksak baholari, jahon jamoatchiligining katta qiziqishi bilan unga qarayotganligi fikrimizning dalilidir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirishi uchun qulay shart-sharoitlar

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun asosiy shart-sharoitlar bu — uning geografik-siyosiy jihatdan qulay mintaqada ekanligidir. Buni biz quyidagilarda aniq ko'ramiz.

Birinchiidan, O'zbekiston geografik-siyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay ahvolda, ya'ni u Markaziy Osiyo mintaqasining transport, boy hamda mustaqil energetika omillari markazida joylashgan.

Ikkinchiidan, O'zbekiston aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatdan mintaqadagi qo'shnilardan ma'lum darajada ustun turadi.

Uchinchiidan, O'zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Bizda qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral xomashyo resruslari bor. Respublika oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlashga, texnika ekinlarining eng qimmatli turlarini, jumladan, paxta tolasi yetishtirish va eksport qilishga imkoniyati katta. Shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva-sabzovot mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda ularni qayta ishlangan holda yetkazib berishga qodir.

To'rtinchiidan, davlatimiz nafaqat o'zini-o'zi ta'minlaydigan, balki chetga

chiqaradigan neft mahsulotlari, gaz va umuman, iqtisodiyotning asosi bo'lgan muhim tarmoqlarga ega. O'zbekistonda sanoatning eng zamonaviy tarmoqlari, masalan, mikroradioelektronika kabi murakkab sohani rivojlantirish imkoni bor.

Beshinchidan, O'zbekistonning insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rni bor. Yurtimiz ma'naviy merosga boy. U oldindan nafaqat mintaqada, balki dunyoda ham turli ma'naviy va siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir o'tkazib kelgan.



Shu jihatlar hisobga olinsa, O'zbekiston o'zining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha jahondagi madaniy, ilmiy, texnologiya va iqtisodiy yuksaklikka erishib, bimalol Markaziy Osiyoda integratsiya markaziga aylanishi mumkin.

Albatta, bu yo'lda qator qiyinchiliklar ham mavjud. Bular quyidagilar:

Birinchidan, agar geografik-strategik tarafdin olib qarasak, Markaziy Osiyoda kommunikatsiyalar nomaqbul rivoj topgani va uning tarmoqlari ancha buzilganligini ko'ramiz.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyoda suv resurslari cheklangan va Orol dengizi bilan bog'liq ekologik falokat ta'siri seziladi.

Uchinchidan, mintaqada xavfsizlik tizimi alohida e'tiborni taqozo etadi. Bu yerda atrofddagi kuchli davlatlar va siyosiy kuchlar markazlarining bir-biriga mos kelmaydigan ta'sir etish istaklari borligini ham hisobga olmasdan bo'lmaydi.

To'rtinchidan, musulmon dunyosidagi ba'zi mamlakatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari ham ayni bizning xotirjam bo'lishimizga yo'l bermaydi.

Qolaversa, atrofimizda turli etnik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muammolar ichida qolgan «uchinchi dunyo» davlatlari ham mavjud. Jumladan, beqarorlik va xavf-xatarning bugungi kunidagi o'chog'i — Afg'oniston bilan Tojikiston davlatlari ham shu mintaqada.

Bayon etilgan bu muammolarni kuchaytirib va ma'lum darajada ko'p ishlarni ijobiy hal qilishga to'siq bo'lib turgan yana bir masala bor.



Sho'ro tuzumidan qolgan meros — bu shu mintaqada yagona zaminda yashayotgan millat va elatlarni sun'iy ravishda bo'lib tashlash va shundan foydalanib, o'z siyosatini o'tkazish, ularga hukumronlik qilish asoratlari xali-beri yo'qolmagan.

O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlash kafolatlari

Yuqorida bayon qilinganlardan ma'lumki, O'zbekistonda juda murakkab, qarama-qarshiliklarga to'la dunyoda milliy davlatchiligimizni qurishimiz, mustaqilligimizni mustahkamlashimiz, jahon hamjamiyatida o'zimizning munosib o'rnimizni egallashimiz lozim. Shu munosabat bilan avvalo mintaqada barqarorlik va milliy xavfsizlik kafolatlarining shart-sharoitlarini aniqlash va ta'minlash g'oyat muhim.




O'zbekistonda milliy xavfsizlik kafolatlarining shart-sharoitlari Prezidentimiz I.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ta'riflab berilgan.



Iqtidorli yoshlar — mamlakatimiz kelajagi.



Vatan himoyachilari.



Vatan himoyachisi jismoniy chiniqqan bo'lishi talab etiladi.



Vatanni himoya qilishga doim tayyormiz.



Farg'ona ip yigiruv kombinatida yangi texnologiya qo'llanilmoqda.



Pillamiz — tillamiz.




«O'ZDEUavto» O'zbekiston — Koreya qo'shma korxonasining «Damas» mashinalari.




Mashinasozlar — millatimiz tarixi.



JAR sport majmuasi.



Kompyuter bilan muloqot.




Dunyoviy bilimlar og'ushida.



Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari Prezidentimizdan behad xursand.



Samarqandda «Sharq taronalari» festivalini o'tkazish an'anaga aylantirildi






Soғ'lom avlod o'ylari.



Vatan oila va mahalladan boshlanadi.



Ohanglarda Navro'z vasfi.



Navro'z bayrami.



Qadimiy Shahriston — mo'jizalar maskani.



Amaliy san'at — xalq ruhining ifodasi.



Tatar milliy-madaniy markazi.



Nemis milliy-madaniy markazi.



Samarqandda bunyod etilgan Amir Temur haykali.



Mustaqillik shodiyonalari.



YUNESKOda Amir Temur kunlari.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining binosi.



Ikkinchi jahon urushida qurbon bo'lganlarning onalariga o'rnatilgan «Motamsaro Ona» haykali.

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqilligining birinchi kunidan davlatlarning tinchtotuv yashash, xalqaro masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik, tahdid qilmaslik tamoyilini tashqi siyosat uchun asos qilib olgan. O'zbekiston 1995-yilda muddati uzaytirilishi lozim bo'lgan yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomani yadro qurolini yo'q qilib tashlash to'g'risidagi shartnomaga aylantirish tarafdori bo'lib chiqdi. Shuningdek, u kimyoviy qurollar bo'yicha qabul qilgan shartnoma kabi biologik qurollarni ham taqiqlash to'g'risidagi shartnoma qabul qilish tarafdoridir.

Qisqa qilib aytganda, O'zbekiston urush, harbiy mojarolarning oldini olishga qaratilgan har qanday tashabbusni qo'llab-quvvatlashga tayyor mamlakat. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, bu notinch dunyoda O'zbekistonning do'stlari ham bor, lekin O'zbekistonni o'z ta'sir doirasiga kiritishni xohlaydiganlar ham yo'q emas. Buning uchun ular barcha nayranglardan, qolaversa, harbiy kuchdan ham foydalanishi mumkin. Shu sababli mamlakat Prezidenti I.Karimov Oliy Majlis XIV sessiyasida **«Bizning yaxshi tayyorlangan va qurollangan, istiqbolimiz va chegaralarimizni himoya qilishga qodir armiyamiz bo'lishi kerak»**,— deb alohida uqtirdi.

Shu bilan birga Vatanimiz mudofaa qudratining asosi — respublika iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash darkor. So'nggi paytlarda O'zbekiston Qurolli Kuchlar uchun eng zarur va yuksak malakali zobitlar tayyorlashga mo'ljallangan bir qancha harbiy o'quv yurtlari tashkil etildi. Mamlakatda arimiyani texnik jihatdan jihozlashni mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rildi. Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, bundan keyin ham harbiy salohiyatni ta'minlash uchun zarur mablag' ajratish davom etaveradi.

Milliy xavfsizlik tizimi uchun xavf-xatarning oldini olish va uni bartaraf etishda oldindan chora ko'rish uslubi ko'proq qo'l keladi.

Shu maqsadda respublika Prezidenti huzurida davlatdagi oliy mansabdor shaxslarning maslahat organini tuzish maqsadga muvofiq deb topildi.



1995-yil may oyida Prezident I.A.Karimov raisligida O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi tuzildi.

Xavfsizlik Kengashi milliy xavfsizlik muammolari bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni chuqur ishlab chiqish va muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Barqarorlikning ta'minlanishida madaniy va tarixiy qadriyatlarning roli

Hozirgi dunyoda davlat barqarorligini ta'minlash jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy va axloqiy, madaniy va tarixiy ildizlarga tayanadi.

Davlat mustaqilligi va qudrati uning jahon jamoatchiligi oldidagi ma'naviy-axloqiy qiyofasi va nufuzi bilan ham aniqlanadi. Ayni shu bois I.Karimov shunday degan: **«Xalqimizning, millatimizning ma'naviy jihatdan uyg'onishi mustaqilligimiz, milliy xavfsizligimiz garovi hisoblanadi. Ushbu muhim ishda,— deb ta'kidlaydi I.Karimov, —biz Sharqning buyuk ma'naviy ta'limotidan, xalqlarni tinch hayot kechirishga, do'stlik va hamkorlikka, o'zaro jipslik va sabr-toqatga chaqiruvchi islom falsafasidan keng va oqilona foydalanishimiz lozim.**

Davlatimiz xavfsizligini ta'min etishning asosi mamlakatimiz yoshlari hisoblanadi. Yoshlar O'zbekistonning tayanchi, mamlakatda amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarning munosib davomchilaridir. Xalqimizda bu dunyoda farzandlarimizni deb, ularning baxt-saodati, istiqbolini deb yashaymiz va mehnat qilamiz, — degan naql bor. Demak, nafaqat xavfsizligimiz, shu bilan birga milliy uyg'onish g'oyasining amalga oshishi, davlatimizning kelajakda barqaror bo'lishi ham yoshlarimizning qanday shakllanishiga bevosita bog'liq.



Prezident I.Karimov O'zbekiston yoshlarining shakllantirilishi masalasi-da shunday degan edi:

«Farzandimiz bizdan ko'ra aqlli, dono, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari lozim. Ular jahon umumbashariy yutuqlarini egallashi, tariximizni, madaniyatimizni, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni chuqur bilmog'i kerak. Bizning asosiy kuch-qudratimiz va kelajagimiz ana shunda. Bugun zo'r umidlar bilan qurayotgan yangi jamiyatimizning mazmun-mohiyati ham aslida ana shundadir».



1. XXI asr bo'sag'asida dunyoda qanday tub o'zgarishlar yuz berdi?
2. Respublikamiz mustaqil tashqi siyosat yurgizishda dastlabki yillarda qanaqa qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri keldi?
3. O'zbekiston bugunga kelib qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo? Uning O'zbekiston uchun ahamiyatini tahlil qiling.
4. «Tashqi siyosatni mafkuradan xoli etish» haqidagi O'zbekiston yo'lini tahlil qiling.
5. O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» loyihasini qachon va nima maqsadda imzoladi?
6. MDH doirasidagi kollektiv xavfsizlik zarurligi va ahamiyatini ko'rsating.
7. Qurolli Kuchlarimizning asosiy vazifasini qanday tushunasiz?



Prezident I.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarini (Islom Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. —T.: O'zbekiston. 1998, 415—683-betlar) tahlil qiling va xulosa chiqaring. Xulosangizni daftaringizga yozing.

35-§. TASHQI SIYOSAT ASOSLARINING YARATILISHI. O'ZBEKISTON — BMT A'ZOSI

Mustaqil tashqi siyosat zaminlarining yaratilishi

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turardi.

Ittifoqdosh respublikalar, jumladan, O'zbekiston ham tashqi dunyodan ajralgan, to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilolmaydigan yopiq mamlakat hisoblanardi. Shu bois

davlatimiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatni biladigan kadrlarga ham ega emas edi. Yurtimizda bunday kadrlar tayyorlovchi birorta ham o'quv yurti yo'q edi.

Vaziyat zudlik bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishni talab etardi. O'zbekiston rahbariyatiga bu sohadagi ko'p qirrali ishlarni boshdan boshlashga to'g'ri keldi.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti»da O'zbekistonning tashqi siyosatdagi yo'li aniq qilib belgilangan edi (*2-ilova*).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu yo'l yana bir bor ta'kidlanib, davlatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidalari qonun bilan mustahkamlab qo'yildi (*15-ilova*).

Mamlakat tashqi siyosatiga doir bunday qoidalar Prezident I.A.Karimovning nutq, maqola va risolalarida yanada oydinlashtirildi. U o'zining «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» nomli asarida «**O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish — davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir**»,— deb alohida uqtirdi.

Bundan tashqari, O'zbekistonni xalqaro huquq subyekti sifatida belgilaydigan, davlatimizning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida»gi (1996-yil), «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998-yil), «Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1998-yil), «Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (2000-yil) va boshqa qonunlar shular jumlasidandir. Ularda yurtimizning xorijiy mamlakatlar bilan faol va keng ko'lamli hamkorlik o'rnatishi uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib berildi.



Mamlakatimiz qonunchilik faoliyatida xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi o'z ifodasini topmoqda. Bunda:

- ◆ O'zbekiston qonunlari xalqaro huquq normalariga doimo muvofiqlashtirilmoqda va yaqinlashtirilmoqda.
- ◆ Mamlakatimiz xalqaro huquq normalarining bajarilishini kafolatlaydigan hamma majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston tashqi siyosatda ochiq-oydinlik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik tarafdori. Ayni paytda, u biron bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga tushib qolishni, «katta og'a» ning qosh-qavog'iga qarab ish tutishni aslo xohlamaydi. O'zbekiston dunyo uchun ochiq mamlakatdir. Shu bilan birga u bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik siyosatiga amal qiladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari

Prezident Islom Karimov o'zining asarlari, ma'ruza va nutqlarida mamlakatimiz tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo'lni belgi-



O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ♦ Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik.
- ♦ Davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish.
- ♦ Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.
- ♦ Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish.
- ♦ Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik.
- ♦ Inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish.
- ♦ Ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi.
- ♦ Davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ular-dan ajralib chiqish.
- ♦ Tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik.
- ♦ Davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi.
- ♦ Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 ta davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. Jumladan, AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqalar. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq davlatda — AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yillari bo'ldi.

Vaziyat tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish tizimini yaratishni, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini zudlik bilan belgilashni taqozo etardi. Natijada tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar — Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati, tashqi savdo firmalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralarda, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va mahalliy boshqaruv idoralarda tegishli tashqi

iqtisodiy bo'linmalar tuzildi. Xorijiy hamkorlik ishtirokida xalqaro savdo-sotiq markazlari tashkil etildi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish yo'lidan borib, jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi hamda ular bilan hamkorlik qilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar dasturini qo'llab-quvvatlash va qarz beruvchi 21 ta mamlakat tomonidan O'zbekistonga texnikaviy yordam ko'rsatilmoqda. Bu yordam miqdori 1993—1994-yillardayoq salkam 75 million AQSH dollariga teng bo'ldi. Ushbu mablag' mutaxassislar tayyorlashga, energetika va transport tizimini takomillashtirishga, sog'liqni saqlash, dori-darmon bilan ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiyotning turli sohalarini kompyuterlashtirishga yo'naltirildi.



Ayni paytda yurtimizda dunyoning 25 mamlakatiga qarashli xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 166 ta vakolatxonasi ishlamoqda. O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy banki dunyoning 80 ta yirik bankida vakillik hisobini ochgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (2000-yil), «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998-yil), «Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1998-yil), «Bankrotlik to'g'risida»gi (1998-yil) Qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shartsharoitlar yaratdi. Tashqi savdo uchun imtiyozlar berildi. Tovarlarini import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari tashqi savdoning tez o'sishini ta'minladi. Islohotlarning birinchi bosqichida tashqi savdo ikki yo'nalishda amalga oshirildi. Birinchidan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar asosida. Ikkinchidan, uzoq xorij mamlakatlari bilan erkin muomaladagi valyuta hisob-kitob qilish asosida savdo-sotiq ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, bevosita tashqi iqtisodiy kooperatsiya aloqalari o'rnatilishi rag'batlantirildi. Tashqi savdo aylanmasi izchil o'sib bordi. U 1994-yilda 5 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilda qariyb 9 milliard AQSH dollariga yetdi. 2003-yilga kelib O'zbekiston dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalarini o'rnatdi. Eksportning paxta, rangli metall kabi an'anaviy turlaridan tashqari, kalava, benzin, avtomobil kabi mahsulotlar jahon bozorida munosib o'rin oldi.

Mamlakatimiz eksporti tarmog'ida AQSH, Turkiya, Belgiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiya, Polsha, Janubiy Koreya Respublikasi, Indoneziya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Malayziya kabi davlatlar yetakchi o'rin egallamoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda yurtimiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta e'tibor berilmoqda. Bu, *birinchidan*, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga qaratilgan siyosatda namoyon bo'lmoqda. *Ikkinchidan*, ilg'or

texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashtirishga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan «Ochiq eshiklar» siyosatida o'z ifodasini topmoqda. Uchinchidan, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish bobida zarur tadbirlar amalga oshirildi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga ko'maklashish muassasalari — Chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Lizing kompaniyasi tashkil etildi.

Bu muassasalar xorijiy sarmoyadorlarga investitsiya taklifini tayyorlashga yordam bermoqda. Davlat mulk qo'mitasi huzurida ko'chmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi tashkil etildi. U xususiylashtirish jarayoniga xorijiy sarmoyadorlarni jalb etishga ko'maklashmoqda.

Jahon banki prezidenti J.Vulfensonning 2002-yil 11—13-aprel kunlaridagi mamlakatimizga tashrifi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasida yangi sahifa bo'ldi.

2003-yilning 5—6-may kunlari poytaxtimiz Toshkentda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki rahbarligida o'tkazilgan xalqaro anjuman chet el investitsiyalarining erkinlashuvi uchun muhim bosqich bo'ldi. Ayniqsa, milliy valyutamizning konvertatsiyalashishiga muhim omil bo'ldi.

Xullas, O'zbekiston Respublikasi tarixan qisqa davrda jahon hamjamiyatiga qo'shildi. Xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlatlardan biri darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston — BMT a'zosi

Davlatlar va millatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni tinch yo'l — muzokaralar orqali hal etishda eng nufuzli xalqaro tashkilot — Birlashgan Millatlar

Tashkiloti (BMT)ning o'rni kattadir.



O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish-irodasi va taklifiga ko'ra 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilindi. O'zbekiston BMT Nizomini, xalqaro huquqiy me'yorlarni, davlatlararo muomala qoidalarini, shuningdek, BMT tarkibiga kiruvchi xalqaro tashkilotlar talablariga rioya qilishini bildirdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi.

1993-yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi.

Prezident I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil sentabrda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiz-

nesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rtaga qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi va BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi mamlakatimizda BMTning Taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mita komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Bolalar jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1993—1997-yillarda BMT vakolatxonasiga boshchilik qilgan Xolid Malikning faol ishtirokida O'zbekistonda ko'plab xalqaro tadbirlar o'tkazildi. Chunonchi, Toshkentdagi BMTning qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mitasi komissarining vakili tojik qochoqlarni yurtiga qaytarish, ularga BMTning insonparvarlik yordamini yetkazish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirdi. 1994-yil oktabrning boshlarida BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda bo'lgan jahon sayyohlik tashkilotining «Ipak yo'li» xalqaro yig'ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O'zbekistonning mavqei yanada ko'tardi.

1995-yil 20-yanvarda Toshkentda BMT vakolatxonasi bilan hamkorlikda seminar-kengash bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston taraqqiyotining strategik muammolari, o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish yo'llari muhokama etildi. O'zbekiston o'zining BMT ishidagi ishtirokini Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va tinchlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyati deb biladi.



O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995-yil 15—16-sentabr kunlari Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengash bo'lib o'tdi.

Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligini ta'minlash, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan takliflarini aytdilar.



O'zbekiston BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda faol qatnashdi. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995-yil 22—24-oktabrda bo'lgan yubiley sessiyasida qatnashib nutq so'zladi.

U o'z nutqida bu nufuzli xalqaro tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir takliflarni bayon etdi. Umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan boshlanadigan jarayon ekanligi, mintaqalar xavfsizligini ta'minlash yo'li bilangina jahon xavfsizligini ta'minlash mumkinligi alohida ta'kidlandi. Afg'onistondagi urushga barham berish uchun unga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish, qurol olib kirishni taqiqlash takliflari ilgari surildi. Shuningdek, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, qurol savdosini cheklash to'g'risida, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik muammoni hal etishga xalqaro moliya tuzilmalarini va rivojlangan mamlakatlarni jalb qilish, BMTning tashkilotchilik ishini faollashtirish to'g'risida bir qator takliflar ilgari surildi. Xalqaro

tashkilotlar va nufuzli davlatlar bu takliflarni ma'qulladilar va muammolarni hal qilishga ko'maklashdilar.



1997-yil 15—16-sentabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo — yadro qurolidan xoli zona» mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi.

Ushbu masala yuzasidan O'rta Osiyo va Qozog'iston davlatlari Tashqi ishlari vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Unda BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari, barcha davlatlar Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani barpo etish tashabbusini qo'llab-quvvatlashga va uni barpo etishga ko'maklashishga chaqirildi. Bu mazkur mintaqa xavfsizligini mustahkamlashning eng kafolatli yo'llaridan biri edi.



1999-yilning 19—20-iyul kunlarida Toshkentda BMT homiyligida Afg'oniston bo'yicha «6+2» guruhining navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Unda guruhga a'zo mamlakatlar — Tashqi ishlar vazirlari o'rinbosarlari darajasidagi delegatsiyalari, BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus elchisi Laxdar Braximiy ishtirok etdi. Uchrashuv yakunida Afg'onistondagi mojaroni hal etishning asosiy tamoyillari to'g'risida Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi.

2000-yilning 8-sentabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining sessiyasida qatnashdi. 150 dan ko'proq mamlakatning davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etgan ushbu sessiyada I.A.Karimov nutq so'zladi. Tashrif davomida Islom Karimov Nyu-Yorkda bir qator uchrashuvlar o'tkazdi.

2002-yilning 18—20-oktabr kunlari BMTning bosh kotibi Kofi Annanning yurtimizda bo'lishi O'zbekistonning bu tashkilotga a'zo bo'lgandan keyingi va Prezidentimiz I.Karimovning BMT minbaridan so'zlagan nutqidan keyingi eng e'tiborli voqealardan biri bo'ldi.



1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari va yo'llari qaysi rasmiy hujjatlarda belgilab berilgan?
2. O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalarini qanaqa vazifalar va muassasalar amalga oshiradi?
3. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi deganda nimani tushunasiz?
5. Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ma'nosini izohlab bering. O'zbekistonda qanaqa yirik qo'shma korxonalar bunyod etilgan?
6. O'zbekiston va BMT aloqalari haqida fikringiz?
7. BMTning yubiley sessiyasida I.Karimovning xalqaro jamoatchilik e'tiboriga jalb etgan muammolari haqida fikringiz?



15-ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tashqi siyosatga oid 17-moddasini tahlil qiling. Mazkur moddani daftaringizga ko'chirib yozing.

36-§. MUSTAQILLIK YILLARIDAGI XALQARO ALOQALAR

O'zbekistonning YXHT bilan hamkorligi

O'zbekiston istiqloлга erishgan paytdan boshlab jahon hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'lishga harakat qildi.



O'zbekiston 1992-yil fevral oyida tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot — Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (YXHT) a'zo bo'lib kirdi.

I. Karimovning 1992-yil 9—10-iyulda bo'lib o'tgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so'zlashi va Kengashning 10-iyulda bo'lgan majlisida raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab borayotganligiga yana bir ishonchli dalil bo'ldi.

Prezident o'z nutqlarida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo'lgan mojarolar oldini olish, mojarolarga yo'l qo'ymaslik muammolari bilan shug'ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta'sirchanligini oshirish takliflarini ilgari surdi.



1994-yil 28—30-sentabrda Toshkentda YXHTning xalqaro anjumani o'tkazildi. Unda tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko'rib chiqildi. YXHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo'yicha seminarlar o'tkazdi. Mazkur xalqaro tashkilot Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda. 1995-yil iyulda Toshkentda YXHTning mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

YXHTning 1996-yil dekabrda Lissabon sammitida XXI asr arafasida yalpi xavfsizlik modelini yaratish xususida munozara bo'ldi. O'zbekistonning mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish, YXHTning Markaziy Osiyo faoliyatini kuchaytirishga oid takliflari ma'qullandi va Lissabon Deklaratsiyasiga kiritildi.

O'zbekiston tashabbusi bilan 1996-yilning 11—13-sentabr kunlari Toshkentda YXHT Demokratik muassasalar va inson huquqlari bo'yicha Byurosi (DIIHB)ning «Inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar» mavzusidagi xalqaro seminar kengash bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlarining, shuningdek, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar. Seminar, kengashda Markaziy va Sharqiy Yevropada Ombudsman instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimini takomillashtirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalari ko'rib chiqildi. Bu tadbirlar O'zbekistonning YXHT bilan yaqin va samarali aloqalar o'rnatganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi tashkiloti va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston bilan Atlantika mamlakatlari tashkiloti — NATO o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud. 1995-yil iyul oyida O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga qo'shildi. O'zbekiston bu dasturdagi ishtirokiga o'z mustaqilligini mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlardan foydalanish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraydi. «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida 1995-yilda AQSHda, 1997-yili Qozog'iston va O'zbekistonda o'tkazilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zabit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko'tarishga xizmat qildi.



O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatining a'zosidir. U bo'lajak jahon parlamentining timsoli bo'lmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirdi.

Mamlakatimiz Parlamentlararo Ittifoqning 93- va 94-konferensiyalarida hamda YXHT Parlament Assambleyasining har yili o'tkaziladigan sessiyasida muntazam qatnashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Raisi Erkin Xalilov YXHT Parlament Assambleyasining Vitse-prezidenti etib saylandi. Ana shu va boshqa xalqaro anjumanlarda O'zbekiston vakillari ma'ruza va axborotlar bilan chiqdilar, qator takliflarni o'rtaga tashladilar. Shu tariqa O'zbekiston Parlamenti a'zolarining ovozi xalqaro maydonda baralla yangramoqda. Davlatimizning obro'e'tibori mustahkamlanib, xalqaro miqyosda tobora ko'p e'tirof etilmoqda.

1999-yilning 18—19-noyabr kunlarida Istambulda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga a'zo 54 davlat boshliqlarining oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi qatnashdi.

Istanbul sammitida Yevropa Xavfsizlik Xartiyasi, Istanbul Deklaratsiyasi va boshqa bir qator xalqaro hujjatlar imzolandi.

2000-yilning 2-iyunida Prezidentimiz I.Karimov Oqsaroyda YXHT ning raisi, Avstriya Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Benito Ferrero-Valdner boshchiligidagi mazkur tashkilot delegatsiyasi a'zolarini qabul qildi. Suhbat davomida O'zbekiston va YXHT o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga doir masalalar yuzasidan fikr almashindi.

YXHT tashkilotining bosh kotibi Y.Kubish 2002-yilning 6—7-aprel kunlari tashrif buyurgan bo'lsa, ko'p o'tmay YXHT parlament assambleyasi delegatsiyasi 9—13-aprel kunlari O'zbekistonda mehmon bo'ldi.

O'zbekistonning YUNESKO bilan aloqalari

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvda BMT doirasidagi ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, uning BMT homiyligida ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot — YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda.

183 davlat a'zo bo'lgan YUNESKOning bosh maqsadi — barcha xalqlar kelajagining umumiyliги asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish, hozirgi zamon muammolarini yanada chuqurroq o'rnatishga ko'maklashishdan iborat. YUNESKO har yili o'z faoliyati doirasida jahonda 150—200 yirik tadbir o'tkaza-

di. U har bir davlatdagi ilg'or tajribalarni o'rganuvchi va boshqalarga tarqatuvchi «g'oyalar laboratoriyasi» rolini bajarmoqda.



1993-yil 29-oktabrda YUNESKOning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKO a'zoligiga qabul qilish marosimi bo'lib o'tdi.

Shu kuni vatandoshimiz, buyuk olim Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil Parijda Mirzo Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi.

Mamlakatimizning qadimiy shaharlari Xiva va Buxoro YUNESKOning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor.

1994-yil dekabrda Toshkentda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi. Komissiya idoralararo organ bo'lib, uning tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a'zo bo'ldi. YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat berishga kirishdi.



YUNESKO qaroriga binoan 1995-yilda Samarqandda Markaziy Osiyo tarixini tadqiq qilish xalqaro instituti tashkil etildi.

YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayor Markaziy Osiyo tarixini tadqiq qilish xalqaro institutini tantanali ravishda ochdi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

1997-yilda jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi. Bu O'zbekiston bilan YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997-yil 19—20-oktabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari ishtirok etdilar.

O'zbekiston ixtisoslashgan muassasalar — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, xalqaro Pochta ittifoqi, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi bilan hamkorlik qilmoqda.



1998-yilning 6-noyabr kuni Parijda ochilgan YUNESKO Ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisi Toshkentda bo'lib o'tdi.

Sessiyada O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zladi. Shu kunning o'zidayoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov YUNESKOning Bosh direktori Federiko Mayor va YUNESKO Ijroiya kengashi raisi Pol Potoki boshchiligidagi delegatsiya a'zolarini qabul qildi. Suhbat davomida hamkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan fikr almashuvlar bo'ldi.

2000-yil iyulda esa Toshkentda Osiyo va Tinch okean mintaqasi mamlakatlari YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyalarining XII mintaqaviy konferensiyasi bir hafta davom etdi. Shu yilning 13-sentabrda esa Prezidentimiz tomonidan YUNESKO Bosh direktori lavozimiga saylangan Kongiro Matsuuruni qabul qildi.

Suhbat davomida O'zbekiston bilan YUNESKO hamkorligini yanada rivojlantirish haqida fikrlashib olindi.

YUNESKO homiyligida 2001-yili ulug' fiqhshunos olimlari, islom olamining mashhur ulamolari Burxoniddin Marg'inoniy va Abu Mansur Moturidiyning yubiley-lari, 2002-yili Shahrisabz shahrining 2700 yilligi, Termiz shahrining 2500 yilligi, 2003-yili esa buyuk mutasavvuf Abduholiq G'ijduvoniylarining 900 yilligi keng nishonlandi.

O'zbekiston va AQSH aloqalari

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Amerika Qo'shma Shtatlari va rivojlangan Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992-yil 15—16-fevral kunlari AQSH davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi.



1992-yilda Toshkentda birinchi bo'lib AQSHning O'zbekistondagi elchixonasi ochildi.

1993-yil 14-sentabrda AQSH davlat departamentining maxsus topshiriqlar bo'yicha elchisi Strob Talbot O'zbekistonda bo'ldi va O'zbekiston Prezidenti bilan hamkorlik qilish masalalarida suhbatlashdi. 1995-yil 6-aprelda AQSH Mudofaa vaziri Uilyam Persi O'zbekistonga keldi. O'zbekistonning NATO «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturida ishtiroki muhokama qilindi. AQSH armiyasi o'quv-mashq markazida tinchlikni ta'minlash maqsadida o'tkazilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston Qurolli Kuchlari vavodi ishtirok etdi. O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida, ikki yoqlama soliq olmaslik to'g'risida shartnomalar tuzildi. Toshkent—Nyu-York havo yo'li ochildi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 1995-yil oktabr oyida BMT yubiley sessiyasi kunlarida AQSH vitse-prezidenti Albert Gorr bilan uchrashdi. Uchrashuvda jahon va mintaqaviy xavfsizlik masalalari, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida fikr almashildi. O'zbekistonda 1996-yil boshlarigacha amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta o'zbek-amerika qo'shma korxonalari tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida AQSHning Nyumont Mayning Korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi «Zarafshon—Nyumont» qo'shma korxonasi bor. Amerikaning 28 ta kompaniya, firma va banki Toshkentda o'z vakolatxonalarini ochgan.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasining 1996-yil 23—28-iyun kunlari AQSHda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. I.Karimov AQSH Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaati-ga daxldor bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalari muhokama etildi.



1996-yil 25-iyun kuni Vashingtonda O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ochildi.

«O‘zbekneftgaz» milliy korporatsiyasi bilan «Enron» korporatsiyasi va OPIK o‘rtasida loyihalarni mablag‘ bilan ta‘minlash va sug‘urta qilish to‘g‘risida protokol, O‘zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan «Keys» korporatsiyasi o‘rtasida Lizing kompaniyasi tuzish to‘g‘risida bitimlar imzolandi.



Xullas, 2003-yilga qadar O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasida 50 dan ortiq o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi hujjatlar imzolandi. AQSH O‘zbekistondagi demokratik jarayonlar, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga faol ko‘maklashmoqda. Har ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik jadal sur‘atda o‘smoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston bilan AQSH mintaqaviy va global xavfsizlik hamda zo‘ravonlik mafkurasi, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm, narkobiznes va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishiga qarshi kurash masalalari bo‘yicha ham o‘zaro hamkorlik qilmoqdalar.

NATOning «Tinchlik yo‘lidagi hamkorlik» dasturi, Yevroatlantika sheriklik kengashi doirasidagi hamkorlik aloqalari ham muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.

AQSH jamoatchiligining O‘zbekiston tarixi, madaniyati va ma‘naviyatiga qiziqishi ham tobora oshib bormoqda. Jumladan, 1999—2003-yillar mobaynida AQSHning yirik shaharlari Nyu-York, Boston, San-Fransisko, Vashington, Chikagoda taniqli amerikalik olim va san‘at homiysi Gaido Goldmanning shaxsiy kolleksiyasiga mansub o‘zbek shoyi matolari ko‘rgazmasi zo‘r tantana bilan o‘tdi. Shuningdek AQSHda Loren Grey Xonim rahbarligi ostida o‘zbek raqsi ixlosmandlari jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbek raqs san‘ati va musiqasini targ‘ib etishda Nyu-Yorkdagi «Maqom» ansamblining xizmati ham katta bo‘lmoqda. AQSHda O‘zbekiston kunlarini o‘tkazish an‘anaga aylanmoqda. 2001-yil fevralda AQSHning Nyu-York, Vashington, Xyuston shaharlari, Pensilvaniya, Texas shtatlarida Buxoro kunlari muvaffaqiyatli o‘tdi.

Ikki mamlakat o‘rtasida milliy kadrlar tayyorlash borasidagi aloqalar ham kengayib bormoqda. O‘zbek yoshlari «Umid» jamg‘armasi orqali AQSHning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olib zamonaviy ilm-fan sirlarini egallamoqdalar va yuqori malakali kasb-hunarlarini egallab mamlakatimizga qaytmoqdalar.

Ulkan siyosiy, iqtisodiy, harbiy texnik, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan jahonning yetakchi davlati Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan uzoq muddatli va keng ko‘lamda munosabatlarni rivojlantirish O‘zbekiston uchun tashqi siyosatning ustuvor strategik yo‘nalishidir.

MDHning tashkil topishi va ko‘ptomonlama hamkorliklar

1991-yilning avgust-sentabr oylariga kelib sobiq SSSR tarkibidagi barcha 15 ta respublika o‘zini mustaqil davlat deb e‘lon qilingan bo‘lsa-da, SSSR

Prezidenti, parlamenti, hukumati o‘z faoliyatini tugatmagan edi.



- 1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Ukraina va Belarus rahbarlari Belovejskoe Pushcheda (Minsk, Belarus) Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ni tuzish to‘g‘risidagi Bitimni imzoladilar.
- 1991-yil 13-dekabrda Ashxabodda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston Davlat boshliqlari uchrashib,

MDHni tuzish to'g'risida Minskda imzolangan Bitimni muhokama qildilar va Bayonot qabul qildilar (*16-ilova*).

- 1991-yil 21-dekabrda Almatida MDHni ruxish to'g'risidagi Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ham imzo qo'ydilar. Shu kuni ushbu davlatlar rahbarlari Rossiya, Ukraina va Belorus rahbarlari bilan birgalikda «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining maqsad va tamoyillari to'g'risidagi Shartnoma»ni imzoladilar.

Shartnomada yagona iqtisodiy makon, yagona valyuta va moliya-bank tizimi bo'lishi, fan, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik qilinishi, tashqi siyosat va armiya sohasidagi siyosat kelishilgan holatda yuritilishi qayd etildi. **Mazkur hujjatda SSSR davlatining faoliyati va SSSR Konsitutsiyasi to'xtatiladi, deb e'lon qilindi.**

Kengashda Almati Deklaratsiyasi qabul qilindi (*17-ilova*).

MDH davlatlari boshliqlarining Almati kengashi maxsus qaror qabul qilib, Hamdo'stlik a'zolari bo'lgan davlatlarning BMT Nizomi bo'yicha majburiyatlarni bajarish niyatida ekanligini va BMT ga a'zo bo'lish istaklarini bildirdilar.

1993-yilda MDHga Gruziya qo'shildi. Bu bilan MDHga a'zo bo'lgan davlatlar soni 12 taga yetdi.

MDH oldida katta muammolarni yechish uchun Hamdo'stlik mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlari tez-tez uchrashib, muhim hujjatlar va tadbirlar ishlab chiqdilar.

Jumladan, 1991-yil 30-dekabrda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining Kengashida MDH mamlakatlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan muhim masalalar ko'rib chiqildi.

1992-yil 15-mayda Toshkentda o'tkazilgan MDH mamlakatlarining navbatdagi Kengashida moliyaviy ahvol va bu sohadagi hamkorlik haqida, havo bo'shlig'idan foydalanish haqida, kosmik dasturlarni bajarishga pul ajratish to'g'risida, chegara qo'shinlarini pul bilan ta'minlash to'g'risida, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida bitimlar va boshqa hujjatlar imzolandi.

1994-yil 21-oktabrda Moskvada o'tkazilgan MDH davlat boshliqlarining Kengashida asosiy e'tibor MDH mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasiga doir masalaga qaratildi. MDH davlatlari o'rtasida integratsiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida memorandum imzolandi. Unda iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, integratsiyaviy taraqqiyotning istiqbol rejaları belgilab berildi. Mazkur Kengashda Davlatlararo iqtisodiy qo'mita (DIQ) tuzildi. DIQning maqsadi MDH a'zolari o'rtasida iqtisodiy aloqalarni tartibga solish, integratsiya jarayonlarini samarali rivojlantirishni ta'minlashdan iborat, deb belgilandi. DIQning shtab-kvartirasi Moskva shahri deb belgilandi.

1995-yil 10-fevralda Almatida MDH mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda MDH a'zolari bo'lgan mamlakatlar chegaralarini qo'riqlashda hamkorlik qilish konsepsiyasi muhokama qilindi. Ammo masalaning xarakteri va mazmuni haqida bir-birlariga mos bo'lmagan turli fikrlar bildirildi.

Jumladan, O'zbekiston tomoni milliy tizimlardan ustun turadigan tuzilmalar, ayniqsa, harbiy tuzilmalar tuzishga qarshi ekanligini bildirdi.

MDH davlat boshliqlarining 1996-yil 17-may, 1997-yil 28-mart va 1998-yil 29-aprel kunlari Moskvada, 1997-yil 23-oktabrda Kishinevda o'tkazgan Kengashlarida integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiyasi, uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi birgalikda kurash dasturi, MDH doirasida qabul qilingan hujjatlarning bajarilish ahvoli, MDHning istiqbollari, MDH organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

MDH tashkil etilgandan beri o'tgan davrda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalariga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi. Hamdo'stlik mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy aloqalari katta mashaqqatlar va sekinlik bilan mustahkamlanib bormoqda. Qabul qilingan hujjatlarning aksariyati qog'ozda qolib ketdi. O'tgan yillar davomida erishilgan ahdlashuvlarni amalga oshirishning samarali mexanizmi yaratilmadi, o'zaro hisob-kitoblar hozirgi kungacha muvofiqlashtirilmadi.

O'zbekiston Respublikasi MDH doirasida sun'iy ravishda joriy etiladigan integratsiyaga hamda davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalarni — parlament, ko'plab amaldorlar ishlaydigan ma'muriy idoralar, harbiy-siyosiy organlarni tashkil etishga qarshi. O'zbekiston mustaqillik va integratsiyani uyg'unlashtirish tarafdori, MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni xohlaydi.

Integratsiya «o'yinlari» va unga nisbatan O'zbekistonning qat'iy yo'li

Vaqt o'tgani sari turli xildagi integratsiya tarafdorlari ham paydo bo'lishdi, integratsiya «o'yinlari» avj oldi. Ba'zi MDH davlatlari Yevroosiyo ittifoqini tuzish tashabbusi bilan chiqishdi. Bu ittifoqda yagona bozor, yagona pul birligi, yagona til, ularning huquqiy

ehtiyojlarini himoya qiladigan yagona konstitutsiya va ittifoqqa a'zo mamlakatlarning ishlab chiqarishini muvofiqlashtirib turuvchi ijro organi — Vazirlar Kengashi joriy etilishini o'rtaga tashlashdi. Bu sobiq SSSRning aynan yangi shaklda dunyoga kelishining o'zi edi. Ana shunday siyosiy nayranglar va turli-tuman shovqin-suron paytida ham O'zbekistonning qat'iy so'zi, qat'iy irodasi namoyon bo'lib turdi.

1996-yil 15-mart kuni Rossiya Davlat Dumasini kommunistlar tashabbusi bilan 1991-yil 8-dekabr kuni Rossiya, Ukraina va Belarus davlatlarining Belovejskaya Pushada SSSRni tarqatish va uning o'rnida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil etish to'g'risidagi Bitimini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Ana shu qaror qabul qilinishi bilanoq xuddi shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis rahbariyati, qo'mitalarning raislari, deputatlar fraksiyalari, siyosiy partiyalar va harakatlarning rahbarlari ishtirok etdilar.



Rossiya Davlat Dumasining sobiq SSSRni qayta tiklash to'g'risidagi qaroriga qarshi 1996-yil 15-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi keskin munosabat bildirdi va tegishli Qaror qabul qildi (18-ilovala).

Rossiya Davlat Dumasining mazkur qarori mamlakatimiz aholisining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Qaror qabul qilingan kunning ertasi — 16-mart kuni mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov Xorazm viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasida Rossiya Davlat Dumasining qaroriga, u yerdagi kommu-

nistlarning shovinizm siyosatiga keskin baho berdi va jumladan shunday dedi: «Sizlarning ixtiyoringiz o'zingizda, lekin O'zbekistonning yo'li oldindan ma'lum. O'zbekiston xalqi o'z qo'liga kishan urdirib, aldab-suldab, ongini buzib, eski oxurga qaytadan ipsiz bog'lab qo'yilishiga hech qachon va hech qanday yo'l bilan rozilik bermaydi.

... Bizning yo'limiz aniq va ravshan. Istiqlol, mustaqillik yo'lida, ozodlik, erkinlik yo'lidan izchil borish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, xalqimiz uchun farovon hayot qurish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash».

Prezident I.Karimov 18-mart kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.N.Yelsinga Rasmiy xat bilan murojaat qildi va o'zining Rossiya Davlat Dumasining mazkur qaroriga nisbatan qat'iy pozitsiyasini bildirdi.



1. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishida uning BMTga a'zo bo'lishi qanday o'rin tutadi?
2. O'zbekiston YXHTga qachon a'zo bo'ldi va unda respublikamizning mavqeyi qanday?
3. O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar bilan aloqalari va munosabatlari qanday rivojlanmoqda?
4. O'zbekiston bilan YUNESKO munosabatlari xususida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. O'zbekiston va AQSH aloqalari to'g'risida so'zlab bering.
6. 1991-yil dekabrda Belovejskoe Pushche va Almatida imzolangan Bitim va
7. Shartnomaning tarixiy ahamiyati nimadan iborat?
8. MDH ga qaysi davlatlar a'zo bo'ldi?
9. MDH doirasida ko'p tomonlama hamkorlik deganda nimalarni tushunasiz?
10. Rossiya Davlat Dumasining sobiq SSSRni qayta tiklash to'g'risidagi qaroriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi va aholisining qanday munosabatda bo'lganligini ta'riflab bering.



16- va 17-illovalarda keltirilgan Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Bayonotini hamda MDH davlatlarining deklaratsiyasidan olingan matnni tahlil qiling va xulosa chiqaring. Xulosangizni daftaringizga yozing.

37-§. MDH MAMLAKATLARI BILAN IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK

Rossiya Federatsiyasi bilan aloqalar

Hamdo'stlik davlatlari orasida eng qudratli, ulkan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmish Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'ldi.

1991-yil 26-oktabrda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov rasmiy davlat safari bilan Moskvaga bordi. Uchrashuvda I.Karimov va B.Yelsin ikki davlat o'rtasida muxtor vakolatxonalar ochish, bir-birlarining suverenitetini va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, tashqi siyosatda va iqtisodiy masalalarda hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

1992-yil 30-mayda I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga

davlat tashrifi paytida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnomada ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos solindi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi, elchixonalar ochildi.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni takomillashtirish va rivojlantirishda I.Karimovning 1994-yil mart oyidagi Rossiya Federatsiyasiga qilingan rasmiy davlat tashrifi ham muhim o'rinni egalladi.



I.Karimov bilan B.Yelsin o'rtasidagi muzokaralar yakunida 1994-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida Deklaratsiya, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida, harbiy sohadagi hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolandi.

Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi V.S.Chernomirdin 1995-yil 26—28-iyun kunlari rasmiy safar bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar chog'ida iqtisodiy, madaniy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladigan qator hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi imzolangan hujjatlar savdo-iqtisodiy, kommunikatsiya, fan-texnika, madaniy aloqalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 5—7-may kunlari Rossiya Federatsiyasiga qilgan rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston rahbarining Rossiya Prezidenti bilan oliy darajadagi uchrashuvi va ikki davlat boshliqlari tomonidan imzolangan qo'shma bayonot mazkur ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tardi.



Rossiya Prezidenti V.Putinning 2000-yil 18—19-may kunlari rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'lishi va I.Karimov bilan olib borgan do'stona muzokaralari har ikkala davlat uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Muzokaralar chog'ida davlat boshliqlari mamlakatlar xavfsizligiga tahdid soluvchi har qanday xavf-xatarlarga qarshi hamjihatlikda kurashishning ahamiyatini ta'kidladilar. Shuningdek, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy va xavfsizlik borasidagi hamkorlikka oid masalalar xususida ham o'zaro fikr almashdilar. Tashrif yakunida mamlakat hukumatlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari va Rossiya Federatsiyasi subyektlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish hamda xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitimlar imzolandi.

Ukraina va Belarus bilan hamkorlik aloqalari

O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarga asos solishda O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1992-yil 25—26-avgust kunlari Kiyevga rasmiy davlat tashrifi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Safar paytida Islom Karimov va Ukraina Prezidenti Leonid Kravchuk

O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi protokol va savdo-iqtisodiy hamkorlik bitimiga ham kelishildi.

1994-yil 10—11-noyabr kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Ukrainaga ikkinchi marta davlat tashrifi bilan borishi har ikkala davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yanada yuqori bosqichlarga ko'tarishga xizmat qildi. Ikki davlat hukumatlari o'rtasida 1995-yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim, Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik dasturi imzolandi.

O'zbekiston va Ukraina Prezidentlari aloqalarni rivojlantirish, qo'shma korxonalar, aksionerlik jamiyatlarini barpo etish, erkin savdo-sotiq tartibini o'rnatishga ahdlashdilar. Yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashda o'zaro hamkorlik qilishga kelishib olindi.

1995-yil 20—21-iyun kunlari Ukraina Prezidenti L.Kuchma davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. Uchrashuvda O'zbekiston va Ukraina o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibidagi muzokaralari Xalqlar do'stligi saroyida davom ettirildi. Bu yerda O'zbekiston—Ukraina hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaning 1-moddasida «tomonlar iqtisodiy islohotlarni o'tkazish jarayonida harakatlarni muvofiqlashtiradilar, O'zbekiston Respublikasi va Ukrainaning hamma shakldagi xo'jalik subyektlari, viloyatlari hamda mintaqaviy tuzilmalari o'rtasida o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarning saqlanib qolishi va rivojlanishiga ko'maklashadilar», deb aniq aytili.

1999-yilda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov va Ukraina Prezidenti L.Kuchma tomonidan imzolangan 1999—2008-yillarda o'zaro iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Unda qo'shma sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish, savdo-sotiqni yaxshilash, mahsulot va transport tranzitiga keng yo'l ochish hamda kuchaytirish kabi vazifalar aks etgan edi.

Ukraina Prezidenti Leonid Kuchmaning 2000-yil 12—13-oktabr kunlaridagi O'zbekistonga tashrifidagi I.Karimov bilan olib borgan muzokaralari chog'ida mazkur huquqiy poydevor yanada mustahkamlandi. Jumladan, GUUAM (Gruziya, O'zbekiston, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova a'zo bo'lgan norasmiy tuzilma) doirasida hamkorlik hamda Yevroosiyo transport yo'lagini tashkil etish borasida fikr almashildi. GUUAM doirasidagi hamkorlikning kengayishi transport kommunikatsiyasining rivojiga katta ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning transport-tranzit imkoniyatlarini oshiradi.

Muzokaralar yakunida o'nga yaqin hujjat imzolandi. Jumladan, Samarqand va Lvov shaharlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti bilan Taras Shevchenko nomidagi Kiyev Milliy universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, ikki mamlakat o'rtasida deportatsiya qilingan va O'zbekistondan Ukrainaga qaytish xohishida

bo'lgan shaxslarning fuqaroligi masalasini hal qilishda o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi ahdlashuv qabul qilindi.



O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1992—2003-yillarda neftni qayta ishlash, kommunikatsiya, fan-texnika, sanoat, savdo va boshqa sohalar-da hamkorlik bo'yicha 80 dan ortiq hujjat imzolandi. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida axborot almashish sohasida hamkorlik qilmoqda.

1994-yil 22-dekabrda Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko O'zbekiston-ga rasmiy tashrif buyurdi. Shu kuni Xalqlar do'stligi saroyida ikki davlat rahbarla- rining suhbatlari bo'ldi. Muzokaralar yakunida davlatlararo hamda har ikki mamlakat muammolari munosabatlariga doir 18 ta hujjat imzolandi. Jumladan, ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi. Deklaratsiyada O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi BMT Ustaviga, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik bo'yicha Xelsenkida bo'lib o'tgan Kengashning yakunlovchi Aktiga va boshqa hujjatlarga muvofiq ish yuritishi qayd qilindi. Ya'ni suveren, tenglik prinsiplari, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan zo'rvonlik qilmaslik, davlatlar chegaralarining mustahkamligi, hududiy daxlsizlik, nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, inson huquqlari va erkinliklarini, teng huquqliligini hamda xalqlarning o'z taqdiri- ni o'zi belgilash huquqini hurmat qilish, xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarini vijdonan bajarish asosida ular o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va hamkorlik muno- sabatlarini mustahkamlash hamda yanada rivojlantirish borasida sa'y-harakatlarni faollashtiradilar, deb qayd qildilar.

Ikki tomonlama imzolangan madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi shartnomada esa tomonlarning O'zbekiston va Belarus xalqlarining madaniy va ma'naviy aloqalariga tayanib, ular o'rtasida madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlikni bundan buyon ham rivojlantirishga ko'maklashishlari qayd etilgan.

O'zbekistonning Moldova, Gruzziya va Ozarbayjon bilan alo- qalari

O'zbekistonning Moldova, Gruzziya va Ozarbayjon Respublikalari bilan hamkorligi mustahkamlanib bor- moqda.

1995-yil 30—31-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Moldova respublikasida rasmiy safarda bo'lib, Moldova Prezidenti Mircha Snegur o'rtasidagi muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Respublikasi va Moldova Respublikasi o'rtasida do'stona hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Hukumatlar o'rtasida erkin savdo munosabatlarini rivojlan- tirish, fan-texnika, madaniyat va san'at, pochta xizmati, aloqa, bank sohalarida hamkorlik, samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish, ikki tomonlama soliq olmaslik to'g'risidagi o'ndan ziyod bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar izdan chiqqan alo- qalarning tiklanishi uchun huquqiy zamin yaratdi.

O'zbekiston uchun shakar, dori-darmonlar, qishloq xo'jalik texnikasi, elektro- texnika asbob-uskunalar, sug'orishda foydalaniladigan nasoslarni Moldovadan, o'z navbatida Moldova sanoati uchun paxta, kimyoviy tola, qattiq metallarni O'zbe- kistondan oladigan bo'ldi.



1996-yil 12-may kuni Ashgabadda O'zbekiston, Gruzija, Turkmaniston va Ozarbayjon Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi.

Uchrashuvda to'rtta mamlakat o'rtasida temir yo'l transporti faoliyatini muvofiqlashtirish haqida hamda tranzit yuk tashishni tartibga solish sohasida hamkorlik bo'yicha bitim imzolandi.

Mazkur bitimni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1996-yil may oyida Gruzija va Ozarbayjon Respublikalariga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Islom Karimovning Gruziyaga safarida xalqaro Trans-Kavkaz yo'li, uning Gruziyadan o'tadigan qismini barpo etish, Gruziyaning Poti bandargohi imkoniyatlaridan O'zbekiston yuklarini tashishda foydalanish masalalari bo'yicha ahdlashib olindi. Shuningdek, O'zbekiston bilan Gruzija o'rtasida moliya-sanoat guruhini tuzish, huquq-tartibot, pochta aloqasi, savdo, soliq, bojxona tizimi kabi 15 taga yaqin hukumatlararo bitimlar imzolandi.

1996-yil 27-may kuni Islom Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi Ozarbayjonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar.

Safar chog'ida O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida savdo-iqtisodiy, soliq, bojxona, havo yo'li, avtomobil va temir yo'li aloqalari, madaniy va boshqa sohalardagi munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha 20 ga yaqin hukumatlararo hujjatlar imzolandi. Ikki davlat rahbarlari xalqaro Trans-Kavkaz yo'lini barpo etish, uning Ozarbayjondan o'tadigan qismini shakllantirish, O'zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarish, Ozarbayjon bandargohlarini ta'mirlash masalalari to'g'risida kelishib oldilar. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar to'g'risida protokol imzolandi.



1997-yilda Toshkentda Ozarbayjon elchixonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Ozarbayjon Prezidenti Geydar Aliyev qatnashdilar.

1997-yilda Toshkentda Ozarbayjon elchixonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Ozarbayjon Prezidenti Geydar Aliyev qatnashdilar.

1998-yilning 6-yanvar kuni Toshkentda O'zbekiston, Ozarbayjon va Gruzija hukumat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Unda Trans-Kavkaz yo'li orqali yuk tashish hajmini yanada oshirish, o'zaro hisob-kitoblarni tartibga solish, Trans-Kavkaz yo'li infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

1998-yilning 17—18-dekabr kunlari Moldova Respublikasining Prezidenti Petru Lujinski rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Prezident Islom Karimov va Moldova Prezidenti Petru Lujinski ishtirokidagi ikki davlat hukumat delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari jarayonida prezidentlar har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risida Deklaratsiya imzoladilar.

O'zbekistonning Moldova, Gruzija va Ozarbayjon bilan keyingi yillardagi o'zaro hamkorlik yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

**O'zbekistonning
Boltiqbo'yi
Respublikalari bilan
hamkorligi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 1995-yil 6—8-iyun kunlari davlat tashrifi bilan Latviya Respublikasida bo'lishi har ikkala mamlakat hayoti uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mazkur tashrif chog'ida Islom Karimov Latviya Respublikasi Prezidenti Guntis Ulmanis bilan O'zbekiston Respublikasi va Latviya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. O'zbekiston va Latviya hukumatlari o'rtasida transport havo aloqasi, sayyohlik hamda ilmiy-texnik sohalar bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

Latviya Prezidenti G.Ulmanisning 1996-yil 23-mayda O'zbekistonga safari ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada chuqurlashtirdi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Latviya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish to'g'risida Deklaratsiya imzoladilar. Hukumatlararo fuqarolik, mehnat, huquq-targ'ibot, xalqaro avtomobil qatnovi, temir yo'l transporti, madaniyat, bojxona ishida o'zaro hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

I.Karimovning 1995-yil iyun oyida Litvaga tashrifi chog'ida Prezident A.Brazauskas bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma Deklaratsiyani imzoladi. O'zbekiston hukumati bilan Litva hukumati o'rtasida ta'lim, fan va texnika, sayyohlik, madaniyat va san'at, savdo-iqtisodiy, havo transporti sohalarida hamda bojxona qonunini buzish hollariga qarshi kurash borasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar tuzildi.

O'zbekiston Litvadan elektr uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, sut va sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlarini sotib olib, Litvaga paxta, neft, rangli metallar eksport qiladi.

2002-yilning 18—20-fevral kunlari Litva Bosh vaziri A.Brazauskasning O'zbekistonga tashrifi mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda mam-lakatimizning o'rnini aniq ko'rsatib berdi.



1. O'zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida ikki tomonlama teng huquqlilik asosidagi munosabatlarning natijalari nimalardan iborat bo'ldi?
2. Rossiya Prezidenti V.Putinning 2000-yil may oyida Toshkentga tashrifi chog'ida qanday masalalarda o'zaro bitimlarga erishildi.
3. O'zbekiston—Ukraina o'rtasidagi do'stlik munosabatlari xususida qanday ma'lumotlarga egasiz?
4. O'zbekiston va Belarus Respublikalari hamkorligi haqida so'zlab bering?
5. O'zbekiston bilan Moldova, Gruziya va Ozarbayjon o'rtasidagi do'stona aloqalar haqida nimalarni bilasiz?
6. O'zbekistonning Boltiqbo'yi Respublikalari bilan o'zaro do'stona munosabatlari qanday rivojlanmoqda?



O'zbekiston Respublikasining Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Ozarbayjon, Latviya va Litva davlatlari bilan hamkorlik aloqalaridagi eng muhim kelishuvlar haqida quyidagi jadval bo'yicha qisqacha ma'lumot yozing.

t/r	Davlatlar	O'zaro hamkorlikdagi eng muhim kelishuvlar

38-§. MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN QARDOSHLIK ALOQALARI

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi mustaqil davlatlar — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik, qardoshlarcha do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi beshta mustaqil davlat o'rtasida o'zaro bir-birlariga umumiy va o'xshash bo'lgan tomonlar anchagina ko'p. Avvalo, tarixiy o'tmishimiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligidir. Bu xalqlarimizni bir-biriga yaqinlashtiradi va o'rtada do'stona munosabatlarning mustahkamlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston mintaqa xalqlari o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish va choralari ko'rib bormoqda.



Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining birinchi uchrashuvi 1990-yil iyun oyida Almati shahrida bo'lib o'tdi.

Uchrashuv sobiq Ittifoq xali mavjudligi sharoitida uning ahvoli har tomonlama tobora og'irlashib, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tanglik kuchayib borayotgan, pul qadsizlanayotgan, narx-navo qimmatlashib, xalq turmush sharoiti tobora nochorlashayotgan sharoitda yuz bergan edi.

Markaziy Osiyodagi besh davlat iqtisodiy tanglikdan chiqish uchun resurslarni birlashtirish zarur, degan xulosaga keldilar. Besh mamlakat oliy rahbarlari O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlariga Murojaatnoma va boshqa hujjatlar imzolandi. Almati uchrashuvida davlat boshliqlari har yili uchrashuv o'tkazish to'g'risida ahdlashib oldilar.



Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi 1991-yil 13—15-avgust kunlari Toshkent shahrida bo'ldi.

Undagi eng muhim hujjat — O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalararo Maslahat Kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Maslahat Kengashining vazifasi beshta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishdan, bozor munosabatlariga o'tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan iborat deb belgilandi.



1991-yil 13-dekabrda Ashgabadda Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Tajan-Seraxs yo'l qurilishi bo'yicha bitim imzolandi. Uni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston Prezidentlari imzoladilar. Temir yo'l qurilishi haqidagi bu bitim yagona Osiyotrans magistralini yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Besh davlat boshliqlari Chernobil halokati, Orol fojiasi oqibatlarini tugatish masalasida birgalikda harakat qilish haqida qaror qabul

qildilar. Halokat zonalari aholisiga tezlikda insonparvarlik yordami jo'natishga ahdlashdilar.



1993-yilning 4-yanvarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi.

Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Shu tariqa jahon siyosiy so'zligida «Markaziy Osiyo» degan yangi atama paydo bo'ldi.

Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan mamlakatlar xalqaro huquq normalariga to'la amal qilgan holda davlat tizimiga, boshqaruv usuliga va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlat Konstitutsiyasini hurmat qilish va tan olish, faqat iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yish, yagona bozor, mol ayirboshlash imkoniyatlarini kengaytirish, bojxona va chegaralardagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi.

Ayni paytda Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlarda o'ziga xos tabiiy ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Sobiq SSSR davrida qazib olingan ko'mirning qariyb 20 foizi, gazning 18 foizi, oltinning 33 foizi, o'simlik yog'ining 26 foizi, paxtaning 92 foizi ana shu mintaqa hisobiga to'g'ri keladi. Shu masalaning o'zidayoq boy, dehqonchiligi taraqqiy topgan, xazinalari behisob bo'lgan mamlakatlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish qanchalik samarali ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Uchrashuvda 1992-yilda Tojikistonda boshlangan birodarkushlik urushi to'g'risida fikr almashindi va Tojikistonga yordam berishga kelishildi. Mintaqa xavfsizligini mustahkamlash yuzasidan maslahatlashib olindi.

Bundan tashqari, tomonlar bir-birlariga elchilar yuborishga ahdlashdilar. Orolni saqlab qolish xalqaro jamg'armasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Yagona mintaqa bozorini vujudga keltirish, don, energetika bo'yicha hamkorlik qilishga kelishildi. Fors ko'rfazi, Tinch okeanga chiqish masalalari muhokama qilindi. Xullas, Markaziy Osiyo Respublikalari boshliqlarining Toshkent uchrashuvi tarixiy voqea sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.



1993-yil 26-martda Qizil O'rdada Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida birinchi anjumani bo'lib o'tdi.

Orolbo'yi muammolarini hal etish, Orol mintaqasini sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi havzasi muammolari bilan shug'ullanuvchi davlatlararo Kengash tuzildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi. N.Nazarbayev bir yil muddatga shu jamg'armaning Prezidenti etib saylandi.

Uchrashuv qatnashchilari Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Rossiya nomidan BMT Bosh kotibi Butros G'oliyga maktub yo'llab, Orol bo'yidagi murakkab ahvol va ro'y bergan muammolarni hal etish

uchun belgilangan chora-tadbirlar haqida, shuningdek, Orol dengizi havzasi muammolarini hal qilishga jahon hamjamiyatining diqqat-e'tiborini jalb qilish zarurligi to'g'risida uni xabardor etdilar.



1993-yil 28-iyulda Almatida Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida 1994—2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi.



1994-yil 11-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari boshliqlarining Rossiya Federatsiyasi davlat delegatsiyasi ishtirokida ikkinchi konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Anjumanda Orol dengizi havzasidagi hozirgi ahvol bilan bog'liq ko'pgina masalalar, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi mablag'lari qanday to'planayotganligi muhokama qilindi, uning faoliyati ma'qullandi. Ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin 5-yil ichida bajarilishi lozim bo'lgan muayyan vazifalar belgilandi. Orol dengizini qutqarish bo'yicha davlatlararo Kengash Nizomi tasdiqlandi hamda uning Ijroiya organining rahbari tayinlandi.

O'zbekiston rahbariyati mintaqadagi mamlakatlar va xalqlar o'rtasida teng huquqli, o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatib uni mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirib bormoqda. Tojikiston xalqi boshiga musibat tushganda O'zbekistonning bergan siyosiy va iqtisodiy madadi, beshta mamlakatni O'rtayer dengizi, Hind okeani, Tinch okean bilan bog'lovchi temir yo'llar qurilishida hamda Orolni qutqarish harakatida O'zbekistonning faol ishtiroki fikrimizning dalilidir.



1994-yil 16-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida yagona iqtisodiy makon to'g'risida shartnoma imzolandi. 1994-yil 30-aprelda Cho'lponota shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida Yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi.

Uch qardosh mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik yangi pog'onaga ko'tarildi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlarining 1994-yil 8-iyul Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi ham bu uch qardosh mamlakatlar xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo'ldi. Unda o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki to'g'risida bitimlar imzolandi. Tomonlar davlatlararo Kengash hamda uning doimiy Ijroiya organini, shuningdek, Bosh Vazirlar Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Mudofaa vazirlari Kengashini ta'sis etdilar. Bunday yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlarining paydo bo'lishi O'zbekiston,

Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida integratsiya uchun huquqiy zaminni mustahkamladi. Yaxlit iqtisodiy makonning barpo etilishi bu hududda yashayotgan xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga, ularning mustaqil taraqqiyotiga ko'maklashadi.



1995-yilning yanvar oyida Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev Toshkentga keldi.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka doir bitim va qator hujjatlarga imzo chekildi. Tez orada bu bitimga Qirg'iziston ham qo'shildi. Natijada uch mamlakat o'rtasida yagona bozorni vujudga keltirish, mahsulot ayriboshlash imkoniyati yaratildi.



1995-yil 3-martda Toshhovuzda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi.

Unda N.Nazarboyev Orol dengizini qutqarish bo'yicha xalqaro jamg'arma faoliyati haqida ma'ruza qildi. Mazkur jamg'armaga mablag' ajratish masalalari ko'rib chiqildi. Jahon banki, Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti jamg'armani qo'llab-quvvatlayotgani ta'kidlandi. Orol dengizini qutqarish bo'yicha davlatlararo Kengash ijroiya qo'mitasining faoliyati amalga oshirilayotgan ishlar, rejalar muhokama qilindi.

Toshhovuz uchrashuvida Markaziy Osiyo respublikalari Prezidentlari Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini chuqurlashtirish masalalarini ko'rib chiqdilar va qo'shma Bayonot imzoladilar. Unda: «Har bir davlatning o'z taraqqiyot yo'lini, davlat va jamiyat qurilish andozalarini tanlab olish huquqini e'tirof etamiz, o'zimizning bir-birimizga nisbatan maqsadlarimiz birligiga shubha uyg'otuvchi, nodo'stona kuchlar manfaatiga xizmat qiluvchi bayonotlardan tiyilib turishga tayyor ekanimizni bayon etamiz», deyiladi. Qo'shma Bayonotda demokratik qadriyatlarga asoslangan, ekstremizmning siyosiy, diniy va boshqa shakllarini rad etadigan adolatli jamiyat barpo etamiz, bir-birimiz bilan hamda boshqa mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama hamkorlik qilamiz, deb ta'kidlandi.



1995-yil 14-aprel kuni Chimkentda O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi.

Tojikiston va Afg'oniston chegarasidagi vaziyat haqida maslahatlashib olindi. Qabul qilingan Bayonotda Tojikiston muxolifat kuchlari tomonidan 1995-yil 7-aprelda qilingan qon to'kishga olib kelgan hujum qoralandi. Hujum natijasida qurbon bo'lgan rossiyalik, qozog'istonlik, tojik chegarachilar oilalariga ta'ziya bildirildi. Bayonotda mojaroni tinch yo'l bilan, kelishuv yo'li bilan hal etish lozimligi ta'kidlandi.

Tojikistonda milliy totuvlikka erishish, tinchlikni mustahkamlashda BMT, YXHT, MDHni hamkorlik qilishga chaqirildi.

Uch davlat boshlig'i Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasini jadallashtirish bo'yicha kommyunikenim imzoladilar. Bu borada 2000-yilgacha dastur ma'qullandi.

Uchrashuvda davlatlararo Kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki («Sentrazbank»)ning axborotlari tinglandi. Uch davlat Prezidentlari mintaqa barqarorligini ko'zlab, BMT homiyligida tinchlikni ta'minlovchi birlashgan batalon tuzish maqsadga muvofiq deb ta'kidladilar va o'z hukumatlariga, Mudofaa vazirlariga bu borada davlatlararo Kengashga aniq takliflar kiritishni topshirdilar.

1995-yil 15-dekabrda Jambulda o'tkazilgan davlatlararo Kengashning navbatdagi majlisida, 1997-yil 9—10-yanvar kunlari Bishkekda va 1997-yil 12-dekabr kuni Qozog'iston Respublikasining yangi poytaxti Ostana (Oqmola) shahrida o'tkazilgan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlat boshliqlarining Kengashlarida iqtisodiy integratsiya, sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan dasturlarni hayotga joriy etish, uch mamlakat o'rtasida energetika, suv zahiralardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha tomonlar konsepsiyasi ma'qullandi, uch qardosh davlat o'rtasida abadiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.



1998-yil 5—6-yanvar kunlari Ashgabadda Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida munosabatlarning hozirgi ahvoli va istiqbollari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, uchrashuv chog'ida neft va gaz uzatish, transport hamda kommunikatsiyalar tarmoqlarini rivojlantirish masalalari ham qarab chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy siyosatning tomonlarni qiziqtiruvchi jihatlari bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Besh davlat boshliqlarining Qo'shma bayonoti imzolandi. Tomonlar mazkur Bayonot orqali o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash yo'lini qat'iyat bilan davom ettirajagini bildirdilar. Beshala davlatning milliy manfaatlariga, mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikka mos keladigan do'stona, teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni chuqurlashtirishga sodiq ekanligi tasdiqlandi. Tomonlar mintaqadagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi Shartnomaning muhimligini ta'kidladilar. Tojikiston Prezidenti I.Rahmonov mazkur yagona iqtisodiy hududga Tojikiston ham qo'shilishini bildirdi.



1998-yil 26-martda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasidagi davlatlararo Kengash majlisi bo'lib o'tdi. Unda Tojikiston Prezidenti I.Rahmonov ham ishtirok etdi.

Kengashda yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnoma doirasida olib borilayotgan hamkorlik, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida 1994-yil 30-aprelda imzolangan yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnomaga Tojikiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi protokol imzolandi. Kengashda mintaqaviy integratsiyani yanada

chuqurlashtirish to'g'risida to'rt davlat rahbarlarining Bayonoti, xalqaro suv-energetika konsorsiumi to'g'risidagi qaror, to'rt mamlakat o'rtasida qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirishning umumiy tamoyillari to'g'risida bitim imzolandi.



O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2000-yil 20—21-aprelda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida mintaqa mamlakatlari xavfsizlik organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini kengaytirishning huquqiy poydevorini yaratish bilan bog'liq masalalar bo'yicha fikrlashib olindi. Bu masalaning nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligini jangari ekstremistik kuchlarning 1999-yilda Qirg'izistonning Botkent tumaniga bostirib kirganligi bilan bog'liq qonli fojialar ochiq-oydin ko'rsatgan edi. Shu boisdan ham Sammit qatnashchilari xalqaro terrorchilik, diniy va siyosiy ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, mintaqa barqarorligiga tahdid soluvchi boshqa omillarga qarshi hamkorlikda kurash to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdilar.

2000-yil 20-avgustda Bishkek shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyodagi to'rt davlat boshliqlarining Kengashini Toshkent Sammitining bevosita davomi bo'ldi, deb atasa bo'ladi. Bu galgi uchrashuvda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlaridan tashqari Rossiya Federatsiyasi xavfsizlik kengashi kotibi S.Ivanov ham qatnashdi. Buning sababi shundaki, Markaziy Osiyo mintaqasida ekstremistik jangari kuchlar bilan bog'liq qonli fojialarning sodir etilganligi Checheniston va Afg'onistonda kechayotgan voqealar zanjirining bir bo'lagi sifatida baholandi. Shu bois, ularga qarshi birlashib kurash olib borish fursati yetganligini Bishkek uchrashuvi qatnashchilari qayd etdilar. Uchrashuv yakunida Bayonot qabul qilindi. Unda jumladan bunday deyilgan edi: «Biz BMT Xavfsizlik Kengashi, YXHT, Islom Konferensiyasi Tashkilotiga, dunyoning barcha mamlakatlariga yana bir bor murojaat etib, xalqaro terrorchilik va ekstremizmni faqat keskin qoralash bilan cheklanib qolmay, balki quruq bayonotlardan ushbu global tahdidni tag-tomiri bilan sug'urib tashlashga yo'naltirilgan muvofiqlashtirilgan amaliy harakatlarni ishlab chiqishga da'vat etamiz».

Uchrashuv chog'ida mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov haqli suratda ta'kidlagani singari dunyoning boshqa hududlaridagi mojarolarni darhol bostirishga harakat qilgan (Iroq—Quvayt, Bosniya mojarolari) BMT, NATO singari nufuzli xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar 20 yildan ortiq davom etib kelayotgan Afg'oniston mojarolariga va Tojikiston muammolariga e'tiborsizlik qilishayotgan edilar.



2001-yilning birinchi haftasida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining Almati shahrida uchrashdilar.

Muloqot chog'ida mintaqaviy hamkorlikning ahvoli, uning istiqbollari atroflicha tahlil qilindi. Xususan, iqtisod, fan-texnika borasidagi hamkorlik, mintaqada tinchlikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy olib kirishga qarshi birgalikda kurashish yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Markaziy Osiyo respublikalari Iqtisodiy Hamjamiyati Forumini chaqirish to'g'risida taklif kiritdi. Mazkur taklif Sammit qatnashchilari tomonidan yakdillik bilan ma'qullandi. 2002—2003-yillarda ushbu Sammit o'z ishini davom ettirdi.

Turkiston — umumiy uyimiz

O'zbekiston Prezidenti I. Karimov o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha boshqa xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib «Turkiston — umumiy uyimiz» degan g'oyani ilgari surdi. Mintaqa jamoatchilik vakillarini, birinchi navbatda, ijodkor ziyolilar-yozuvchilar, tarixchilar va boshqalarning e'tiborini Turkiston tarixiy birlik tuyg'usini qaytadan tiklashga qaratdi.



Prezident I. Karimov tomonidan 1995-yil 5-mayda Oliy Majlis ikkinchi sessiyasida «Turkiston — umumiy uyimiz» shiorining ilgari surilishi, uning mazmuni va ko'zlangan maqsad mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdir.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. Chunki, bu hududda asrlar mobaynida ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya va madaniyat uyg'un holda turmush tarziga aylangan. Axloq har qanday sharoitda ham insoniylik va insoniy barkamollikning bosh tamoyili sifatida tan olingan. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro yordam, bozor munosabatlari, savdo-sotiq, mol ayirboshlash ham qadimdan yuksak axloq va odobga tayangan madaniy munosabatning bir qismi hisoblangan.

Xalqlarimiz dunyoqarashi, maqsad va intilishlarini ifoda etgan xalq og'zaki namunalari ana shu zamin ahlining butun ruhiyatini qamrab olgan. Jumladan, o'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlarida «Alpomish», Turkmaniston, Ozarbayjon va O'zbekistonda «Go'ro'g'li» dostonlarining, qirg'izlarda «Manas» xalq eposining vujudga kelishi, ularda qariyb bir xil — ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik kurashida to'g'rilik va adolatning tantanasi, donishmandlik, aql-idrok, xushxulq va xushfe'llik asosiy g'oya qilib olinganligi ana shu xalqlar qarashlarining uyg'unligidan dalolat beradi.

Ulkan ma'naviy yodgorlik — «Avesto»dagi, yozma adabiyotda — Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi singari falsafiy-axloqiy g'oyalar, tojiklarda Umar Xayyom, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Rudakiy, Sa'diy, Sheroziy, o'zbeklarda Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Alisher Navoiy, qozoqlarda Abay, turkmanlarda Maxtumqulilarning buyuk insonparvar g'oyalari dunyo madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini vujudga keltirish, ularning suverenitetini hurmat qilgan holda, qadimdan hamkor-u hamfikir bo'lib kelgan xalqlarni yaqinlashtirish va shu asosda o'tish davri murakkabliklarini yengish eng hayotiy, eng ishonchli va eng samarali usuldur. Bu ayni paytda yuqorida tilga olingan ulug' ajdodlarimiz qarashlariga va mintaqa xalqlari maqsadlariga to'la mos keladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bunday hodi-

sani o'z vaqtida chuqur baholadi va dolzarb masala qilib ko'tardi. Markaziy Osiyoda hududiy joylashishi jihatidan ham, yer osti va yer usti boyliklariga egaligi, xullas, iqtisodiy ko'lam va madaniy darajasi jihatidan ham O'zbekiston Markaziy Osiyoda alohida mavqega ega.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy yo'li aniq. Bu yo'l mintaqada yaxlit iqtisodiy hududni vujudga keltirish va rivojlantirishdan iborat.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning 1995-yil 23-fevraldagi birinchi sessiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni belgilab shunday degan edi:

«Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqlarimiz tarixi, madaniyati an'analari, diniy e'tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning muhim poydevori hisoblanadi. Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, hal qilib bo'lmaydigan voqealar ham yo'q».

Markaziy Osiyo xonadoni — qadimiy xonadon. U o'z shonli tarixiga, buyuk an'analarga, dunyoviy madaniyatga ega bo'lgan ulkan va fayzli oila. Ana shu mintaqada mavjud bo'lgan tarixiy an'analarni davom ettirish, ularni yangi tarixiy sharoitlarda boyitib borish, kelgusi avlodga har tomonlama yetuk, barkamol jamiyatni meros qoldirish hammamizning burchimiz.

Mintaqa ziyolilari, Turkiston zaminida yashovchi barcha xalqlarni yaqinlashtirish maqsadida yurgan sog'lom kuchlar bu g'oyani qo'llab-quvvatladilar. «Turkiston — umumiy uyimiz» deb nomlangan jamoatchilik harakati tashkil topdi.



1995-yil 21-noyabrda Toshkentda Markaziy Osiyo ziyolilari ishtirokida «Qardosh xalqlar uchrashuvi» mavzuida Xalqaro qurultoy bo'lib o'tdi.

Qurultoyda «Turkiston — umumiy uyimiz» harakatini birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatlagan mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ma'ruza qildi. Ma'ruzachi va so'zga chiqqan qardosh xalqlar vakillari mintaqada yashab o'tgan ajdodlarimiz ruhi bilan olis istiqbolda tug'ilajak avlodlar bog'liqligi, mintaqa yaxlitligi, yagona Turkiston tuyg'usining muqaddasligi haqida so'zladilar. Qurultoyda «Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi» tashkil etildi. Chingiz Aytmatov uning prezidenti etib saylandi. Assambleyaning qarorgohi Toshkent shahrida bo'lib, Bishkek va Almatida uning bo'limlari tashkil etildi.

1997-yilda Bishkekda «Mustaqillik vaziyatida ma'naviyat masalasi» mavzuida simpozium bo'lib o'tdi. Simpoziumda qardosh xalqlar ma'naviyatining yangi sharoitdagi holati va rivojlantirish muammolari haqida qimmatli fikrlar bildirildi.

1997-yil aprel oyida Toshkentda taniqli qozoq adibi Muxtor Avezov ijodiga bag'ishlangan «Muxtor Avezov va o'zbek adabiyoti» mavzuida ilmiy konferensiya bo'ldi. O'sha yili may oyida «Mustaqillik — baxtimiz, toleimiz, kamolimiz» mavzuida mushoira, «Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari xalqlari ste'riyatining buguni va ertasi» mavzuida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

1997-yil oktabrda Assambleya Almatida «Muxtor Avezov va jahon adabiyoti» mavzuida uning 100 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazdi.



1997-yil oktabr oyidan boshlab Assambleya tashabbusi bilan 8 sahifalik «Markaziy Osiyo madaniyati» nomli haftalik gazeta o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik va rus tillarida chiqarilmoqda.

Bu tadbirlar mintaqa xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda.



1. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining 1990-yil iyun va 1991-yil avgust uchrashuvlarida qanday hujjatlar qabul qilindi?
2. Orolni qutqarish bo'yicha Davlatlararo Kengash va xalqaro jamg'armaning tuzilishi hamda faoliyati haqida so'zlab bering.
3. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makonni tashkil etish bo'yicha qachon va qanday hujjatlar qabul qilindi?
4. O'zbekiston rahbariyati Tojikistondagi mojarolarni bartaraf etish bo'yicha qanday takliflarni ilgari surdi?
5. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasidagi Iqtisodiy integratsiya dasturi to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?
6. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlari qachon abadiy do'stlik haqida shartnomani imzoladilar, uning mohiyati nimalardan iborat?
7. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida qaysi sohalar bo'yicha va nima maqsadda xalqaro konsorsiumlar tuzishga ahdlashildi?
8. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida olib borilayotgan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlar qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?
9. «Turkiston — umumiy uyimiz» g'oyasining mazmuni va mohiyatini qanday tushunasiz?



Gazetalardan keyingi bir yil ichida Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlarining bo'lib o'tgan uchrashuvlari, unda muhokama qilingan masalalar, imzolangan hujjatlar va kelishuvlar haqidagi ma'lumotlarni daf-taringizga yozing.

39-§. BUYUK IPAK YO'LI — TARAQQIYOT YO'LI

Boku Deklaratsiyasi Buyuk ipak yo'li Sharq-u G'arbni bog'lab turgan, siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan voqeylkdir.



Birinchi marta Bryussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'laydigan «Yevropa—Kavkaz—Osiyo» transport yo'lasi — TRASEKAni barpo etish masalasi ko'rib chiqildi va shu bo'yicha Deklaratsiya qabul qilindi.

Aytish mumkinki, ayni shu uchrashuv Buyuk Ipak yo'lini tiklash borasidagi

dastlabki amaliy qadam bo'ldi. Darvoqe, tarixda Mashriqdan Mag'ribga, Mag'ribdan Mashriqqa o'tgan yo'llar ko'p bo'lgan. Ular muayyan sabablarga ko'ra turlicha nomlangan. Jumladan, «Lazurit yo'li», keyinroq «Shoh yo'li», «Buyuk Ipak yo'li»... Bugun esa — TRASEKA deb atalmoqda.



O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 1998-yil 8-sentabr kuni Ozarbayjon poytaxtida ish boshlagan Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.

TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga nafaqat unga ishtirokchi mamlakatlar, balki jahondagi boshqa davlatlar ham katta qiziqish bilan qaramoqda. Mazkur anjumanda jahonning 32 mamlakati qamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Jahon banki kabi o'ndan oshiq nufuzli xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etdi.

1996-yili Seraxsda Markaziy Osiyo bilan Eron temir yo'l tarmoqlarning tutashtirilgani TRASEKA loyihasini amalga oshirishda dastlabki katta ishlardan biri bo'lgan edi. Xuddi o'sha, 1996-yil 13-may kuni O'zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston o'rtasida o'zaro erkin tranzit to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Buyog'i Yaponiyadan to Adriatika dengiziga qadar cho'zilgan ushbu qadim karvon yo'lining muhim bo'lagidan foydalanishni boshlagan respublikalarning sarf-xarajati kamayadi.

Birgina O'zbekiston uchun mazkur shartnoma kuchga kirganidan so'ng paxta tashishga ketadigan harajatning 12 million dollari iqtisod qilinadi. Chunki, TRASEKA shimoliy yo'nalishga nisbatan 2 ming kilometr qisqadir. Qolaversa, mintaqa iqlimi undan yil davomida to'xtovsiz foydalanish imkonini beradi. Masalan, O'zbekiston o'z paxtasini, Qozog'iston va Rossiya orqali Ukraina portlariga yetkazish uchun tonnasiga 100 dollardan ziyod mablag' sarflaydi. TRASEKA orqali tashilganda esa ushbu ko'rsatkich 55 dollarni tashkil etadi, xolos.

TRASEKA loyihasining amalga oshishi O'zbekistonni Yevropa va Osiyo transport tarmoqlariga tutashtiribgina qolmasdan, uning eksport imkoniyatlarini oshiradi, loyihada ishtirok etuvchi mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yanada kengaytiradi. 1996-yil Trans—Kavkaz yo'lagi bo'yicha O'zbekistonga keltirilgan va olib chiqib ketilgan mahsulot hajmi salkam 140 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1997-yili bu ko'rsatkich 285 ming tonnaga yetdi.

O'zbekiston bugun TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etish bilan cheklanib qolmay, transport kommunikatsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish borasida boshqa loyihalarni ham amalga oshirayotir. O'zbekiston qo'shni Qirg'iziston hamda Xitoy bilan Toshkent-Andijon-O'sh-Irkeshtom yo'lini qurish va ta'mirlash bo'yicha yaqindan hamkorlik qilayotir. Buyuk Ipak yo'lining bir qismi hisoblanmish bu yo'nalish Yevropa mamlakatlarini Osiyo davlatlari bilan bog'laydi.

Konferensiyada ishtirok etgan davlatlar rahbarlari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari TRASEKA yo'lagini rivojlantirish, transport infratuzilmalarini yanada takomillashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, TRASEKA doirasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida o'z nuqtai nazarlarini bayon qildilar. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning takliflari konferensiya ishtirokchilari tomonidan qizg'in kutib olindi.

Islom Karimov TRASEKA loyihasini amalga oshirish, umuman, qadimiy Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash zarurati ayrim kishilarning xohishidan emas, balki vaqt, sharoit, dunyoviy taraqqiyot talablari natijasida paydo bo'layotganini alohida ta'kidladi.

— **Qadim zamonlardayoq hayotning o'zi odamlarning o'zaro hamkorligi uchun qisqa va qulay yo'llarni qidirishga majbur bo'lgan**, dedi Islom Karimov. **Bunga faqatgina savdo-sotiq ehtiyoji emas, balki mustahkam iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalarni o'rnatish zaruriyati ham sabab bo'lgan.**

Ayrim kuchlar TRASEKA doirasidagi hamkorlikka siyosiy tus berishga harakat qilmoqda. Ularning maqsadlari aniq: o'zlaricha go'yoki dunyoning yangidan bo'linishi va shunga o'xshash «o'yin»larni o'ylab topib mamlakatlar, xalqlar o'rtasiga nifoq solish, taraqqiyotga to'siq bo'lishdan iborat. Mamlakatimiz rahbari masalaning shu jihatiga e'tibor qaratib, bunday harakatlarga mutlaqo barham berish kerakligini aytdi. Shuningdek, Islom Karimov Yevropa—Kavkaz—Osiyo transport yo'lagi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish, mazkur yo'nalishda joylashgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish, qolaversa, millatlararo hamda davlatlararo muammolarni yechishda katta samara berajagini aniqladi.

Hozirga qadar jahonning 50 ta mamlakati TRASEKA yo'lagi orqali o'z yuklarini manzillariga yetkazmoqda. Mazkur loyihaga qo'shilishini istovchi mamlakatlar soni ham tobora oshib boryapti. TRASEKA dasturini amalga oshirishda Yevropadagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar yaqindan yordam ko'rsatyapti. Mazkur yo'lakdan Sharq ham, G'arb ham birday manfaat topadi. Markaziy Osiyo va Kavkaz uchun jahon bozoriga keng yo'l ochiladi. Yevropa mamlakatlari uchun esa o'z mahsulotlarini Kavkaz va Markaziy Osiyo bozorlariga kiritish, mazkur mintaqalarda o'zlarining moliyaviy ishtirokini kuchaytirish imkoniyati tug'iladi.

Boku konferensiyasida TRASEKA loyihasini amalga oshirish bo'yicha hukumatlararo komissiyani tashkil etish, uning doimiy kotibiyatini ta'sis qilish va bosh qarorgohini Bokuda joylashtirish bo'yicha o'rta tashlangan taklif ishtirokchilar tomonidan ma'qullandi. TRASEKA loyihasini amalga oshirishda uni mablag' bilan ta'minlash masalasi ham ishtirokchilar tomonidan atroflicha ko'rib chiqildi va TRASEKA banki tashkil etish takliflari bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

Anjuman nihoyasida Yevropa—Kavkaz—Osiyo yo'lagini rivojlantirish bo'yicha xalqaro transport to'g'risidagi ko'p tomonlama Bitim imzolandi. Mazkur hujjat xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni rivojlantirish va boshqarish transport sohasidagi huquqiy mezonlarni o'zaro muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, anjumanida Boku Deklaratsiyasi hamda Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'yicha yakuniy Kommyunike qabul qilindi.

**TRASEKAdagi
ishonchli hamkorlar**

TRASEKA dasturi bo'yicha ishlarni amalga oshirish jarayonida bu dastur ishtirokchilari bo'lgan davlat orasidagi hamkorliklarni yanada kuchaytirdi.



Gruziya Respublikasi Prezidentining 1999-yil 9-martdagi Toshkentga qilgan amaliy tashrifida TRASEKA dasturini amalga oshirish bo'yicha qator masalalar muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston va Gruzziya Prezidentlari ommaviy axborot vositalari vakillari bilan matbuot anjumani o'tkazildi. Unda ikki mamlakatning TRASEKA dasturi doirasidagi ishtiroki xususidagi savolga javob berar ekan, mamlakatimiz rahbari Trans—Kavkaz yo'li O'zbekiston uchun ulkan ahamiyatga molik, ta'bir joiz bo'lsa, strategik ahamiyat kasb etadigan masala ekanini ta'kidladi. **«Buyuk Ipak yo'lini tiklash, TRASEKA doirasida bugun amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat savdo-iqtisodiy, balki katta siyosiy ahamiyat kasb etadi»**, dedi Islom Karimov.

Birgina 1998-yili Gruzziyaning Poti porti orqali qariyb 725 ming tonna yukning mamlakatimizga tashib keltirilganligining o'ziyoq uning beqiyos ahamiyatga ega ekanidan dalolatdir. Zero, Yevropa Ittifoqi tarkibidagi deyarli barcha davlatlar mazkur loyihada bajonidil ishtirok etish istagini bildirayotgani ham bejiz emas.



1999-yil 15-mart kuni Turkiya Prezidenti Sulaymon Demirel Toshkentga keldi.

Shu kuni Prezidentlar o'zaro munosabatlarning bugungi ahvoriga doir qator masalalarni ko'rib chiqdilar. Tomonlarni qiziqtirgan xalqaro ahamiyatga molik muammolar xususida ham o'zaro fikr almashishdi. Prezidentlarning yakkama-yakka suhbatida terrorchilik, uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarog' va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi kurashda hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga kelishib olindi.

Shundan so'ng Prezidentlar ishtirokida ikki mamlakat delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Unda siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalar bo'yicha ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. Prezident Islom Karimov O'zbekiston—Turkiya munosabatlariga to'xtalar ekan, bu borada O'zbekiston ustuvor deb qaraydigan sohalar xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Ikki mamlakat o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1992-yilda 75 million AQSH dollarini tashkil etgan edi. O'tgan yili bu ko'rsatkich 275 millionga yetdi. Samarqanddagi «Sam-Kochavto» qo'shma korxonasi iqtisodiy hamkorlik yuqori pog'onada ekanini yana bir tasdiqlaydi. Umuman, Turkiya O'zbekistonga eng ko'p sarmoya kiritgan mamlakat hisoblanadi. Lekin shunday bo'lsa-da, ko'proq e'tibor qaratadigan ayrim jihatlar ham mavjud. Masalan, ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiyaning faoliyati so'nggi paytlarda susaydi. Muzokaralarda bunday masalalarni hal etish yuzasidan ham fikr almashildi.

Muzokaralarda transport kommunikatsiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Islom Karimov O'zbekiston Turkiyaning erkin iqtisodiy zonalarida joylashgan: Istanbul, Trabzon, Adana, Mersin kabi shaharlaridagi portlardan, omborlardan foydalanish tarafdori ekanini va bu masala bo'yicha muzokaralar boshlashga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun yanada keng imkoniyatlar ochishini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, muzokaralarda ilm-fan, madaniyat, ta'lim sohaları bo'yicha o'zaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.



1999-yil may oyida Bolgariya Prezidenti Petar Stoyanov rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi.

Uchrashuvda xalqaro hayotdagi dolzarb voqealar, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning bugungi ahvoli, o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora tadbirlar va boshqa masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Prezidentlarning o'zaro muloqoti oxiriga yetgach, ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Muzokaralarda asosiy e'tibor ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish masalasiga qaratildi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Bolgariya o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdan har ikki tomon ham birdek manfaat ko'rishi ta'kidlandi. Bu ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik haqida gapirganda, avvalo, kommunikatsiya va tranzit masalasiga to'xtalish kerak bo'ladi. Bu borada asosiy dastur TRASEKA loyihasi hisoblanadi. Sharq va G'arbni bir-biriga birlashtiradigan mazkur transport yo'lagini to'la quvvatda ishga tushirish uchun u o'tadigan mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Negaki, mazkur yo'lak bu yo'nalishdagi barcha davlatlarga bir xil foyda keltiradi. Xususan, nafaqat Bolgariya, balki Yevropa bozoriga chiqishimiz uchun ham Bolgariyaning Varna shahri portlaridan foydalanishimiz mumkin. Bolgariya esa O'zbekiston orqali nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo bozoriga chiqishi mumkin.

Muloqot chog'ida, shuningdek, ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalarni, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish borasida ham so'z bordi. Muzokaralar nihoyasida ikki tomonlama qator qo'shma hujjatlar imzolandi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1999-yil 6-aprel kuni Do'rmon qarorgohida Yaponiyaning «Kezzay Doyukay» korporativ rahbarlar uyushmasi prezidenti Koichi Minaguchi rahbarligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi.

O'zbekiston Prezidenti Yaponiya bilan hamkorlik qilishga alohida e'tibor berdi. 1995-yildan buyon Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi bir milliard AQSH dollaridan oshib ketdi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi esa 1998-yilda 117 million AQSH dollarini tashkil qildi. Bu 1997-yildagiga nisbatan 27 foiz ko'p.

O'zbekiston—Yaponiya iqtisodiy hamkorligi ulkan loyihalarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, Ko'kdumaloq va Sho'rtandagi neftgaz sanoati inshootlarini shular jumlasiga qo'shish mumkin. Yaponiyaning O'zbekistonga imtiyozli kreditlar berayotgani ham diqqatga sazovor. Ayni paytda Yaponiyaning o'nlab firma va kompaniyalari O'zbekistonda ana shunday turdagi kreditlar bo'yicha ishlamoqda.

Uchrashuvda yaponiyalik mehmonlarga xususiyashtirish, kommunikatsiya va ta'lim sohalarida hamkorlikni rivojlantirish taklifi ilgari surildi. Xususan, mamlakatimizga tashrifi chog'ida Yaponiya delegatsiyasi a'zolariga xususiyashtirilayotgan yirik korxonalar ro'yxati taqdim qilindi.

Prezident Islom Karimov qurilishi boshlab yuborilgan Andijon—O'sh—Qashqar temir yo'li va shu yo'nalishdagi avtomobil yo'li haqida ham so'zlab, Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash doirasida amalga oshirilayotgan bu loyiha O'zbekistonni Xitoy portlari orqali Yaponiya bilan bog'lashini ta'kidladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston—Yaponiya iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishida «Keyzay Doyukay» muhim o'rin tutadi. Masalan, mamlakatdagi eng yirik kompaniya va korporatsiyalarning rahbar xodimlaridan tashkil topgan bu uyushma tashabbusi bilan O'zbekiston Yaponiya hukumati imtiyozli kreditlar ajratishni ko'zda tutadigan davlatlar sarasiga kiritilgan. Uyushmaning o'ziga xosligi va mamlakatdagi boshqa ishbilarmonlar tashkilotlardan farqi shuki, uning a'zolari garchi yirik firma va kompaniyalar rahbari bo'lishiga qaramay, oddiy tahlilchi-iqtisodchi sifatida ishlaydi. Ular faqat iqtidoriga qarab qabul qilinadi.

Uchrashuvda Prezident Islom Karimov mamlakatimizda chet ellik ishbilarmonlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoit, O'zbekistonning iqtisodiy siyosati, xorijdagi moliyaviy muassasalar bilan hamkorligi borasida so'zladi.

«Keyzay Doyukay» delegatsiyasi rahbari 1997-yilda O'zbekistonni ziyorat etganidan so'ng bu yerda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilganiga guvoh bo'lganini ta'kidladi. «Dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiy inqirozni boshdan kechirayotgan bo'lishiga qaramay, O'zbekiston iqtisodiy yutuqlarga erishayotgani amalga oshirayotgan islohotlaringizga ishonchimizni yanada oshiradi»,— dedi mehmon.

Yaponiya delegatsiyasi tarkibida ushbu mamlakatning sobiq davlat iqtisodiy rejalashtirish vaziri, ayni paytda parlament a'zosi Taro Aso ham bor edi. Prezidentimiz bilan uchrashuvda u Yaponiya hukumating yangi imtiyozli kreditlari haqida ma'lum qildi. Uning ta'kidlashicha, mamlakatimiz viloyatlarida telekommunikatsiya sohasini zamonaviylashtirish uchun 12,7 milliard, onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish uchun 670 million iyen miqdorida kredit ajratiladi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston bilan Yaponiya korporativ rahbarlar uyushmasi o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan boshqa ko'plab masalalar ham muhokama qilindi.



1. TRASEKA «Buyuk Ipak yo'lini tiklash» haqidagi harakat ekanligani asoslang.
2. Boku konferensiyasi qachon bo'ldi? Unda ko'rilgan masalalar haqidagi fikringiz.
3. TRASEKA yo'laginging O'zbekiston va boshqa mamlakatlar uchun ahamiyatini ko'rsatib bering.
4. O'zbekiston va Gruziya munosabatlari haqida fikrlaringiz? Trans—Kavkaz yo'laginging O'zbekiston uchun ahamiyati nimada?
5. Turkiya va O'zbekiston munosabatlari haqidagi fikrlaringiz.
6. G'arb va Sharqni tutashtiruvchi yo'lak o'tadigan Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlar haqidagi fikrlaringiz.
7. Buyuk Ipak yo'li bilan TRASEKAni solishtiring, ularning ahamiyatini aniqlang?



«TRASEKA yo'li — taraqqiyot yo'li» mavzusida fikr-mulohazalaringizni yozing.

40-41-§§. MINTAQAVIY MOJAROLAR VA XALQARO TERRORIZM

Yangicha tafakkur strategiyasi

Yaqinda yevropaliklar Berlin devori qulaganining o'n yilligini bayram qilishdi. Aslini olganda bu bir millatni ikkiga ajratib yuborishdek nobakor siyosatni, ikki bir-biriga zid mafkura kurashini barbod etgan katta tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ulug' sana. Bu bevosita jahon sotsialistik tuzumining barbod bo'lishi, xususan, totalitar tuzumga asoslangan SSSR deb atalmish davlatning inqirozga uchrashi bilan belgilanadi. Bu tarix haqiqati.



SSSR nomi bilan bog'liq bo'lgan «sovuq urush» siyosati barbod bo'lgach, insoniyat hayotiga tahdid soladigan, uni inqirozga olib boradigan, olamshumul taraqqiyot yo'lini bo'g'adigan yangi omillar vujudga kelishi mumkinligini, inson tafakkuri va fe'l-atvoridan kelib chiqadigan mantiqiy hodisaligini birinchi bo'lib O'zbekiston rahbari Islom Karimov aytgani va uni dunyo minbaridan turib o'rtaga tashlagan edi.

O'sha paytlarda kimlardir bu g'oyalarga ishonmadi, kimlardir shunchaki yo'l-yo'lakay aytilgan gap sifatida qabul qildi. Biroq, hayot haqiqati achchiq va shafqatsiz, vaqt berahm hakam. U bor haqiqatni ko'rsatdi-qo'ydi.

Davlatimiz rahbarining BMT, YXHT va boshqa bir necha o'nlab tashkilotlar minbarlaridan turib, shuningdek, davlat tashriflari chog'idagi uchrashuvlar va suhbatlarda mintaqaviy mojarolar, xalqaro terrorizm xavfi xususida bildirgan butunlay yangi g'oyalari keyinroq, ya'ni 1997-yili yaxlit strategik konsepsiya — «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot kafolatlari va barqarorlik shartlari» nomli asar sifatida dunyoga keldi. Xalqaro jamoatchilik e'tirofini qozongan ushbu kitob jahon siyosatida favqulotda yangilik sifatida qabul qilindi va dunyoning bir necha o'nlab mamlakatlarida tarjima qilinib, nashr etildi.

Prezident Islom Karimov o'z asarida Yer yuzidan «sovuq urush» vasvasasi yo'qoldi, biroq endi mamlakatlararo, mintaqaviy nizolar, ma'lum bir hududlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar butun dunyo taqdirini belgilaydigan ulkan xavfga aylanishi mumkin degan tashvishni bildirgan edi. Afg'oniston voqealari va Tojikistondagi xunrezliklar misolida gapirib, bunday salbiy hodisalar Yer sharining turli mintaqasida turli shakllarda va turli maqsadlarda yuz berishi mumkinligini, bular qanday shaklda va maqsadlar yo'lida vujudga kelmasin inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga tajovuz ekanligini, u bilan mutlaqo murosasiz qilib bo'lmasligini ko'rsatib o'tgan edi.

Darhaqiqat, Afg'onistonda urush boshlanganiga yigirma to'rt yildan oshdi. Shu davrda tug'ilganlarning ko'rgani o'lik, qon, jarohat va yovuzlik bo'ldi! Jajji qo'llari o'lik ushlab, tetapoya oyoqlari bilch-bilch qon bosib o'sdi! Maktab ko'rmadi, ma'rifat nima bilmadi, kitob o'qimadi, qalam ushlamadi! Ushlagani o'q-dori, qurol-yarog', o'ylagani yovuzlik bo'ldi! Hayotda bundan ortiq jaholat bormi? Jaholatning mezonlari, o'lchovlari, miqyoslari, chegaralari bormi? Kim uni ko'rsata va belgilay oladi? Agar butun millat farzandlari yillar mobaynida shu alpozda tug'il-sa-yu shu alpozda tarbiyalansa millat taqdiri, uning istiqboli qanday bo'ladi? Kim bunga javob bera oladi? Tarix oldida, millat oldida, o'tmish ajdod-

lari va kelgusi avlod oldida, umuman, kelajak oldida kim o'zini ko'rsata biladi va qanday javob bera oladi? Prezident Islom Karimovning yuqoridagi gaplarida xuddi ana shunday achchiq haqiqat yotadi.

Darhaqiqat, yovuzlik va qonxo'rlikning millati yo'q. U har qanday suverenitet, mustaqillik, davlat chegaralari, hududiy yaxlitlik degan eng oliy qadriyatlarni inkor qiladi. O'zining yashashi uchun qulay imkoniyat qidiradi. Natijada bir mamlakat hududida yuzaga kelgan o'zaro nizolar tashqaridan turib unga homiylik qiladigan kuchlar ta'sirida tez rivojlanib, nisbatan bo'shroq devorni qulatilib, keyingi hududga bostirib kiradi. Begunoh odamlarni qaqshatadi.

Prezident Islom Karimov mintaqaviy mojarolar xususida va terrorizmning rivojlanishiga imkon beradigan omillar haqida gapirar ekan, yana bir muhim holatga alohida to'xtaladi va uni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan nihoyatda katta potentsial xavf-xatar, deb ataydi. Mojarolarning, kelishmovchiliklarning va ziddiyatlarning kelib chiqish omili sifatida chegaralar orqali bo'lib, yuborilgan xalqlar taqdiriga tahdid solish, ularning o'zaro munosabatlariga putur yetkazish, azaldan qondosh-jondosh, bir millat vakili bo'lib kelgan, qarindosh-urug' bo'lib ketgan aholini chegaralar tufayli bir-biriga qarshi qo'yish hollari ham mavjudligini uqtirib o'tadi.

Ana shunday holatni nazarda tutib, Prezident Islom Karimov: «Afg'oniston bilan chegaraning ikki tomonidagi tojiklar yoki o'zbeklarni, yo bo'lmasa pushtun qabilalarini birlashtirish foydasiga sun'iy dalillar to'planmoqda. Mavjud chegaralarni etnik asosida o'zgartirish yo'lidagi har qanday urinish qanday oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilishning o'zi dahshatli. Mintaqamizdagi chegaralarni o'zgartirish butun jahon hamjamiyati uchun dahshatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Hatto Bosniya va Gersegovinadagi mojarolar bu mudhish voqealar oldida «holva» bo'lib qolishi hech gap emas»,— dedi.



Darhaqiqat, bugun Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston va Afg'oniston hududida yashayotgan o'zbeklar va ayni O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 130 ga yaqin millat va elatdan iborat bo'lgan aholi tarkibidagi qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, tojiklar o'rtasida nizo keltirib chiqarish, ularni bir-biriga qarshi qo'yish butun mintaqani jarga qulatishdan iborat bo'lgan mudhish hodisadir. Ayni ma'lum bir mamlakat, ma'lum bir mintaqaxalqlari o'rtasidagi nizolar hamisha faqat uning fojiasi bo'lib qolmasligi, u ayni paytda butun insoniyat fojiasi, Yer shari taqdiri bilan bog'liq bo'lgan halokat ekanligini anglashga da'vat etadi.

Istalgan bir mamlakatda yoinki hududda qurolli to'qnashuvlar, qon to'kishlar yuz bersa, avj olsa naqadar mudhish oqibatlarga olib kelishini Prezident Islom Karimov shunday ifodalaydi: «Qurolli mojarolar keskinlashgan taqdirda chegaralarni tan olmasdan, qo'shni davlatlar hududiga yopirilib kirishga tayyor turgan qochoqlar muammosi vujudga keladi. Odatda, bu oqimda chegara orqali non va boshpana topishnigina emas, balki odamlarning qalbiga yangi g'ulg'ula solishni istaydiganlar ham kirib keladi».

Bu muammoning ikki juda muhim tomoni bor. Birinchidan, Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, o'zaro nizolar, mojarolar, to'qnashuvlar va qurolli

qirg'inlardan azob chekkan va natijada o'z uyini, boshpanasini, qadrdon go'shasini tashlab ketishga majbur bo'lgan jabrdiyda qochoqlar bilan birga badniyat, odamlarni jumbushga keltiradigan, o'z xatti-harakati, gap-so'zlari, g'ayriinsoniy mafkurasi bilan muhim va tinch yashayotgan aholini sarosimaga soladigan, ularga tahdid qiladigan odamlar ham chegaradan o'tib, kirib keladilar. Bu tinch va barqaror hayot kechirayotgan boshqa bir mamlakatda hayot izmini o'zgartirish, tahlikani kuchaytirish va shu yo'l bilan taraqqiyotga g'ov bo'lishga olib keladi.

Ikkinchidan, kutilmaganda mamlakat hududiga kirib kelgan och va yupun odamlar taqdiriga befarq qarab bo'lmaydi. Natijada tinch aholining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy hayotiga zarar keltiradigan omillar vujudga keladi. Bu eng avvalo iqtisod bilan, moddiy ne'matlar bilan bog'liq bo'lgan, qochoqlarni kundalik oziq-ovqat bilan ta'minlash, yashash sharoitini yaratish, turli yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida ularning sanitariya holatini nazorat qilish va tibbiy xizmat ko'rsatish muammolarini keltirib chiqaradi. Bunday holat ayni endigina taraqqiyot yo'liga chiqib olayotgan mamlakatlarda mavjud tabiiy qiyinchiliklar ustiga juda katta kutilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Afg'oniston va Tojikistondagi mojarolarning bunday uzoqqa cho'zilib ketayotganini, muammolarning chigallashib, tobora jiddiy tus olib borayotganini ayni ana shu mamlakatlar aholisi unchalik ham baholay olmayotganga o'xshaydi. Buning ustiga ayni ana shu mamlakatlardagi mavjud vaziyat orqali nafaqat ularda, umuman, Yer yuzida, boshqa mintaqalarda ham yangidan-yangi muammolar vujudga kelyapti, jinoiy unsurlar ko'payyapti. Jumladan, narkotik moddalar bilan shug'ullanish, xalqaro terrorizm va qurol-yarog' kontrabandasi jiddiy tarzda avj olmoqda. Bu nafaqat ayni ana shu ikki mamlakatning, balki butun dunyo xalqlarining hayotiga tahdididir.



Dunyodagi mavjud narkotik moddalarning 75 foizi faqat Afg'onistonda yetishtirilayotganligi, uning 90 foizi Yevropaga tarqatilayotganligining o'zi ayanchli holdir.

Sharqu G'arb munosabatlarini, Mag'ribu Mashriq o'rtasidagi juda katta madaniy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarni kuchaytirish o'rniga insoniyat zotiga qiron keltiruvchi zahri qotilni umumjahon bozorining noyob mahsulotiga aylantirish va shu yo'l bilan jahon xalqlarini tanazzulga keltirishdan dahshatliroq narsa yo'q.



O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1993-yilda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Afg'oniston muammosiga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratib, bu masalaning nechog'liq jiddiy ekanini alohida ta'kidlagan edi.

BMT Bosh Assambleyasining 1995-yilda bo'lib o'tgan 50-sessiyasida esa davlatimiz rahbari Afg'oniston muammosini bartaraf etish borasida qator amaliy takliflarni ilgari surdi. Xususan, bu davlatga qurol-yarog' kiritishni qat'iy taqiqlash zarurligini alohida qayd etdi.

Shuningdek, Islom Karimov boshqa ko'plab xalqaro anjumanlarda, turli davlatlar rahbarlari bilan muzokaralarda mintaqa xavfsizligini mustahkamlash,

buning uchun eng avvalo, Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan bartaraf etish zarurligini takrorlashdan charchamaydi. Zero, Afg'onistondagi urush nafaqat bizga, yoinki mintaqamizga, balki xalqaro xavfsizlikka, hatto insoniyat kelajagiga jiddiy xavf tug'dirayotgani sir emas. Ya'ni, bugun mazkur muammo faqatgina qurolli harakatlar bilangina bog'liq emas, balki bu tuproqda ulkan miqdorda narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi avj olayotgani, terrorchilik va diniy ekstremizm unsurlari urchib borayotgani ham jahon ahlini haqli ravishda tashvishga solmoqda.

«6+2» guruhining uchrashuvi

O'zbekiston Prezidenti Afg'oniston muammosini umumjahon taqdiriga daxldor masala sifatida ko'tardi.



1999-yil 19—20-iyul kunlari Toshkentda Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha «6+2» guruhining navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu guruhga Afg'oniston bilan chegaradosh 6 davlat — Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya kiradi.

Afg'onistondagi bugungi vaziyat ayni vaqtda nafaqat mazkur mamlakatning, balki unga qo'shni davlatlarning, qolaversa, butun xalqaro jamoatchilikning muammosiga aylangan. Negaki, bugun bu tuproqda davom etayotgan urush balosi bilan birga, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi, diniy ekstremizm va fanatizm, terrorchilik xavfi mintaqadagi barcha davlatlarga, binobarin, yalpi xavfsizlikka jiddiy tahdid solayapti. «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvi mazkur mojaroni tinch yo'l bilan hal etish choralari topishga xizmat qiladi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladı. Unda so'zga chiqqan BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili L.Braximi BMT O'zbekistonning ushbu mojaroni hal etish borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak baholashini ta'kidladı. U BMT Bosh kotibi Kofi Annanning «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvini qo'llab-quvvatlab Prezident Islom Karimov nomiga yo'llagan maktubini o'qib eshittirdi.

Ta'kidlash kerakki, «6+2» guruhining tashkil topishi, uning uchrashuvlarini muntazam tashkil etish o'z-o'zidan bo'layotgan ish emas. U nihoyatda mashaqqatli va og'ir mehnat mahsulidir. Xususan, bu jarayonda O'zbekiston hukumatining salmoqli hissasi bor. Negaki, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatilishi mamlakatimiz, qolaversa, butun mintaqa xavfsizligini ta'minlash uchun sharoit yaratadi. Xavfsizlik va barqarorlik esa taraqqiyotning eng muhim shartidir.

1997-yili O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Afg'onistonga chegaradosh 6 mamlakat va AQSH hamda Rossiya ishtirokida muloqot guruhi tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Oradan ko'p o'tmay, bu tashabbus hayotda o'z in'ikosini topdi. «6+2» guruhi tashkil etildi. Uning birinchi uchrashuvi 1997-yil 16-oktabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan edi.

Toshkent anjumanida ishtirokchilar Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etish chora-tadbirlari xususida o'z fikr-mulohazalarini bayon qildi. Afg'onistonning ichki muammolarini bartaraf etishda tashqi kuchlarning aralashuviga chek qo'yish, o'zaro nifoqdagi tomonlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarni boshlash

zarurligi ta'kidlandi. Anjuman nihoyasiga «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi.

Uchrashuv yakunida mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari uchun matbuot anjumani bo'ldi. Unda L.Braximi «6+2» guruhi uchrashuvining bevosita Afg'oniston joylashgan mintaqa — O'zbekistonda o'tayotgani muhim ahamiyat kasb etajagini ta'kidladi. Yana bir e'tiborga molik tomoni shundaki, Toshkent uchrashuvida Afg'onistondagi ikki asosiy guruh — «Tolibon» harakati hamda Afg'oniston Birlashgan fronti vakillari ilk bor bir stol atrofida yig'ildi. Shuningdek, qabul qilingan Toshkent Deklaratsiyasi Afg'onistonda tinchlik o'rnatish yo'lidagi zalvorli qadam bo'lganini qayd etdi. BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili mazkur Deklaratsiya uzoq vaqt mobaynida ishlab chiqilgani va o'zida Afg'oniston zaminida tinchlik o'rnatishning asosiy tamoyillarini jamlash bilan birga, endilikda «6+2» guruhi a'zolarining nuqtai nazari va qarashlarini umumlashtiradigan muhim hujjat sifatida ham amal qilishini aytdi.

Darhaqiqat, Toshkent Deklaratsiyasining qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. U «6+2» guruhiga a'zo davlatlar hamda Afg'onistonda nizolashayotgan tomonlar uchun tinchlikka eltuvchi xarita vazifasini bajarishga qaratilgan. Matbuot anjumani-da ta'kidlandi-ki, Deklaratsiya so'nggi manzil emas. U «Tolibon» bilan Birlashgan front o'rtasida, shuningdek, ular bilan «6+2» guruhi a'zolari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'lga qo'yilishiga asos bo'ladi. Afg'onistonda nizolashayotgan guruhlar vakillari bunday muzokaralarga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Terrorizm — insoniyat hayotiga tahdid

Terrorizm harakatlari insoniyat tarixida yangilik emas. Qo'poruvchilik hollari turli davrlarda, turli mintaqalarda xilma-xil shaklda sodir bo'lib kelgan mudhish hodisa. U hamma vaqt insoniyat hayotiga tahlika va tahdid solib, turli g'arazli maqsadlarning, g'oyalar va xohish-irodalarning timsoli sifatida yashaydi.



Terrorizm — insoniyat dushmani, taraqqiyot va yuksalish kushandasi.

Terrorizm ma'lum bir guruhning shaxsiy manfaatlari, o'z orzu-umidlari va g'ayriinsoniy xatti-harakatlarining majmuasidir. Ayni paytda u ana shu maqsadlarning amalga oshishi uchun har qanday xunrezliklardan, qotilliklar va zulmdan qaytmaydi.

Terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati bevosita zo'ravonlik, inson hayotiga tahdid va uning huquqlarini poymol etish bilan bog'liq bo'lgan, bugun mamlakatni xonavayron qilishga olib keladigan, xalq, millat va mamlakat taqdirini butunlay boshqa o'zanga burib yuborib, o'z maqsadi va g'oyalarining ro'yobi uchun hech narsadan tap tortmaslikdir. Ayni paytda u har qanday fikrlash, aql-idrok doirasida ish yuritishdan xoli bo'lgan shafqsizlik, ashaddiy xunxo'rlik, jazava va tazyiq bilan yovuz niyatini amalga oshiradigan bir to'da olomon faoliyatidir.

Terrorizm turli mamlakatlarda turli shakllarda va har xil maqsadlar asosida dunyoga keladi, urchiydi, ko'payadi va yashaydi. Ma'lum bir mamlakat xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy qiyofasi, aniqrog'i ehtiyojlari, turmush tarzi

bevosita ana shunday jarayonlarning shaklini, qiyofasini, mohiyatini va rivojlanish jarayonlarini, boshqacha qilib aytganda, evolyutsiyasini belgilaydi.



1999-yilning 16-fevral kuni Toshkent shahrining bir necha joyida kuchli portlashlar yuz berdi. Natijada 6 nafar begunoh kishi halok bo'ldi. Yuzlab odamlar turli darajadagi og'ir tan jarohatlariga uchradi. Bir qancha ma'muriy va turarjoy binolari jiddiy zarar ko'rdi. Terrorchilar bu xatti-harakatlari bilan butun mamlakat aholisining qahru g'azabini uyg'otdi.

O'zbekistonda yuz bergan terrorchilik harakati ayni xalqimiz turmushi, an'analari, urf-odatlar va aqidalarini o'zida mujassam etgan, uning eng nozik his-tuyg'ularini hisobga olgan holda yuzaga keldi. Darhaqiqat, xalqni qo'zg'atish va ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish uchun xuddi ana shu nozik va ta'sirchan omillardan — Islom omilidan ustomonlik bilan foydalandilar.

Zotan, Islom dini o'zbek xalqi ma'naviy, ma'rifiy va ruhiy olamiga katta ta'sir o'tkazgan, xalqimiz turmush tarzidan juda chuqur o'rin olgan katta ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Haqiqatdan ham, Islom dini yuksak madaniyat va axloqiy mezonlarni o'zida mujassam etgan qudratli mafkura, ilohiy ta'limot sifatida hayotimizdan, qalbimizdan, ongimiz va shuurimizdan alohida o'rin egallagan. Terrorchilar millat hissiyoti, tuyg'ulari va ehtirolari bilan bog'liq bo'lgan ana shu omildan ayyorlik bilan foydalandilar.

Islom niqobi ostida amalga oshirilgan qo'poruvchilik harakatlari bir guruh aqidaparastlarning qonuniy hokimiyatni ag'darib tashlash va shu yo'l bilan davlat tepasiga chiqib olish singari maqsadlari tufayli yuz berdi. 16-fevral kuni sodir bo'lgan qonli fojialarning butun mazmuni va mohiyati ana shundan iborat.

Fevral voqealari bugunning mahsuli emas. U—yillar mobaynida urchib, bolalab, ildiz otib rivojlangan voqelik. Fevral voqealari yillar mobaynida maddalab, yiringlab, oxir-oqibatda millat va mamlakat jismu jonini azobga soladigan, so'ng esa butunlay halokatga keltiradigan ashaddiy yovuzlikdir.

Mustaqillik arafasida, aniqrog'i 80-yillarning ikkinchi yarmida sobiq Ittifoq hududida, jumladan, O'zbekistonda ham vujudga kelgan demokratiya o'yinlari natijasi bo'lmish bu illat yillar o'tgan sari faoliyat doirasini, shaklini, ta'sir etish yo'llarini o'zgartirib turdi. Biroq, mazmun-mohiyati o'sha-o'shaligicha qolaverdi — qon to'kish, zo'rvonlik yo'li bilan hokimiyat tepasiga chiqib olish! O'zlarning qabih niyatlariga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydigan, jirkanch maqsadlari yo'lida millionlab begunoh kishilar yostig'ini quritishdan toymaydigan, fikrlashdan uzoq bo'lgan kishilar guruhi ayni ana shunday yo'l tutadi.

Hayotda o'zining qat'iy pozitsiyasiga, mustaqil fikriga ega bo'lmagan, voqelikka aql-idrok bilan emas, balki hissiyot bilan yondashadigan odamlar havoyi da'vatlarga tez uchadilar. Terrorchilik harakati tashkilotchilari aholining xuddi ana shunday irodasi bo'sh, iymoni sust, dunyoqarashi cheklangan, fe'l-atvori shakllanmagan qatlami ichiga kirib olishdi. Ularning zaif jihatlaridan ustomonlik bilan foydalanishdi.

Mamlakat Prezidenti fevral voqealariga daxldor bo'lgan terrorchilik guruhi ta'siriga uchgan, bilib-bilmay ko'r-ko'rona ularga ergashganlarni yurt va millat otasi sifatida gunohlaridan kechishi haqida bayonot berganidan keyin sodir bo'lgan voqealar diqqatga sazovor.

Darhaqiqat, bir necha yuzlab yoshlar o'z ota-onalari bilan tanlagan yo'llarining noto'g'ri ekanligini anglab yetdilar. Kimlarningdir tazyiqi va ta'siri bilan g'ayriislomiy va g'ayriinsoniy yo'lga kirib qolganliklaridan pushaymon bo'lib uzr so'ramoqdalar. Ana shu fojiviy holatning o'zi diniy aqidaparastlik nima ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Islomni soxtalashtirish oqibatlari

Prezident I. Karimov mustaqillikning ilk kunlaridayoq xavfsizligimizga tahdid soluvchi omillar xususida gapirar ekan diniy ekstremizm va terrorizm haqida takror va takror gapirdi. Xalqaro tashkilotlar minbaridan turib, uning dunyoviy fojia, taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuchli omil ekanligini bir necha marta ta'kidladi. U «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida muammoning ilmiy-nazariy yechimini bayon etdi.

Prezident Islom Karimov XX asr muammolari, odamlar dunyoqarashidagi jiddiy o'zgarishlar va uning oqibatlari xususida fikr yuritar ekan, ana shu yuz yillik oxirida «Islom uyg'onishi», «Qayta islomlashish», «Islom fenomeni», «Islom omili» singari bir qator iboralarning paydo bo'lish sabablarini izlaydi va hammamizning diqqatimizni uning oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkinligiga jalb etadi.

Yuqoridagi tushunchalar o'z-o'zidan dunyoga kelgan emas va ular dunyoning katta bir qismini egallab olgan islom dini, uning taraqqiyoti, istiqboli va jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni va rolining tobora kengayib borayotgani natijasida kelib chiqqan, deyish mumkin. Prezident bu jarayonlar insoniyat taqdiri, Yer shari istiqboli va taraqqiyoti uchun ma'lum bir tahdid va tahlikadan ham xoli emasligiga, unga hushyorroq boqishga, tiyakroq nazar bilan qarashga da'vat etadi. Chunki, hamma vaqt sof islomiy nazariya, uning falsafasi va shariati, insoniyatni komillikka da'vat etuvchi buyuk ta'limoti bilan birga, uni soxtalashtiruvchilar, undan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanuvchilar ham yo'q emasligini, ayni ana shu salbiy hodisalar jamiyat taraqqiyotida kutilmagan fojialarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Undan tashvishga tushmoqda va bizni ham hushyorlikka chaqirmoqda. Ana shu hayotiy haqiqat va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi islom omilini hisobga olib Islom Karimov: «Afsuski, hozirgi zamon tarixida ana shu o'ta keskin ko'rinishlar jiddiy mojrolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solish mumkinligi insoniyatni cho'chitayapti. Shundan darak beruvchi fikrlar anchamuncha to'planib qolgan. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtayi nazaridan qaraganda bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug'dirmoqda», — dedi.



Prezident I. Karimov tasavvuridagi diniy taraqqiyot har qanday fanatizmdan xoli, inson taqdiri va olam bus-butunligi bilan bog'liq bo'lgan, mamlakat ichki muammolariga ham, dunyoviy masalalarga ham ilohiy quvvat, beqiyos aql-idrok va sog'lom fikr bilan yondashishni taqozo qiladigan, bunyodkorlik va yaratuvchilikka da'vat etadigan ulkan falsafadir.

Zotan, xuddi shunday yondashuv, ana shunday dunyoqarash, dinni shunday anglash va unga e'tiqod qo'yish ulug' bobokalonimiz Bahouddin Naqshband

ta'limotining mag'zi bo'lgan «Diling Olohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan ta'limotiga mos tushadi. Ayni shu haqiqat — insonning beqiyos iqtidorini, uning keng imkoniyatlarini tobora rivojlantiradigan, takomillashtiradigan, o'zining kelajagini yaratishga chorlaydigan nihoyatda oddiy va ayni paytda mo'jizaviy da'vat, ilohiy qudratdir.

Albatta, terrorchilar o'zlarining qabih niyatlariga yeta olmadilar. Biroq, bizing achchiq qismatimiz yana bir bor hayot haqiqatini isbotladi: fanatizm — fikr va tafakkur kushandasi, jaholat va xiyonat homiysi ekanligini ko'rsatdi.

Prezident Islom Karimov dinning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va roli, diniy fanatizm va ekstremizmning fojiali oqibatlari xususida fikr yuritir ekan, o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida aqidaparastlik illatining O'zbekiston mustaqilligiga tahdid soluvchi yettita omilini ko'rsatib beradi. Jumladan:

Birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali musulmonlarning davlat islohotchilik faoliyatiga ishonchini barbod qilish, mamlakat va xalq taqdirini belgilaydigan barqarorlikni, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo'lidagi xatti-harakati ko'zga tashlanayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, «Fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgaralar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim»,— dedi Prezident I.Karimov. Darhaqiqat, bu hayqiriq va baqiriqlar yuzaki qaraganda odamlarni o'ziga jalb etadi, kundalik mayda kamchiliklarni dunyoviy tashvishga aylantirib, ularning qalbida hayotga nisbatan norozilikni kuchaytiradi, ruhiyatida parokandalik va parishonlik, oxir-oqibatda esa tarkidunyochilik kayfiyatini uyg'otadi. Insonning yaratuvchilik qudrati, mehnat qilish va yashash iqtidori susayadi.

Uchinchidan, aqidaparastlik haqiqiy dindorlar va soxta dindorlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Natijada bir mamlakat aholisi o'rtasida g'oyaviy nizolar, bir-biri bilan kelisha olmaslik illatlari paydo bo'ladi. Bu illatlar ozgina hishayajon bilan boyitilsa, qonli to'qnashuvlarga aylanib ketishi hech gap emas. Bunday salbiy hodisalarni yon-atrofimizdagi musulmon mamlakatlarida yuz berayotgan voqealar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

To'rtinchidan, Islom Karimov yaqin qo'shni musulmon davlatlarida yuz berayotgan hodisalar bizni hushyorlikka chaqirishi kerakligini uqtiradi. Darhaqiqat, voqealar o'z hayotimizga, o'z taqdirimizga va kelajagimizga jiddiyroq qarashimizni taqozo etmoqda. Biz har qanday soxta shiorlar, balandparvoz da'vatlardan ko'ra, ko'proq aql-idrokka, tom ma'nodagi islom tafakkuriga tayanib ish tutishimiz lozim. Hech bo'lmaganda, «Biz insonni mukarram qilib yaratdik» degan ilohiy da'vatga munosib va yarashiq xatti-harakatimizni ko'rsatmog'imiz darkor.

Beshinchidan, mamlakatimiz barqarorligiga tahdid solayotgan omillardan yana biri nomusulmon mamlakatlar aholisining fikrini chalg'itish yo'li bilan O'zbekiston haqidagi munosabatlarini o'zgartirish, deb hisoblaydi Islom Karimov. Buni Prezident O'zbekiston hukumatining dunyoviy davlat qurish yo'lidagi islohchilik faoliyatini soxtalashtirishda, jahonning eng sog'lom fikrli siyosatdonlari, yirik davlat va jamoat arboblari tan olayotgan hamda jahon davlatchiligi tajribasini butunlay yangi fikrlar bilan boyitib borayotgan «O'zbek modeli»ni soxtalashtirishga, obro'sizlantirishga intilishlarda ko'radi. Mamlakatimizning bugungi yutuqlaridan g'ashi kelayotgan bunday «siyosatdonlar» — ig'vogarlar O'zbekistonni ba'zan

dahriylar mamlakati qilib ko'rsatishsa, ba'zan «davlatni islomlashtirishning yashirincha tarafdorlari», deb ta'rif berishmoqda.

Oldinchidan, eng muhim tahdid rivojlanish yo'liga chiqib olayotgan O'zbekiston uchun ikki olam — islomiy sivilizatsiya va islomiy bo'lmagan sivilizatsiya o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishdan iborat. Bu ziddiyat tabiiy ravishda inson ruhiyati va uning olamga munosabatidan tortib, jahon taraqqiyotini belgilab turgan dunyoviy siyosatning ikki muhim qutbidir.

Bunday hodisa O'zbekiston singari yosh mustaqil mamlakatlar uchun o'zining strategik maqsadlarini belgilab olishida muhim bosqich hisoblanadi. Darhaqiqat, bu bosqich o'n beshta diniy konfessiya uyushmalari faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega.

Yettinchidan, xavfsizlikka tahdid O'zbekiston hukumatining dunyoviy taraqqiyot, tub islohotlar, jamiyatni butunlay yangilash va diniy e'tiqod hamda fundamentalizmga bo'lgan munosabatini soxtalashtirishdan iboratdir. Bu dunyoning turli mintaqalaridan turib to'g'ridan-to'g'ri O'zbekistonga g'oyaviy xuruj qilish, uning dunyodagi ko'pdan-ko'p sheriklari ishonchini barbod etish, shu yo'l bilan O'zbekiston milliy taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lish orzu-istagida dunyoga kelgan.

Prezident Islom Karimov dinning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va roli xususida batafsil to'xtalar ekan, u fundamentalizm illatlarini o'ziga xos tarzda tahlil etadi. Yangi dunyoning butunlay yangi illatlarini, uni fojialarga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni chuqur idrok etadi va asosli qilib ifodalaydi.

Xurofotdan ma'rifatga Yuzdan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan, ruhiy va ma'naviy dunyoqarashi, turmush tarzi va aqidalari xilma-xil bo'lgan O'zbekistonda tili, millati, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, insonligi uchun ulug'lash kabi g'oyat insonparvar siyosatni qaror toptirish muhim ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rib turibmiz. Zero, Prezident Islom Karimov **«...biz demokratik yangilanish pallasiga kirar ekanmiz, ruhiy poklanishni ham unutmaylik, taraqqiyotimizga g'ov bo'ladigan ma'naviy riyokorlikdan tezroq qutulaylik»** deganda, jahon andozalarida kamdan-kam uchraydigan mamlakat aholisi turli tabaqasini umuminsoniy qadriyatlar asosida jipslashtirish, shu asosda yuksak ma'naviy-ma'rifiy jamiyatni shakllantirish tamoyillarini o'rta tashlagan edi. Ayni paytda u «o'ta nozik» masalaga o'ziga xos, hech kimga o'xshamagan holda yondashadi va o'zining ham o'ta nozik siyosati, har qanday chigal muammolarni hal etishda noyob mahoratini ko'rsata bildi.

Diniy aqidaparastlik jamiyat hayoti va odamlar taqdiri uchun hamma vaqt tahlikali, unga tahdid solib turadigan ashaddiy yovuzlikdir. Terrorizm ana shu yovuzlikning tarixda abadiy ravishda tavqi la'natga mahkum etilgan ko'rinishidir.

Aslini olganda O'zbekistonday o'tmishi insoniyat tarixi, kishilik hayoti ibtidosi bilan bog'liq bo'lgan makonda, O'zbeklarday yuksak madaniyat va noyob ma'naviyatga vorislik qiladigan xalq hayotida bunday fojiali hodisaning yuz berishi mumkin emas. Chunki, mavjud tarixiy haqiqatni tan olishimiz kerak. Islom dini Arabistonda taqvo va ibodat shaklida dunyoga kelgan. Islom ta'limotining dastlabki g'oyalari va umuman butun qoidalarini o'zida mujassam etgan muqaddas goylari majmuasi «Qur'on» u yerda nozil bo'lgan.



O'zbekistonda — Movarounnahrda Islom tom ma'nodagi fan, falsafa, ilm, nazariya va tafakkur mahsuli sifatida dunyoga keldi. Ayni ana shu zaminda tug'ilgan Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abduxoliq G'ijduvoni, Burhoniddin Marg'inoniy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Bahouddin Naqshbandiy, Xo'ja Ahmad Yassaviy va boshqalar kabi o'nlab daholar borki, ular Islom dinini oddiy, kundalik taqvo va ibodatdan tom ma'nodagi ta'limot, eng yuksak ma'naviy-ma'rifiy mafkura, sof insonparvar g'oya darajasiga olib chiqdilar.

Insoniyat taraqqiyotini butunlay o'zgartirib yuborgan, jahon sivilizatsiyasiga g'oyatda kuchli ta'sir o'tkazgan Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa bobokalonlarimiz dunyo taraqqiyotini tabiiy fanlar, falsafa, mantiq va adabiyot bilan birga Islom nazariyasi va ta'limoti bilan mushtarak holda tushundilar va rivojlantirdilar. Davr, tarixiy sharoit shunday ediki, ayni ana shu omillarning biri kam bo'lgan taqdirda buyuk ixtirolar, olamu odamlar taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan kashfiyotlar dunyoga kelmagan bo'lur edi.

Masalaning yana bir nozik jihati bor: xuddi ana shu biz yuqorida nomlarini tilga olgan ulug' daholarning barchasi islom dinini ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan qanchalik yuqoriga ko'targan, e'zozlagan, uning nazariyasi va falsafasini boyitgan bo'lsalar, diniy fanatizm va aqidaparastlikdan ham shunchalik ko'p jabr ko'rganlar. Ayrimlar, hatto, xurofot va jaholat qurboni bo'ldilar.

Demak, jaholat, johillik yashovchan ekan. Biz buni inkor eta olmaymiz. Hayot haqiqati shunday. Demak, biz xavf-xatardan butunlay xoli, tinch va osuda yashashga qanchalik intilsak, hayotimizning har daqiqasida aql-idrok yo'rig'i bilan yo'l tutib o'zimizni, o'zimiz orqali farzandlarimizni, oilamizni, oxir-oqibatda butun jamiyatimizni asramog'imiz darkor. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q.

Botken fojialari

1999-yil avgust oyining oxirlarida bir guruh jangarilar Tojikiston orqali Qirg'izistonning Botken tumaniga kirib keldilar. Ular qariyb uch oy mobaynida tumanning besh qishlog'ini bosib oldilar. Tinch yashayotgan ming-minglab odamlar hayotiga tajovuz qildilar. Ularning mol-mulkini, oziq-ovqatlarini tortib oldilar. Bir qirg'iz generali, to'rt yapon fuqarosi va boshqa bir necha kishilar garovga olindi.

Turli millat vakillari va bir necha mamlakat fuqarosidan iborat jangarilar xalqaro terrorizmning yangi qiyofasini ko'rsatdilar. Bezorilar Qirg'iziston hududidan chiqib ketgan paytlari Moskvada nashr etiladigan «Vremya-MN» gazetasi muxbiri O'zbekiston Prezidenti I.Karimovga savol bilan murojaat etdi. O'zbekiston rahbarining ushbu gazetada chop etilgan intervyusi bugungi dunyo mojarolariga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga, xususan, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga munosabatlarda juda katta aniqlik kiritdi.

O'zbekiston rahbari mintaqada va Yer yuzining turli hududlarida yuz berayotgan terrorchilik harakatlari, din niqobi ostida amalga oshirilayotgan qonxo'rliklar va zo'rvonliklar oqibatlariga o'ta jiddiy qaraydi. Prezident I.Karimov voqealarga o'z vaqtida munosib baho berdi. Ularni butun ko'lami va miqyosi bilan idrok etadi. Natijada masalaning tub ildizini ochib beradi.



Prezident I. Karimov, jumladan, shunday dedi:

«Meni hududni bosib olish maqsadida amalga oshirilayotgan tashqi qurolli tajovuz xavfi emas, balki miyasi zaharlangan yoshlarni o'zlari o'sib ulg'aygan shahar va qishloqlarni portlatishga o'rgatadigan plats-darm va bazalarni bunyod etishni maqsad qilib olgan diniy ekstremizm ekspansiyasi xavotirga solmoqda».

Har qanday tashqi tajovuzlar emas, balki, miyasi zaharlangan yoshlarning o'zi tug'ilib o'sgan uyi, xonadoni, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuprog'i, ona-Vatani, mo'tabar ostonasiga bolta urishi, uni barbod etishi, portlatib yuborishi, kun-payakun qilishi. Bu manqurtlik o'z ajdodlariga, qavm-qarindoshlariga, validai muhtaramasiga, padari buzrukvoriga qo'l ko'tarishdek bedavolikning urchib kelayotganligi bilan izohlanadi va uni ana shu umuminsoniy tanazzul hodisasi tashvishga soladi.

Dunyoda shunday davlatlar borki, ular o'z hududiga kimlar kirib, nimalar bilan shug'ullanib, qanday chiqib ketayotganiga e'tibor ham berishmaydi. Bu yo ana shunday erkinlik va demokratiya niqobi ostidagi xalqaro o'yinlarga berilish, ularga ko'r-ko'rona xizmat qilish, jiddiy va qat'iyat bilan qarash mas'uliyatidan qochish yo bo'lmasa qandaydir manfaatdorlik natijasi, deyish mumkin. Aks holda Pokiston ayni ana shunday bedavolar uyasiga, ularning tajriba «maktab»lari joylashgan maydonga aylanamidimi?



Qirg'iziston voqealari, xalqaro terrorizmning tajovuzkorligi xususida gazeta muxbiriga gapirar ekan, Prezident Islom Karimov shunday dedi: «Nima bo'layotganini eshiting: suveren davlat hududiga olti yuz yoki ming kishidan iborat qurollangan to'da kirmoqda... Axir har bir davlatning o'z qadr-g'urur tuyg'usi bo'lishi kerak, uning har bir fuqarosida esa xavfsizligi sirtidan himoyalanganligiga ishonch tuyg'usi bo'lishi kerak».

Jangarilar Qirg'iziston hududiga kimgach, go'yoki ular O'zbekistonga o'tish uchun faqat «yo'lak» so'rashgan emish. Balki shundaydir. Lekin masalaning mantiqsizligi shundaki, qanday qilib qonxo'r, jallod, manfur kimsalarga o'z uyingdan joy berasan? Eshikdan kiritib, qornini to'yg'izib, ustini but qilib, cho'ntagiga pul solib, teshikdan chiqarib yuborish mumkin? Bu qo'ynida ilonni ko'tarib yurish bilan barobar emasmi?



Ana shu mantiqdan kelib chiqib, sodir etilgan voqealarni Prezident Islom Karimov shunday izohlaydi: «O'zbekiston bilan Qirg'izistonni gij-gijlatishga qaratilgan urinishlar deb bilaman va ularni tamoman inkor etaman. Agar bu haqiqat bo'lganda edi, bo'lmasa nima uchun jangarilar qirg'izlarni talon-taroj va qatl etishni boshladilar?».

Pokiston—Afgoniston—Tojikiston—Qirg'iziston hududini egallab olgan qonxo'rlik «o'yin»lari va ana shu mamlakatlarning o'zi ham ayni xalqaro terrorizmning uzviy, bir-biriga bog'langan zanjir halqalar ekanligi bugun hech kimga sir emas. Agar ular qaysidir darajadagi moddiy, ma'naviy, harbiy sohadagi «hotamtoy»

homiylarga suyanmasa, terrorism bu qadar tez rivojlanmagan, bu qadar tez urchib ketmagan va xalqaro maqomga ega bo'lmagan bo'lardi. Agar ana shu bog'liqlik bo'lmaganida edi, ularning o'zaro munosabatlarida, faoliyatlarida hamkorlik bo'lmaganida edi, ular bunchalik emin-erkin harakat qilishmagan bo'lardilar.

Jangarilar Qirg'izistonga bostirib kirgan paytlari, ularning aksariyati o'zbek millatiga mansub emish, degan mish-mishlarni ham tarqatishdi. Go'yoki, bunday terrorchilik harakati o'zbeklarning o'zining ishi va ularga daxldor bo'lgan fojia emish. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, ular tarkibida tojiklar, chechenlar, afg'onlar, arablar, qirg'izlar va hatto, ruslar ham bor ekan. To'g'ri, Islom dini panasida turib, o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga intilayotgan «musulmon»lar orasida 5—10 ta o'zbek ham bo'lishi mumkin. Biroq, o'zbek millatiga mansub bo'lgan aholi Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston hududlarida ham yashamoqda-ku! Nima uchun biz bitta yo ikkita o'zbek millatiga mansub jangchini ushlab olib, uni butun o'zbek xalqiga va O'zbekistonga nisbat berishimiz kerak? Shuning o'zi g'oyaviy qo'poruvchilik uydirma emasmi?

XX asning o'rtalarida dunyoga juda katta talafot keltirgan va insoniyat hayotiga xavf-xatar solgan fashizmni esga olaylik. Gitler va uning gumashtalari g'oyasiga ko'r-ko'rona yondashgan, uning manfaatlariga xizmat qilgan millionlab buyuk nemis millatiga mansub bo'lgan kishilar bor edi. Biroq, hech kim hech qachon fashizmga buyuk nemis millatiga dog' sifatida nisbat bermaydi-ku? Nega endi, Botken fojialarini tashkil etgan va amalga oshirganlar orasida qayerda tug'ilgani va yashayotganidan qat'iy nazar, qaysi mamlakat fuqarosi bo'lganini inobatga olmay o'zbeklar va O'zbekiston boshiga mag'zavalar quyishi kerak ekan?

O'zbekiston davlatining qudrati, uning yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi borasidagi siyosiy yo'li ana shunday qat'iy! Zotan, O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi orasida o'zining barqaror rivojlanish yo'liga chiqib olganligi, jahon siyosiy maydonida o'z so'zi va o'z fikri bilan alohida mavqega ega bo'layotganligi, dunyo voqealariga qat'iyat va nihoyatda aniqlik bilan yondashayotganligi bois juda katta nufuzga ega bo'lmoqda. Ana shularning hammasining tagida juda katta e'tiqod, tanlab olingan yo'lga sobitlik fazilatlarini yotadi. Xalq ishiga, Vatan osoyishtaligiga qaratilgan siyosat yuksak e'tiqod darajasiga ko'tarilgan taqdirdagina u har qanday tahdidga tahdid sola biladigan, har qanday tajovuzni yenga oladigan, uni barbod qilishga qodir bo'lgan mo'jizaga aylanadi.

Istanbul Sammiti

1999-yilning 18—19-noyabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik

Tashkilotining navbatdagi yig'ilishi bo'ldi. Anjumanda asosiy muhokama qilingan masala Yevropada Xavfsizlik Xartiyasi bo'ldi. Xartiya nafaqat tashkilotga a'zo bo'lgan 54 mamlakatning, balki butun dunyoning kelgusi asrdagi xavfsizligini ta'minlash borasidagi muhim hujjatdir. Ushbu anjumanda birinchi bo'lib O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga so'z berildi.

Prezident Islom Karimov xalqaro terrorism va mintaqaviy mojarolar xususida gapirar ekan, «Bugungi kunda xalqaro maydonda «sovuq urush» ko'rinishlari o'rnini bir-biri bilan birlashib tobora keng ko'lamli va hujumkor mohiyat kasb etayotgan ashaddiy milliy davlatchilik va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorism kabi illatlar egallayotganini isbotlab o'tirishning hojati yo'q»,— dedi. Darhaqiqat, bundan sakkiz-o'n-yil muqaddam O'zbekiston rahbari turli-tuman



Prezident Islom Karimovning strategik qarashlari — bu avval-bosh-danoq mintaqaviy mojarolarning oldini olish, qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazmaslik, turli mamlakatlarda yashayotgan turli millatga mansub xalqlarning bir maromdagi turmushiga tahdid qilmaslik siyosatidir.

Ayni ana shu siyosat vaqt o'tgani sari rivojlanib, takomillashib, tobora kamolotga yetib boryapti va uning tom ma'nodagi haqiqat ekanligini keyingi yillar voqealari aniq va ravshan ko'rsatib berdi.

Istanbul Sammitida so'zlagan nutqida Prezident Islom Karimov: «**Bugungi kunda biz radikal kayfiyatdagi markazlarning diniy ekstremizm va terrorizmni tartatishga qaratilgan uzoqni ko'zlovchi rejalariga, mintaqa davlatlarini o'zlari tanlagan demokratik, huquqiy va dunyoviy taraqqiyot yo'lidan qaytarishga urinishi hollariga duch kelmoqdamiz. Buni Tojikistondagi voqealar, yaqinda Toshkentda yuz bergan portlashlar, bosqinchilar guruhlarining mustaqil Qirg'iziston janubiga surbetlarcha bostirib kirishi hamda barchaga ma'lum boshqa faktlar isbotlab turibdi. Bunday rejaning amalga oshirilishi uchun Afg'oniston asosiy maydon vazifasini o'tamoqda. 20 yildan buyon fuqarolar urushi davom etayotgan bu mamlakat turli toifadagi xalqaro terroristlar va aqidaparastlar boshpana topib, tayyorgarlik ko'rayotgan sinov lageriga, asosan, narkotik moddalar yetishtirish va sotishdan olingan daromad hisobiga kun ko'radigan mamlakatga aylanib qoldi**», degan muammoni ko'tardi.

O'zbekiston rahbarining pozitsiyasi, voqea-hodisalarga yondashish usuli va siyosiy taktikasi xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashishga da'vat etishida, jumladan, Afg'oniston va Tojikiston mojarolari, ularga homiylik qilayotgan kuchlar faoliyatiga baho berishda, ularni aniqlashda yanada ko'zga yaqqol tashlanadi. Istanbul Sammitida Xavfsizlik Xartiyasi loyihasi muhokama qilinarkan ekan, bu loyihani yanada to'ldirish, yangi bandlar va g'oyalar bilan boyitish taklifini kiritdi.

Ushbu taklifning o'zida YXHTning xalqaro tashkilot sifatidagi nufuzini oshirish, uning bevosita mojarolar chigallashib borgan joydagi ta'sirini kuchaytirish va shunchaki kuzatuvchilik holatidan jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini boshqarishga, mamlakatlararo va mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashni yo'lga soladigan, uning muvozanatini saqlab turadigan tashkilotga aylantirish zarurligini ta'kidladi. Bu davlat rahbaridan alohida iroda, siyosiy qudrat, ichki madaniyatni talab qiladigan voqelikdir. Dunyoning eng qudratli davlatlari rahbarlari ishtirok etayotgan xalqaro anjumanda barchaning diqqatiga sazovor bo'ladigan aniq va konkret taklif aytish yo'li bilan o'zining va davlatining salohiyatini ko'rsata bilish qobiliyatidir.

O'zbekiston rahbari ilgari surgan ikkinchi taklif YXHT va uning tuzilmalari tomonidan inson holatini tobora yaxshilash masalalariga berilayotgan e'tibor bo'ldi. Bu ayniqsa, demokratik yangilanish yo'liga kirgan yangi mustaqil davlatlar uchun o'ta muhim va zarur ekanini alohida ta'kidladi va «**mazkur tashkilotning asosiy maqsadini hisobga olgan holda, YXHTning faoliyati xalqaro ziddiyatlarning**

oldini olishga qaratilgan xalqaro organ sifatidagi vazifalarini aniq belgilab olish, shuningdek, uning iqtisodiyot va ekologiya sohalarida tutgan o‘rnini mustahkamlash zarur, deb hisoblaymiz. Bu vazifalarni amalga oshirishda AQSHning YXHT doirasida Tezkor Fuqarolik korpusini (KEAST) tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbusi qo‘l kelishi mumkin», dedi.

Xalqaro terrorizmning qanday shaklda bo‘lmasin, diniy yoki boshqa tusda bo‘ladimi, tobora moddiylashib, iqtisodiy manfaatlarga xuruj qilayotgani, ayni ana shu ehtiyojlarni insoniyat naslini aynitadigan og‘u savdosi — narkobiznes orqali qondirishga intilayotganligi masalasini, aytish mumkinki, O‘zbekiston rahbari Islom Karimov jahon siyosatdonlari orasida birinchi bo‘lib ko‘tardi va uning xavfli tomonlarini ko‘rsatib berdi. **Birinchidan**, xalqaro terrorizmning moddiylashuv jarayoni nihoyatda xavfli, xatarli, tahlikali ekanligi ilk bor aniq-ravshan tahlil etildi.

Ikkinchidan, xalqaro terrorizm nafaqat insonning jismoniy kushandasi, balki ma‘naviy jihatdan ham barbod etuvchi, uning nasli-nasabini buzuvchi, Yer yuzida majruhu nimjon odamlarning ko‘payishiga, aqliy va ma‘naviy jihatdan zaif aholining ko‘payishiga olib keladigan jinoyat turiga — biologik halokatga eltuvchi xatarli hodisaga aylanayotganligini ham O‘zbekiston rahbari birinchi bo‘lib ko‘tardi.

Prezident I.Karimov kiritgan uchinchi taklif — Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tizimini isloh qilish, uni bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimiga moslashtirish va insoniyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan, hayot keltirib chiqarayotgan yangidan-yangi muammolarni hal etishga ko‘proq jalb etish bilan bog‘liq bo‘lgan masaladir. Jumladan, Prezident Islom Karimov «Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo‘yish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Markazning asosiy vazifasi terrorizm ko‘rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag‘ bilan ta‘minlayotgan, qo‘llab-quvvatlayotgan, qurol-yarog‘ bilan ta‘minlab, joylarga jo‘natayotgan manbalarga qarshi kurash bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning so‘zsiz bajarilishi bo‘yicha faoliyatlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lishi lozim», — dedi. Bu chindan ham YXHT faoliyatini yangi zamonga moslashtirish uchun uning tarkibi, tizimi va faoliyat doirasini takomillashtirish zarurati tug‘ilganini ko‘rsatadi.

Istanbul Sammiti O‘zbekiston so‘zining qudratini, uning siyosiy irodasini va jahon taraqqiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatayotganini yana bir bor namoyish qilgan ulkan hodisa bo‘ldi. U yana bir bor dunyoning eng nufuzli siyosatdonlari e‘tiborini xalqaro terrorizm va ekstremizmning tub mohiyatini, uning taraqqiyot omillarini, Yer shari va insoniyat taqdiriga solayotgan tahdidlarini har tomonlama chuqur tahlil etishga, ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan munosib baho berishga qaratdi. Prezident Islom Karimov nutqi bugungi O‘zbekiston siyosatining butun ko‘lamini va umuminsoniy qadriyatga daxldorligini ko‘rsatib turadi.



1. «Sovuq urush» xavfi barbod bo‘lgach, xalqaro miqyosda qanday muammo dunyoga xavf solmoqda?
2. Mintaqaviy mojarolar va terrorizm xavfi haqidagi fikrlaringiz.
3. I.Karimovning «Mintaqaviy nizolar, ma‘lum bir hududlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar dunyo taqdirini belgilaydigan ulkan xavfga aylanishi mumkin», degan fikrlarini tahlil qiling.
4. Chegaralar orqali sun‘iy bo‘lingan xalqlar munosabatlarining buzilishi qanday xavf soladi? Fikringizni misollar keltirib isbotlang.

5. «6+2» guruhi uchrashuvi O'zbekistonni tashqi siyosatdagi muhim yutug'i ekanligini asoslab bering.
6. Toshkent Deklaratsiyasi va uning ahamiyatini ta'riflang.
7. Terrorizm insoniyat va taraqqiyot dushmani ekanligini misollar bilan tushuntiring.
8. Islomni soxtalashtirish qanday oqibatlariga olib kelmoqda?
9. Botken voqealari xalqaro terrorizmning zanjir halqalari ekanligini asoslab bering.
10. Istanbul Sammiti haqida fikrlaringizni bayon qiling.



1. «Terrorizm — insoniyat dushmani, taraqqiyot va yuksalish kushandasi» mavzusida bayon yozing.
2. Istanbul Sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bildirilgan uchta taklifning har birini daftaringizga yozing va tahlil qiling.

42-§. XXI ASR — YANGI SIVILIZATSIYA DAVRI

Madaniy hamkorlik: sivilizatsiya ostonasi

YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasi 1998-yil 19-oktabr kuni Parijda ochilgan edi. Uning asosiy mavzusi «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 50 yilligi, eslamog burchi va hushyorlik zaruriyati — qullikdan inson qadr-qimmatining tiklanishi sari», deb belgilangan edi. Sessiyada YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan YUNESKO faoliyat dasturlarining bajarilishiga oid hisobot ma'ruzasi va turli tashkiliy masalalardan tashqari, dunyoviy madaniyat ravnaqiga bag'ishlangan uchta hujjat qabul qilinishi mo'ljallangan edi. Birinchi hujjat BMT uchun mo'ljallangan dunyoviy madaniyat haqidagi jamlanma ma'ruza, ikkinchisi — «Dunyoviy madaniyat yo'lida» deb nomlangan sohalararo loyihaning baholanishi haqida edi va ular Parijdagi yig'ilishda qabul qilindi. Uchinchi hujjat esa O'zbekiston tomonidan taklif qilingan «Dunyoviy madaniyat va YUNESKOning a'zo mamlakatlaridagi faoliyati» deb nomlangan qaror loyihasi bo'ldi. O'zbekiston hukumatining taklifiga binoan Ijroiya Kengash qarorlari ro'yxatiga kiritilgan bu hujjat loyihasi 155-sessiyaning Toshkentda o'tadigan yakuniy yig'ilishida qabul qilinishi mo'ljallangan edi.



1998-yil 6-noyabr kuni Toshkentdagi «Interkontinental» mehmonxonasining Amir Temur zalida YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakuniy yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Sessiyaning yakuniy yig'ilishini YUNESKO Ijroiya Kengashi raisi Pal Pataki ochdi. Rais sessiya kun tartibiga O'zbekiston tomonidan kiritilgan hujjatning ahamiyati haqida gapirar ekan, uning dunyoviy madaniyat shakllanishida muhim omillardan biri bo'lib qolishini ta'kidladi. Shuningdek, hujjat muhokamasini O'zbekistonda o'tkazish taklifi ko'pchilik tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinganini qayd etdi. Sessiyada O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov nutq so'zlad.

YUNESKOning o'sha paytdagi Bosh direktori Federiko Mayor sessiyaning yakuniy yig'ilishini O'zbekistonda o'tkazish taklifini bildirgani uchun Prezident Islom Karimovga anjuman qatnashchilari va tashkilot nomidan minnatdorchilik

izhor qildi. «Men, — deb ta'kidladi o'z so'zida F.Mayor, — O'zbekiston xalqi boshidan kechirayotgan bugungi murakkab o'tish davrida fan va madaniyat, ma'naviyat ravnaqiga qo'shayotgan ulkan xizmatlaringiz uchun Sizga minnatdorchilik bildiraman. Chunki Siz ma'naviyatni tiklashdagina emas, uni yosh avlodga singdirishda ham katta xizmat qilmoqdasiz».

F.Mayor YUNESKO faoliyati haqida gapirib, uning tinchlikni saqlashda fan, ta'lim va madaniyatni asos qilib olgani O'zbekiston hukumati olib borayotgan siyosat bilan hamohang ekaniga e'tibor qaratdi. Prezident Islom Karimovning «Biz kelajakning poydevorini qo'ymoqdamiz», degan so'zlarini esladi va bunga misol qilib O'zbekistonda ta'lim, fan va ma'naviyat sohasida erishilgan yutuqlarni keltirdi. O'zbekiston tajribasi dunyoviy madaniyat shakllanishida muhim bo'g'inlardan biri bo'lishini qayd etdi.



YUNESKO Bosh direktori tashkilotning Abu Ali ibn Sino nomidagi oltin medaliga sazovor bo'lgani bilan Islom Karimovni qutladi va oltin medalni O'zbekiston Prezidentiga topshirdi.

Tabiiyki, ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti bo'lgan YUNESKO sessiyasi ishtirokchilarining aksariyati olimlardir. Ular Prezident Islom Karimov kitoblarini o'qib, uni shu mahalgacha faqat nazariyotchi sifatida bilganlarini, endi O'zbekiston bilan tanishib, bu yerda o'tkazilayotgan islohotlar va ularning ilk natijalaridan bo-xabar bo'lib, O'zbekiston Prezidenti faqat nazariyotchi emas, balki izchil amaliyotchi ham ekanligini e'tirof qildilar. Sessiya ishtirokchilaridan biri «O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovni kelgusi mingyillikning kishisidir, deya ishonch bilan ta'kidlayman», dedi. Barcha ma'ruzalarda O'zbekiston qadimiy madaniyat beshiklaridan birigina emas, ayni chog'da xalqlarning tinch-totuv yashashi, ma'naviy merosga munosabat nuqtai nazaridan bugungi zamon davlatlarining ko'piga o'mak bo'larli jamiyat ham ekani qayd etildi.

Hamjihatlik — xavfsizlikning bosh omili

Asrimizning to'qsoninchi yillarida dunyo mamlakatlari ikkiga ajratib turgan Berlin devori qulab, «sovuq urush» siyosati barham topganidan so'ng, odamzot boshidagi urush xavfi go'yo yo'qolgandek tuyuldi. Lekin voqealar rivoji bu ishonchning o'tkinchi ekanini isbotladi. Boz ustiga, odamzotning tinch hayot va farovonligiga xavf soluvchi boshqa tahdidlar — terrorizm va zo'ravonlik, diniy ekstremizm va fundamentalizm, qurol-yarog' va narkotik moddalar kontrabandasi yuzaga chiqdi.

Qolaversa, XX asrning so'nggi o'n yilligida o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar jahon siyosiy xaritasi, binobarin, xavfsizlik tizimida katta o'zgarishlar yasadi. Shunday bir sharoitda yer yuzidagi har bir davlat, ayniqsa, yangi mustaqil respublikalar uchun o'z xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bosh masalaga aylandi.



O'zbekiston Respublikasi BMT, NATO, YXHT va boshqa yirik xalqaro tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik, avvalo, mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Negaki, bugungi kunda O'zbekistonning taraqqiyoti uchun tinchlik va barqarorlik eng asosiy shart sanaladi.

Bilamizki, Afg'onistonda kechayotgan urush, qo'shni Tojikistondagi beqarorlik mintaqamiz, shu jumladan, O'zbekistonning osoyishtaligiga ham har daqiqa xavf solib turadi. Bu xavf nimalarda ko'rinadi?

Birinchidan, urush olovining yon-atrofga yoyilish xavfi, **ikkinchi**dan, qurol-yarog' va narkotik moddalar kontrabandasining avj olayotgani. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda Afg'oniston narkotik moddalar «eksporti» bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turibdi. Bu esa nafaqat bizning mintaqamiz, balki Yevropaga ham katta tashvish tug'dirayapti. **Uchinchi**dan esa, mazkur davlatlardagi beqarorlik sabab ayrim kuchlar diniy ekstremizm va fundamentalizm yo'lidagi harakatlarga zo'r berayaptiki, ayni hol O'zbekiston uchun nechog'lik jiddiy ekanini 1999-yil 16-fevralda Toshkentda yuz bergan mudhish voqealar yana bir karra tasdiqladi. Qolaversa, ayrim mamlakatlarning shovinistik harakatlari ham mamlakatimiz mustaqilligi va taraqqiyotiga xavf solayotgani sir emas.



Shunday bir sharoitda O'zbekiston o'z xavfsizligini ta'minlash borasida dunyoning rivojlangan davlatlari, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, NATO bilan hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekani tabiiy.

Ma'lumki, O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining faol ishtirokchisi sanaladi. Dastur asosidagi o'zaro muloqot esa harbiy-o'quv mashqlari doirasida kengayapti. Lekin O'zbekiston NATOga a'zo bo'lmaydi. Buning ikkita sababi bor.

Birinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor tamoyillaridan biri hech qanday harbiy bloklarga a'zo bo'lmaslikdir. Prezident Islom Karimov bu masalani yanada sodda qilib tushuntirib, birorta o'zbek askari o'z mamlakatimiz chegaralari hududidan tashqariga borib, har xil mojarolarda ishtirok etmaydi, dedi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning bugungi siyosiy-geografik holati ham biror-bir harbiy blokka kirish amaliyotiga to'g'ri kelmaydi. Mabodo shunga amal qilinadigan bo'lsa, mintaqadagi xavfsizlik muvozanatiga putur yetkazib qo'yishi mumkin. Garchand mintaqamizdagi ayrim davlatlar o'z sa'y-harakatlari bilan mintaqaxavfsizligiga rahna solayotgan bo'lsa-da, O'zbekiston rahbariyati bularga qarshi harakat qilmasligini ochiq-oydin ma'lum qilgan. Aksincha, bizning maqsadimiz mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni, farovon hayotga erishishni ta'minlashdir. O'zbekiston—NATO munosabatlarining asl mohiyati ham shu — davlatimizning xavfsizligi va tinchligini ta'minlash. qolaversa, mintaqada barqarorlikni qaror top-tirish uchun shart-sharoitni imkon qadar kengaytirish va mustahkamlashdan iborat.

Bugungi kunda dunyodagi 26 ta mamlakat (1994-yil martda kirgan Sharqiy Yevropa davlatlarini ham hisobga olganda) NATOning to'laqonli a'zosi sanaladi, qirqqa yaqin davlat ushbu alyans bilan hamkorlik qiladi. Mazkur Shimoliy alyans bilan, NATOga a'zo hamda unga sherik davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston uchun juda muhim.



1999-yil apreldagi Yevroatlantika Hamkorlik Kengashining yalpi majlisida O'zbekiston Prezidenti I.Karimov so'zga chiqib, O'rta Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zarur omillarga alohida to'xtalib o'tgan edi.

Jumladan, Islom Karimov yigirma yildan beri davom etib kelayotgan va mintaqa xavfsizligiga katta tahdid solayotgan afg'on mojarosini hal etishni, holbuki, Afg'onistonda kuniga yuzlab odamlar urush tufayli halok bo'layotgani jahon ahlida unchalik ham katta tashvish tug'dirmayotgani ajablanarli ekanligi, buning sababi jahon xavfsizlik tizimida muvozanat yo'qligini alohida ta'kidlagan edi. O'zbekistonning, qolaversa, boshqa davlatlarning ham NATO bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishga intilayotgani ayni shu muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz. Negaki, biz istaymizmi-yo'qmi, bugungi kunda NATO dunyodagi har qanday zo'rvonlikka harbiy va siyosiy jihatdan qarshi tura oladigan yagona tashkilot bo'lib qolayapti. Xususan, Bosniya voqealari NATOning dunyo uchun kerakligini aniq isbot qilgan edi. Bular — **birinchidan**.

Ikkinchidan, yadro quroliga ega davlatlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Negaki, keyingi vaqtda Janubiy Osiyoda o'tkazilgan yadro sinovlari kishini tashvishga soladi.

Uchinchidan, mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmning tarqalishi-ga yo'l qo'ymaslik lozim. Aytish mumkinki, bugun aynan diniy ekstremizm va fundamentalizm yer yuzidagi ko'plab urushlar, mojarolarga turtki berib turibdi.

To'rtinchidan, terrorizm va zo'rvonlik, qurol-yarog' hamda narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi hamkorlikda kurashni kuchaytirish zarur. Ayni shu masalalarda O'zbekiston NATOning va unga sherik boshqa davlatlarning ko'magi-ga extiyof sezadi.



1999-yil 26-aprel kuni O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasida O'zbekiston, Gruzija, Ozarbayjon, Ukraina va Moldova Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv samarasi o'laroq, Gruzija, Ukraina, Ozarbayjon hamda Moldova o'rtasidagi hamkorlik tuzilmasiga O'zbekiston ham qo'shildi. Demak, bundan buyon bu tuzilma GUUAM, deb yuritiladi. Ushbu tuzilma maqsadi ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, kommunikatsiyani rivojlantirishdir. Gruzija, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova davlat rahbarlarining 1997-yil Strasburgda bo'lib o'tgan uchrashuvida tuzilgan ushbu birlikning dastlabki kelishuvi G'arbgga qurol-yarog' tarqalishining oldini olish bo'yicha bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi kunga kelib uning vazifalari sezilarli darajada kengaydi. Mazkur birlik doirasida hamkorlik qilish bizga, ayniqsa, kommunikatsiyani rivojlantirish uchun muhim. Bilamizki, transport kommunikatsiyasi masalasi dengiz portlaridan uzoqda joylashgan O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Shu boisdan O'zbekiston Buyuk Ipak yo'li, TRASEKA doirasidagi ishlarda faol ishtirok etayapti.

Keyingi vaqtda O'zbekiston va AQSHning bir-biriga sezilarli darajada yaqinlashgani kuzatildi. Bu sun'iy emas, balki tabiiy jarayondir. Yodimizda, yurtimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda AQSHdagi ayrim siyosatdonlarning O'zbekiston hukumati siyosatidan xiyla noroziligi sezilib turardi. Bugungi kunga kelib esa bunday kayfiyat o'rmini xayrixohlik egalladi. Zero, munosabat bir-ikki kunda o'rnatilmaydi, buning uchun yillar kerak. Bugun AQSH O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi strategik hamkori hisoblaydi. Buning sababi nimada? Islom Karimov buning sababini izohlar ekan, ushbu hol O'zbekiston tanlagan yo'l to'g'ri,

yuritayotgan siyosatimiz esa izchil va oqilona ekanining oddiy bir isbotidir, dedi. Ichki siyosatda ham, tashqi siyosatda ham.

O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishidan har ikki davlat ham manfaat topmoqda.

**EKO: amaliy ishlar
davri**

Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti — EKOni 1977-yilda Pokiston va Turkiya davlatlari birgalikda tashkil etgan edi. 1992-yilda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon va Afg'onistonning qo'shilishi bilan mazkur tashkilotning hududiy qamrovi kengaydi, unga a'zo bo'lgan davlatlarning iqtisodiy, madaniy sohalarida hamkorlik qilishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

Shu o'rinda aytish lozimki, Prezident Islom Karimov doimo EKO iqtisodiy tashkilot ekanligi, binobarin, uning faoliyatini siyosiy lashtirish va mafkuralashtirishga yo'l qo'yib bo'lmasligini qat'iyat bilan ta'kidlab keladi.



O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1999-yil 10—11-may kunlari EKOGa a'zo mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlarining beshinchi uchrashuvida qatnashish uchun Almati shahriga tashrif buyurdi.

Uchrashuvda Sammit qatnashchilari — O'zbekiston, Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston davlat va hukumat boshliqlarining, shuningdek, EKO Bosh kotibi hamda bir necha nafuzli xalqaro tashkilotlar vakillarining nutq va ma'ruzalari tinglandi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida O'zbekistonning EKO faoliyatida qatnashishidan ko'zda tutilgan maqsadlar haqida ham to'xtaldi. **Birinchidan**, bu tashkilot ishida ishtirok etish bizga qo'shni davlat bilan o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun zarur. Bu o'z navbatida mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. **Ikkinchi** maqsad esa, mintaqadagi gumanitar muammolarni birgalikda hal etish, tarixiy zamini bir bo'lgan xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashdan iboratdir. **Uchinchidan**, eng muhim vazifa — bu mavjud tabiiy salohiyatimizni dunyoga olib chiqish uchun kommunikatsiya tarmoqlarini vujudga keltirishdan iboratdir. Chunki bu muammoni hal etmay turib, 300 million aholi yashaydigan ulkan hududda iqtisodiy taraqqiyotga erishish qiyin.

Uchrashuvda so'zga chiqqan notiqalar EKO doirasidagi hamkorlik berayotgan ilk samaralari haqida to'xtalib, mintaqa mamlakatlarining iqtisodiyot, madaniyat, kommunikatsiya sohalarida birgalikda amalga oshirajak loyihalari taraqqiyotimizni tezlashtirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladilar. Tasvirlanadigan faoliyatini kengaytirish va takomillashtirish yo'llarini muhokama qildilar.

Sammit qatnashchilari mintaqaviy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, EKOning kelgusi faoliyatini takomillashtirish yo'llari belgilangan Almati Deklaratsiyasini tasdiqladilar. Shuningdek, a'zo mamlakatlar o'rtasida yuk tashish borasidagi to'siqlarni bartaraf etishga, kontrabandaga qarshi birgalikda kurashishga qaratilgan hukumatlararo hujjatlar ham qabul qilindi.

**O'zbekiston — Isroil
hamkorligi**

Ma'lumki, o'ziga xos rivojlanishga ega bo'lgan davlat bilan hamkorlik ikki tomon uchun ham foydalidir.



O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1999-yil 14—17-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan Isroilda bo'ldi.

Xo'sh, tashrifdan muddao nima edi? Avvalo, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yanada kengaytirish va buning uchun zarur huquqiy asoslarni mustahkamlash. Isroil davlatining bugungi iqtisodiy taraqqiyoti, aqliy salohiyati, yuksak texnologiyasi, ilmiy-texnikaviy yutuqlari haqiqatan ham katta e'tiborga molik. Shu bois ham Isroil bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish bizga foydalidir.

Tashrifning ikkinchi kunida ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralarida asosiy e'tibor ham shu o'zaro hamkorlikning huquqiy asosini mustahkamlash masalasiga qaratildi. Muzokaralar yakunida ushbu maqsadga xizmat qiluvchi muhim hujjatlar imzolandi. Jumladan, Prezident Islom Karimov hamda Bosh vazir Benyamin Netanyahu mamlakatlarimiz hukumatlari o'rtasida ikki tomonlama soliq solmaslik, daromad va kapitalga soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish, shuningdek, o'zaro savdo va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi Bitimlarga imzo chekdi. Qolaversa, ikki davlat o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilishda hamkorlik, qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik qilish, o'zaro texnik hamkorlik, soliq hamda soliqni saqlash sohaslarida hamkorlik qilish, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bilan Isroilning tashqi savdo sug'urta korporatsiyasi «IFTRIK» o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi.

Muzokaralar so'ngida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida mamlakatimiz rahbari O'zbekiston bilan Isroil iqtisodiyotida bir-birini to'ldiruvchi omillar talaygina ekanini ta'kidladi. Ya'ni, tabiiy resurslarimizdan unumli foydalanish uchun bizga zamonaviy texnologiya kerak. Xususan, Isroilning qishloq xo'jaligi, chorvachilik, dehqonchilik, urug'chilik, oziq-ovqat va parrandachilik kabi yo'nalishlarda katta foyda keltiradigan mini texnologiyasiga bizda ehtiyoj bor. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston, qolaversa Markaziy Osiyo bozorida Isroilning faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi. Telekommunikatsiya va farmatsevtika sohalari ham o'zaro hamkorligimizda asosiy yo'nalishlardan sanaladi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikda O'zbekistonning qiziqishlari nimalarda ko'rinadi? Bilamizki, Isroil qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan mamlakat. Suv tanqis, boshdan yoki tog'u tosh va daladan iborat zaminda paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, dehqonchilik bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuqlar kishini mulohazaga chorlaydi. Mamlakatda 5,6 million aholi istiqomat qiladi. Uning mehnatga yaroqli qismi esa 40—42 foizni tashkil etib, shundan atigi uch foizigina qishloq xo'jaligi bilan band. Ana shu uch foiz odam butun mamlakatni qishloq xo'jalik mahsuloti bilan ta'minlabgina qolmasdan o'z mahsulotini chetga eksport ham qiladi. O'z-o'zidan ayonki, hammasining siri texnologiyada, mavjud imkoniyatdan oqilona foydalana bilishda.

Tashrif chog'ida Islom Karimov Isroildagi «Zeraim Gedera» nomli ilmiy ishlab chiqarish va yangi navlar yaratish majmui bilan tanishdi. Mutaxassislarining fikricha, «Zeraim Gedera» paxta navlari bilan hosildorlikda katta ko'rsatkichlarga erishish mumkin. Tajriba uchastkasidagi g'o'zapoya naqd odam bo'yi keladi. Bitta tupda 19—20 tagacha ko'sak bor. Har bir ko'sakdagi paxtaning og'irligi 8 gramm-gacha tosh bosadi. Vaholanki, bizda bitta ko'sakdagi paxtaning og'irligi ikki baro-

bar kam — 4 grammni tashkil etadi. Tomchilab sug'orish borasida ham «Zeraim Gedera» texnologiyasi bizga qo'l kelishi mumkin. Masalan, bu yerda bir gektar dalani sug'orish uchun 3—5 ming metr kub suv sarflanadi. Bizda esa shuncha maydonga 11 ming kub metr suv ketadi. Isroilning yutuqlari e'tiborga molik. Bu yerda gektaridan 70 sentnergacha hosil ko'tarilsa, bizda bu ko'rsatkich o'rtacha 26—27 sentnerni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlarni taqqoslayotganimizning boisi bor. Yerimiz Isroil yerlaridan unumdorroq, baquvvatroq. Demak, biz ulardan ham ko'proq hosil olishimiz mumkin. Xalqimizning aqliy salohiyati, iqtidori va qobiliyati ham o'zgalardan ortiq bo'lsa ortiq, lekin zinhor kam emas. Dunyoda yerni o'zbek dehqonchalik sevadigan, ardoqlaydigan odamni topish ham amri mahol. Faqat qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyani kiritish zarur. Shu ma'noda, Isroildagi bu kabi firmalar bilan hamkorlik biz uchun ayni muddao. Bu bitta paxtachilik misolida ko'rganimiz, holbuki, Isroilda chorvachilik, parrandachilik kabi sohalarda ham shunday imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatimiz rahbari shu yerning o'zidayoq O'zbekiston «Zeraim Gedera» bilan ikkita loyiha bo'yicha hamkorlik qilishga tayyor ekanini ma'lum qildi: biri — paxtachilik texnologiyasining to'la majmui, ikkinchisi — turli sharoitda chigitni sinab ko'rish bilan bog'liq.

O'zbekiston Isroil bilan samolyotsozlik sohasida ham ikki tomonlama manfaatli hamkorlik qilishi mumkin. O'zbekiston jahonning yirik samolyotsozlik kompaniyalari bo'lmish «Boing», «Yevropa Eyrbas Indastriz» bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. O'z navbatida Isroil samolyotsozlik zavodi — «Isroil eyrkraft indastriz LTD» korporatsiyasi ham jahonda o'z nufuziga ega. Unda fuqaro aviatsiyasi uchun hamda harbiy sohalar bo'yicha samolyotlar, ularning ehtiyoj qismlari ishlab chiqariladi. Qolaversa, zavodning elektronika sohasidagi faoliyati ham e'tiborga molik. Uning 1998-yilgi savdosi 2 milliard AQSH dollari miqdorida baholanayotir. Umuman, O'zbekiston—Isroil hamkorligi ikki davlat uchun ham samarali natijalar berib kelmoqda.



1. Yangi sivilizatsiya davri madaniy hamkorlikdan boshlanishini asoslab bering.
2. O'zbekiston NATONing «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturida nima maqsadda ishtirok etmoqda?
3. «GUUAM» tuzilmasi ishtirokchilari va ularning maqsadlari haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekiston va AQSH munosabatlarida O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatidagi izchillikning AQSH tomonidan tan olinganligi haqidagi fikrlaringiz.
5. Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotida O'zbekiston munosabatlari haqida gapiring.
6. O'zbekiston EKO tashkilotiga a'zo bo'lishdan qanday maqsadlarni ko'zda tutgan?
7. O'zbekiston—Isroil hamkorligi haqidagi fikrlaringiz.



«XXI asr — yangi sivilizatsiya davrida O'zbekistonning o'rni» mavzusida bayon yozing.

O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK DEKLARATSIYASI

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Soveti:
o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari,
har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad
haqi,

har bir kishining farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda,
O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy ma'suliyatni chuqur his etgan holda,
xalqaro huquq qoidalari, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga
asoslanib,

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qiladi.

1. O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida
barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhoka-
masiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emas.

3. O'zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va
bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluq-
lidir.

4. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga
muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston
SSR hududida kuchga ega bo'ladi.

5. O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi
siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

6. O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.

7. O'zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan o'zining siyosiy,
iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga
oshiradi.

8. O'zbekiston SSR o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgi-
larini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etadi.

9. Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor
Respublika Konstitutsiyasi ta'min etadi. O'zbekiston SSR uning Asosiy Qonuni va O'zbe-
kiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpog'iston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

10. O'zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston SSR davlat mus-
taqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi. O'zbekiston
SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.

11. O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy
davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O'zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va
elatlarining qonuniy, siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlarga hamda ona tillari rivoj-
lantirilishiga kafillik beradi.

12. Ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi itti-
foq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI
ASOSLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston SSRning Mustaqillik deklaratsiyasiga va O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonotiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi ushbu Qonunni qabul qiladi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va uning qonunlari ustundir. O'zbekiston Respublikasi Davlat idoralarining tizimi hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega.

Suveren O'zbekiston Respublika hududida SSSR Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir.

Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi.

8-modda. Davlat mulki obyektlari, shuningdek, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning, shu jumladan Ittifoq qaramog'ida bo'lib kelgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mol-mulki, ularning asosiy ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va oborot yoki boshqa fondlari hamda o'zga mol-mulki, ichki kommunikatsiya, transport, aloqa va energetika tizimlari, respublika kartografiyasi va geodeziyasi O'zbekiston Respublikasining mulkidir.

9-modda. O'zbekiston Respublikasining mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va hususiylashtirish respublika qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Respublika hududida joylashgan, ittifoq qaramog'ida bo'lib kelgan davlat korxonalarini aksiyali jamiyatlarga aylantirish, ularni mulkning boshqa shakllariga o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan shartlar asosida va tartibda amalga oshiriladi.

10-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o'z oltin zaxirasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi SSSRning oltin zaxirasida, olmos va valyuta jamg'armalarida o'z ulushiga ega.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z pul birligi — milliy valyutasini joriy etishga, jami pul oboroti, pul va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi hajmlarini mustaqil belgilashga haqli.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi mustaqil moliya va kredit siyosatini amalga oshiradi. Respublika hududida olinadigan soliqlar va yig'img'lar O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga va mahalliy byudjetlarga tushadi.

13-modda. O'zbekiston Respublikasi chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa aloqalar o'rnatadi, ular muxtor vakillar ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi halqaro iqtisodiy munosabatlarning mustaqil subyekti bo'lib, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlarini, investorlarning huquqlarini belgilaydi, o'zining konversiya qilinadigan valyuta jamg'armasini yaratadi, oltin va boshqa zaxiralarni, ayirboshlanadigan valyutani sotadi va sotib oladi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan, elatidan, ijtimoiy chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar, respublika konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari respublikadan tashqarida ham O'zbekiston Respublikasining himoyasida bo'ladilar.

16-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir va ularni har qanday tahqirlash qonun bilan jazolanadi.

17-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligini va mustaqilligini e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar teng huquqlilik asosida, ular o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar vositasida quriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida erkin chiqish huquqini saqlab qoladi.

**O'zbekiston Respublikasining
Prezidenti I.KARIMOV**

Toshkent shahri,
1991-yil 31-avgust

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI TO'G'RISIDA OLYI KENGASH BAYONOTI

O'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib,

— xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib,

— O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab,

— shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatini bayon etib,

— millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib,

— mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat — O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasining, o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, hududi bo'linmas va daxlsizdir.

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da'volari bo'lmay, u o'z hududi va uning tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir.

Davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi O'zbekiston Respublikasining ozod mustaqil xalqidir.

O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralarining tizimini mustaqil belgilaydi.

O'zbekiston ittifoqda yagona iqtisodiy maydon vujudga keltirilishi, suveren va mustaqil davlatlar o'rtasida mutlaqo teng huquqli, o'zaro manfaatli shartlarda siyosiy va iqtisodiy shartnomalar tuzilishi tarafdoridir.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini hamda hududiy butunligini himoya qilish maqsadlarida Mudofaa ishlari vazirligi va milliy gvardiya tuziladi. Respublika hududida joylashtirilgan SSSR Ichki ishlar vazirligining, SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasining idoralari, shuningdek, ichki qo'shinlar O'zbekiston respublikasining huquqiy tobe'ligiga olindi.

O'zbekiston Respublikasi SSSR Mudofaa vazirligining respublika hududida joylashtirilgan harbiy qismlari va qo'shilmalarini shakllantirish hamda ularga rahbarlik qilishga haqli ekanligini ma'lum qiladi, jamoa xavfsizligini vujudga keltirishda va SSR Ittifoqining strategik qo'shinlarini saqlashda qatnashadi.

Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol-yarog'lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslik, insoniyatning jahonshumul muammolarini hal etishda davlatlar hamkorligi va xalqlar birdamligidan iboratdir.

Bundan buyon O'zbekiston Respublikasi hududida Respublika Konstitutsiyasi va qonunlari shak-shubhasiz ustun deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi oldindan hech qanday shart qo'ymagan holda barcha sheriklar bilan bevosita teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi irqchilikka, shovinizmga, millatchilikka, xalqlarning huquqlarini cheklash yo'lidagi har qanday urinishlarga qat'iy qarshi chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq doirasida hamma e'tirof etgan qonun-qoidalar ustunligini tan oladi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n
ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi
sessiyasida 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan**

4 - i l o v a

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGINI E'LON QILISH TO'G'RISIDA

Oliy kengash qaror qiladi:

1. Respublikaning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin.

2. 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Rayosati respublika Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflarni tayyorlasin hamda ularni Oliy Kengashning muhokamasiga kiritсин.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi respublikaning mustaqilligini huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan qonunlar loyihalari ustidagi ishlarni tezlashtirsin.

5. O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi Ittifoqning va uning tarkibiga kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularning respublikaning davlat mustaqilligi e'lon qilingan hujjatini tan olishga da'vat etadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi
chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1991-yil
31-avgustda qabul qilingan**

ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV

Davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. 1938-yil 30-yanvarda Samarqandda tug'ilgan. O'rta Osiyo politexnika instituti va Toshkent xalq xo'jaligi institutini tugatgan. 1960-yildan «Tashselmash» zavodida avval master yordamchisi, so'ng master, texnolog, 1961-yildan Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida avval muhandis, so'ngra yetakchi muhandis-konstruktor bo'lib ishladi. 1966-1983-yillarda O'zbekiston Davlat Plan komitetida fan va yangi texnikani joriy etish bo'limining bosh mutaxassisligidan respublika Davlat Plan komiteti Raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1983-yildan O'zbekiston Moliya Vaziri, 1986-yilda O'zbekiston Ministrlar Soveti Raisining o'rinbosari — Respublika Davlat Plan komitetining Raisi. 1986-yil dekabridan O'zbekiston Kompartiyasi Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 1989-yil iyunida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining birinchi kotibi, 1990-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. 1991-yil 29-dekabrda birinchi bor muqobilik asosida tashkil etilgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

1995-yil 26-martda umumxalq Referendumida I.A.Karimovning Prezidentlik vakolati 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi. 2000-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Muqobilik va demokratik tamoyillar asosida o'tkazilgan ushbu saylovda Islom Abdug'aniyevich Karimov yana O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

Prezident I.A.Karimov O'zbekistonda davlat tuzumini mustahkamlashda, mamlakatning iqtisodiy, madaniy rivojlanishida, Respublikaning ichki va tashqi siyosatida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda jonbozlik ko'rsatgani uchun «O'zbekiston Qahramoni» faxriy unvoni (1994-yil), «Mustaqillik» (1996-yil), «Amir Temur» (1998-yil) ordenlari bilan taqdirlangan. I.A.Karimov xalqaro munosabatlarni rivojlantirishdagi salmoqli hissasi uchun bir qator xorijiy davlatlarning va nufuzli xalqaro tashkilotlarning orden va medallari bilan mukofotlangan. U O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi (1994-yil), nufuzli xalqaro Akademiyalarning faxriy a'zosi.

I.A.Karimovning eng muhim asarlari ingliz, fransuz, ispan, nemis, hind, xitoy, arab kabi o'nlab turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bir necha bor nashr qilingan. Respublikamizda I.A.Karimov asarlarining 11 jildlik to'plami quyidagi nomlarda nashr qilingan:

1-jild. I.A.Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. —T.: O'zbekiston. 1996.

2-jild. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. —T.: O'zbekiston. 1996.

3-jild. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. —T.: O'zbekiston. 1996.

4-jild. I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. —T.: O'zbekiston. 1996.

5-jild. I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. —T.: O'zbekiston. 1997.

6-jild. I.A.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. —T.: O'zbekiston. 1998.

7-jild. I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. —T.: O'zbekiston. 1999.

8-jild. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. —T.: O'zbekiston. 2000.

9-jild. I.A.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. —T.: O'zbekiston. 2001.

10-jild. I.A.Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. —T.: O'zbekiston. 2002.

11-jild. I.A.Karimov. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. —T.: O'zbekiston. 2003.

6 - i l o v a

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING 1996-YIL
26-APRELDAGI QARORI BILAN TA'SIS ETILGAN O'ZBEKISTON RESPUB-
LIKASINING FAXRIY UNVONLARI RO'YXATI**

- «O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi»,
 - «O'zbekiston Respublikasi fan arbobi»,
 - «O'zbekiston Respublika xalq artisti»,
 - «O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi»,
 - «O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi»,
 - «O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri»,
 - «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi»,
 - «O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi»,
 - «O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy va savdo sohasida xizmat ko'rsatgan xodim»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan aloqa xodimi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan me'mor»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan pillachi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustoz»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan transport xodimi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist»,
 - «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi».
-

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan

XVIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI

76-modda. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil.

77-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

78-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

2) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzulmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

- 8) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- 9) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;
- 10) O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;
- 11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;
- 12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta‘sis etish;
- 13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 14) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
- 15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- 16) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;
- 17) O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish;
- 18) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e‘lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;
- 19) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e‘lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilish, uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;
- 21) ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.
- Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.
- 79-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:
- 1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;
- 3) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- 4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.
- 80-modda.** O‘zbekiston Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlarga:
- 1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylash;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarni tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;
- 9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;
- 10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;
- 11) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;
- 12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;
- 13) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- 14) Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

8 - i l o v a

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan

XIX bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

89-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

90-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgaacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

91-modda. Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

92-modda. Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida quyidagi qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

93-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

3) Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) Muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) O'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

8) Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi.

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) Viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) Viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'iga

kiritadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) Respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) Favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu maqsadlarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

25) ushbu konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarini amalga oshiradi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishi davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

94-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

95-modda. Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

96-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo'shma qaroriga ko'ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida palatalarning qo'shma favqulodda yig'ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo'lgan muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umum-xalq saylovi o'tkazilishi shart.

97-modda. Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

9 - i l o v a

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan

XX bob. VAZIRLAR MAHKAMASI

98-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ushbu Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

10 - i l o v a

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan

XVII bob. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

70-modda. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarixiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi.

71-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z konstitutsiyasiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas.

72-modda. O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir.

73-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

74-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

75-modda. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

11 - i l o v a

«SIYOSIY PARTIYALAR TO'G'RISIDA»GI QONUNDAN

13-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi siyosiy partiya fraksiyasi qonunda ko'zda tutilgan quyidagi huquqlardan foydalanadi:

— sessiya kun tartibini tuzishda ishtirok etish;

— sessiya kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda fraksiya vakiliga kafolatlangan so'z berilishi;

— tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisiga va O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, vazirlarga, davlat organlarining boshqa rahbarlariga so'rovlar bilan murojaat etish;

— Oliy Majlis rahbarligiga qo'mita va komissiyalar raisligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish;

— sessiyada muhokama qilinayotgan masala bo'yicha fraksiya fikrini deputatlar orasida tarqatish;

— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

12 - i l o v a

«OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TO'G'RISIDA»GI QONUNDAN

1-modda. Ommaviy axborot vositalari.

Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byullitenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilovalar nashr etishi mumkin.

2-modda. Ommaviy axborot vositalari erkinligi.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalari axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanadilar hamda o'zlari e'lon qilayotgan axborotning to'g'riligi va haqqoniyligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

3-modda. So'z erkinligi.

Har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir.

4-modda. Senzuraga yo'l qo'yilmasligi.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. E'lon qilinayotgan xabarlar yoki materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek ularning matni o'zgartirishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q.

6-modda. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda suiiste'mollarga yo'l qo'yilmasligi.

Ommaviy axborot vositalaridan O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan o'zga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir qilish maqsadida foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi.

Prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsatisiz dastlabki tergov materiallarini e'lon qilish, muayyan ish bo'yicha sud qarori chiqmasdan turib yoki sudning hal qiluv qarori yoxud hukmi qonuniy kuchga kirmay turib, uning natijalarini taxmin qilish yoki sudga o'zgacha yo'l bilan ta'sir ko'rsatish, nomini ko'rsatmaslik sharti bilan ma'lumot bergan shaxsning nomini oshkor qilish (sud oshkor etishni talab qiladigan hollar bundan mustasno) taqiqlanadi.

10-modda. Axborot manbaini oshkor etmaslik.

Ommaviy axborot vositasi xabar, ma'lumot, fakt yoki dalillar taqdim etgan manbaning yoki taxallusining qo'ygani muallifning nomini ularning yozma rozilgisiz oshkor etishga haqli emas.

Ommaviy axborot vositasi axborot manbaining yoki taxallusining qo'ygani muallifning iltimosiga binoan sudda uning nomidan ishtirok etishi mumkin.

*13 - i l o v a***O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan****XII bob. JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI**

53-modda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan baʼ-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

54-modda. Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

55-modda. Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

*14 - i l o v a***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «TA'LIM TO'G'RISIDA»GI QONUNIDAN****10-modda. Ta'lim turlari.**

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta'lim.

11-modda. Maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o'рта ta'lim.

Umumiy o'рта ta'lim bosqichlari quyidagicha:
 boshlang'ich ta'lim (1—4-sinflar);
 umumiy o'рта ta'lim (1—9-sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'рта ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'рта ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi.

O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'рта ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'рта maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'рта kasb-hunar o'quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta'lim.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bagalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15 - i l o v a

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan**IV bob. TASHQI SIYOSAT**

17-modda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa

davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatining, xalqning oliy manfaatlari farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

16 - i l o v a

Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi Davlat boshliqlarining BAYONOTI

Davlat boshliqlari N.A.Nazarboyev, A.A.Akayev, R.N.Nabiyev, S.A.Niyozov, I.A.Karimov 1990-yilgi Olmaota uchrashuvida va 1991-yilgi Toshkent uchrashuvida erishilgan ahdnomalarga muvofiq Ashxabodda navbatdagi maslahat uchrashuviga to'plandilar, bu yerda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzish to'g'risida Minskda bitim imzolanganidan keyin yuz bergan vaziyatni muhokama qildilar. Har tomonlama fikrlashib olish va siyosiy vaziyatni tahlil etish natijasida uchrashuv qatnashchilari quyidagi fikrga keldilar:

— Belarus Respublikasi, RSFSR va Ukraina rahbarlarining oldingi huquqsiz respublikalar o'rnida hamdo'stlikka birlashgan mustaqil huquqiy davlatlarni barpo etishga intilishlarini biz tushunib, kutib olmoqdamiz. Ukraina ishtirokida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzishga doir Minsk tashabbusi ijobiy tusedir. Lekin bu haqdagi bitim kutilmagan voqea bo'ldi.

Kengash qatnashchilari avval SSSR subyektlarining SSSR xalq deputatlari V syezdi asosida yangidan birlashish jarayoni boshi berk ko'chaga kirib qoldi, degan fikrga qo'shiladilar. Markazning uzoqni ko'ra olmaydigan siyosati chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglikka, ishlab chiqarishning barbod bo'lishiga, jamiyat barcha tabaqalari turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi.

Uchrashuv qatnashchilari:

— Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzishga doir sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish zarur; Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi huquqiy negizda tuzilishi kerak;

— Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi to'g'risidagi qarorlar va hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida sobiq Ittifoq subyektlarining teng huquqli ishtiroki ta'minlanishi lozim, bunda hamdo'stlikni tashkil etuvchi barcha davlatlar muassis sifatida tan olinishi va bitim matnida ahdlashuvchi oliy tomonlar deb ko'rsatilishi kerak;

— Ana shu hujjatlarda, qarorlarda va bitimlarda O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonning tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarini hisobga olish kerak, afsuski hamdo'stlik to'g'risidagi bitimni tayyorlash chog'ida ular e'tiborga olinmagan;

— Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi barcha millatlar va elatlar teng huquqligiga, ularning huquqlari va manfaatlari himoya qilinishiga kafolat berishi lozim;

— Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi inson huquqlarini va xalqlarning huquqlarini buzadigan etnik, diniy yoki har qanday boshqa belgiga qarab tuzilishi mumkin emas;

— Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududiy yaxlitlikni va hozirgi mavjud chegaralar daxlsizligini tan oladi va hurmat qiladi;

— Jahonda strategik barqarorlikni saqlab qolish manfaatlari yo'lida yadro qurollari usti-

dan yagona nazoratni hamda strategik tiyib turish qo‘shinlari va harbiy-dengiz kuchlari birlashgan qo‘mondonligini ta‘minlash maqsadga muvofiq;

— Iqtisodiy hamjamiyat to‘g‘risida oldin tuzilgan shartnomani tasdiqlash va shu shartnomaga doir ishlarni to‘la-to‘kis nihoyasiga yetkazish zarur, deb hisoblaydilar.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib, biz barcha **subyektlar** manfaatlarini hisobga oladigan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining teng huquqli hammuassislari bo‘lishga tayyor ekanligimizni bildiramiz. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini tuzish masalalari mustaqil davlatlar boshliqlarining Kengashida ko‘rib chiqilishi lozim.

Maslahat uchrashuvi qatnashchilari O‘zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi to‘g‘risidagi bitimda **ishtirok** etish xususidagi o‘z pozitsiyasini shu yil 29-dekabrda umumxalq Prezident saylovi o‘tgandan so‘ng uzil-kesil aniqlashiga tushunish bilan qaraydilar.

Ushbu Bayonotga Minskda imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi to‘g‘risidagi bitimga uchrashuvda o‘zaro kelishilgan dastlabki tuzatishlar va takliflar ilova qilinadi.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti
Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti
Tojikiston Respublikasi Prezidenti
Turkmaniston Prezidenti
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

N.A.Nazarboyev
A.A.Akayev
R.N.Nabiyev
S.A.Niyozov
I.A.Karimov

Ashxobod shahri
1991-yil 13-dekabr

17 - i l o v a

MDH DAVLATLARINING 1991-YIL 21-DEKABRDA ALMATIDA BO‘LIB O‘TGAN KENGASHI DEKLARATSIYASIDAN

— Hamdo‘stlik qatnashchilarining o‘zaro aloqalari ular o‘rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar hamda bitimlarda belgilangan tadbirlar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi;

— MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas;

— xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida harbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo‘mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi;

— MDH ochiqdir, uning barcha a‘zolar roziligi bilan sobiq SSSRning a‘zolari va boshqa davlatlar ham unga qo‘shilishi mumkin;

— umumiy iqtisodiy makonni, umumiyevropa va Yevropa—Osiyo bozorlarini vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi;

— MDHning tuzilishi bilan SSSRning mavjudligi to‘xtatiladi;

— Hamdo‘stlik qatnashchilari o‘z Konstitutsiyalaridagi tartib qoidalarga binoan sobiq SSSRning shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarning bajari-lishiga kafolat beradilar;

— MDH qatnashchilari mazkur Deklaratsiya qoidalariga og‘ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining Qarori**ROSSIYA FEDERATSIYASI DAVLAT DUMASINING 1996-YIL
15-MARTDAGI QARORI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashi qaror qiladi:

Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining 1996-yil 15-martda qabul qilgan sobiq SSSRni qayta tiklashga qaratilgan qarori muhokamaga loyiq emas, deb hisoblansin.

O'zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan mustaqil, demokratik, huquqiy davlatni va fuqarolar jamiyatini barpo etish hamda mustahkamlashdan iborat o'z yo'lini, jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lini qat'iy tanlab oldi.

O'zbekiston Respublikasi MDH tashkil etilgani qonuniy yoki noqonuniyligi yuzasidan ham, shuningdek, Yevroosiy ittifoqi shaklidami, federatsiya yoki konfederatsiya shaklidami, yoki Belarusiya, Qozog'iston va Rossiya imzolamoqchi bo'lgan hujjat qanday tarzda bo'lishidan qat'iy nazar, sobiq Ittifoqni qayta tiklash masalasi bo'yicha munozarani hatto ochmoqchi ham emas. Davlatlar ustida turuvchi har qanday tuzilmalar tashkil etishni nazarda tutadigan integratsiya jarayoni O'zbekiston uchun maqbul bo'la olmaydi.

Oliy Majlis Kengashi yana bir bor ta'kidlaydiki, O'zbekiston tanlab olgan yo'l 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan referendumdagi xalqning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi asosida qabul qilingan yo'l bo'lib, bu referendumda saylovchilarning 98,2 foizi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?» degan matnni yoqlab, ovoz berdilar.

Ayni paytda shuni bayon qilamizki, 1991-yil 17-mart kuni sobiq SSSR hududida o'tkazilgan referendumda O'zbekiston Respublikasida xalq ikkinchi byulleten bo'yicha ham ovoz berdi. Bu byulletendagi matn Ittifoq referendumiga qo'yilgan masalaning mazmunini amalda yo'qqa chiqaradi. Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi esa 1996-yil 15-martdagi qarorini ayni ana shu referendum natijalariga asoslashga urinadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi SSSR rasman barbod bo'lishidan ancha oldin, 1991-yil 31-avgustda e'lon qilingan edi.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining Raisi**

E.Xalilov

Toshkent shahri
1996-yil 15-mart

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

1 - b o b. Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi

1-2-§§. Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi	5
3-§. Davlat suverenitetining e'lon qilinishi	15
4-§. Islom Karimov—mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti	22
5-§. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li	25

2 - b o b. Siyosiy islohotlar. Milliy davlatchilik poydevorining barpo etilishi

6-§. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi	31
7-§. Mahalliy davlat boshqaruv tizimidagi tub o'zgarishlar	43
8-§. Kadrlar siyosatida yangicha yo'l	49

3 - b o b. O'zbekiston tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi

9-10-§§. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston davlatchiligi taraqqiyoti	55
11-§. Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti	60
12-§. Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq ta'limi, fan va madaniyat	68

4 - b o b. Demokratik va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllantirilishi

13-§. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish yo'li. Sud islohotlari	73
14-§. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi	49
15-§. Demokratik saylov tizimining barpo etilishi	84
16-§. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining shakllanishi	86
17-§. Soxta demokratlarning ekstremistik faoliyati va ularning fosh bo'lishi	94
18-§. Ommaviy axborot vositalari rolining ortib borishi	99

5 - b o b. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi

19-§. Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash — davlat siyosatining bosh yo'nalishi ..	103
20-§. Millatlararo totuvlikni ta'minlash choralarinig amalga oshirilishi	110
21-§. Milliy xavfsizlik va mamlakat mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi ..	114

6 - b o b. Iqtisodiy islohotlar. Bozor munosabatlarining shakllanishi

22-§. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li	119
23-§. Iqtisodiy islohotlar strategiyasi va uning huquqiy asoslari yaratilishi	124
24-§. Davlat mulkini xususiyLashtirish. Mulkdorlar sinfi shakllantirilishi	128
25-§. Bozor infrastrukturasi shakllantirilishi	132
26-§. Iqtisodiyotning agrar sohasidagi o'zgarishlar	139
27-§. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish	144
28-§. O'zbekiston—zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakat	152

7 - b o b. O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy taraqqiyoti

29-§. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va milliy o'zlikni anglash	157
30-§. Milliy istiqloq va Amir Temur omili	165

31-§. Milliy istiqlol mafkurasi	169
32-§. Ta'lim taraqqiyoti	174
33-§. Madaniyat va sport sohalaridagi yutuqlar	181

8 - b o b. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi

34-§. Siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar	189
35-§. Tashqi siyosat asoslarining yaratilishi. O'zbekiston BMT a'zosi	194
36-§. Mustaqillik-yillaridagi xalqaro aloqalar	201
37-§. MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik	208
38-§. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qardoshlik aloqalari	214
39-§. Buyuk Ipak yo'li — taraqqiyot yo'li	222
40-41-§§. Mintaqaviy mojarolar va xalqaro terrorizm	228
42-§. XXI asr — yangi sivilizatsiya davri	242

Ilovalar	249
---------------------------	------------

NARZULLA JO‘RAYEV

O‘ZBEKISTON TARIXI

Milliy istiqlol davri

*Umumta’lim maktablarining
11-sinf o‘quvchilari uchun darslik*

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent—2004

Abduvohid To‘rayev va Abdug‘ani Jumayev fotosuratlaridan foydalanildi

Muharrir *Akbar Bahromov*
Badiiy muharrir *Mixail Samoylov*
Texnik muharrir *Diana Gabdraxmanova*
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*
Musahhihlar: *Yulduz Bizaatova, Jamila Toirova*

Bosishga ruxsat berildi 28.05.04. Bichimi 70x90^{1/16}. Tayms, Pragmatika garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 19,89 b.t. Nashriyot-hisob tabog'i 19,2 b.t. Buyurtma № 298. Adadi 15000. Bahosi 1750 so'm.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi, 700083,
Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.**

Bahosi 1750 so‘m.



Mustaqillik davri tarixi – chuqur iztiroblar, kutilmagan ziddiyatlar va abadiyat bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar tarixi. Ayni paytda u Milliy Uyg‘onish davri sivatida yangi o‘zbek Renessansining debochasidir. Zotan, har qanday Renessans, har qanday Sivilizatsiya yalpi Milliy Uyg‘onishdan boshlanadi.

